

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA**  
**INSTITUTI**

**Abduqayum Abdullayev**

**JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI**  
**(OLIMPIYA TA‘LIMI ASOSLARI)**

*(o‘quv qo‘llanma)*

**Toshkent – 2019 yil**

## **Kirish**

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uning sifat va samaradorligini oshirishda jismoniy tarbiya va sport sohasi ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qolaversa, sportning jismoniy va ma'naviy yetuklik omili ekanligi, uning umumbashariy xususiyatlari yurtimiz yoshlari uchun jahon bilan bo'ylashishda cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Ilk islohotlar davridanoq mamlakatimizning Birinchi Prezidenti, ulug' yo'l boshchimiz Islom Karimov tomonidan bolalar sportiga muhim e'tibor qaratilganligi bugungi kunda o'zining mislsiz natijalarini bermoqda. Darhaqiqat Birinchi Prezidentimiz: "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart",-deganlarida aynan mana shunday kunlarni nazarda tutgan edilar, desak aslo yanglishmaymiz.

Hozirda yurtimizda olib borilayotgan jismoniy tarbiya va sport ishlari yoshlarimizni, chinakam ma'noda, umuminsoniy fazilatlar egasi sifatida kamol toptirishga xizmat qilmoqda. Chunki sporto'yinlari yoshlarda, avvalo, o'zaro jamoaviylik, ahillik, bag'rikengik xislatlarini tarbiyalaydi. Olimpiada harakatini ham ana shunday o'yinlar qatoriga kiritish mumkin. Negaki, Olimpiya ta'limi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, umuminsoniylik, demokratiya, odob-axloq qadriyatlariga tayangan holda falsafiy, ijtimoiy, pedagogik, tashkiliy g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Buni bir so'z bilan "Olimpizm" g'oyasi sifatida e'tirof etish mumkin. Uning asosini esa Olimpiya o'yinlari tarixi haqidagi bilimlar tizimini shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi, sportning ijtimoiy – madaniy imkoniyatlari va uning sog'lom turmush tarzidagi ahamiyatini ifodalovchi Olimpiada harakati tashkil etadi.

Olimpiya ta'limi o'quv-tarbiyaviy jarayon bilan uzviy bog'langan holda:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bilimlar darajasini oshirish, o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda olimpiya madaniyatining ahamiyatini tushuntirish;
- sog'lom turmush tarzining ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- umumiy madaniyat va bilimdonlikni rivojlantirish;

-shaxsni har tomonlama rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni samarali hal etishga ko'maklashadi.

O'quv fanining maqsadi esa o'quvchilarning ongiga olimpiada harakatining uminsoniy qadriyatlarga asoslangan zamonaviy jamiyat, inson hayoti va salomatligi, shaxs barkamol rivojlanishining namunasi ekanligini chuqur singdirishni nazarda tutadi va

-o'quvchilarni olimpizmning umuminsoniy va gumanistik qadriyatlari ruhida tarbiyalash;

- O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning milliy an'analari, olimpiya harakati haqida bilimlarni shakllantirish;

- olimpiya tarixini, xalqaro olimpiya harakatini o'rganishga bo'lgan qiziqish va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

-sport mashg'ulotlari bilan tizimli shug'ullanishga motivasiya, ehtiyojni shakllantirish va takomillashtirish;

- shaxsiy o'z-o'zini tarbiyalash va kamolga yetkazishni faollashtirish, o'zining axloqiy va jismoniy sog'lig'iga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash;

- aholi o'rtasida olimpiya sportini, olimpizm g'oyalarini keng targ'ibot qilish usullari va vositalarini o'rgatish kabi vazifalarni bajaradi.

Sir emaski, O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro olimpiya o'yinlarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Yurtimizda 1993 yildan O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi faoliyat yuritib, u o'z faoliyatida respublika aholisini jismoniy vama'naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya vasport, ayniqsa, milliy sport turlari, nogironlar o'rtasida sportni rivojlantirishga hartaraflama ko'maklashish; mamlakat terma jamoalari vasport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya vasport tashkilotlariga ko'mak berish; yoshlarniboshqamamlakatlar sportchilari bilan do'stlik vabirodarlik aloqalarini mustahkamlash, musobaqalarda halol sport kurashi olib borish, raqibiga olijanoblik bilan munosabatda bo'lish tamoyillari asosida tarbiyalash; sport kadrlari o'rtasida tajriba ayriboshlash, ularning malakalarini oshirish kabi va yana bir qator tadbirlarni izchillik bilan tashkil etib kelmoqda.

Buning natijasida respublikamiz sportchi yoshlari xalqaro olimpiya o'yinlarida ham yuqori natijalarga erishib, yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratmoqdalar. Shunday ekan, olimpizm g'oyasining ulug' insoniy qarashlarini nafaqat sportchi yoshlar, balki akademik lisey, kasb-hunar kollejlari tahsil oluvchilarining ongi va qalbiga ham chuqur singdirish, ularga olimpiya ta'limi asoslari fanini puxta o'qitish kelajakda yurtimiz yoshlarining ezgu umuminsoniy g'oyalar ruhida ham ma'nadan, ham jismonan barkamol insonlar bo'lib ulg'ayishida o'ziga xos omillardan bo'ladi.

O'zbekistonning sport sohasidagi islohotlari va bu boradagi tajribasi jahonda e'tirof etilib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga hamda Xalqaro olimpiya harakatiga qo'shgan ulkan hissasi uchun 1996 yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining oliy mukofoti – Olimpiya Oltin ordeni bilan taqdirlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 1996 yilda Toshkent shahrida «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi tashkil etilib, uning ochilish marosimida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etdi. Samaranch Xalqaro Olimpiya qo'mitasiga rahbarlik qilgan paytda Toshkentga uch marotaba tashrif buyurgan. U dastlab Lillixammerdagi Olimpiya o'yinlaridan so'ng keyinchalik poytaxtimizda I Markaziy Osiyo o'yinlari o'tkazilishi munosabati bilan va nihoyat, «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyining tantanali ochilish marosimida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan.

Aytish kerakki, aynan London Olimpiadasidagi natijalar yurtimizda butun sport jamoatchiligi, olimpiya harakati ishtirokchilarini yangi g'alabalar sari chorladi. Chunki o'sha musobaqada delegasiyamiz aslo o'ziga munosib bo'lmagan o'rinni egallagandi. Bo'lajak Olimpiya o'yinlariga munosib tayyorgarlik ko'rish yo'lida eng avvalo mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston sportchilarini 2016 yil Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da o'tkaziladigan XXXI yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o'yinlariga munosib tayyorlash to'g'risida"gi qarori yurtimiz

sportchilari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish borasidagi oqilona tadbirlardan biri bo'ldi.

2013 yil 25 fevralda e'lon qilingan mazkur qaror yakunda juda katta ahamiyat kasb etdi va "Rio-2016" Olimpiadasining o'zbek sporti tarixiga oltin harflar bilan bitilishiga asosiy turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Braziliyadagi XXXI yozgi Olimpiya hamda XV Paralimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar qayd etgan natijalar butun dunyoni hayratga soldi.

Olimpiya o'yinlarida birinchi marta yurtimiz vakillari bir yo'la to'rtta oltin medalga sazovor bo'lishdi. Ilk bor O'zbekiston terma jamoasi tomonidan jami 13 ta medal qo'lga kiritildi. Birinchi marta og'ir atletikachimiz Ruslan Nurudinov Olimpiya o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritish bilan birgalikda o'zbek sportchilari orasida ilk marotaba Olimpiya o'yinlarining rekordini yangiladi.

Shuningdek, birinchi marta boks bo'yicha terma jamoamiz umumjamoahisobida birinchi o'rinni egalladi. Bokschilarimizdan Hasanboy Do'smatov, Shahobiddin Zoirov va Fazliddin G'oyibnazarov va aytib o'tganimizdek, og'ir atletikachimiz Ruslan Nurudinov Olimpiya o'yinlari chempionligini tantana qilishdi. Yana ikki nafar bokschimiz Shahram G'iyosov va Bektemir Meliqo'ziyev delegasiyamiz hisobiga kumush medallarini qo'shib qo'yishdi. Charm qo'lqop ustalaridan Rustam To'laganov va Murodjon Ahmadaliyev, shuningdek, dzyudochilarimiz Diyorbek O'rozboyev va Rishod Sobirov, sport kurashlari vakillari Ixtiyor Navro'zov, Magomed Ibragimov va Elmurat Tasmuradovlar bronza medallari bilan taqdirlanishdi. O'zbekiston delegasiyasi

207 davlat orasida 21-o'rinni egalladi.

Bu kabi yuksak natijalar, albatta, olimpizm harakatining nechog'lik ulug'vor maqsadlarga xizmat qilishini amalda yaqqol namoyon etadi. Shu bois o'quvchilarga olimpizm g'oyalarini o'qitish kelajakda ularni umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlar sari undaydi. Komil

insonlar etib tarbiyalashda yetakchi omillardan bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun Olimpizm g'oyalarini o'qitishda yaxlit bir o'quv-metodik adabiyotga ehtiyoj seziladi. Shu vaqtga qadar Olimpiya ta'limi asoslariga oid ma'lumotlar turli manbalarda qayd etilgan bo'lib, mazkur bilimlar yaxlit o'quv qo'llanma holiga keltirilmagan. Mavjudlari o'zida yangi ma'lumotlarni aks ettirmagan. Ayni talab hamda ehtiyojlardan kelib chiqqan holda yaratilgan ushbu qo'llanma o'quv standartlari va dasturlari asosida tayyorlangan bo'lib, unda qadimgi va zamonaviy Olimpiya o'yinlarining tarixi, rivojlanish bosqichlari, Olimpiya harakatining rivojlanishiga hissa qo'shgan tarixiy shaxslar, Olimpiya o'yinlari, ularning o'tkazilish xususiyatlari, mustaqil O'zbekistonimizning Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki, muvaffaqiyatlari, respublikamiz Milliy Olimpiya qo'mitasining xalqaro Olimpiya harakatidagi munosib o'rni va h.k. kabi mavzularda nazariy ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, mazkur mavzularni tashkil qilish yuzasidan yangi pedagogik texnologiyalarga oid o'qitish metodlaridan namunalar keltirilgan. Shunga ko'ra, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport murabbiylari tomonidan ayni mashg'ulotlar noan'anaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil qilinsa, kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Qolaversa, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan va amalga tadbiiq etilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi - ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz yoshlarida jismoniy tarbiya va sport madaniyatini yuksaltirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. Manba: "uza.uz" veb-sayti.

## I BOB. QADIMGI OLIMPIYA O‘YINLARI

### 1.1. Olimpiya o‘yinlarining vujudga kelishi

Qadimgi olimpiya o‘yinlari o‘zidagi ezgulik g‘oyasining ustuvorligi, dunyo xalqlarini oliy maqsad atrofida jipslashtirishi, ellar va elatlarni o‘zaro do‘stlik, tinchlik va hamkorlik, bag‘rikenglik hamda sport madaniyatini yuksaltirishga chorlashdek yuksak umuminsoniy tamoyillari bilan o‘lmas va abadiy mazmun kasbetgan edi.

Tadqiqotlarda keltirilganidek, olimpiada o‘yinlari eramizdan oldingi 776 yildan boshlab tashkil etib kelinadi va bugungacha 293 ta olimp o‘yinlari o‘tkazilgan. Qadim Yunonistonning kichik Olimp shahrida odamlarning kuchlilik va chaqqonligini aniqlab beruvchi jismoniy bahslarning o‘tkazilishiga oid ko‘plab afsonalar mavjud.

Yunonistonlik tarixchi Timey Olimp o‘yinlari tarixini yozgan bo‘lib, an‘analarga ko‘ra, Olimp bayrami yozgi quyosh tiklanishidan keyin boshlanadigan birinchi oyto‘ldi "muqaddas oy"da o‘tkazilgan. Bu o‘yinlar yunon Olimp yili hisoblangan har 1417 kundan keyin takrorlangan. Ana shu oy davomida butun Yunoniston hududida "Muqaddas tinchlik oyi" e‘lon qilinib, urushlar to‘xtatilgan, hatto kecha raqib bo‘lganlar "eng kuchli", "chaqqon", "tezkor" deb atalish huquqini olish uchun o‘zaro kuch sinashganlar. O‘z navbatida, bu o‘yinlar yunon davlatlarining harbiy qudrati ko‘rigi ham edi. Bu o‘yinlar yunonlarning oliy xudosi Zevs sharafiga o‘tkazilgan bo‘lib, ularda qatnashish pahlavonlarning asosiy maqsadi bo‘lgan. Ko‘p yuz yilliklar davomida olimpiya o‘yinlari Yunonistonda har to‘rt yilda o‘tkazib turilgan. Dastlab o‘yinlar yugurish va sakrash musobaqalaridan iborat bo‘lgan. Keyinchalik kurash, musht jangi, disk uloqtirish, qilichbozlik, ikki g‘ildirakli ot arava poygasi kabi musobaqalar qo‘shilgan.

Zamonaviy olimpiya o‘yinlarining olimpiya mash‘ali Qadimgi Yunoniston yerlarida quyosh nurlaridan yondiriladi. Olimpiya olovi yoqilgani olimpiya o‘yinlari boshlanganini anglatadi. Olov musobaqalarning oxirgi kunigacha yonib turadi, o‘yinning tantanali yopilishigacha uni o‘chirmay turadilar.

Qadimda Olimpiya o'yinlari vaqtida urushlar to'xtatilar edi. Yunoniston yerlarining barcha burchaklaridan odamlar quruqlik va suvda olimpiya o'yinlariga oshiqqanlar. Zamonaviy olimpiada o'yinlari dunyoning turli katta shaharlarida o'tkaziladi. Ularda nafaqat erkaklar, balki ayollar ham qatnashadilar. Hozirgi musobaqalar sportning tamoman yangi turlarini o'z ichiga olgan. Futbol, basketbol, baydarkada suzish va boshqalar shular jumlasidandir. G'olib sharafiga uning vatani madhiyasi yangraganda va davlat bayrog'i ko'tarilganda millionlab odamlar, ayniqsa, sportchining hamyurtlari u bilan g'alabadan g'ururlanish hissini baham ko'radilar. Olimpiya o'yinlarida millati, tili va irqidan qat'iy nazar, butun dunyo sportchilari qatnashadilar. Olimpiya bayrog'ini yashil, qizil, sariq, qora, ko'k rangli beshta halqalar bezaydi. Ular yer sharidagi besh qitaning ramzi hisoblanadi.

Olimpiada mukofotlari g'oliblar mohirligining eng yuqori bahosi, ularga hurmat, izzat-ikrom ramzi bo'lib kelmoqda. Qadimda g'olib sportchilar sharafiga bronza va marmardan yodgorliklar qurilgan. Hozirgi davrda olimpiada oltin medali sohiblari o'z davlatidan faxriy mukofotlar oladilar. Eduard Gavayler shunday deydi: "Qadimgi yunon o'yinlari miloddan avvalgi 776 yildan eramizning 394 yilgacha Olimpiyada 300 marta yaqin o'tkazilgan. Dastlabki zamonaviy Olimpiya o'yinlari 1896 yilda Afinada marmardan ishlangan Panafiney stadionida (shuningdek, Panatinaikos, Panathinaiko Stadio) o'tkazilgan. Qadimgi davrlardagi arenadan XIX asrga kelib, deyarli hech narsa saqlanib qolmadi, ammo bu ulkan rekonstruksiyaning moliyalashtirgan inson topilgan....". Demak, XIX asr oxirlariga kelib, Olimpiya o'yinlarini o'tkazish maqsadida sport va jamiyat arbobi baron Pyer de Kuberten Xalqaro Olimpiya qo'mitasining birinchi kongressini to'pladi. Kongressda yozgi o'yinlarni 1896 yilda Gresiyada o'tkazishga qaror qilindi. O'sha paytda hali Olimpiya olovi, (Olimpiya olovi 1936 yil Berlin o'yinlarida joriy qilingan), Olimpiya qasamyodi mavjud bo'lmagan, ammo stadion bor edi.

Xorijiy adabiyotlarda ham olimpiya o'yinlari tarixiga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tarjimon Peter Bingning qayd etishicha, ibtidoiy davrda atrofi tog'lar bilan o'ralgan Lyakon tog'larida Zevs sharafiga bag'ishlab insonlarni qurbon qilishdek dahshatli udum haqidagi afsonalar ham bo'lgan.



## **1.2. Timey sanasi. Ekexeyriya va klokagatiya tamoyillari**

Olimpiya o'yinlari o'zida adolatparvarlik, xalqparvarlik hamda haqqoniylik tamoyillarini aks ettirishi bilan yanada qimmatlidir. Olimpiya shahrida maxsus hay'at har to'rt yilda bir marta olimpiya o'yinlari ochiladigan sanani belgilab berardi. Bu, an'anaga binoan, yozda quyosh eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilib, osmonda to'lin oy paydo bo'ladigan birinchi kun bo'lardi.

“Olimpiada” atamasi ikki olimpiada o'yinlari oralig'idagi to'rt yil ma'nosini anglatadi. Yunonlar uchun bu taqvimni yuqorida nomi qayd etilgan tarixchi Timey miloddan avvalgi 264 yilda kiritgan. O'shandan beri yunon yilnomalari shu taqvim asosida bitila boshlangan. Masalan: “Foreyaliklar Delfinni kirenalik Pror yugurishda g'olib chiqqan 105-Olimpiadaning to'rtinchi yili bosib olishdi”, “Fokeya urushi fivalik Polikl yugurishda g'olib chiqqan 108-Olimpiadaning birinchi yili tugadi” kabi...

Eng ibratlisi shuki, tarixchilar e'tirofiga ko'ra, antik davrga doir u yoki bu tarixiy voqealar sanasini aniqlashda Olimpiada taqvimlaridan boshqa aniq manbani topish qiyin. Zero, yunonlar hayotidagi eng muhim voqea bo'lgan Olimpiada o'yinlarida g'olib chiqqanlar ro'yxatlarini tuzishda chalkashliklarga yo'l qo'yilishi mumkinligini tasavvur qilib bo'lmasdi...

Olimpiada sanasi belgilanishi bilanoq maxsus jarchilar Ellada uzra ekexeriya – muqaddas sulh kuchga kirganini hammaga ma'lum qilib chiqqanlar. Muqaddas sulh davrida, ya'ni ellinlar taqvimi bo'yicha ikki – apolloniy va perfiniy oylarida Yunonistonda har qanday jangovar harakatlar to'xtatilgan. Bu qat'iy qonunni buzganlar boshlariga ma'budlar tomonidan kulfat yog'dirilishi va ular la'natlanishi haqidagi har bir yunonga ma'lum bo'lgan aqida dahshati eng urushqoq elatlarni ham tizginlab turgan. Ayni paytda biror kimsaning bu davrda Olimpiya shahriga qurol-yarog' bilan qadam bosishi taqiqlangan. Polislarni hukmronlari olimpiya o'yinlari paytida birgina musobaqa ishtirokchilari va ular murabbiylariniginaemas, shuningdek, barcha tomoshabinlarning ham xavfsizligini kafolatlaganlar.

Sulh shu qadar muqaddas hisoblanganki, ko'hna olimpiya o'yinlari o'tkazilgan bir necha yuzlab yillar davomida unga atigi ikki marta rioya etilmagan

hol bo'lgan. Bir safar Filip Makedonskiy lashkari askarlari olimpiya o'yinlariga ketayotganlarni yo'lda tunaganlar. O'z qilmishlari uchun bosqinchilar nafaqat ularning pul va mollarini qaytarib berishga majbur qilinganlar, balki musobaqa tashkilotchilariga juda katta miqdorda jarima ham to'laganlar. Hatto Makedonskiyning o'zi lashkarlari muqaddas sulhni buzganliklari uchun olimpiya o'yinlari tashkilotchilaridan rasmiy kechirim ham so'rashga majbur bo'lgan.

Ikkinchi bor miloddan avvalgi 420 yilda spartaliklar muqaddas sulh amal qilib turgan vaqtda Lepreya shahrini qamal qilganliklari uchun bule – Olimpiya Kengashi tomonidan O'yinlar ishtirokchilari ro'yxatidan chiqarilgan.

Shuning uchun olimpiya o'yinlari millatni birlashtiradigan va o'zaro totuvlikka xizmat qiladigan eng mo'tabar umumiyunon shodiyonasi hisoblangan. Shahar – davlatlar o'z kuchi, qudrati, salohiyatini janglarda emas, balki sport bellashuvlari, san'at va adabiyot tanlovlarida namoyish etishlari kerak bo'lgan.

Bundan biz shunday buyuk g'oyani anglaymizki, insonlar, davlatlar o'z kuch-qudratlarini urushlarga, bosqinchiliklarga emas, balki ezgulikka, elu elatlarni birlashtirishga, yer yuzida tinchlik va farovonlikni ta'minlashga yo'naltirmoqlari lozim.

### **1.3. Qadimgi Olimpiyaning sport anjomlariva musobaqa turlari**

Qadimgi Olimpiya o'yinlarining sport anjomlari, bahslar o'tkaziladigan joylar, maydonlar, vositalar, albatta, o'ziga xos bo'lgan. Sport turlari esa mazkur ashyolarga muvofiq ravishda tashkil etilgan. Atletlar va ular murabbiylari Olimpiya shahriga Olimpiada ochilishidan bir oy avval – saralash musobaqalarida qatnashish hamda O'yinlarga tayyorgarlik mashqlari o'tkazish uchun yetib kelishgan. Ularning bellashuvlarga tayyorlanishlari uchun o'sha vaqtda Yunonistonda keng rusum bo'lgan, 12-16 yoshli o'smirlarga mo'ljallangan xususiy gimnastika maktablari binolari – palestra (yunoncha “palistra” – “kurashmoqdaman” so'zidan)lar ajratib berilgan. Rim tarixchisi Vitruviyning guvohlik berishicha, palestrada olimpiya o'yinlari dasturlaridan o'rin olgan gimnastika, kurash, yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish bilan bir qatorda suzish, eshkak eshish, suvga sakrash mashg'ulotlari ham olib borilgan. Ellada

dengiz qirg'og'ida joylashganligi nazarda tutilsa, suv sporti turlarining navqiron yunonlar hayotida nechog'lik muhim o'rin tutganligini anglash qiyin emas.

Yugurish musobaqalari stadionlarda, poygalar otchoparlarda, kurash va musht jangi gimnasion – yopiq sport zallarida o'tkazilgan.

Olimpiya o'yinlari dastavval bir kun, keyin esa uch kun, miloddan avvalgi V asrdan boshlab besh kun davom etgan. Musobaqalarda ot qo'shilgan aravalarda poyga, ot poygasi va pentatlon (yunoncha "pent" – "besh" hamda "atlon" – "kurash" so'zlaridan) – beshkurash, shuningdek, yugurish, musht jangi, pankration (yunoncha "pankration" – "umumkurash" so'zidan) bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

Qadimiy XIV Olimpiadagacha yugurish musobaqalarning yagona turi edi. O'sha davrlarda bir bosqichga yugurish o'tkazilardi. Bu musobaqa stadiodrom (yunoncha "stadion" – o'lchov birligi va "dromos" – yugurish so'zidan) deb atalardi. YA'ni, atletlar yugurishda musobaqalashadigan bosqich yunoncha "stadion" o'lchov birligidan kelib chiqqan bo'lib, u 600 ta oyoq kifti uzunligiga to'g'ri kelgan. Yunon-rim stadiodromi (bosqichi) – 176,6 metrni, Olimpiya bosqichi esa 192,27 metrni tashkil etgan.

Hozirgi kunda sport va madaniyatning abadiy timsoli hisoblangan Panafiney stadioni miloddan avvalgi 329 yilda davlat boshqaruvchisi Afin Likurg tomonidan qurilgan. U o'zining ajralib turuvchi xususiyatiga 500 yil o'tgach erishdi. Rim davrida arena butunlay Pentelikon tog'laridan keltirilgan marmarlar bilan qoplandi. Akropolni qurishda ham aynan shu marmardan foydalanilgan. Pentelikon marmari o'zining tekis oq rangi va sut rangidagi jilosi bilan ajralib turadi. Birinchi qatordagi bir necha joylar boshqalaridan ajralib turishini kuzatishmumkin. Bu ikkita marmar taxtda shohlar o'tirishgan. Stadionning aylana qismi "sfendon" deb ataladi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, stadion 50 ming nafar tomoshabinga mo'ljallangan ekan.

Miloddan avvalgi VII Olimpiadadan boshlab O'yinlar musobaqalari dasturiga diaulos – ikki bosqichga, navbatdagi XV Olimpiadada esa dolixodrom

(yunoncha “dolixos” – “uzun”, “uzoq” va “dromos” – “yugurish” soʻzlaridan) – 7 tadan 24 tagacha bosqichga yugurish kiritilgan.

IV asrdan boshlab koʻhna Yunoniston polislarida oʻspirinlarni harbiy xizmatga tayyorlashda goplitodrom – qurol-aslaha bilan yugurish musobaqalaridan ham foydalanishadi.

Marafon qishlogʻi yaqinida, asosan, yunon goplitlari hisobiga forslar ustidan qozonilgan tarixiy gʻalaba haqidagi xushxabarni poytaxt Afinaga yetkazish jangchi Fidippidga topshiriladi. U qirq chaqirimdan ham ortiq masofani toʻxtamasdan yugurgan holda oʻtadi va poytaxtga yetib kelib, soʻnggi nafasi bilan “Biz gʻalaba qozondik!”-deya jon taslim qiladi.

Fidippid yugurib oʻtgan masofa 42 kilometru 195 metrni tashkil etgan edi. Fransiyalik tilshunos M.Breali tashabbusi bilan yunon jangchisining bu jasorati sharafiga 1896 yilgi zamonaviy I olimpiya oʻyinlari musobaqalari dasturiga *marafon* yugurishi kiritilgan.

Miloddan avvalgi 688 yildan olimpiya oʻyinlari dasturiga musht jangi kiritildi. Bu musobaqa ishtirokchilarining boshi bronzadan yasalgan qalpoqlar bilan himoya qilinardi, mushtlari esa charm qayishlar bilan oʻralgan boʻlardi. Miloddan avvalgi V asrdan boshlab bu yumshoq qayishlar zarb berilganda raqibga jarohat yetkaziladigan darajada qattiq charmdan toʻqilgan qoʻlqoplar bilan almashtirildi.

Miloddan avvalgi 680 yildagi Olimpiada dasturiga toʻrt ot qoʻshilgan aravalar poygasi ham kiritildi. Bu bellashuvlarning eng qiziqarli, ayni vaqtda eng xavfli turi hisoblanardi. Shuni aytish kifoyaki, miloddan avvalgi 460 yilgi Olimpiada musobaqalarida qatnashgan 40 poygachidan faqat bittasigina marraga sogʻ-omon yetib kelgan.

Miloddan avvalgi 648 yilda atletlar Olimpiadada pankration – umumkurashda ham bellasha boshladilar. U yakka kurashning barcha turlari – musht jangi, tik turib kurash va gilamda kurashni birlashtirgan edi.

XXXVII Olimpiada (miloddan avvalgi 632 yil)dan boshlab 20 yoshgacha boʻlgan oʻsmirlarning ham bu musobaqalarda ishtirok etishlariga ruxsat berildi.

Ular avvaliga faqat yugurish va kurash, keyinchalik beshkurash, musht jangi va pankrationda ham bellasha boshladilar.

Qadimgi gladiatorlar arenaga chiqqan g'or esa o'zida ilohiy sirlarni yashirgan. Afinalik qizlar bu yerda tunda to'planib, g'or markazida gulxan yoqishgan. Non, asal va bodom bilan udumni amalga oshirishgan. Ular bu odatni qanchalik yaxshi amalga oshirishsa, kelajakda yaxshi turmush o'rtoq topishlariga ishonishgan. Hozirda g'or qa'rida xonalar mavjud. Bu yerda Olimpiya o'yinlari barcha olovlarining asl nusxalari saqlanadi.

Olimp o'yinlari har to'rt yilda bir marta beshinchi yilga o'tar chog'ida boshlangan. Olimp o'yinlarining g'oliblari oddiygina mukofot-muqaddas zaytun daraxti barglaridan to'qilgan gulchambar olganlar. G'olib hech qanday qimmatli buyumlar olmagan. Ammo bu zaytun gulchambari oliy faxrli mukofot sanalgan. G'alaba qozongan kishi g'oyat darajada izzat-ikrom qilingan. Faqat o'zi emas, oilasi ham, tug'ilgan shahri ham juda hurmat qilingan. G'olib sharafiga qo'shiqlar aytilgan, haykaltaroshlar g'oliblarning haykallarini yasaganlar. Olimpiya o'yinlari Geraklning eng shavkatli g'alabalaridan biriga bag'ishlangan. Gerakl o'z oyoqlari kafti bilan yugurish masofasini belgilagan va u olti yuzta oyoq kaftiga (192 m 27 sm) to'g'ri kelgan. Qadimgi Yunonistonda bu o'lchov stadiy deb atalgan, undan esa «stadion» so'zi kelib chiqqan. Ko'p yillar davomida yugurish bo'yicha g'olib aynan shu masofada aniqlanar edi.

Qadimgi yunonlarda Olimpiya o'yinlari qahramonlari nomlarini Alfey daryosi yaqinida o'rnatilgan marmar ustunga o'yib yozish ananaga aylangan. Birinchi olimpiya o'yinlarining o'tkazilgan sanasi (mil.av.776 y.) va elidalik oshpaz Koroibos to'g'risida insoniyat ana shu marmar ustundagi yozuvdan malumot olgan.

#### **1.4. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining inqirozi va tanazzuli**

Qadimgi Olimpiya o'yinlari tashkil etilgan davrdan boshlab yuqori saviyada tashkil qilingan. Ammo shiddat bilan o'tib borgan davr, tarixiy shart-sharoit,

urushlar ushbu o'yinlarning uzluksiz o'tishiga to'sqinlik qildi. Ammo uni manguga yo'q qilib yubora olmadi. Bundan biz "Ezgulik hamisha g'olib!"-deya aytilgn xalq maqolining nechog'lik haqiqat ekanligini anglaymiz.

Manbalarda keltirilishicha, Olimpiya o'yinlari uzluksiz 1160 yil davom etgan. Ellada aholisi o'zining Olimpiya o'yinlarida 290 marta yig'ilgan. Eng oxirgi o'yin Yangi eraning 393 yiliga to'g'ri keladi. Bir yildan keyin esa Rim Imperatori Feodosey-I xristianlikning keng yoyilishi tufayli Olimpiya o'yinlarini o'tkazishni taqiqlab qo'ygan.

Aytish joizki, faqat bir yilgina Olimpiya o'yingohlari sukutda qoldi. 395 yilda Alfey daryosi bo'yida vizantiyaliklar va gotlar o'rtasidagi keskin janglar natijasida Olimpiya xarobaga aylandi. Stadiondagi marmarlardan esa Afina cherkovi va uylarini qurishda foydalanilgan. Arena hududi ma'lum davr mobaynida qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun ham ishlatilgan.

426 yilda (31 yildan so'ng) Feodisiy II xudolarga sig'inadigan ibodatxonalarni yoqib yuborishni buyuradi. 100 yildan so'ng esa ikki marta sodir bo'lgan zilzila tufayli Olimpiya vayron bo'ladi. So'ng Alfey va Kladey daryolari suvlari toshib, qolgan inshootlarni ham yuvib ketadi va Olimpiya qum hamda botqoqlik qa'rida qoladi.

### **1.5. Qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda jismoniy tarbiya va sport rivojining tarixiy sharoitlari hamda xususiyatlari**

Tarix sahifalaridan ma'lumki, Olimpiya o'yinlarining rivojlanishida sport turlari vaxalq o'yinlari asosiy ahamiyat kasb etgan. Buni biz ikki o'ziga xos omil tarzida ko'rishimiz mumkin. Olimpiya o'yinlari, o'z navbatida, sport turlarining rivojlanishiga xizmat qilgan bo'lsa, xalqlarning o'z milliy sportini Olimpiada o'yinlari tarkibiga kiritishdagi say-harakatlari sport turlarining tobora takomillashib, jahonshumul ahamiyat kasb etishini ta'minlagan.

Shundan kelib chiqib, biz qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda jismoniy tarbiya va sport rivojiningo'ziga xos tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitlari, xususiyatlarini farqlaymiz.

Adabiyotlarda keltirilishicha, xususiy mulkdorlikning rivojlanishi, ishlab chiqarishning taraqqiy etishi va ilk davlatlarning paydo bo'lishini tarixchilar eramizdan avvalgi IV-III asrlarda boshlagan deb ko'rsatadilar. Bu davlatlarda yirik davlatlar asosan qadimgi Sharqda, Gresiya va Rimda bunyod etildi. Qadimgi Sharq hududidagi Hindiston, Xitoy, Misr, Eron, Bobil, Assiriya kabi davlatlardagi jismoniy tarbiya vositalarining xilma-xilligi haqida haykallar, qurilish yodgorliklaridagi devoriy suratlar, turli madaniyat ashyolari, qo'lyozmalar guvohlik beradi.

Jismoniy madaniyatning ilk izlari, namunalari, O'rta yer dengizi atrofida avvilgi IV asrlarda vujudga kelgan davlatlarda ko'proq uchraydi. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakllari harbiy faoliyatlarda o'z ifodasini topgan. Bunda, asosan, bel ushlab kurashish, mushtlashish, g'ildirakli aravalarda poyga qilish san'ati va merganlik kabi faoliyatlar muhim o'rinni egallaydi.

Tarixchilar, tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, greklar Olimpiya bayramlarini o'z xudosi Zevsga bag'ishlab o'tkazgan bo'lsalar, parfiyenlar, siflar, eronlar, rimliklar, arablar o'z o'yin va an'analarini messopotamiyaliklardan o'rganganlar. Hindlar va Eronlar hayotida ham turli tuman jismoniy mashqlar va o'yinlar vujudga kelgan. Ular tarkibida otda yurish va ov qilish, qilichbozlik, aravachalarda poyga, kamondan o'q otish, to'plar va tayoqlar bilan o'ynash keng rivojlangan. Qadimgi Eronda maxsus tashkil qilingan maktablarda zodagon yoshlarni tarbiyalash tizimi mavjud bo'lgan. Bunda yuqorida tilga olingan mashqlarni o'rganish dasturi asosida olib borilgan.

Qadimgi Misr harbiy aslzodalarni harbiy-jismoniy jihatdan maxsus tayyorlash uchun kurash, qilichbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish kabi mashqlardan foydalanishgan. Buni eramizdan avvalgi XVIII-XII asrlarda fir'avnlardan qabristonidan topilgan yodgorliklarda aks ettirilgan 400 dan ortiq jismoniy mashqlar va o'yinlar tasvirlari asoslab beradi.

Misr davlatida dinlarning ko'pligi tufayli ularning xudolariga hamda urf-odatlariga bag'ishlagan ko'pgina bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalari o'yinlar va raqslar bilan birga qo'shib olib borilgan. Keyinchalik ulardan ko'proq ideologik

maqsadda foydalanilgan. Hukmron doiralar xalq o‘yinlari va jismoniy mashqlardan o‘z kamoloti va manfaatlari yo‘lida foydalana boshlagan.

Qadimgi Sharq davlatlarida quldorlik tizimi davrida ozod dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdo-tijorat xodimlari orasida rasm bo‘lgan xalq jismoniy tarbiyasi shakllari va xalq mashqlarining turlari quldorlik tomonidan o‘z obro‘yi hamda hukmdorligini kuchaytirish maqsadida o‘zlashtirilgan va ulardan keng foydalanilgan.

Qadimgi Yunon davlatining tarkib topishi va rivojlanishi eradan avvalgi III-II ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Yunoniston tarixining “Gomer davri” deb eradan avvalgi XII-IX asrlar tilga olinadi. Gomerning “Iliada” va “Odisseya” poyemalarida o‘sha davrdagi yunon hayotining manzaralari aks ettiriladi. Qahramonlar sifatida zodagon jangchilari timsoli chizilib, ularni oddiy xalqdan ajratuvchi jismoniy sifatlari va fazilatlarini talqin etiladi. Gomer poyemalarining qahramonlari halok bo‘lgan qahramonlar yoki qabila hayotidagi biror muhim voqea sharafiga bag‘ishlab tashkil etiladigan musobaqalar va o‘yinlarda o‘zlarining jismoniy fazilatlarini namoyish etganlar. Bunda yugurish, lappak uloqtirish, sakrash, kurash, mushtlashish kabi mashqlar orqali musobaqalashganlar. “Odisseya” poyemasida “atlet” so‘zi o‘sha vaqtda “olijjanob qahramon”, “aslzoda” tushunchalari bilan bog‘langan. YA’ni xalq ichida “chaqqon odam” tushunchasiga qarama-qarshi qilib qo‘yilgan. Shu sababdan, oddiy kishilar zodagon jangchilarning o‘yinlarida ishtirok etmagan, faqat tomoshabin sifatida o‘tirishgan.

Bo‘lajak jangchilar tayyorlash maqsadida mamlakatning yirik shaharlarida maxsus tarbiya tizimi vujudga keladi. Ular tarixda Sparta va Afina tizimi nomi bilan o‘rganiladi.

**Sparta Tizimi.** Eradan avvalgi IX asrda Sparta shahri vujudga kelib, uning aholisini 9 mingga yaqin quldorlar oilasi, shuningdek, 30 ming hunarmandlar, savdogarlar va yer egalari, 200 ming qul tashkil etgan.

Quldorlar quroldan saqlanish va o‘zlarini himoya qilishga tayyorlanish maqsadida o‘ta qattiq tarbiyaviy tizimdan foydalangan. Bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalangan. Bu davrda ularni qorong‘udan qo‘rqmaslik, yig‘lamaslik, ovqat



tanlamaslikka o'rgatganlar va chiniqtirishga katta ahamiyat berganlar. 7 yoshdan 18 yoshgacha bolalar va o'smirlar davlat tizimidagi tarbiya muassasalarida asosan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanganlar. Ularni sovuq va ochlikka bordosh berish, chaqqonlik va og'riqlarga chidash kabi faoliyatlarga o'rgatib, chiniqtirganlar. Yoshlarni nayza va lappak uloqtirish, yugurish, sakrash, kurash va harbiy o'yinlar, yovvoyi hayvonlarni ovlashga o'rgatganlar. Jam bo'lib qo'shiq aytish, musiqa chalish, raqs kabi sohalarga ham ko'p vaqt ajratilgan. Davlat tomonidan belgilangan rahbarlar yosh spartiatlarni mardlik, jasorat, qullarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalaganlar. Shu maqsadda kechalari qullarga qarshi hujumlar, bosqinlar uyushtirganlar. Shubhali qullarni o'ldirganlar. 18-20 yoshli tarbiyalanuvchilar efeblar qatoriga qabul qilinib, ular jismoniy va harbiy tayyorgarlikni o'taganlar. Keyinchalik esa ularni harbiy darajalarga ajratib, qariguncha harbiy xizmatda ushlab turishgan.

Sparta tizimida qullar jismoniy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratilgan. Sog'lom bolalarni dunyoga keltirib, ularni sog'lom qilib o'stirish uchun oilalar ham o'ta sog'lom bo'lishi ko'zda tutilgan. Shu sababli ham qiz bolalarni yugurish, kurash, nayza va lappak uloqtirish kabi mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullantirishgan. Sparta xotan-qizlari ko'proq qullarni saqlashda xizmat qilganlar.

Sparta davlati tarbiya tizimini va harbiy sohadagi eng kuchli qismi Gresiyada tashkil etildi. Ular uzoq yillar davomida yengilgan deb nom qozondi. Sparta atletikachilari ko'pgina olimpiadava boshqa o'yinlarda qatnashib, g'alabalarni qo'lga kiritgan.

**Afina tizimi.** Bunda bola yetti yoshgacha oilada, qullar nazoratida tarbiyalangan. Bu yoshda ko'proq o'yinlarga e'tibor qaratilgan. Keyin o'g'il bolalarni maktabga yuborishgan. Qiz bolalar esa uyda tarbiyalangan. 7yoshdan 15 yoshgacha bo'lganlar davlat maktabi yoki shaxsiy maktablarda ta'lim olishgan. Ular musiqa va gimnastika maktablari deyilgan. YA'ni musiqa mashg'ulotlarida musiqa, raqs, o'qish-yozish bilan shug'ullanganlar. Gimnastika mashg'ulotlarida esa yalang'och holda kurash bilan shug'ullanganlar. 12-16 yoshdan boshlab

birinchi o‘ringa gimnastika mashg‘ulotlari qo‘yilgan. 16 yoshga to‘lgandan keyin yaxshi ta‘minlangan ota-onalar o‘z farzandlarini gimnaziyalarga berishgan. Afinada davlat hisobida uch xil gimnaziya, ya‘ni: akademiya, lisey va kinosorg mavjud bo‘lgan. Bu o‘quvyurtlarida yoshlar jismoniy tarbiya bilan bir qatorda siyosatshunoslik, falsafa va adabiyot fanlari bo‘yicha ham ta‘lim olgan.

Afinada 18 yoshli yigitlar davlat harbiy tashkilotigajalb etilgan. Ular ikki yil davomida harbiy xizmatni o‘tagan. Ular birinchi yili, jismoniy tarbiya va harbiy tayyorgarlikdan o‘tishgan. Ikkinchi yili esa qalqon va nayza bilan qurollanib, davlat chegarasini qo‘riqlaganlar.

Sekin asta jismoniy tarbiyaning ilmiy nazariyasi paydo bo‘la boshladi. Qadimgi faylasuf olimlar- Platon, Aristotel va boshqalarning asarlarida tarbiya, ta‘lim tizimidagi jismoniy tarbiyaga yuksak baho berildi. Platon Afina zodagonlari vakili, faylasuf-idealist insonning ma‘naviy va jismoniy sifatlari haqidagi nazariyaning asoschilaridir. U Sparta tizimiga moyillik bildirib, harbiy-jismoniy tarbiyaning aqliy tarbiya va ta‘lim bilan qo‘shib olib borishni ko‘zda tutdi. Platon o‘zining asarida shunday degan: “Yaxshi gimnastika ham oddiy bo‘ladi, lekin eng avvalo, harbiy gimnastika bo‘lishi lozim”.

Aristotel esa yirik olim va faylasuf, Platonning o‘quvchisi va Aleksandr Makadonskiyning ustozidir. Uning ta‘limoti dialektika sohasida yuksak baholanadi. Chunki u shakl va mazmun birligi haqidagi g‘oyani olg‘a suradi. Shu bilan birga, borliqning rivojlanishini isbotlaydi. Insonning ruhi va tanasi ajralmas holda bog‘liq ekanligini tushuntirib beradi. Jismoniy tarbiyaning aqliy tarbiya bilan hamohangligini ta‘kidlaydi.

Aristotel o‘g‘il bolalarni jismoniy jihatdan mustahkam qilib tarbiyalash tarafdori bo‘lgan. U Platondan farqli o‘laroq tarbiyada ko‘proq ta‘lim-tarbiyaga o‘rin berishni, gimnastika mashqlari hajmini kamaytirishni taklif etadi. Chunki gimnastikada ko‘proq harbiy jismoniy tarbiya va ta‘lim ko‘zda tutilgan va u bolalar uchun juda murakkab jarayon, deb hisoblanadi.

Demokrit esa jismoniy mashqlar insonning shakllanishida muhim o‘rin tutadi, ya‘ni tabiiy xolatni rivojlantirishda ustunroqdir, deb ta‘lim beradi. Sokratning

aytishicha, mustahkam sog'liq ko'pgina illatlardan saqlashga kafolatdir. Qadimgi grek shifokori Gippokrat ta'biri va ta'limi bo'yicha, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish turli xil kasalliklarning oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga egadir.

Qadimgi greklarda jismoniy tarbiya asosan gimnastika va agonistikadan iborat bo'lgan. Gimnastika umumiy jismoniy tarbiyada qo'llanilgan. Agonistika tizimida esa maxsus tayyorgarlik va boshqa musobaqalarda qatnashish ko'zda tutilgan.

Gimnastika maxsus tizim sifatida palestrika, orxestrika va o'yinlarni o'z ichiga olgan. O'z navbatida, palestrika pentatlon kurash: yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va lappak uloqtirish, kurashdan iborat bo'lgan. Shuningdek, unga pankration, suzish, mushtlashish, otda yurish, kamondan o'q otish va boshqa mashqlar ham kiritilgan.

Orxestrika asosan musiqa jo'rligidagi raqslardan tashkil topgan. O'yinlar esa tayoqlar, g'ildiraklar, chavgon, shar, to'plar bilan gimnastika qilishdan iborat bo'lgan.

Rim ham eng qadimgi davlat hisoblanadi, ya'ni eradan avvalgi 754 yilda paydo bo'lgan. Rim davlati o'zining dastlabki uch asri (eradan avvalgi VIII-VI), shohlar davri mobaynida Rim jamiyati urug'chilik tuzumining buzilishi va patriarxal quldorlik munosabatlarining rivojlanish bosqichini o'tagan.

Rim podsholiklari davrida turli xil marosimlarda suvoriylarning (chavandoz) labirint (chalkash) yo'llarida musobaqa o'tkazishgan, uni Troyan o'yinlari deb tarixda tilga olinadi. Bu o'yinlar asosan rimlik patrikiylar (zodagonlar) uchun ahamiyatli bo'lgan. Qo'sh g'ildirakli aravada yurish (poyga), ko'p sonli harbiy raqslar, nayza uloqtirish, kurash va boshqa mashqlar ham keng tarqalgan. Bu quldorlik jamiyati tuzumining harbiy-jismoniy faoliyatida muhim o'rin egallagan. Shu sababdan ham jismoniy tarbiya tizimi quldorlar harbiy qudratini mustahkamlash vazifasini o'tagan.

Rim Respublika sifatida mavjud bo'lib, unda harbiy-siyosiy tizim tarkib topgan. Shu tufayli hokimiyat harbiy xizmat faoliyatidagi kishilar qo'lida bo'lgan. Harbir fuqaro uchun harbiy xizmatni o'tashmajburiy va o'zini harbiylik faoliyatiga

tayyorlashi zarur bo'lgan. Bunda maxsus tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Bu yerdagi tarbiyaning qadimgi Gresiyadagi tarbiyadan farqi shuki, tarbiya jarayonlari uyda beriladigan tarbiya xususiyatlariga mos kelgan. Rimlik yigitlar harbiy xizmatga birmuncha oilada, o'z tengdoshlari orasida tayyorlangan. Jismoniy mashqlar va o'yinlar bunda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Ular 16-17 yoshida harbiy xizmatda bo'lishgan. Bu davrda uzoq yurishlar (poxod) va harbiy-jismoniy tayyorgarlik ishlarini bajarganlar. Bu tarbiya eradan avvalgi II asrgacha davom etib, Mariya islohoti bilan professional harbiyga asoslangan davrgacha saqlanib qolgan. Jismoniy mashqlar, o'yinlar, turli musobaqalar qadimgi rimliklarning hayotiga singib ketgan. To'p bilan o'ynaladigan har xil o'yinlar ommalashgan edi. Ular patriakin (aslzodalar) orasida keng tarqalgan bo'lgan.

Eradan avvalgi VI va III asrlarda sirk tomoshalari rivojlanib, maxsus qurilmalar (inshoot) paydo bo'lgan. Aslzodalar uchun eng qulay va ommaviy sirk o'yinlari asosiy jismoniy tarbiya vositasi va tizimini tashkil etgan. Chunki, sirkda turli xil attraksion, kulgi, hajviy va murakkab jismoniy mashqlar namoyish etilgan. Eradan avvalgi VI asrdan boshlab, har 100 yilda bir marotaba o'tkaziladigan yirik musobaqalar an'anaga aylangan. Uning dasturida qo'shg'ildirakli aravada poyga eng qiziqarli o'yin bo'lgan. Bunda kurash, yugurish, mushtlashish kabi turlar ham o'rin egallagan.

Eramizdan avvalgi II asrda ba'zi rimlik faollar greklarning jismoniy tarbiya tizimidagi turlar va usullarni o'zlariga kiritishga harakat qildilar. Lekin bu mamlakatdagi siyosiy doiralar tizimida amalga oshmadi. Eramizdan oldingi 80-yillarda Gresiyaning Rim tomonidan bosib olinishi bilan elchi (konsul) yunon (Gresiya) olimpiya o'yinlarini Rimga ko'chirishga urindi. Uning buyrug'iga binoan 175-Olimpiya o'yinlari Rimda o'tkazilishi kerak edi. Lekin bu holat rimliklar tomonidan ma'qullanmadi. Shu sababdan eramizdan oldingi 76-yildagi o'yinlar eski joyi – Olimpiyada tashkil etilgan.

Rimda eski o'yinlarning qismlari turli bayramlarda takrorlangan. Shu bilan birga, yangi o'yinlar vujudga kelib, ular ilk tomoshabinlarni o'ziga jalb etgan. Eramizdan avvalgi II asrda vujudga kelgan yangi o'yinlardan diqqatga sazovori

gladiatorlar jangchi (rasm) bo'lib, keyinchalik u Rim tomoshalarining asosiy qismlariga aylandi. Avvallari sirk o'yinlarida qilichbozlik san'atini yaxshi egallagan qullardan foydalanganlar. Bu holat gladiatorlar jangini tashkil etadi. Eramizdan avvalgi I asrda Rimda gladiatorlar tayyorlovchi maxsus maktablar tashkil etilgan. Ular davlat va shaxsiy kishilarga mansub bo'lgan. Maktablarga gunohkor bo'lgan va hukm qilingan qullar tanlab olingan. Eng katta maktab Kapueda bo'lib, o'z vaqtida bunda Spartak ham ta'lim olgan. Ularga asosan qilichbozlik san'ati o'rgatilgan va sirklarda namoyish etilgan. Qilichbozlik jangida (sirk o'yini) omon qolgan gladiatorlar yana o'z maktablari va instruktorlariga qaytarilganlar.

Eramizdan avvalgi I asr oxiri va yangi eraning boshida Rimda imperatorlik vujudga keldi. Bunda harbiy-quldorlik xukmronligi o'rnatildi. Kichik guruhdagi boylar va katta guruhdagi boylar, kambag'allar guruhi mavjud bo'lib, non va tomoshalarga muhtojlik kuchaydi.

VI asrda Rimda Xristian dini davlat tomonidan quvvatlandi. Cherkov (masjid) ta'siri asta sekin davlat va jamoa hayotining barcha sohalariga tarqaldi. Shu sababli Rim an'analari inqirozga uchray boshladi. Cherkov tizimi gladiatorlarning qonli janglari, sirk tomoshalariga qarshi chiqdi. Shu tariqa ular 404-yilda butunlay taqiqlandi. Lekin xalq tomoshalar o'tkazilishini talab qildi. Shunga asosan sirklarda aravada yurish, o'yinlar, professional kurash hamda mushtlashish (boks) bo'yicha tomoshalar o'tkazildi. Ularda tomoshabinlar ham ishtirok etishi (olishuvi) odatga aylandi.

Eramizdan avvalgi 74-71-yillarda qullarning ahvoli yomonlashganligi sababli Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon bo'lgan. Spartak kuchli, jasur va qurollarni ustalik bilan ishlatgan. Shu asosda XX asrning 20-yillaridan boshlab, uning xotirasi uchun jahon ishchi va mehnatkashlarining musobaqasini spartakiada deb nomladi va o'zlarining sport tashkilotini "Spartak" nomi bilan atadi.

Qadimgi Rimda jismoniy mashqlarning jismoniy rivojlanishi va jamiyat uchun afzalliklari haqida ko'p fikrlar bildirilgan. Yuvenal (shoir) she'rlarida ilk bor "Sog' tanda sog'lom aql" shiori jarangladi va u jahon xalqlarining shioriga aylandi.


Qullarni shafqatsiz ezish, qullarning tinimsiz qo'zg'olonlari, harbiy tashkilotlarning susayishi qadimgi davlatlarning yemirilishiga, shu asosda jismoniy tarbiyaning kuchsizlanishiga sabab bo'ladi.

Qayd etish kerakki, ibtidoiy jamoa tuzumida vujudga kelgan jismoniy tarbiya tarixiy shart-sharoit ta'sirida takomillashib, dunyo tamaddunida o'ziga xos sahifa ochgan qadimgi Sharq, qadimgi Yunon va qadimgi Rim madaniyatida ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qadimiy olimpiya o'yinlaridan maqsad nimada deb o'ylaysiz?
2. Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishida til, millat, diniy e'tiqod kabi mezonlarning o'rmini qanday baholaysiz?
3. Gresiya, Gerakl, Olimpiya so'zlarining o'zaro aloqadorligini qanday izohlaysiz?
4. Qadimiy Olimpiya o'yinlarining yuzaga kelishiga oid qanday rivoyat yoki afsonalardan bilasiz?
5. Qadimiy Olimpiya o'yinlarining to bugungi kunga qadar yashab, yanada takomillashib kelishida qaysi tamoyillarni asosiy omil deb bilasiz?
6. Qadimiy olimpiya o'yinlariga oid sahnalardan qaysi asar yoki badiiy filmlardan msiol keltira olasiz?
7. Nima uchun Olimpiya o'yinlari shu kunga qadar yashab keldi, o'z mohiyatini yo'qotmadi?


### **“AQLIY HUJUM” metodi**



### **Qo'llashdan maqsad:**

- ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish;
- o'quvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllantirish;
- o'quvchilarda o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasini rivojlantirish;

- ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish va h.k.



### **“Aqliy hujum” metodining bosqichlari:**

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

Izoh: Yuqoridagi diagramma ichidagi ranglar o'qituvchi tomonidan alohida sharhlanadi. Chunki ulardagi ranglar olimpiya xalqalari ranglari – ko'k, sariq, qora, qizil va yashil ranglarda berilgan.

## **II Bob. Olimpiya o‘yinlarining qayta tiklanishi**

### **2.1. Olimpiya harakati qayta tiklanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari**

Olimpiya o‘yinlarining hayotga qaytishi undagi buyuk ezgu g‘oya va qarashlar sabablidir. Bashariyat ahlining ushbu o‘yinlarga qiziqish hamda ishtiyoqining ortishi ham mazkur qadimiy an‘ananing qayta tiklanishida ma‘naviy zamin bo‘ldi. Qadimiy Olimpiya inshooti xaroba shaklida bir yarim ming yil atrofida ko‘milib yotadi. 1824 yildagina arxeolog lord Stankof Alfey qirg‘oqlarida jiddiy qazishma ishlarini olib boradi va u qadimgi Olimpiya shahri chizmasini tuzadi. Shu narsa olimpiya o‘yinlarini tiklash g‘oyasini rivojlantirishga turtki bo‘ladi. 1859 yilda Evangelis Sannas, yunon armiyasi mayori, panellin “olimpiadasini” (boshqa davlatlarning ishtirokisiz) tashkil etadi. U ikki marta o‘tkaziladi. Biroq milliy o‘yinga aylanmaydi. Buning ustiga xalqaro miqyosga chiqa olmaydi.

Faqat XIX asrning oxiridagina zamonaviy olimpiya harakati yilnomasiga birinchi satrlar yozildi. Tez orada ko‘pgina davlatlarda sport tashkilotlari, klublar paydo bo‘la boshladi. Xalqaro sport uyushmalari tashkil qilindi. Aynan shu narsa fransuz jamoat arbobi Per de Kubertenga zamonaviy Olimpiya o‘yinlarini tiklash g‘oyasini hayotga tatbiq etishga imkon berdi. U faol, noyob tashkilotchilik qobiliyatiga ega inson sifatida yunonlarning 1859-1889 yillardagi musobaqalarni o‘tkazishdagi muvaffaqiyatsiz tajribasini hisobga olgan holda bir qator davlatlarning yirik sport arboblari Olimpiya o‘yinlarini tashkil qilishga jalb etishga qaror qiladi. Uning asosiy maqsadi olimpiya harakatiga boshidan xalqaro maqom berishdan iborat edi. Shu tariqa u o‘zining bemisl say-harakatlari bilan Olimpiya o‘yinlarining qayta tiklanishidagi tarixiy shaxslardan biri bo‘lib qoldi. *(Uning faoliyatiga navbatdagi mavzularda alohida to‘xtalib o‘tiladi).*

### **2.2. Antik olimpiya an‘analari o‘yinni qayta tiklashning asosi sifatida**

Antik olimpiya an‘analari ushbu o‘yinni tiklash uchun haqli ravishda asos bo‘lib xizmat qildi. Chunki mazkur o‘yinlar o‘zida umuminsoniy g‘oya va qarashlarni e‘tirof etishi, xususan, dunyo xalqlarini do‘stlik va ezgulikka



chaqirishdek ezgu an'anaviy maqsad-vazifalari bilan yashovchanlik xususiyatlarini namoyon etdi.

Qadimiy Yunonistondagi so'nggi Olimpiadadan o'n olti asrdan ham ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, o'sha umumellin eng oliy bayramlarining ruhi barhayot ekanligi amaliy isbotini topdi. Bu an'ana tiklanishi uchun jahonning turli mamlakatlaridagi yuzlab, minglab fidoyilardan juda katta tashkilotchilik, targ'ibot ishlarini olib borish talab qilindi. Sportning bu jonkuyarlari olimpiya g'oyalarining komil shaxsni tarbiyalash. Turli millat va elatga mansub, e'tiqodlari ham har xil insonlarni birlashtirish va do'stlashtirishdagi beqiyos ahamiyatiga munosib baho berganlari holda O'yinlar mash'alasi yana porlashi uchun kuch-g'ayratlarini ham, bilim va tajribalari, vaqtlarini ham, shaxsiy mablag'larini ham ayamadilar.

Olimpiya harakatiga yangidan hayot baxsh etishda fransiyalik Per de Kubertening tashabbusi, say-harakatlari, tashkilotchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya muammolari bilan shug'ullanayotgan Per de Kubertenda antik davr yunonlarining yoshlarni harbiy xizmatga, umuman, hayotga tayyorlashda olimpiada o'yinlaridan samarali foydalanganliklari ko'proq qiziqish uyg'otadi. Sportning tarbiyaviy ahamiyatiga juda yuqori baho bergan Per de Kuberten zamonaviy sharoitlarda olimpiya o'yinlarini shu maqsadga yo'naltirish ahamiyatini chuqur angelaydi. U Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini birinchi marta 1888 yil iyulida, Fransiya ta'lim vazirligi tomonidan ta'limmuassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini joriy etish bo'yicha tashkil etilgan qo'mita majlisida bildiradi.

Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining jonkuyar tarafdorlari, jumladan, Buyuk britaniyalik lord Amptxill, amerikalik professor Sloen, rossiyalik general-leytenant Aleksey Butovskiy, vengr Kemen, Bogemiya (hozirgi Chexiya)dan Gut-Yarkovskiy va boshqalar bilan zamonaviy olimpiya o'yinlarini o'tkazish masalalariga bag'ishlangan Xalqaro atletika ta'sis kongressini chaqirishga tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordilar. Per de Kubertening fikricha, jahon sportining bu ulkan bayramida faqat havaskor sportchilar qatnashishlari kerak edi.

Ana shu maqsad uchun jalb etiladigan tashkilotchilar va homiylarning mablag‘lari faqat Olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga, sport inshootlari qurishga sarflanishi lozimligi uqtirilardi. O‘yinlarni xuddi Yunonistonda qabul qilinganidek har to‘rt yilda bir marta, lekin navbat bilan jahonning turli mamlakatlari shaharlarida o‘tkazish taklif qilinardi.

### **2.3. Olimpiya o‘yinlarining paydo bo‘lishi haqidagi afsonalar**

Olimpiya o‘yinlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq qator afsonalar mavjud. Masalan, xudo Kronos (osmon va yer xudosi Uran va Geyadan tug‘ilgan titan-katta xudo) o‘g‘illaridan birining halok bo‘lishini bashorat qiluvchi tushga ishonib, yangi tug‘ilgan farzandlarini yutib yuborishni boshlagan. Uning rafiqasi Geya shunday yo‘l tutadiki, navbatdagi yangi tug‘ilgan farzand o‘rniga yo‘rgakka tosh o‘rab, uni bemehr otaga beradi. O‘g‘lini esa cho‘ponga topshiradi. Bola o‘sib-ulg‘ayadi va chaqmoq hamda momaqaldiraq xudosi qudratli Zevsqa aylanadi. Zevs otasi bilan jangda g‘alaba qozonadi va aka-singillarini qutqaradi (ular keyinchalik xudoga aylanishadi). Ushbu g‘alaba sharafiga Zevs sport o‘yinlari o‘tkazishni buyuradi va ular o‘tkazilgan joy nomi bilan Olimpiya o‘yinlari deb ataladi.

Yana boshqa afsonalarga ko‘ra, bu o‘yinlarni Zevsning o‘g‘li Gerakl tashkil qilgan. Vaqt-soati yetib, Gerakl tug‘ilgan vaqtda Olimpda xudolar bazm qurib o‘tirishgan ekan. Dunyo hokimi Zevs: “Shu daqiqa yerda, odamlar orasida juda ham kuchli, buyuk qahramon tug‘iladi, u buyuk ishlar qiladi va mangu dong taratadi”,- deb xudolarni xabardor qilibdi.

Olimpiya o‘yinlari Zevsning nevarasi Pelops tomonidan tashkil qilingan, degan afsonalar ham bor. Pelops Enomayning qiziga o‘n to‘rtinchi kuyov edi. Oldingi o‘n uchta kuyov ot aravada poyga o‘ynashda Enomay qo‘lidan halok bo‘lgan edi. Enomayning qizi Gippodamiya Pelops bilan birga Enomay ot aravasining boshqaruvchisi Mirtilosni g‘ildiraklarni ushlab turuvchi bronzali ushlagichni mumli ushlagichga almashtirib qo‘yishga ko‘ndirishadi. Nihoyat, poyga paytida g‘ildiraklar chiqib ketadi va Enomay halok bo‘ladi. Xudolarga

minnatdorchilik bildirib, Pelops Olimpiya o'yinlarini ta'sis etadi. Shu tariqa ot aravada poyga asosiy musobaqalardan biriga aylanadi.

Yuqoridagi bobda qayd etganimizdek, xorijiy adabiyot namunalaridan sanalgan manba - Peter Bingning tarjima asarida Olimpiya o'yinlarining muqaddas Zevs makonida har to'r yilda Kronos tepaligi etagida, Alfey daryosi bo'yida o'tkazilganligi va bu o'yinlar ungacha mavjud boshqa udumlarni o'z soyasida qoldirganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi kabi tahlil va tavsiflardan ko'rish mumkinki, olimpiya o'yinlari o'zidagi ezgu umumbashariy g'oya va qarashlar mushtarakligi bois qayta tiklana boshladi. Endi u keyingi umrini zamonaviy olimpiada nomi bilan yashashni boshladi, desak adashmagan bo'lamiz.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sizningcha, olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishidan dunyo mamlakatlari va xalqlariga qanday manfaat bor?
2. Olimpiya o'yinlarida ustuvorlik qiladigan g'oya va maqsadlarni sharhlang.
3. Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishida jonbozlik ko'rsatgan xalqaro uyushma yoki tashkilotlar, jamoat arboblari haqida ma'lumot bering.
4. Olimpiya o'yinlarining paydo bo'lishi haqidagi afsonalarga misollar keltiring va ularni izohlang.
5. Afsonalarda olimpiya o'yinlari qanday talqin etilgan?
6. Siz olimpiya o'yinlaridagi qaysi sport turlariga ko'proq qiziqasiz?
7. Olimpiya o'yinlarining qadimiy shakli bilan bugungi zamonaviy dasturlarini solishtiring. Xulosalaringizni bayon eting.

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” metodi**




### **Qo'llashdan maqsad:**

- ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish;

- ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarda ishlatish orqali ularning darsda faol ishtirokini ta'minlash, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlashga o'rgatish;

- o'quvchilarni bir vaqtning o'zida mavzuga jalb etish va baholash va h.k.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta‘lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta‘lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

### **III Bob. XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishi**

#### **3.1. XIX asrning oxirlariga xos bo'lgan integrasion g'oyalarning ahamiyati.**

XIX asrning oxiriga kelib, dunyo mamlakatlaridagi ijtimoiy hayot zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash va ushbu o'yinlarni faol targ'ib qilish g'oyasini yuzaga chiqara boshladi. Germaniya, Angliya, Fransiya, AQSH, Rossiya, Italiya kabi taraqqiy etgan davlatlar iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha yuqori darajaga ko'tarildi. Ishlab chiqarish, ilm-fan, ta'lim tez rivojlandi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish, xalqaro uyushmalar (ittifoq), tritlar, kartellar, sindikatlarni tashkil etish bilan birgalikda davom etdi. Yevropa mamlakatlari va Amerikada ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonining mahsuli sifatida aloqa va kommunikasiya vositalari yuzaga keldi. Chegaralangan kichik doiradagi milliy jarayonlar jamiyat taraqqiyotiga putur yetkaza boshladi (o'sishga to'sqinlik). Bunday sharoitda turli sohalar bo'yicha xalqaro munosabatlarni kuchaytirish, ya'ni iqtisodiy, ilmiy, madaniy va sportdagi aloqalarni bog'lash qonuniyat darajasiga yetishdi.

XIX asr oxiri nisbatan tinch-osoyishtalik payti bo'ldi. Fransiya-Yaponiya urushidan (1870-1871) va Parij Kommunasiidan (1871) boshlab, rus-yapon urushigacha (1904-1905) va Rossiyadagi birinchi inqilobgacha (1905-1907) jahonda hechqanday yirik urushlar bo'lmagan edi. Bunday holat mamlakatlarning xalqaro aloqalari va sportni rivojlantirishga qulaylik yaratdi.

XIX asrning so'nggi choragi davomida jamoatchilikarboblari, olimlar, tibbiyotchilar, pedagoglarning yoshlarga ta'lim berish, jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan umumiy harakatlari, faoliyatlari ancha kengaygan davr edi. Bu jarayonlarda jismoniy tarbiya va sportning yangi shakllari, usullarini izlash boshlandi. Ba'zi mutafakkirlar milliy jismoniy tarbiya va sport bilan chegaralanibgina qolmasdan, balki xalqaro sport aloqalarini o'rnatishni tavsiya etib, maydonga chiqdilar. Bu yo'lda Fransiya, Gresiya, Angliya, Germaniya, Rossiya, AQSH, Shvesiya va boshqa mamlakatlarning jamoatchiligi o'z faoliyatlari bilan alohida ajralib turar edi. Yoshlarni jismoniy tarbiyalash

maqsadida Olimpiya o'yinlaridan foydalanish kabi fikrlar ham bildiriladi. Bu to'g'rida Chexiya pedagogi Y.A.Komenskiy, Nemis gimnastika maktabining asoschilari I.X.Gute-Mute va G.Fit, Rus jismoniy ta'limi tizimining asoschisi L.F.Asegaft va boshqalar bir necha bor ta'kidlashgan. Ular qadimgi Grek Olimpiya o'yinlari kabi musobaqalarni tashkil etish – yoshlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashda katta xizmat qilishi mumkinligini e'tirof etganlar.

Yoshlarni jismoniy tarbiyalashning modeli (namuna) sifatida qadimgi Grek olimpiya o'yinlaridan foydalanish g'oyalari ommalashib bordi. Bunda qadimgi Olimpiya qishlog'ini arxeologik qazishlar natijasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XVIII asrda arxeologik olimlarning diqqat-e'tiborini qum va loyqalar bosib yotgan qadimgi Olimpiya o'ziga jalb etgan edi. Eng avvalo qadimgi olimpiya joyini Bernard de Monfakon (Fransiya), keyin nemis olimi Ioaxim Vinkelmal, ingliz arxeologi Richard Gandler va boshqalar aniqladi. XIX asr boshida birinchi qazish ishlari o'tkaziladi. Nemis arxeologi Ernet Kursius (1814-1896) boshchiligida o'tkazilgan qazish ishlari ancha muvaffaqiyatli o'tadi. Olti marotaba o'tkazilgan ekspedisiya (1875-1881) natijasida Olimpiyada barcha joy va ulardagi ko'p sonli arxitektura va arxeologik haykallar qoldig'i topiladi. 1887 yilda arxeologik qazishmalarning natijalari matbuotlarda e'lon qilinadi. Bu esa qadimgi Olimpiya o'yinlariga bo'lgan qiziqishva havasni oshirib yuboradi. Shu asosda jamoatchilik doirasida olimpiya harakatini tiklash g'oyalari tezlashadi.

XIX asrning birinchi va ikkinchi yarmida ayrim mamlakatlarda olimpiya o'yinlarini amaliy jihatdan tiklashga harakat qilingan. 1834-1836 yillarda Shvesiyaning Ramiyoz shahrida ikki marotaba skandinaviya olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Uning dasturida qisqa va o'rta masofalarga yugurish, balandlikka va langarda (shet) sakrash, kurash kabi turlar joy olgan. Bu o'yinning tashabbuskori Lind universitetining professori Gustov Nogann Shartau bo'lgan. Uning taklifi bilan qadimgi olimpiadalar haqida ma'ruzalar (chteniya) o'qilgan.

XIX asrda Gresiya tomonidan qadimgi olimpiya o'yinlarini qayta tiklash haqidagi takliflari ko'p takrorlangan. Mamlakatning mustaqil bo'lishi uchun astoydil tarafdori Evangelis Sappas bo'lgan. U har to'rt yilda o'yinlarni o'tkazish

va unda sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'rgazmaga qo'yishni taklif etgan edi. U olimpiya o'yinlari jarayonida ko'rgazmalar asosida savdo, iqtisod va madaniy aloqalarning o'zaro kuchayishini ko'ra bilgan. U o'z mablag'lari hisobiga ko'rgazma zallari va savdo shaxobchalarini quradi. Uning tashabbusi bilan 1859 yilda Afinada Panerek o'yinlari o'tkazilib, unda faqat greklargina ishtirok etgan. Moddiy ta'minotning yetishmasligi sababiga ko'ra bu o'yinlar ahyon-ahyonda (1870-1875-1888) o'tkazilgan. Bu o'yinlar musobaqa tariqasida yuqori saviyada bo'lmasa-da olimpiya harakatining qayta tiklanishiga muhim hissa qo'shgan edi.

Qadimgi olimpiya o'yinlarini o'tkazilishini to'xtatishdan keyin (394 y) davr roppa-rosa bir yarim ming yildan oshiq vaqtni tashkil etmoqda. Nihoyat, 1894 yil Xalqaro Olimpiya qo'mitasining tashkil etilishi va 1896 yil IOlimpiya o'yinlarining o'tkazilishi bilan sport olamining yangi tarixiy davri boshlandi. Bu ikki katta sohaning tashkil etilishi yuqorida qayd etganimizdek, fransuz jamoat arbobi, pedagog va ma'rifatchi baron Pyer de Kuberten (1863-1937) faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

### **3.2. Gimnastika maktablarining yaratilishi va rivojlanishi**

Olimpiya harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishida gimnastika maktablarining o'rni beqiyos ahamiyat kasb etadi. Kadim Gresiyada ham gimnastika jismoniy tarbiya sifatida ko'llanilgan. Greklar gimnastika deb butun bir jismoniy tarbiya tizimini atashgan, lekin yoshlarning jismoniy tarbiyasiga va ularni musobakalarga tayyorlashga alohida e'tibor berishgan.

Shuning uchun birinchi tizimni gimnastika, ikkinchisini esa agonistika deb atashgan. Qadimiy greklarning mashg'ulotlariga yugurish, sakrash, har xil predmetlarni otish, suzish, bug'doy to'ldirilgan qoplarni urish kirar edi. Keyinchalik gimnastika qadimiy Rimda armiyaning jismoniy tarbiyasini kuchaytirishda juda rivojlanadi. Bu yerda maxsus gimnastik moslamalar ko'llaniladi, masalan, otda chavandozlarning yurishinn o'rgatish uchun yog'och ot, nayza, pichoq sanchishni o'rgatish uchun yog'och moslamalar, dushman istehkomini zabt etish uchun zina va narvonlarni aytish mumkin.



XIX asrda gimnastika, ya'ni jismoniy tarbiya san'at haqida birinchi bor qo'llanma chop etildi. U harbiy, tibbiy va atletik kislarga bo'lingan edi. Qo'llanmada jismoniy tarbiyaning asosi deb dushmanni mag'lub etishga intilishga bog'lamasdan, faqat organizmni rivojlantirishga yo'naltirilishi hisoblanardi. Gimnastik mashg'ulotlarining keyingi davrlarda rivojlanishi, maxsus gimnastik snaryadlarning qo'llanilishi bilan bog'lik.

XIX asrda gimnastikaning nazariy asoslari shakllandi va u milliy burjuaziya shaklida rivojlandi. Bu davr janglarni olib borish usullarini aniq va tezkor, baravariga buyruqlarining bajarilishini talab etardi. Ushbu harakatlarni bajarishga gimnastik mashg'ulotlar, boshqa sport o'yinlariga nisbatan qo'l kelardn. Gimnastika mashg'ulotlarining organizmga ta'sirini aniqroq belgilash va hisoblab chiqish mumkin edi. Shuning uchun o'sha davr pedagog va vrachlariga, yoshlarni jismoniy tarbiyalashda gimnastika yagona to'g'ri yo'l deb hisoblangan. XIX asrning birinchi yarmida uchta milliy gimnastika tizimi - nemis, fransuz va shved tizimlari shakllandi. Ushbu tizimlarda uch yo'nalish aniqlandi:

1. Asosan, maxsus gimnastika snaryadlarida (nemis tizimi), murakkab harakatlanishlarni egallashga yo'naltirilgan gimnastika. Keyinchalik undan sport gimnastikasi kelib chiqqan.

2. Harbiy mashqlar gimnastikasi (fransuz tizimi), keyinchalik undan harbiy-dala va maxsus gimnastika shakllangan

3. Nemis gimnastika tizimi - gimnastik snaryadlarda kuch, chaqqonlik, tanani har xil holatda boshqarishni talab etuvchi mashg'ulotlardan iborat edi. Fridrix Yan - nemis milliy gimnastikasi asoschisi va tashkilotchisi bo'lgan. U o'z o'quvchilarini juda ko'p marotaba mashg'ulotlarni takrorlatib, ularda irodani, kat'iylikni, kuchni rivojlantirmoqdaman, deb o'ylardi. Shu bilan u kuchni, irodani rivojlantirish va ko'paytirishga - murakkab harakatlarni juda ko'p marotaba takrorlash yordamida yetishish mumkin deb ishonardi. Yan o'quvchilari gimnastika mashg'ulotlarining texnikasiga asosiy e'tiborni qaratishgai. Yan va uning o'quvchilarining gimnastika tizimi tugallanmagan edi, chunki ular tizimning o'quv jarayonini ishlab chiqishmagan edi. A.Shpiss mazkur tizimni, maktablarda

dars berishga mosladi va shu bilan ushbu tizimni ishlab chiqishni yakunladn. Ushbu tizimning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, Shpiss mashg'ulotlarning qiyinligi va murakkabligi bo'yicha va har xil yoshga qarab to'rt darajaga bo'lgan, lekin bolalarning jismoniy rivojlanishi darajasini hisobga olmagan. O'zining metodik qo'llanmalarida, u mashg'ulotlar o'kituvchilarning jiddiy nazorati ostida o'tkazilishni talab etardi. Bu kelgusi harbiy xizmatga juda kerak bo'lgan intizomni tarbiya qilardn. Lekin gimnastikaga bunaqa qarash bolalarda tashabbuskorlikni so'ndirardi, ularning shaxsiy ravishda rivojlanishiga halakit berardi va asosiysi, ushbu davrning pedagogik ta'limotiga to'g'ri kelmas edi. P.SLestgaft o'zining "Jismoniy tarbiya yo'riknomasida" nemis gimnastikasini, anikrogi, Shpisseni tankid qilgan.

Fransiyada polkovnik Amorosole va uning izdoshlari tomonidan fransuz gimnastikasining tizimi tuzilgan edi. U asosan harbiy mashqlardan iborat edi - yurish, yugurish, sakrash, suzish, otish, qilichbozlik, yaradorlarni ko'tarish kabi va h.k. Bundan tashqari, Amorosole o'zining gimnastikasiga ashula, musiqa ishtirokida tayyorlov mashg'ulotlarini va qo'l mehnatini kiritgan edi. Mashg'ulotlarda Amorosole snaryadlar (narvon, tayoq)ni kam kuch sarf etib, tez va chaqqon olib yurishni talab etardi. Ushbu mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarda Vatanga nisbatan vatanparvarlik xis-tuyg'usini uyg'otish maqsadida musiqa ishtirokida bajarilishini talab etardi. Amorosole gimnastikasi boshqa mamlakatlarda ham ommalashdi.

Shved gimnastikasi gigiyenik yo'nalishda edi va ko'p mamlakatlarda asosiy gimnastika maktabi sifatida keng tarqaldi. Bu tizimning asoschilari P.Ling va Y.Ling edi. Daniya ushbu davrda Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri edi va u yerda 1779 yili birinchi gimnastika jamiyati va instituti tashkil etilgan edi. Keyinchalik Stokgolmda maxsus institut ochildi. Ushbu institutda P.Ling o'zining jismoniy tarbiya usullarini ko'llar edi. Jismoniy tarbiya uchun odam tanasining rivojlanishiga va mustahkamlanishiga olib boruvchi mashg'ulotlar bilan shug'ullanish kerak deb hisoblardi. Lo'ndasini aytganda, gimnastikaning maqsadi, insonni sog'lomlashtirish va tanasini mustahkamlash yuzasidan P.Ling gimnastika

dashlari tizimini ishlab chikdi, bir qator yo'riqnomalar yozdi, mashg'ulotlarni sistemalashtirdi va maxsus snaryadlarni kiritdi.

Shved gimnastika mashg'ulotlari anatomik belgilar bo'yicha, (badanning qismlari bo'yicha) bir nechta klassifikasiyaga bo'linardi. Qo'l, oyoqlar va badanning aniq joylashishiga juda katta e'tibor berilardi.

Tanqidchilar shved gimnastikasini - harakat gimnastikasi emas, ko'rgazma gimnastikasi deb atashar edi. Shved gimnastikasi tufayli gimnastikaga shved devori, shved skameykasi, ot, arqon kabi snaryadlar (moslamalar) kirib keldi. Shved gimnastikasi tizimining gigiyenik yo'nalishi, badanni anatomik tuzilishiniig harakat shakllariga bog'liqligi, darslarning maxsus ishlab chiqilgan tizimlari, mashqlarning xilma-xilligi, mashg'ulotlarni o'tkazish uchun metodik qo'llanmalarning borligi, shved gimnastikasining nemis gimnastikadan ajralib turishini va ustunligini ko'rsatar edi. Shuning uchun shved gimnastikasi ko'pchilik orasida tan olindi va keng tarqaldi.

XXI asr oxirlarida Lesgaft I.F. (Rossiya) va Demeni J. (Fransiya) shved tizimini ilmiy tanqid qilishdi. Avstro-Vengriya va Chexiyada "Sokolskoye dvijeniye" va gimnastikaning «Sokol» tizimi paydo bo'ldi. Uning asosi hozirgi kunda sport gimnastikasida qo'llanilmokda va uning:

- birinchi qismiga ozod mashqlar kiritilgan edi;
- ikkinchi (asosiy) qismiga snaryadlarda bo'ladigan mashqlar kiritilgan edi;
- uchinchi (yakunlovchi) qismiga yurish va yugurish kiritilgan edi.

M. To'rsh zamonaviy sport gimnastikasining muallifi edi. Shved va Sokol gimnastikasi Rossiyada keng tarqaldi va bu gimnastika asosan armiya va armiyagacha bo'lgan yoshlarning jismoniy tarbiyasida keng qo'llanildi. P.F. Lesgaft maktab yoshidagi bolalar uchun jismoniy tarbiyaning tizimini ishlab chiqdi. U uch pogonaga bo'linardi:

1. To'g'ri harakatga o'rgatish.
2. Harakatlardan imkoniyat qadar samarali foydalanishni o'rgatish.
3. O'z imkoniyatini vaqt va atrof-muhitda to'g'ri o'lchab bilishni o'rgatish.

J. Demeni bor gimnastika tizimlarini o'rganib chiqib, mashqlar statik emas, aksincha dinamik bo'lishi va to'liq amplituda bilan bajarilishi kerak degan xulosaga keldi. J.Demeni taklif etgan mashqlar inson fiziologiyasi talablariga mos edi va gimnastikani ancha boyitdi.

U jismoniy tarbiya masalalari - sog'liqni mustahkamlash, badanni harakat va shakllantirish orkali go'zallikka yetkazish, insonning chaqqonligi va irodasini kuchaytirish, deb bilardi.

Demening o'quvchisi J.Eber jismoniy tarbiyaning tabiiy metodlarini qo'llashni taklif etardi. Bu esa harbiy gimnastikani ochiqlik joydagi rivojlanishi edi. O'sha davrda E.Bersten ayollar uchun gigiyenik gimnastika tizimini tashkil etdi.

Unda mashqlarning fiziologii va estetik jihatlari xisobga olingan edi. Mashqlar tez tempda o'tkazilardi va juda ko'p marotaba takrorlanardi. Ushbu gimnastika mashqlari hozirgi ritmik gimnastika mashqlariga kiritilgan. Mashqlarda mashq qiluvchi guruhlarning yoshi hisobga olinardi.

XIX asrning boshlarida Rossiyada harbiy - dala gimnastikasi tarqaldi. Bu gimnastikani Suvorov A.V. keyinchalik esa Dragomirov M.I. majburiy tartibda qo'llashardi va bu gimnastikani rus armiyasida ko'llashni taklif etishdi, chunki u armiyaning jismoniy tarbiyasini rivojlantirishi kerak edi.

Hozirgi kunda gimnastika turlari va tizimlari juda yaxshi ishlab chiqilgan va pedagogik jarayonlarning usullari yetarlicha takomillashgan. Masalan, oxirgi yillarda "aylana" (krugovoy) usuli keng ommalashdi. Uning mazmuni shundan iboratki, bir nechta mashqlar navbatma-navbat, ancha tezlikda takrorlanadi. XIX asr oxirlarida sport gimnastikasining rivojlanishi xalqaro sport aloqalari va sport tadbirlarining rivojlanishi bilan yaqindan bog'liq. 1881 yilda xalqaro gimnastika federatsiyasi, 1894 yilda esa Xalkaro olimpiya qo'mitasi tashkil etildi.

Gimnastikaning sobiq Ittifok davrida rivojlanishi sovet hukumati davrining birinchi yillarida gimnastika maktablarining o'quv darslariga kiritildi. Rossiyada 1926 yildan sport gimnastikasi jismoniy tarbiyaning asosiylaridan biri deb e'lon qilindi va maktablar uchun davlat dasturlari ishlab chiqildi. 1929 yilda jismoniy

tarbiya oliy o'quv bilim yurtlariga kiritildi. 1920 yildan ishlab chiqarish gimnastikasi kiritildi. 1933 yilda, birinchi gimnastika konferensiyasida, mamlakatda gimnastika metodikasining asoslari, uning vazifalari va gimnastika darsining tipik tizimi aniqlangan. 1938 yilda gimnastika atamashunosligi qabul etildi. 1934 yildan gimnastika bo'yicha pedagogik kadrlar tayyorlash boshlandi, gimnastika amaliyoti va nazariyasi bo'yicha ilmiy - metodik ishlar boshlab yuborildi.

Gimnastikaning mamlakatda rivojlanishiga ommaviy gimnastik chiqishlar va musobaqalarning ahamiyati juda katta bo'ldi. Ikkinchi jahon urushidagi g'alabadan so'ng jismoniy tarbiya va sport ishlari mamlakatda juda keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Xalqaro sport maydonida sovet gimnastikachilari juda katta muvaffaqiyatlarga erishishdi. Kadrlar tayyorlash ishlari kengaytirildi, sport inshootlari qurilishi va uskunalarining tayyorlanishi ko'paytirildi.

Ilmiy-tekshirish ishlari, ilmiy konferensiyalar keng ko'lamda o'tkazilishi boshlandi, bu esa gimnastika bo'yicha ilmiy asoslangan nazariya va metodikani shakllantirdi.

1968 yilda bo'lib o'tgan butunittifok konferensiyasida gimnastikani kelajakda rivojlantirish rejalari va uning xalk ommasiga keng kirib borishi, takomillashtirish yo'llari aniq ko'rsatib berildi.

Xalqaro gimnastika federasiyasi o'z ichida gimnastika sport turining olimpiya va noolimpiya turlariga xos bo'lgan yo'nalishlarini jamlaydi. Masalan, olimpiya turlariga erkaklar sportgimnastikasi (1903 y.), ayollar sport gimnastikasi (1928 y.), "Gimnastika hamma uchun" jahon gimnastradalari (1953 y.), badiiy gimnastika (1963 y.), batutda sakrash (1999 y.), Noolimpiya turlariga sport aerobikasi (1995 y.), sport akrobatikasi (1999 y.), akrobatik yo'lakda sakrash (1999 y.) kabi yo'nalishlarni kiritish mumkin.

### **3.3. J.J.Russo, I.G.Pestallossilarning pedagogik asarlarida jismoniy tarbiya.**

XVIII-XIX asrlarda pedagogik va gigiyenik gimnastikaning rivojlanishiga mashhur pedagoglar J.Russo va Pestallossining ta'siri bo'ldi. Inson tanasini

chiniqtirish va mustahkamlash uning kuchini va imkoniyatlarini rivojlantirishning birinchi omili va shartidir.

U mazkur mashg'ulotlar bilan tanani chiniqtirish orqali insonni hayotga tayyorlaydi, aqlan rivojlantiradi va sog'ligini mustahkamlaydi. Pestalossi eng yaxshi mashg'ulot deb bo'g'inlarni harakatlantirishni e'tirof etgan. Bo'g'inlar gimnastikasini har xil harakatchan o'yinlar va mehnat bilan to'ldirgan. Pestalossi gimnastika nazariyasi va usullarining asoschisi deb hisoblanadi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Germaniyada, Fit va Guis Mutboshchiligida gimnastikaning yangi tizimi tashkil etildi. Ular snaryadlarda gimnastik mashg'ulotlarni o'tkazish texnikasi, ushbu texnika asosida o'rgatish, tarbiya etishni ishlab chiqishdi. Chuts Muts o'zining nazariyasida snaryadlarda harakatlanish va mashg'ulotlarni guruh bo'lib bitta komandaga asosan o'tkazishni olg'a surdi, gimnastik mashg'ulotlar texnikasini va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqdi.

Y.A.Komenskiyning asarlari va uning didaktik prinsiplari sistemasi X asr pedagogika klassiklari Jap-Jak Russo (1712 —1778 yillar) va ayniqsa, Pestalossi (1746 —1827 yillar) dunyoqarashlarining taraqqiyotiga yordam berdi. Ularning jismoniy tarbiya sohasidagi xizmatlari shundan iboratki, ular gimnastikaning chinakam tiklanishiga turtki berdilar. Russo jismoniy mashqlar inson tanasini mustahkamlaydi va toblaydi, kuch va harakat imkoniyatlarining rivojlanishi uchun kerakli sharoit yaratib beradi, yashash uchun tayyorlaydi, aqliy kamol topishga hamdosalomatligini mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblagan.

Pestalossi bolalarda mavjud bo'lgan kuch va qobiliyatni mashqorqali rivojlantirishni jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadideb bilgan. U fikrlash va harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham keyingi o'ringa qo'yish muhim, deb hisoblagan. Buning uchun bo'g'inlardagi eng oddiy harakatlar, eng yaxshi mashqlar bo'ladi, chunki har qanday murakkab harakat ana shunday oddiy harakatlardan tarkib topadi, deb aytadi. Gimnastikani esa harakatli o'yinlar va qo'l mehnati to'ldirib borish kerak bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Albatta, bu bilan u bo'g'in mashqlarining ahamiyatiga haddan tashqari yuqori baho

berib yuborgan edi, shunga qaramay, u ishlab chiqqan analitik metod o'sha zamon gimnastikasi uchun muhim ahamiyat kasb etgan va keng qo'llanilgan.

Russo, Pestalossi va boshqa o'sha zamon pedagogikasi arboblarning pedagogik g'oyalari burjua intelligensiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanar edi. Bu sohada amaliy ishlar ilk bor Germaniyada boshlandi. X asrning 70-yillarida ayrim shaharlarda yangi tipdagi maktablar – filantropinlar tuzila boshlandi, bu maktablarda nemis milliy gimnastikasi yuzaga kela boshladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish kerakki, XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasi hayotga faol tatbiq etila boshlandi. Bunda, albatta, gimnastika maktablari faoliyatining yanada takomillashtirilishi va bu borada J.J.Russo, I.G.Pestalossi kabi pedagog olimlar tomonidan ilg'or g'oya hamda qarashlarning ishlab chiqilishi asosiy omillardan bo'ldi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishini izohlang.
2. Mazkur jarayonda fransuz jamoat arbobi Pyer de Kubertenning ishtirokiga baho bering.
3. Gimnastika maktablari va ularning faoliyat xususiyatlari haqida gapiring.
4. J.J.Russo, I.G.Pestalossi kabi pedagog olimlarning jismoniy tarbiyaga oid qarashlarini sharhlashga harakat qiling.
5. Nima uchun Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bordi?
6. Olimpiya o'yinlarining ta'lim-tarbiya tizimiga qanday aloqasi yoki ta'siri bor?


## “DAVRA SUHBATI” metodi



### Qo‘llashdan maqsad:

- ta‘lim oluvchilarni aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarda o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quvchilarda o‘zaro hamjihatlik, hamkorlik, birgalikda ishlash sifatlarini tarbiyalash;
- ta‘lim oluvchilarnimustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini rivojlantirish va h.k.

### Og‘zaki suhbat chizmasi:




### Belgilar:

1-ta‘lim oluvchilar

2-aylana stol



## Yozma suhbat chizmasi:



## Davra suhbatini" metodining bosqichlari:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. . Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi.
4. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.

Izoh:Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

## **IV Bob. Per de Kuberten va olimpiya g'oyasi**

### **4.1. Per de Kuberten hayoti va faoliyati**

Baron Per de Kuberten — Xalqaro olimpiya xarakatining buyuk arbobi, zamonaviy olimpiya xarakatining asoschisi, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining ikkinchi Prezidenti. 1863 yilning 1-yanvar kuni Parij shahrida fransuz rassomi oilasida tug'ilgan. Bolaligidan chavandozlikni hush ko'rgan, qilichbozlik va eshkak eshish bilan shug'ullangan. Parij liseylarining birida, harbiy maktabda, so'ng Parij universitetida o'qib, sanat, fan va huquq bakalavri darajasini olgan. Talimini siyosiy fanlar erkin maktabi (Ekol Premer)da davom ettirgan.

1894 yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Bosh kotibi, 1896 yilda Prezidenti etib saylangan. Per de Kubertenning bevosita rahbarligida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi II, III, IV, V, VII, VIII Olimpiya o'yinlarini, Shamonida rasmiy ravishda I Qishki Olimpiada maqomi berilgan qishki sport haftaligini o'tkazgan. 1925 yilda o'z xohishiga ko'ra Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti lavozimidan istefoga chiqqan. Shu sanadan umrining ohirigacha — XOQning faxriy Prezidenti bo'lib qolgan.

Olimpiya xarakati, sport tarixi, shuningdek, sosiologiya, falsafa, siyosat, arxeologiya, fanning boshqa sohalariga oid 30 ta kitob, 50 ta risola, 1200 tadan ortiq maqolalar muallifi.

U zodagon (aristokrat) oilasida tug'ilib, tarbiya oladi. Uning dunyoqarashlari demokratiyaga ishonch, sportdagi irq, millatchilik va kamsitishlarga qarshi edi. Bir qancha yillar Fransuz sporti uyushmasida kotib bo'lib xizmat qilgan. V Olimpiya o'yinlariga (1912) bag'ishlab o'tkazilgan san'at tanlovida (konkurs) "Sportga oda" poemasi uchun oltin medal sohibi bo'lgan edi. Kubertenning xalqaro olimpiya harakati bo'yicha olib borgan mehnat faoliyatining bahosi yo'q, albatta.

Per de Kuberten 1937 yilning 2-sentabr sanasida hayotdan ko'z yumgan. Vasiyatiga ko'ra Jenevaga (Shveysariya), Shveysariyaning Lozanna shahrida Xalqaro Olimpiya qo'mitasi shtab-kvartirasi yaqinida dafn etilgan. Gresiya Milliy Olimpiya qo'mitasining taklifi bilan yuragi balzamlashtirilib, maxsus idishda Olimpiya shahri muqaddas dargohiga kiraverishdagi yodgorlik ichiga joylangan.

#### **4.2. Per de Kuberten – zamonaviy olimpiya harakatining asoschisi**

Per de Kuberten haqli ravishda zamonaviy olimpiya harakatining asoschisi hisoblanadi. U 1892 yil 25 noyabrda o'zining mashhur "Olimpiyaning uyg'onish ma'ruzasi"ni Parijdagi Sarbonna universitetida o'qib eshittiradi. U o'zi maqsad qilganidek, olimpizm tarafdorlarini to'pladi va Butunjahon uchrashuvini tashkil qildi. Bu uchrashuv 1894 yil iyunda Sarbonnaning katta majlislar zalida o'tkazildi va Per de Kuberten 12 ta davlatdan kelgan 72 ta vakillar oldida, Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va Xalqaro Olimpiya qo'mitasini (XOK) tuzish loyihasi bilan so'zga chiqdi.

Ta'sis kongressi Kuberten taqlifini qo'llab-quvvatladi va olimpiya harakatini boshqarish hamda o'yinlarni tashkil qilish maqsadida, 1894 yil 23 iyunda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta davlatdan 14 ta vakil kiritildi. Ma'lumki, ta'sis kongressi Olimpiya o'yinlarining asosiy tamoyillari, qoidalari va nizomlarini ma'qulladi. Ularni Per de Kuberten Olimpiya xartiyasi deb nomladi. Kongress olimpiya o'yinlarini qadimgi an'ana bo'yicha to'rt yilda bir marta o'tkazish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi. Kuberten birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini 1900 yilda Parijda o'tkazishni taqlif qilgan edi. XX asrning boshlanishi yangi Olimpiya davrining boshlanishi bo'ldi. Biroq Yunoniston vakili taniqli shoir va tarjimon Vikelas Demetrius Olimpiadani olti yil kutib o'tirmasdan, birinchi Olimpiya o'yinlarini 1896 yilda o'tkazishga kongressni chaqirdi. Bunda u shuni qayd qildiki, Parij 1900 yilda sport o'yinlari maydoniga aylansin, yunonlar yeri - qadimgi Olimpiadalar beshigi esa bundan to'rt yil oldin Olimpiya o'yinlarini o'tkazadi. Ushbu taklif qo'llab-quvvatlandi va shunday qarorga kelindi.

1896 yil zamonaviy 1-Olimpiya o'yinlari yili deb ataladi. 1-o'yinlarning o'tkazilish joyi Yunoniston poytaxti Afina shahri bo'ldi. Shunday qilib, bir yarim ming yillik unutilishidan so'ng Olimpiya o'yinlari insoniyatga qaytarildi. Shundan beri 100 yildan ortiq vaqt mobaynida har to'rt yilda Olimpiya mehrobida Olimpiya mash'ali yoqiladi.

Kubertening takidlashicha, olimpizmning birinchi va asosiy maqsadi sport, madaniyat, fan, san'at olimpiya harakati deb nomlanadigan mustahkam qotishmaga birlashishi lozim. Olimpiya belgilari, ramzlari, mukofotlari, qasamyod matni ham aynan Kuberten tomonidan taqdim qilingan. U yigirma to'qqiz yil Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti bo'lgan. Uni xizmatlariga yarasha olimpizm otasi, deb atashadi.

Xorijiy adabiyotlarni kuzatadigan bo'lsak, ingliz professori Allen Guttmanning "Olimpiya: zamonaviy o'yinlar tarixi" kitobida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tashkil qilishda Pyer Kubertening tarixiy xizmatlari, uning olimpiya madaniyatidatutgan bemisl o'rni to'laqonli hikoya qilib o'tilgan.

#### **4.3. "Feyr-pley" – halol o'yin qoidalariga asoslangan bellashuv**

"Feyr-pley" tushunchasi inglizcha so'z bo'lib, "halol o'yin" ma'nosini anglatadi va u o'z mazmuniga ko'ra, olimpiya o'yinlari mohiyatini izohlaydi. Chunki olimpiya o'yinlarida, avvalo, adolatparvarlik, haqqoniylik, o'zaro do'stlik, bag'rikenglik g'oyalari tarannum etiladi. Bu esa olimpiya sportchisida ichki ishonch asosidagi axloqiy va ma'naviy sifatlarni qaror toptiradi.

Olimpiya o'yinlarida halollik, raqibga nisbatan hurmat, belgilangan qoidalarga so'zsiz itoat etish talab qilingan. Bunday o'yinlarda g'irromlik va nohaqlikka qat'iy qarshi turilgan. Masalan, bir yunon marafonchisi Velokos marra chizig'ini juda bardam holda uchinchi bo'lib kesib o'tadi. Ammo keyin aniqlanishicha, shu atrofda agronom bo'lib ishlaydigan Velokos marafon trassasi o'tadigan joyni juda yaxshi bilgan va bir aravakashga panaroqda uni poylab turishni tayinlab qo'ygan ekan. U kelishilgan joyda aravaga chiqib, marraga yaqin qolganda aravadan tushib, yana yugurishni davom ettirgan ekan. Hakamlar bu g'irromlikni fosh qilganlar, lekin marafonchilar masofani qancha muddatda bosib o'tganligini aniqlashda rosa qiynalغانlar. Bundan ko'rinadiki, o'yinlarda adolat, haqqoniylik prinsiplari hal qiluvchi mezonlardan sanalgan.

Bundan tashqari, olimpiya o'yinlaridagi halollik tamoyili haqida gapirganda Olimpiya xartiyasida keltirilgan quyidagi qoidalarni ham keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- olimpiya o'yinlari barcha mamlakatlardagi havaskor sportchilarni halol va teng huquqli musobaqalarda birlashtiradi;

- mamlakatlar va alohida shaxslar irqiga, diniy yoki siyosiy qarashlariga qarab biron-bir tarzda kamsitilishlarga yo'l qo'yilmaydi;

- olimpizmning maqsadi – inson qadr-qimmatini hurmat qilinishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan erkin jamiyat barpo etilishiga ko'maklashishdir. Ana shu maqsadga erishish uchun olimpiya harakati tinchlikni himoya qilish bo'yicha faoliyatida o'zida mavjud imkoniyatlar doirasida mustaqil yoki boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi va h.k.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, olimpiya o'yinlari o'zida jamiki umuminsoniy fazilatlarni jamlab, bashariyatni ezgulikka chorlaydi va alohida qayd qilish joizki, ushbu xayrli an'ananing tiklanishi hamda hozirga qadar yashab kelishida olimpizm harakatining asoschisi Per de Kubertening bemisl hissasi mavjud.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Per de Kuberten hayoti va faoliyati haqida ma'lumot bering.
2. Per de Kubertening o'zi bolalikdan qanday sport turlari bilan shug'ullangan?
3. Per de Kuberten nima uchun olimpizm otasi, deb atashadi?
4. XX asrning boshlanishi yangi Olimpiya davrining boshlanishi bo'ldi. Nima uchun? Izohlang.
5. Olimpizm g'oyasi va undagi umuminsoniy fazilatlar talqiniga izoh bering.
6. Olimpiya xartiyasi haqida nimalar bilasiz?
7. "Feyr-pley" qanday tushuncha. Izoh bering.


## “ISHBOP O‘YIN” metodi



### Qo‘llashdan maqsad:

- berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish);
- bir tomondan o‘yinni nazorat qilish, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilarni o‘z faoliyatlarini o‘zgartirishga o‘rgatish;
- ishtirokchi o‘quvchilarni avval o‘z vazifasi bo‘yicha qaror qabul qilishga, so‘ngra guruh bilan maslahatlashishga o‘rgatish va h.k.

### “Ishbop o‘yin” metodining tuzilmasi:



### **“Ishbop o‘yin” metodibosqichlari:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo'riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. Ta'lim oluvchilarni o'yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta'lim oluvchilar o'z rollari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.

5. Ta'lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o'yinni amalga oshiradilar.

Ta'lim beruvchi o'yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. O'yin yakunida ta'lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Izoh: Har bir rolni ijro etuvchi o'z vazifasini to'g'ri bajarishi, berilgan vaziyatda o'zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko'rsata olishi kerak.



## **V Bob. Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelishi va dastlabki rivojlanishi**

### **5.1. Tarixiy vaziyat va uning Xalqaro sport va Olimpiya harakatining rivojlanishiga ta'siri.**

Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelish sabablaridan eng muhimi – sportni rivojlantirish va Xalqaro sport uyushmalarini (XSU) tuzish harakati bo'ldi. Hozirgi davr sporti – XVIII-XIX asrlardagi yirik ijtimoiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonidagi to'ntarishlar, harbiy ilm-fan, madaniyat, san'atdagi taraqqiyotlar mahsulidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida juda ko'p hozirgi zamon sport turlari va o'yinlar vujudga keldi. Turli mamlakatlarda sport klublari tashkil etildi, musobaqalar o'tkazildi, sport inshootlari (tomosha joylar) qurildi. Angliyada va Rossiyada (Neva) eshkak eshish va parus sporti (Temzada) bo'yicha boy tajribalar mavjud edi. XIX asrning boshidan buyon bu turlar bo'yicha musobaqalar o'tkazib borilgan. 1829 yil Angliyada Kembridj va Oksford universitetlari o'rtasida eshkak eshish (greblya) bo'yicha musobaqa uyushtiriladi. 1838 yildan boshlab esa Xenlyi parus va eshkak eshish regata (o'yin) o'tkazila boshladi. Rossiyada 1847 yilda Peterburgda birinchi rasmiy musobaqa parus bo'yicha o'tkaziladi. AQShda 1852 yilda (Vinepeg ko'li) eshkak eshish bo'yicha musobaqa tashkil etiladi. Vengriya, Gresiya, Amerika, Avstraliya va boshqa bir qator mamlakatlarda suzish sporti bo'yicha musobaqalar tashkil etila boshlanadi. 1845 yilda Itonda (Angliya) birinchi yengil atletika musobaqalari o'tkaziladi. 1860 yilda Angliyada 15 ta klub mavjud bo'lib, ular o'rtasida, ayniqsa, Universitetlar o'rtasida musobaqalar o'tkazish an'anaga aylanadi. 1875 yilda Vengriyada va bir yildan keyin Nyu-Yorkda birinchi yengil atletika musobaqalari uyushtiriladi. Bu sport turi Germaniya, Fransiya va Gresiyada ham rivoj topadi. Boshqa mamlakatlarda esa sport birmuncha keyinroq tarkib topib, rivojlana boradi.

Rossiya, Finlyandiya, Shvesiya va Norvegiya xalqlari orasida chang'i va konkida uchish sporti keng tarqalgan edi. 1769 yilda Oslo shahri yaqinida jahonda birinchi marotaba chang'ida yugurish musobaqasi o'tkazilgan edi. XIX asrning 60-

yillarida bu sport turlari bo'yicha muntazam ravishda musobaqalar o'tkaziladi. Chang'ida sakrash uchun birinchi trampolinlar vujudga keldi. Bu davrlarda ko'pgina sport o'yinlari ham rivojlanadi. Futbol bo'yicha texnika va taktika ancha takomillashtiriladi. Bunda rezinali kameraning (tuflab to'ldirish) yaratilishi (50-yillar) muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1863 yilda Angliyada futbol ligasi tashkil etiladi. Bu hozirgi davr futbolining yaratilish asosini tashkil etgan edi. Kegli o'yini, laun-tennis va kriket ham rivoj topadi va maxsus joylar quriladi. To'pni qo'l bilan ushlab oladi va darvoza tomon yugurib borib, uni otadi. Futboldagi qoidani buzgan bu o'yinchining harakati asosida yangi o'yin turi paydo bo'ladi. Bu o'yin shu shahar nomi (Regbi) bilan atala boshlandi. Keyinchalik bu o'yin boshqa mamlakatlarda ham tez rivojlanadi. AQShda bu o'yin Amerika futboliga aylandi. Bu davrlarda rivoj topgan sport turlaridan biri boks hisoblanadi. Angliyada bu sport turi keng tarqalib, XIX asrda professional turga aylanib ketadi. Fransiya, Italiya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Angliya, Shvesiya kabi mamlakatlar doirasida Shpaga va Rapiroda qilichbozlik chuqur singib ketgan tur hisoblanadi.

Taniqli kishilar orasida ot sporti, o'q otish (miltiq, pistolet va kamon) ham rivojlangan edi. Otchoparlar, otish turlari qiritila boshlandi va poyga, o'q otish musobaqalari uyushtirildi. XIX asrning 60-yillarida ba'zi bir mamlakatlarda velosport bilan shug'ullanish vujudga keldi. Rossiya, Germaniya, Gresiya, Buyuk Britaniya, Vengriya kabi mamlakatlarda asosan kurash mashhur edi.

XIX asr oxirlariga kelib, jismoniy mashqlar, sport, gimnastika, o'yinlar va sayohatlarni (turizm) bir-biridan ajratish (differensiya) va turlarga bo'lish tizimiga asos solindi. Mamlakatlardagi sport klublari asta sekin milliy sport uyushmalari (soyuz) va ligalariga birlasha boshladi. 1868 yilda Germaniyada barcha gimnastika uyushmalari nemis gimnastika uyushmasiga birlashadi. 1888 yil AQShda havaskor atletik uyushma, 1903 yil Shvesiyada Umumshved sport uyushmasi tashkil etiladi. Umummilliy sport tashkilotlari boshqa mamlakatlarda ham yuzaga kela boshlaydi. Bu uyushmalarning boshida asosan yirik kapital egalari turar edi.

Ular ko‘pincha mesenat (homiyl) sifatida klublar, ligalar, uyushmalarning faoliyatini taqdirlash bo‘yicha ishtirok etishgan.

XIX asr oxirida mamlakatlardagi sport tashkilotlarining boshqalar bilan o‘zaro tajriba almashish faoliyati yuzaga kelib, keyinchalik ular Xalqaro sport uyushmalarini tashkil qilishga asos solganlar. 1881 yilda jahonda birinchi marotaba Yevropa gimnastika uyushmasi tashkil etilgan. Shu yilning o‘zida esa Xalqaro gimnastika federatsiyasi (FIJ) tashkil topgan. 1882 yilda konkida uchish Xalqaro uyushmasi (ISU) va Xalqaro eshkak eshish-greblya federatsiyasi (FISA), 1900 yilda Xalqaro velosport uyushmasi (USI), 1904 yilda Xalqaro futbol federatsiyasi (FINA) va Xalqaro muz ustida xokkey ligasi (XIXG), 1912 yilda Xalqaro yengil atletika havaskorlik federatsiyasi (IPAF), 1913 yilda xalqaro nayzabozlik federatsiyasi (FIB) tashkil etilgan.

## **5.2. Parijda olimpiya o‘yinlarining qayta tiklanishi va Xalqaro Olimpiya**

### **Qo‘mitasining ta‘sis etilishi**

Per de Kuberten 1889-1890 yillarda olimpiya o‘yinlarini tashkil etish masalalari yuzasidan jahonning turli mamlakatlaridagi davlat, jamoat va sport arboblari bilan yozishmalar olib boradi, bu haqda muzokaralar o‘tkazish uchun Amerika Qo‘shma Shtatlari va Buyuk Britaniyaga safar qiladi, turli xalqaro sport musobaqalari tashkil etadi. Shu vaqtda Fransiyada Sportatletika turlari jamiyatlarining uyushmasi tuziladi. Uning Bosh kotibi etib Per de Kuberten saylanadi. Bu lavozimda u bevosita zamonaviy olimpiada harakatini tiklash yuzasidan amaliy say-harakatlarga kirishadi. 1892 yil 25 oktabrda – Fransiya Sport atletika jamiyatlarining uyushmasi besh yilligi nishonlanayotgan kunda Per de Kuberten Parijdagi Sorbonna universiteti amfiteatridan turib birinchi marta rasmiy ravishda “Olimpiya o‘yinlarini bugungi kun ehtiyojlariga javob beradigan tamoyillar asosida tiklash” qarorini e‘lon qiladi.

Per de Kuberten nufuzli Fransiya Sport atletika turlari jamiyatlari uyushmasi zamonaviy olimpiya o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish masalalarini hal etish uchun xalqaro anjuman chaqirish chorlarini ko‘rish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishga erishdi.

Shu tariqa birinchi xalqaro atletik kongress 23 iyun 1894 yil Parijdagi Sarbonna universitetida o'tkazilgan edi. Keyinchalik bu tadbir IOlimpiya Kongressi deb ataldi. Kongressda 12 mamlakat vakillari ishtirok etadi. 21 mamlakat esa yozma ravishda o'z xohishiga ko'ra rozilik bildiradi. Katta mamlakat hisoblangan Germaniya bundan bosh tortadi. Chunki mamlakat tepasidagi harbiylar olimpiya o'yinlari g'oyalariga qarshi edilar.

Kongressda asosan to'rtta masala muhokama etiladi, ya'ni:

1. Havaskorlik va professional sport haqida.
2. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash to'g'risida.
3. O'yinlarning dasturi va uni o'tkazish tartiblari haqida.
4. Xalqaro olimpiya qo'mitasining tarkibi haqida.

Kongressda Xalqaro olimpiya qo'mitasi tuzilganligi haqida qaror qabul qilindi. Uning tarkibiga Gresiya, Fransiya, Rossiya, Angliya, AQSH, Shvesiya, Vengriya, Chexiya, Italiya, Belgiya, Argentina, Yangi Zelandiya vakillari kiritildi. Olimpiya qo'mitasining birinchi prezidenti etib grek Demetrius Vikelas (1894-1896 yillar) saylandi.


Kongressda Olimpiya Xartiyasi (Ustav) tasdiqlandi. Unda XOQning maqsad va vazifalari, o'yin qoidalari va ular bilan bog'liq asosiy masalalar ifoda etilgan edi. I Kongress Xalqaro Olimpiya harakatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning mohiyati keyingi olimpiya harakatini rivojlantirishda asosiy o'rinda turadi.

Qadimgi Yunonistonning «ekexeriya» an'anasi yoki Olimpiya sulhi, miloddan avvalgi VIII asrda yuzaga kelib, Olimpiya o'yinlarining muqaddas vazifalariga xizmat qilgan. 1992 yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi ushbu an'anani tiklab, barcha davlatlarni mazkur sulhga rioya qilishga chaqirdi. 1993 yilning 25 oktabrida qabul qilgan 48/11 qarorida Bosh Assambleya barcha davlatlarni Olimpiya o'yinlarining boshlanishidan avval 7 kun va yakunlanganidan so'ng 7 kun davomida Olimpiya sulhiga rioya qilishlariga da'vat qildi. Mazkur da'vat Mingyillik deklarasiyasida yangilandi. Olimpiya harakati sportning tarbiyaviy ahamiyati orqali insoniyatning osoyishta kelajagini ta'minlashda o'z hissasini qo'shishga intiladi. U butun dunyo atletlarini eng yirik sport bayrami –

Olimpiya o'yinlariga to'plab Birlashgan Millatlar Tashkiloti uchun ham umumiy bo'lgan tinchlikni asrash, bir-birini tushunish va ezgulikka intilish kabi maqsadlarni ilgari suradi. Ushbu umumiy maqsadlarni yoritish uchun Xalqaro Olimpiya qo'mitasi 1998 yilda Olimpiya o'yinlari doirasidagi musobaqalar o'tkazilayotgan barcha obyektlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining bayrog'i ko'tarilishi haqida qaror qabul qildi. O'z o'rnida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bilan qator kelishuvlar orqali o'z hamkorligini kengaytirmoqda.

### **Nazorat uchun savollar:**


1. Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelish sabablari hamda omillarini izohlang.
2. I Olimpiya Kongressida qaysi masalalar ko'rilgan edi?
3. Qaysi sport turlari qaysi davlatlarda rivojlanib bordi?
4. Qanday xalqaro sport uyushmalari va federasiyalarini bilasiz?
5. O'zbekistonda xalqaro sport va Olimpiya harakatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga misollar keltiring.
6. O'zingiz yoqtirgan sport turi va uning xalqaro Olimpiya o'yinlarida tutgan o'rni haqida gapiring.



### **Qo'llashdan maqsad:**

- ta'lim oluvchilarni hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib berishga o'rgatish;
- ta'lim oluvchilarni ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish qobiliyatini tarbiyalash;
- muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarni birgalikda faol ish olib borishga tayyorlash;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantirish va h.k.

### “Rolli o‘yin” metodining tuzilishi:



### “Rolli o‘yin” metodining bosqichlari:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yinni izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Izoh: Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivyakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligi aksiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi.

## **VI Bob. Zamonaviy Olimpiada o‘yinlarining asosiy tamoyillari, qoidalari va nizomlari**

### **6.1. I Olimpiya o‘yinlari**

Afina, 1896 yil, 6 aprel. Marmar stadionini lim-lim to‘ldirgan 80 ming tomoshabin (o‘sha vaqtda Afinada 120 mingga yaqin aholi istiqomat qilardi, xolos), shu jumladan, bir necha ming xorijiy mehmonlar hech mubolag‘asiz tarixiy voqeaning jonli guvohi bo‘lmoqdalar. Gresiya qiroli Geyerg I birinchi zamonaviy olimpiya o‘yinlarini ochiq, deb e‘lon qiladi. Miliy madhiya sadolari ostida Gresiyaning oq-yashil bayrog‘i ko‘tariladi. Bir yuz ellik kishilik xor yunon kompozitori Samaraning ushbu tantanaga maxsus bag‘ishlangan “Olimpiya qasidasi”ni ijro etadi. Zambaraklardan salyut beriladi. Ko‘kka oq kabutarlar parvoz qiladi...

Albatta, ushbu natijaga erishish uchun olimpiya o‘yinlari tashkilotchilari va jonkuyarlari ancha zahmat chekishdi. I Olimpiadani Afinada o‘tkazishga qaror qilinganligi munosabati bilan yunon shoiri va tilshunosi, mashhur jamoat arbobi, Umumellin gimnastika jamiyati a‘zosi Demetrius Vikelas Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining birinchi Prezidenti (Ta‘sis kongressida olimpiya o‘yinlari har to‘rtiyilda jahonning turli davlatlari shaharlarida o‘tkazilishi, mezbon mamlakat vakili XOQ Prezidenti bo‘lishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi), XOQ Bosh kotibi etib esa Per de Kuberten saylandi.

Olimpiya o‘yinlari belgilangan muddatlarda muvaffaqiyatli o‘tishi uchun Demetrius Vikelas va Gresiya Olimpiya qo‘mitasiga, shuningdek, Xalqaro olimpiya qo‘mitasiga beqiyos tashkilotchilik salohiyatini, qabul qilingan qaror ijrosini ta‘minlash uchun butun irodalarini namoyish qilishlariga to‘g‘ri keldi. Chunki, kutilmaganda Gresiya hukumati ham, Afina shahri (belgilangan tartibga ko‘ra olimpiya o‘yinlari mezboni shahar hisoblanadi) ma‘muriyati ham jahon miqyosidagi bu sport musobaqalarini tashkil qilish uchun yetarli miqdorda mablag‘i yo‘qligini bildirib, O‘yinlarni o‘tkazishni umuman shubha ostiga qo‘ydilar.

Bunday vaziyatda Per de Kuberten va uni to'la qo'llab-quvvatlagan Gresiya shahzodasi Konstantin tashabbusi bilan Olimpiadani o'tkazish jamg'armasi tashkil qilindi. Jamg'armaga nafaqat yunonliklardan, balki boshqa mamlakatlardan hamda turli homiylardan mablag' kelib tusha boshladi. Masalan, Aleksandriya shahridan yunon Averof Georgios antik davrda olimpiya o'yinlari o'tkazilgan Marmar stadionni qayta tiklashga 1 million draxma hadya etdi. Homiylar pullariga Gresiya poytaxtida, shuningdek, velodrom, o'q otish bo'yicha tir qurildi. Olimpiadani o'tkazish uchun mablag' to'plashda, ayniqsa, tarixda birinchi marta bu O'yinlarga bag'ishlangan pochta markasi chiqarilishi qo'l keldi. Umuman, Gresiya Olimpiada tashkiliy qo'mitasi barcha tayyorgarlik ishlarini o'z vaqtida tugallashga muvaffaq bo'ldi.

Birinchi marotaba turli mamlakatlar sportchilarini olimpiya o'yinlariga jalb etish ham oson kechmadi. Jumladan, Germaniya, Fransiya, Belgiya milliy olimpiya qo'mitalari Afinada faqat o'zmamlakatlarida keng rasm bo'lgan sport turlari bo'yicha musobaqalarda qatnashishlarini qat'iy talab qilib qo'ydilar. Dunyodagi yetakchi sportchilarning Afinaga kelishlari uchun mablag' topish ham jiddiy muammolar keltirib chiqardi.

O'yinlarga 13 mamlakatdan 285 nafar sportchi kelishdi. Ular Avstraliya, Avstriya, Bolgariya, Buyukbritaniya, Vengriya, Germaniya, Gresiya, Daniya, Italiya, AQSH, Fransiya, Chili, Shveysariya, Shvesiya mamlakatlarining vakillari edi. O'yinlar dasturidan 9 turdagi – yunon-rum kurashi, velosiped, gimnastika, yengil atletika, suzish, otish, tennis, og'ir atletika va qilichbozlik bo'yicha musobaqalar o'rin olgan edi.

O'sha paytda sportning bu turlari hozirgi vaqtdagidan farq qilardi, albatta. Masalan, kurash va og'ir atletikada sportchilar vazn toifalariga ajratilmasdi. Yengil atletikada bellashuvlar 12 ta tur – 100, 400, 800, 1500 metrga yugurish, 110 metrga to'siqlar osha yugurish, marafon, uzunlikka, balandlikka, uch hatlab, langarcho'p bilan sakrash, disk, yadro uloqtirish bo'yicha olib borildi. Sport gimnastikasida esa musobaqalar shaxsiy va jamoa birinchiliklari bruslar, perekladinalar, shaxsiy



bellashuvlar esa faqat kon', halqa, sakrash, shuningdek, shestga chirmashib chiqishda bo'lib o'tdi.

Ko'hna yunon olimpiadalari an'analariga amal qilgan holda musobaqalarni yengil atletikachilar boshlab berdilar. Sportning bu turi turli bellashuvlarida qatnashganlar soniga qarab ular har birining naqadar ommalashgani haqida xulosa qilish mumkin edi. Chunonchi, 100 metrga yugurishda 9 mamlakatdan 19 sportchi, langarcho'p bilan sakrashda esa ikki mamlakatdan 5 atlet qatnashdi.

AQShdagi Garvard universitetining chempioni Jeyms Konnoli Afinada uch hatlab sakrash bo'yicha 13 metr 71 santimetr natija ko'rsatib, zamonaviy olimpiya o'yinlarining birinchi chempioni bo'ldi. U asosiy raqibi fransiyalik Aleksand Tifferdan 1 metr uzoqroqqa sakrashga muvaffaq bo'ldi.

Ikinchi oltin medal ham amerikalik disk uloqtiruvchi Robert Gerretga nasib etdi. Uning bu g'alabasi yunonistonlik sport ixlosmandlarining yuragini larzaga soldi. Chunki disk uloqtirishda o'z sportchilari – Panagitotis Paraskevopolusga bas keladiganlar dunyoda topilmasligiga ularning ishonchlari komil edi. Shuningdek, amerikalik R.Garret yadro irg'itishda ham g'olib bo'ldi, uzunlikka sakrashda – ikkinchi va balandlikka sakrashda uchinchi o'rinni egallab, barchaning e'tiboriga sazovor bo'ldi. Qiziqarli tomoni shundaki, Garret o'yinlarga tasodifan tushib qolgan. Chunki u Gresiyada o'z ta'tilini o'tkazib yurganda, Olimpiya o'yinlari haqidagi xabarni eshitadi va jamoaga o'z nomini kiritadi. U umrida disk uloqtirmagan, faqat o'yindan 3 kun oldin u mashq qilib o'rgangan. Uning tabiiy qobiliyati va sportdagi faoliyati olimpiya chempioni bo'lishiga sabab bo'lgan.

Gimnastika turida Germaniya sportchilari g'olib bo'ldi. K.Shuman tayanib sakrashda eng yaxshi natijaga erishdi. Velopoygada fransuz P.Masson g'olib keldi. Tennisda ingliz D.Boland, suzishda- vengr A.Xayosh ustunlik qilishdi. Otish va qilichbozlikda ochkolar to'plashda greklar ancha faollik ko'rsatib, g'olib bo'lishdi. Olimpiya yakunlariga ko'ra, greklar umumiy ochkolar bo'yicha birinchilikni egalladi.

80 ming tomoshabine'tiborini grek dehqoni Spiros Adis jalb etadi. U marafon yugurishida g'olib bo'lgan. (Marafon shahridan Afinagacha bo'lgan masofa 42 km. atrofida).

Shu tariqa Afinadagi I Olimpiya o'yinlari kutilgandek bo'lib o'tdi. Kubertenning boshlagan harakati to'la amalga oshdi. Bu XX asrning eng diqqatga sazovor tadbirlaridan biriga aylandi va Olimpiya o'yinlarining har to'rt yilda o'tkazib borilishiga asos soldi.

**Olimpiya o'yinlariga oid xorijiy adabiyotlarda ham qator tahliliy mulohaza va tavsiyalarni ko'ramiz. John A. Lukasning "Olimpiadaning kelajagi" kitobida keltirilishicha, agar 168 milliy Olimpiya qo'mitalari, sport federatsiyalari xalqaro va insonparvar tartib-qoidalarga ko'ra, sportni rivojlantirish choralarini qidirsam, halol va mahoratli sportchilarini o'yinlarga yuborsam, bahslar mazmunli kechib, jamoa ruhi yanada ko'tariladi. XOQ ham, o'z navbatida, erkaklar va ayollarning o'yinlarda munosib ishtiroki yuzasidan muvozanatni ta'minlashga e'tibor qaratishi kerak. Bu kabi samarali omillar natijasida Olimpiya o'yinlarining kelajagi yanada yaxshi bo'lishi mumkin.**

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro sport uyushmalarining tashkil etilishi va Xalqaro sport musobaqalarining o'tkazilishi qadimgi grek olimpiya o'yinlarini qayta tiklashga sabab bo'ldi. Bu yo'lda Yevropa mamlakatlarining hissasi g'oyat kattadir.

Xalqaro Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishdagi harakatlarda fransuz adibi Per de Kubertenning tinimsiz va mashaqqatli mehnatlari hamda grek xalqining o'z an'analariга sodiq bo'lishi tarixda o'chmas iz qoldirdi.

I-Olimpiya o'yinlari faqat ishtirok etgan davlatlarninggina emas, balki jahondagi juda ko'p mamlakatlarning sportchilari, yoshlari va mutaxassislarini dadil qadamlar bilan Olimpiya harakatini rivojlantirishga otlantirdi.

## **6.2. Olimpiya o'yinlarining asosiy tamoyillari, qoidalari va nizomlari, ramzlari**

1894 yil 16 iyunda Parijda o'tkazilgan Ta'sis kongressida zamonaviy olimpiya o'yinlarini o'tkazishning asosiy tamoyil va qoidalari qabul qilindi. Mazkur hujjatlar Olimpiya xartiyasi nomini oldi. (Bu haqda navbatdagi mavzularda alohida bayon etiladi). U Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining asosiy hujjati hisoblanadi.

Olimpiya o'yinlari davomida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi(XOQ)ning faoliyati rivojlandi. XOQ rahbarlarining xizmati shundaki, o'yinlarda xalq irodasi va sportchilarning faoliyatlarini turli ramzlar (simvolika) va atributlar bilan ifoda etishda yangiliklar yaratildi. Fikrimizga misol sifatida quyidagi belgilar va ramzlarni keltirish mumkin:

**Olimpiya ramzi** – bir-biriga kiritilgan (ulangan) besh xalqa. Ular yashil, qora, qizil, sariq va ko'k rangda tasvirlanib, besh qit'ani bildiradi. Bu 1913 yil Kuberten taklifi bilan tasdiqlangan.

**Olimpiya belgisi (emblema)** – besh xalqa ramzi bilan birga qo'shib, yil, shahar va mamlakatning olimpiya harakatidagi belgilari (nishon) ifodalanadi.

**Olimpiya mash'alasi** – Olimpiya shahrida quyosh nuri taftida (olov) fakel yoqiladi. Yoqilgan mash'ala (fakel) turli vositalar orqali olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan joyga yetkazib beriladi. Bu an'ana 1936 yil XI Olimpiya o'yinlaridan buyon davom etib keladi.

**Olimpiya shiori (deviz)** – Tezroq, balandroq, kuchliroq! ("Sitius, altius, fartius!")-olimpiya harakatini bildiradi. Bu shior 1895 yil Kubertenning safdoshi va o'rtog'i, Rominikan ordeni sohibi, din xodimi Martin Xidon tomonidan taklif etilgan va 1913 yilda XOQ tomonidan tasdiqlanib, 1920 yil VII Olimpiadada birinchi marotaba o'qilgan.

**Olimpiya qasamyodi** – Olimpiada sportchilar qasamyodi Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan va VII Olimpiya o'yinlarida (1920) amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, olimpiya o‘yinlari hakamlari ham qasamyod qiladi. Bu esa 1968 yildan buyon amalda qo‘llanib kelinmoqda.

**Olimpiya gulgani** – Gimn 1896 yilda yaratilgan. Kostas Palamos so‘zi va Spiros Samar musiqasi bilan yaratilgan olimpiya gimni rasmiy ravishda 1957 yilda XOQ tomonidan tasdiqlangan.

**Olimpiya medallari va yorliqlari** – oltin medal-kumushdan yasilib, uning usti 6 g. oltin bilan qoplangan. Kumush medal esa 925 sifatidagi (proba) kumushdan tarkib topgan va bronza medali. Ular 1-, 2-, 3- o‘rinlar uchun mo‘ljallangan. Diplomlar (yorliq) 1-6 o‘rinlardagi sportchilar va jamoalarga taqdim etiladi.

**Olimpiya mukofotlari** – orden va kuban. Ordenlar oltin, kumush va bronzalardan iborat bo‘lib, olimpiya harakatiga qo‘shgan ulkan hissalar va sport natijalariga ega bo‘lgani uchun rahbar shaxslarga, sportchilarga beriladi. Bu 1975 yilda tasdiqlangan. Olimpiya kubogi 1906 yilda tasdiqlanib, olimpiya sport turlarida katta yutuqlarga erishgan jamoalarga beriladi.

**Olimpiya nishonalari (atributlar)** – nishonlar (znachok), tangalar (manet) talismanlar (ramziy shakl), piktogrammlar va hokazo hisoblanadi. Bu nishonlar Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazuvchi shahar va tashkiliy qo‘mita tomonidan tayyorlanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, qadimiy olimpiya o‘yinlari bir qator davlat va jamoat arboblari, shuningdek, dunyo mamlakatlarining xalqaro sport uyushmalari hamkorligi asosida qayta tiklandi va zamonaviy olimpiya o‘yinlari nomini oldi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. I Olimpiya o‘yinlarining xususiyatlari, sport turlari va ishtirokchilar harakatini izohlang.
2. Olimpiya o‘yinlari timsollarini ayting va ularning ma‘nolarini tushuntiring.
3. Olimpiya o‘yinlarining qoidalari, Olimpiya xartiyasi haqida gapiring.

4. I Olimpiya o'yinlarining muvaffaqiyatli tashkil etilishida Per de Kuberten va uning yonidagi fidoyilarning sadoqatli xizmatlariga baho bering.

5. Qadimiy va zamonaviy olimpiya o'yinlarining o'zaro farqini tushuntiring.

6. Olimpiya sport o'yinlariga misollar keltiring, ularning qaysi biriga ko'proq qiziqasiz?

### “BAHS-MUNOZARA” metodi




#### Qo'llashdan maqsad:

- ta'lim oluvchilarda o'zaro bahs, fikr almashinuv ko'nikmalarini rivojlantirish;

- o'quvchilarning o'zgarar fikrini tinglash, qarorini hurmat qilish, o'zaro muomala-munosabat madaniyatini yanada yuksaltirish;

- o'quvchilar orasida jamoaviylik, o'zaro hurmat, inoqlik tamoyillarini qaror toptirish va h.k.

#### “Bahs-munozara” metodining tuzilishi:



### **“Bahs-munozara” metodining bosqichlari:**

- 1.** Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
- 2.** Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo’yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
- 3.** Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
- 4.** Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
- 5.** Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

## **VII Bob. XOQning maqsadi, asosiy vazifalari, tashkiliy tuzilmasi**

### **7.1. XOQning maqsadi va vazifalari**

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi dunyo miqyosida Olimpiya harakatini boshqarishda, jahon bo'ylab sport o'yinlarini tashkil qilishda va shu orqali xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlik tamoyillarini qaror toptirishda yuksak insonparvarlik faoliyatini amalga oshiradi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) Olimpiya harakatining Oliy rahbar organi bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, 1894 yil 23 iyunda fransuz jamoat arbobi Per de Kuberten tashabbusi bilan tashkil qilingan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi qarorgohi Lozanna (Shveysariya)da joylashgan. XOQning rasmiy tillari - fransuz va ingliz tillaridir. XOQning Oliy organi sessiya bo'lib, u har yili, Olimpiya yilida esa ikki marta chaqiriladi. Olimpiya kongresslari 8 yilda bir marta o'tkaziladi. XOQ ning ustav hujjati – Olimpiya xartiyasidir. XOQning Olimpiya xartiyasiga binoan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- havaskorlik sporti asosi hisoblangan jismoniy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yordam berish;
- yoshlarni sport yordamida o'zaro kelishuv va do'stlik ruhida tarbiyalash, shu orqali yangi hamda tinch dunyoni ko'rishga yordam berish;
- butun dunyoga Olimpiya tamoyillarini keng yoyish, xalqlar o'rtasida yaxshi niyat muhitini yaratish;
- jahon sportchilarini 4 yilda bir marta katta sport bayrami - Olimpiya o'yinlarida uchrashtirish.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan e'tirof etilish Olimpiya harakatiga mansublik mezoni hisoblanadi. XOQ yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarini o'tkazish, ular dasturlarini belgilash, olimpiya o'yinlarini muttasil takomillashtirib borish, shaharlarga Olimpiadalarni o'tkazish xuquqini berish masalalarini hal etadi, havaskorlik sportini rivojlantirishni rag'batlantiradi, turli mamlakatlar sportchilari

o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash choralarini ko'radi, milliy olimpiya qo'mitalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, Olimpiadalar paytida xalqaro sport federasiyalariga o'z sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilishini texnik nazorat qilish huquqini beradi, olimpiya harakatini rivojlantirishga rahbarlik qiladi.

XOQ Milliy olimpiya qo'mitalari va xalqaro federasiyalarini tan olish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ular bilan qalin hamkorlikni amalga oshiradi.

## **7.2. XOQning tashkiliy tuzilmasi**

XOQ o'ziga xos tashkiliy tuzilmaga ega bo'lib, undagi tuzilmalar o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar bo'yicha faoliyat yuritadi. Sessiyalari orasida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi kundalik faoliyatiga XOQ Ijroiya qo'mitasi rahbarlik qiladi. Uning tarkibi hozirgi paytda 15 kishidan (XOQ Prezidenti va to'rt nafar vise-prezidenti, 10 nafar a'zo) iborat.

XOQning 1999 yil 11-12 dekabr kunlari bo'lib o'tgan 110-sessiyasida qabul qilingan qarorga muvofiq, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tarkibida 115 nafar a'zo bo'lib, ularning 15 tasi xalqaro sport federasiyalari yoki ular birlashmalari vakillaridir, yana 15 nafari Milliy olimpiya qo'mitalari yoki ularning mintaqaviy assosiasiyalari vakillari, yana 15 tasi Olimpiada musobaqalarida ishtirok etayotgan yoki eng uzog'i bilan to'rt yil avvalgi Olimpiada o'yinlarida ishtirok etgan sportchilar, qolgan 70 nafari shaxsiy azolardan iborat bo'lishi shart. Bunda XOQning shaxsiy azolari orasida har bir mamlakatdan bittadan ortiq vakil bo'lishi mumkin emas. XOQ azolarining yoshi 18 yoshdan 70 yoshgacha chegaralab qo'yilgan.

2003 yildan etiboran XOQ azolari qayta saylanish xuquqi bilan 8 yil muddatga saylanadilar. Musobaqalarda ishtirok etayotgan sportchilar XOQ azoligiga olimpiya o'yinlari vaqtida olimpiya qishlog'idagi olimpiadachilar tomonidan saylanadi. Bunda yozgi Olimpiadalarda eng ko'p ovoz olgan 4 sportchi XOQ azoligiga 8 yil, yana 4 nafar sportchi 4 yil, qishki Olimpiadalarda esa 2 sportchi 8 yil, yana 2 sportchi 4 yil muddatga saylanadilar. XOQ azoligiga qolgan



3 sportchi qitalar va sport turlari bo'yicha mutanosiblik bo'lishi maqsadida XOQ Ijroiya qo'mitasi tomonidan tavsiya etiladi.

XOQ Prezidenti endilikda 8 yil muddatga (shundan so'ng faqat bir marta 4 yil muddatga qayta saylanish xuquqi bilan) saylanadi. XOQ tizimida olimpiya o'yinlarini tashkil etish va ularni o'tkazish, Olimpiada dasturlari, Olimpiya birdamligi, olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun lisenziyalar berish doimiy qo'mitalari, shuningdek, g'oliblarni taqdirlash, madaniy dasturlar, moliyaviy, tibbiy masalalar bo'yicha, matbuot va boshqa xizmatlar mavjud.

XOQ shafeligi ostida Xalqaro Olimpiya Akademiyasi faoliyat yuritadi. Bunday akademiyalar Milliy olimpiya qo'mitalari tomonidan ham tashkil etilgan. XOQ tarkibida Lozannadagi Olimpiya muzeyi ham bor.

XOQ 1969 yilda Milliy olimpiya qo'mitalari assosiasiyasi — MOQAni tan olgan, 1967 yildan faoliyat olib borayotgan Xalqaro sport federasiyalari Bosh assambleyasi – XSFBA, huquqiy jihatdan to'la mustaqil, olimpiya o'yinlari paytida barcha bahsli masalalarni hal etadigan Sport arbitraj sudi — SAS bilan qalin hamkorlik qiladi.

### 7.3. XOQ Prezidentlari

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini ushbu nufuzli tashkilot ta'sis etilgandan to bugungi kunga qadar o'z xalqining faxri bo'lgan davlat va jamoat arboblari boshqarib keldilar va kelmoqdalar. Ular o'z vazifasiga nisbatan yuksak mas'uliyati, Olimpiya harakati, uning umumbashariy ezgu g'oyalariga sadoqati bilan xalqlar qalbidan mangu joy olib kelmoqdalar. Quyida XOQ tashkil etilgan vaqtdan unga rabarlik qilgan prezidentlar hayoti va faoliyatiga oid qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tamiz.



**Vikelas Demetrius** (1835 yil, Ermupolis, Gresiya – 1908 yil 20 iyun, Afina) – Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining birinchi Prezidenti. Zamonaviy olimpiya harakati tashkilotchilaridan biri. 1894 yil iyun oyida Parijda o'tkazilgan Xalqaro ta'sis kongressida zamonaviy olimpiya xarakati muammolari muhokama

qilingan sho'bag'a rahbarlik qilgan. Mazkur kongressda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining a'zosi hamda Prezidenti etib saylangan. 1896 yilda I Olimpiada o'yinlarini Afinada o'tkazishni taklif qilgan va bu zamonaviy olimpiya o'yinlarining muvaffaqiyatli o'tishiga katta hissa qo'shgan. Olimpiya o'yinlari nihoyasiga yetgandan so'ng istefoga chiqqan. 1897 yilgacha Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi azosi bo'lgan. Hayotining so'nggi o'n yilini badiiy ijodga bag'ishlagan.



**Baron Per de Kuberten** — Xalqaro olimpiya xarakatining buyuk arbobi, zamonaviy olimpiya harakatining asoschisi, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining ikkinchi Prezidenti. 1863 yilning 1-yanvar kuni Parij shahrida fransuz rassomi oilasida tug'ilgan. Bolaligidan chavan dozlikni xush ko'rgan, qilich bozlik va eshkak eshish bilan shug'ullangan. Parijli seylarining birida, harbiy maktabda, so'ng Parij universitetida o'qib, sanat, fan va huquq bakalavri darajasini olgan. Talimini siyosiy fanlar erkin maktabi (Ekol Premer)da davom ettirgan. 1894 yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Bosh kotibi, 1896 yilda Prezidenti etib saylangan. Per de Kubertenning bevosita rahbarligida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi II, III, IV, V, VII, VIII Olimpiya o'yinlarini, Shamonida rasmiy ravishda I Qishki Olimpiada maqomi berilgan qishki sport haftaligini o'tkazdi. 1925 yilda o'z xohishiga muvofiq Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti lavozimidan istefoga chiqqan. Shu sanadan umrining oxirigacha — XOQning faxriy Prezidenti bo'lib qolgan.



**Baye-Latur Anri-de, graf** (1876 yil, 1 mart — 1942 yil 6 yanvar, Bryussel) — Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining uchinchi Prezidenti. Belgiyaning Antverpen provinsiyasi sobiq gubernatori oilasida dunyoga kelgan. Bolalik payti

va Leven universitetida o'qigan yillari sportning chavandozlik turiga qiziqqan. Universitetni tamomlagandan keyin diplomatik xizmatda bo'lib, Belgiya hukumatining topshiriqlarini bajargan, uning Gollandiyadagi diplomatik vakili bo'lgan.

1903 yilda Belgiyadan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi azosi etib saylangan. 1905 yilda XOQning III kongressini tayyorlash va o'tkazishga shaxsan hissa qo'shib, bu xalqaro tashkilotda katta obro'-etibor qozongan. 1906 yilda Belgiya Milliy olimpiya qo'mitasi ta'sislaridan biri bo'lgan. Bevosita uning tasiri tufayli Belgiyaning Antverpen shahri 1920 yilgi olimpiya o'yinlarining poytaxti etib tanlangan. Antverpen birinchi jahon urushi yillari vayronaga aylantirilganligiga qaramasdan. VII Olimpiadani o'tkazish tashkiliy qo'mitasining prezidenti etib saylangan Anri de Baye-Latur bu jahon sporti bayramining muvaffaqiyatli o'tishini taminlashga katta hissa qo'shgan. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi 1921 yilda o'zining birinchi Ijroiya qo'mitasini shakllantirganda Anride Baye-Latur uning azosi etib saylandi. 1922 yilda Braziliyada o'tkazilgan Janubiy amerika o'yinlarida XOQ rahbariyati vakili bo'lgan Baye-Latur bu mintaqa sport tashkilotlaridagi turli mojaro va muammolarni muvaffaqiyatli hal eta olgan. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 1925 yil 28 maydagi 24-sessiyasida Anride Baye-Latur ikki turovoz berishdan so'ng XOQ Prezidenti etib saylangan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 1933 yil Venada bo'lib o'tgan sessiyasida Anri de Baye-Latur ikkinchi sakkiz yil muddatga XOQ Prezidenti etib saylandi. Anri de Baye-Latur rahbarligida XOQ II,III qishki Olimpiadalarni,IX,X,XI yozgi olimpiya o'yinlarini o'tkazadi.



**Edstrem Yuxannes Zigfrid** (1870 yil 21 noyabr, Geteborg, Shvesiya — 1969 yil 18 mart, Stokgolm, Shvesiya) — Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining to'rtinchi Prezidentidir. Yuxannes Edstrem Shvesiya va AQShda talim olgan, Shveysariyaning Syurix shahridagi Federal texnologiya institutida

muhandis-energetik ixtisosligini egallagan. Shundan keyin AQSH va Shveysariya konsernlarida ishlagan, XIX asr oxirida Shvesiyaga qaytib, tramvay korporasiyasida faoliyatini davom ettirgan. Keyin Shvesiyada eng yiriklardan hisoblangan «ASSA» kompaniyasining prezidenti bo'lgan.

Yuxannes Edstrem yoshligidan yengil atletika bilan shug'ullangan. 1891 yilda 100 va 150 metrga yugurishda Shvesiya rekordini o'rnatgan. 1901–1903 yillarda Shvesiya yengil atletika federasiyasining prezidenti bo'lgan, Shvesiya sportini rivojlantirish mamuriy organi — riksidrottsferbunder tashkilotchilaridan biridir. U Stokgolmdagi beshinchi olimpiya o'yinlari tashkilotchilaridan hisoblanadi.

1912 yilda Yuxannes Edstrem Xalqaro havaskor yengil atletikachilar federasiyasi — IAAFning birinchi prezidenti etib saylangan. U 1946 yilgacha ana shu lavozimda faoliyat olib bordi. Yuxannes Edstrem 1921 yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi azosi, keyin XOQ Ijroiya qo'mitasining azosi etib saylangan. 1931 yilda Yuxannes Edstrem XOQ vise-prezidenti etib saylandi. 1946 yilda XOQning 40-sessiyasida Yuxannes Edstrem Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti etib saylandi. Yuxannes Edstrem Per de Kubertenning havaskor sportni rivojlantirish tamoyilining tarafdori edi. U olimpiya harakatida millatchilikning har qanday ko'rinishiga qat'iy qarshi edi. Yuxannes Edstrem XOQning 1949 yildagi 44-sessiyasida Xalqaro olimpiya akademiyasini tashkil etish taklifini qo'llab-quvvatladi. Bu g'oya 1961 yilda amalga oshirildi. Yuxannes Edstrem XOQning 1950 yilgi 45-sessiyasida sanat tanlovlarini olimpiya o'yinlari dasturidan chiqarish, Olimpiada doirasida turli sanat festivallari, ko'rgazmalari o'tkazish takliflarini kiritdi.

Bu o'n beshinchi Olimpiadadan boshlab amalga oshirildi. Yuxannes Edstrem XOQning 1952 yil 16 iyul kuni bo'lib o'tgan 48-sessiyasida o'z iltimosi bilan iste'foga chiqdi. U ham umrining oxiriga qadar XOQning faxriy prezidenti bo'lib qoldi.



**Brendej Eyveri** (1887 yil 28 sentabr, Detroyt, AQSH — 1975 yil 7 may, Garmish — Partenkixeren, Germaniya) — Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining beshinchi Prezidenti. Ishchi oilachida tug‘ilgan, 1893 yilda oilasi bilan Chikagoga ko‘chib ketgach, shervud o‘rta maktabida boshlang‘ich talimni oladi, 12 yoshidan «Chikago tribyun» gazetasini tarqatuvchi bo‘lib ishlay boshlaydi. Bu ishini xususiy kollejda o‘qish bilan birga qo‘shib olib boradi. Kollejda yengil atletikaning ko‘pgina turlari, xususan, futbol va basketbol bilan shug‘ullanadi. 1909 yilda Illinoys shtatining universitetini tugallab, muhandis-quruvchi ixtisosligini egallagan Eyveri Brendej Chikagodagi «Xolaberd va Roshe» memorchilik firmasida qurilish boshqaruvchisi vazifasida ishlash bilan birga sport bilan faol shug‘ullanadi. U yengil atletika ko‘pkurashi bo‘yicha AQSH birinchiligining 1910 yilgi sovrindoridir. 1912 yilgi Stokgolm Olimpiadasida, AQSH terma jamoasi safida yengil atletika beshkurashi bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallashga muvaffaq bo‘lgan. Sportchi 1914, 1916 va 1918 yillarda yengil atletika ko‘pkurashi bo‘yicha mamlakat chempioni xam xisoblanadi. So‘ng u qo‘l to‘pi bilan shug‘ullana boshlab, sportning bu turida Amerikaning eng yaxshi o‘n o‘yinchisidan biri, deb topilgan. Eyveri Brendej 1925–1927 yillarda qo‘l to‘pi bo‘yicha milliy qo‘mita raisi, 1928–1935 yillarda, AQSH Havaskor atletika assosiasiyasi, 1928–1952 yillarda, AQSH Milliy olimpiya qo‘mitasi prezidenti bo‘lgan. U 1930 yilda Xalqaro havaskor yengil atletika federasiyasi vise-prezidenti, 1936 yilda XOQ a‘zosi, 1937 yilda XOQ Ijroiyaqo‘mitasi azosi, 1945 yilda XOQ vise-prezidenti, 1946 yilda birinchi vise-prezidenti etib saylangan. 1952 yil iyun oyida XOQning Xelsinkida bo‘lib o‘tgan 48-sessiyasida Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining Prezidenti etib saylandi. Eyveri Brendej birinchi bo‘lib XOQning Oltin medali bilan taqdirlangan. U 85 yoshida XOQning 1972 yilda Myunxenda bo‘lib o‘tgan 73-sessiyasida o‘z ixtiyoriga ko‘ra iste‘foga chiqdi. Eyveri Brendej hayotining so‘nggi yillarini

Germaniyaning Garmish-Partenkirxen shahrida o'tkazdi va vasiyatiga ko'ra shu yerda dafn etildi.



**Killanin Maykl Morris**, lord (1914 yil 30 iyul, London) —

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining oltinchi prezidenti. Maykl Killanin Parij va Kembrij universitetlarida talim olgan. Yoshligidan sportning chavandozlik, boks va eshkak eshish turlari bilan shug'ullangan. 1935-1936 yillarda Maykl Killanin «Deyli ekspress» gazetasida muxbir, 1937–1938 yillarda bu nashrning Osiyodagi harbiy muxbiri, 1938–1939 yillarda «Deyli meyl» va «Sandi dispetcher» gazetalarida siyosiy sharhlovchi bo'lib ishlagan. 1938-1945 yillarda Buyuk Britaniya Qurolli Kuchlarining zobiti, ikkinchi jahon urushi qatnashchisidir.

O'tgan asr 40-yillarining oxiri 50-yillarning boshlarida Maykl Killanin turli sanoat firmalarida mamuriy lavozimlarni egallagan. 1950 yilda Irlandiya milliy olimpiya qo'mitasining Prezidenti etib saylangan Maykl Killanin olimpiya harakatining faollaridan biridir. U 1952 yildan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining azosi, 1967 yildan XOQ Ijroiya qo'mitasi azosi, 1968 yildan XOQning vise-prezidentidir. U 1972 yilda XOQning Myunxenda bo'lib o'tgan 83-sessiyasida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti etib saylandi. Maykl Killanin Olimpiya xaritasidagi havaskor sportchi maqomiga aniqliklar kiritilgan «26 qoida» mualliflaridan biridir. U sportni tijratlashtirishga qarshi bo'lgani holda milliy olimpiya qo'mitalarining o'z sportchilarini olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rishlari va ularda qatnashishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini qoplashlariga xayrixohlik bildirgan. Maykl Killanin XOQ Prezidenti lavozimida ekanligida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining milliy olimpiya qo'mitalari va xalqaro sport federasiyalari bilan aloqalari mustahkamlandi. Maykl Killanin rivojlanayotgan davlatlarda olimpiya harakatini, sportni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. U XOQning «Olimpiya birdamligi» dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish

tashabbuskori bo‘ldi. XOQ Maykl Killanin rahbarligida Monrealdagi XXI, Moskvadagi XXII olimpiya o‘yinlarini, Insburgdagi XII va Leyk-Plesiddagi XIII qishki Olimpiadalarni o‘tkazdi. Bu davrda turli siyosiy qarama-qarshiliklar, olimpiya o‘yinlarini boykot qilishga urinishlarga qaramasdan Maykl Killanin rahbarligidagi XOQ olimpiya harakatining parchalanib ketishtga yo‘l qo‘ymadi. Maykl Killanin 1980 yilda o‘z xohishiga ko‘ra XOQ Prezidentligi lavozimidan istefoga chiqdi.



**Samaranch Xuan Antonio**, markiz (1920 yil 17 iyul, Barselona, Ispaniya) — Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining yettinchi Prezidenti. Xuan Antonio Samaranch universitetning tijorat fakultetini tugallagandan so‘ng biznes faoliyatini sport ustozligi bilan qo‘shib olib bordi. U yoshligida boks, rolikli konkida xokkey bilan shug‘ullangan. Keyinchalik u ustozlik qilgan Ispaniyaning rolikli xokkey jamoasi jahon chempioni ham bo‘ldi. 1940–1950 illarda Xuan Antonio Samaranch Barselona munisipalitetining maslahatchisi bo‘lgan, so‘ng Ispaniya rolikli xokkey milliy federasiyasining prezidenti etib saylangan. 1963 yilda Xuan Antonio Samaranch Ispaniyaning sport oliy kengashi rahbari lavozimiga tayinlanadi. U 1955 yilda Barselonada o‘tkazilgan ikkinchi O‘rta dengiz o‘yinlarining tashkilotchilaridan biridir. U 1956 yildagi VII qishki Olimpiada, 1960 yilgi XVII va 1964 yilgi XVIII olimpiya o‘yinlarida Ispaniya sport delegasiyasining rahbari bo‘lgan. 1967 yilda Xuan Antonio Samaranch Ispaniya milliy olimpiya qo‘mitasining Prezidenti etib saylanadi. U 1968 yildan Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi protokoli rahbari, 1970 yildan XOQ Ijroiya qo‘mitasi azosi, 1974 yildan XOQ vise-prezidentidir. U 1977 yilda Ispaniyaning sobiq Ittifoqdagi elchisi bo‘lgan. 1980 yil iyul oyida XOQning 83-sessiyasida Xuan Antonio Samaranch ovoz berishning birinchi bosqichidayoq Xalqaro olimpiya Qo‘mitasi Prezidenti etib saylangan.

Xuan Antonio Samaranch bu lavozimni egallashi bilan olimpiya harakatini davr talabiga moslashtirish, XOQ olimpiya doirasini kengaytirish, sportda dopingga qarshi kurashish kabi asosiy tamoyillarni o'z ichiga olgan faoliyat dasturini elon qildi. 1982 yil boshida Xuan Antonio Samaranch Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga BMT tomonidan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining mutlaq mustaqilligini hamda uning jahonning xohlagan qismida tashqaridan biron-bir aralashuvlarsiz olimpiya o'yinlarini o'tkazish huquqini etirof etish taklifi bilan murojaat qildi. Xuan Antonio Samaranch rahbarligida XOQ XIV, XV, XVI, XVII, XVIII qishki Olimpiadalar hamda XXIII, XXIV, XXV, XXVI, XXVII olimpiya o'yinlarini o'tkazdi. 1986 yildan professional sportchilarning olimpiya o'yinlarida ishtirok etishlariga ruxsat berilishi ham Samaranch nomi bilan bog'liq. 1991 yilda Ispaniya qiroli Xuan Karlos Xuan Antonio Samaranch Torelloga markiz unvonini marhamat qildi. 2000 yilda Xuan Antonio Samaranch o'z xohishiga ko'ra XOQ Prezidenti lavozimidan istefoga chiqdi.



**Rogge Jak** (1942 yil, 2 may, Gent, Belgiya) — Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining sakkizinchi Prezidenti. Jak Rogge ixtisosligi bo'yicha xirurg va tilshunosdir. U regbi bo'yichi Belgiya terma jamoasi azosi bo'lgan. Jak Rogge yelkanli qayiq sportida Belgiyaning o'n olti karra chempioni hamda jahon chempionidir. U 1968, 1972, 1976 yillardagi olimpiya o'yinlarida yelkanli qayiq musobaqalarida ishtirok etgan. Jak Rogge 1989 yilda Yevropa Olimpiya qo'mitalari assosiasiyasining prezidenti hamda Milliy olimpiya qo'mitalari assosiasiyasi — ANOK vise-prezidenti etib saylandi. 1989-1992 yillarda Belgiya Milliy olimpiya qo'mitasining prezidenti bo'lgan. Jak Rogge 1998 yildan XOQ Ijroiya qo'mitasining azosi, 2000 yilda esa XOQ sessiyasida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining sakkizinchi Prezidenti etib saylangan.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, XOQ prezidentligiga saylangan har bir nomzod o'z ishida olimpiya harakati an'alariga sodiq qolib, qadimiy va navqiron sport o'yinlarini yanada rivojlantirish yuzasidan bor kuch-iqtidorlarini ishga



soldilar. Albatta, ularning bu kabi matonatli va fidoyi xizmatlari tarix oldida unutilmas sahifalardan hisoblanadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining tashkil etilishi, maqsad va vazifalarini ayting.
2. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi va Milliy olimpiya qo‘mitalari o‘rtasidagi hamkorlik haqida qanday fikr bildira olasiz?
3. Mazkur xalqaro tashkilotning tashkil etilishida jonbozlik ko‘rsatgan sport fidoyilari haqida gapiring.
4. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidentlari haqida hikoya qiling.
5. Olimpiya o‘yinlarining bugunga qadar taraqqiy etib, dunyoni egallashida Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining qanday o‘rni varoli mavjud?
6. Sizda agar Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish imkoniyati bo‘lsa, qaysi sport yo‘nalishida shug‘ullangan va o‘yinlarda qatnashgan bo‘lardingiz?


### **“MUAMMOLI VAZIYAT” metodi**



### **Qo‘llashdan maqsad:**

- ta‘lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ta‘lim oluvchilarni mustaqil fikr yuritishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarda o‘z ustida ishlash, talabchanlik va izlanuvchanlik sifatlarini tarbiyalash va h.k.

### “Muammoli vaziyat” metodining tuzilishi:



### “Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

## VIII Bob.Olimpiya Xartiyasi

### 8.1. Olimpiya xartiyasidagi ezgu timsollar

Olimpiya xartiyasi Olimpiya harakatining Bosh qomusi desak xato qilmagan bo‘lamiz. Uning yangi tahriri 1999 yil XOQ ning 101-sessiyasida qabul qilindi. U bir nechta bo‘limlardan iborat. Birinchi bo‘lim Olimpiya harakatining asosiy tamoyillariga bag‘ishlangan, unda o‘yinlarni o‘tkazish sharafi davlatga emas, balki shaharga beriladi, chunki davlat - bu mamlakat, siyosat, shahar esasiyosatdan tashqari. Shu bilan birga, o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazish shahar Olimpiya o‘yinlari poytaxti joylashgan davlatning MOQga yuklatiladi. Milliy Olimpiya qo‘mitalari XOQ bilan uzviy aloqada va bevosita uning rahbarligi ostida ish olib boradi hamda o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishda to‘liq javobgarlikka ega bo‘ladi.

Xartiyada ta’kidlanadiki, hamma ishlab topilgan mablag‘lar faqat Olimpiya harakatini rivojlantirish, sportni rivojlantirishga, ya’ni insonlar tinchligi va salomatligi uchun yo‘naltirilishi lozim. Olimpiya xartiyasida Olimpiya ramzlari, emblemalari, bayrog‘i, Olimpiya mash’ali, rituallari mazmuni hamda ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy Olimpiya o‘yinlarining ramzi turli xil rangdagi beshta bir-biriga o‘ralgan halqa tasviridan iborat. Bu halqalar beshta qit’a sportchilarining birdamligi va ularning uchrashuvi ma’nosini bildiradi. Xartiyada ularning joylashishi aniq belgilab berilgan: yuqoridagi uchta halqa chapdan o‘ngga quyidagi tartibda keladi: ko‘k, qora, qizil, pastdan esa sariq, yashil.

Olimpiya shiori: “Kitius”, “Alitus”, “Fortius” ya’ni (Tezroq, Balandroq, Kuchliroq) zamonaviy olimpizm yo‘nalishini aniq ifodalaydi. Har bir Milliy olimpiya qo‘mitasi o‘z emblemasiga ega, unda beshta o‘ralgan halqa ushbu emblema asosini tashkil etadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi MOQ emblemasi - beshta Olimpiya halqasi va oq fonda Humo qushining tasviri - g‘alaba hamda baxt ramzi tasvirlangan.

Olimpiya bayrog'i to'g'risidagi g'oya, boshqalari kabi, Per de Kubertenga tegishlidir. XOQ uni 1913 yilda tasdiqlagan. Bayroq 1916 yilda o'tkazilgan o'yinlarda ko'tarilishi lozim edi. Ma'lumki, birinchi jahon urishi tufayli o'yinlar o'tkazilmagan. Bayroq birinchi marta 1920 yilda Antverpenda (VII Olimpiada o'yinlari) ko'tarilgan. Olimpiya madhiyasi ham mavjud. 1912 yilda Per de Kubertenda ushbu ajoyib bayramning qadimgi vatanida olimpiya mash'alini yoqish fikri tug'ildi. Shunga ko'ra u 1928 yilda Amsterdamdagi IX o'yinlarda (1952 yilda Oslodagi qishki VI o'yinlarda) amalga oshirildi. Mash'alni tantanali ravishda yoqish marosimi Per de Kuberten tomonidan taklif qilingan. Bu marosim qadimgi Olimpiada, qadimgi Olimpiya o'yinlari Zevs ibodatxonasi xarobalarida bo'lib o'tadi. 1926 yildan boshlab Olimpiya mash'ali estafetasi o'tkaziladi. Mash'al u yoqilgan joydan boshlab Olimpiya stadionidagi kunutun, har qanday ob-havo sharoitida ham mash'al ko'taruvchilar tomonidan olib kelinadi. Olimpiya stadioni yo'li bo'ylab oxirgi aylanish, oxirgi qadamlarni bosib o'tish o'yinlar o'tkaziladigan davlatning eng taniqli sportchisiga topshiriladi. Sportchilar ishtirokchilar va hakamlarning Olimpiya qasamyodi ham muqaddas marosimlar qatoriga kiradi. Ma'lumki, uning matni ham Per de Kubertentomonidan taqlif qilingan. Birmuncha o'zgarishlarga uchragan holda unda shunday deyiladi: "Hamma sportchilar nomidan men qasamyod qilamanki, biz bu o'yinlarda o'yin qoidalarini hurmat va ularga amal qilgan holda haqiqiy sport ruhida, sport shuhrati hamda o'z jamoalarimiz sharafi uchun ishtirok etamiz".

Olimpiya qasamyodi birinchi bor 1920 yilda (Antverpen, VII o'yinlar) yangragan. Olimpiya o'yinlari hakamlarining qasamyodi 1968 yilda Mexikoda (XIX o'yinlar) Sobiq Ittifoq MOQ taklifiga binoan paydo bo'ldi. Unda shunday deyiladi: "Hamma hakamlar va rasmiy shaxslar nomidan qasamyod qilamanki, ushbu Olimpiya o'yinlari davomida biz o'z vazifalarimizni xolislik bilan, qoidalarni hurmat qilib va ularga amal qilgan holda haqiqiy sport ruhida bajaramiz".

Shuni ham faxr bilan qayd etishimiz kerakki, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996 yil 6 fevralda Oltin Olimpiya ordeni bilan taqdirlangan.

## **8.2. Olimpiya xartiyasining yangi tahrirdagi qoidalari**

Olimpiya xartiyasining eng asosiy tamoyillariga (Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining 1999 yildagi 110- va 2000 yildagi 111-sessiyalarida kiritilgan o‘zgartirishlar bilan) muvofiq:

- olimpiya o‘yinlari har to‘rt yilda bir marta shaharlarda o‘tkaziladi. Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazishga nomzod shaharlar milliy olimpiya qo‘mitalari tomonidan tavsiya etiladi. Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish huquqini faqat XOQ berishi mumkin;

- olimpiya o‘yinlari barcha mamlakatlardagi havaskor sportchilarni halol va teng huquqli musobaqalarda birlashtiradi;

- mamlakatlar va alohida shaxslar irqiga, diniy va siyosiy qarashlariga qarab biron-bir tarzda kamsitilishlarga yo‘l qo‘yilmaydi;

- olimpiya musobaqalari faqat O‘yinlar poytaxti, deb tanlangan shaharda o‘tkaziladi. XOQning maxsus ruxsati bilangina istisno tariqasida ayrim musobaqalarni boshqa shaharda o‘tkazish mumkin;

- olimpiya o‘yinlariga rahbarlikni XOQ amalga oshiradi, O‘yinlar dasturidagi musobaqalar xalqaro sport federasiyalari texnik rahbarligida o‘tkaziladi;

- olimpiya o‘yinlarining tantanali ochilishi va yopilishi belgilab qo‘yilgan tartibda o‘tkaziladi;

- olimpiya o‘yinlari musobaqalari faqat sportning olimpiya turlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Olimpiada musobaqalari dasturiga faqat XOQ o‘zgartirishlar kiritishi mumkin;

- yozgi olimpiya o‘yinlari ko‘pi bilan 15 (tantanali ochilish kuni ham qo‘shib hisoblanganda), qishki Olimpiadalar 10 kun mobaynida o‘tkaziladi;

- olimpiya harakatining maqsadi – havaskor sportning do‘stona maydonlardagi musobaqalarda egallanadigan jismoniy va axloqiy fazilatlarni

rivojlantirishga hamda jahon yoshlarini har to'rt yilda bir marta buyuk sport bayramida birlashishlariga, bu bilan xalqaro ishonch va xolis niyatni qaror toptirish, yaxshiroq va totuvroq jahon hamjamiyati barpo etisha ko'maklashish;

- olimpizmning maqsadi – inson qadr-qimmatini hurmat qilinishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan erkin jamiyat barpo etilishiga ko'maklashishdir. Ana shu maqsadga erishish uchun olimpiya harakati tinchlikni himoya qilish bo'yicha faoliyatida o'zida mavjud imkoniyatlar doirasida mustaqil yoki boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi;

-olimpizm –jism, iroda va ong mukammalligini e'zozlaydigan hamda mutanosib yaxlitlikka mujassamlashtiradigan hayot falsafasidir. U sportni madaniyat va ta'lim bilan uyg'un birlashtiradigan, kuch-g'ayrat sarflashdan, ijobiy ibratning tarbiyaviy qimmatidan quvonch olish, asosiy umuminsoniy axloq tamoyillarini hurmat qilishga asoslangan turmush tarzini qaror toptirishga intiladi;

- milliy olimpiya qo'mitalari Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bilan uzviy aloqada va uning rahbarligi ostida faoliyat olib boradilar, havaskorlar sportini qo'llab-quvvatlaydilar, sportning olimpiya turlari bo'yicha milliy federasiyalar bilan qalin hamkorlikda ish olib boradilar;

- milliy olimpiya qo'mitalari o'z shaharlarida o'tkaziladigan olimpiada o'yinlarini tashkil qilish va ularni o'tkazish uchun shaxsan javobgardirlar;

- milliy olimpiya qo'mitalari olimpiya o'yinlarida ishtirok etish huquqiga egalar. Bu huquqdan foydalanmaslik ularga nisbatan tegishli choralar ko'rilishiga olib kelishi mumkin;

- olimpiya o'yinlari g'oliblari va sovrindorlari oltin (kamida 6 gramm oltin qoplama bo'lgan kumush), kumush va bronza medallari (diametri kamida 60mm., qalinligi kamida 3 mm., sport turi ko'rsatilgan) bilan taqdirlanadilar. Shaxsiy va jamoa birinchiliklarida 1-8-o'rinlarni egallaganlarga XOQ diplomlari topshiriladi;

- olimpiya o'yinlaridagi musobaqalar milliy terma jamoalar o'rtasida emas, faqat sportchilar orasida o'tkaziladi;

-olimpiya o'yinlarini o'tkazishdan tushgan mablag'lar olimpiya harakatini rivojlantirish, sportni keng ommalashtirish maqsadlariga sarflanadi;

- olimpiya o'yinlari dasturidagi musobaqalar o'tkazilayotgan sport maydonlari va zallari ichki qismida reklamaga yo'l qo'yilmaydi;

- sportchilar salomatligi holati ustidan hamda samarali doping nazoratini amalga oshirish maqsadida ular uchun maxsus pasportlar joriy etiladi.

Darhaqiqat, olimpizm g'oyasi o'zidagi umuminsoniy tamoyillar, axloq-odob qoidalari bilan bashariyatni oliy ezgu maqsad atrofida birlashishga, do'stlik va tinchlikka chorlaydi. Shu bois ham qadimiy olimpiya o'yinlari asrlar osha keyingi avlodlarga yanada takomillashgan, zamonaviylashgan, sayqal topgan holda yetib kelmoqda.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Per de Kuberten nima uchun zamonaviy olimpizm va olimpiya Xartiyasi asoschisi deyiladi?

2. Olimpiya xartiyasidagi asosiy tamoyillar va qoidalarni ayting, ularning ma'nosini izohlang.

3. Olimpiya xartiyasidagi ezgu timsollarni ayting.

4. O'zbekiston Respublikasi MOQ emblemasi - beshta Olimpiya halqasi va oq fonda Humo qushining tasviri - g'alaba hamda baxt ramzi tasvirlangan. Buning ma'nolarini izohlashga harakat qiling.

5. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996 yil 6 fevralda qanday orden bilan taqdirlangan edi?

6. Olimpiya xartiyasi qoidalarini mamlakatimizning Bosh Qomusi – Konstitusiyamiz qoidalariga qiyoslang. Fikrlaringizni bayon qiling.



## “LOYIHA” metodi




### Qo‘llashdan maqsad:

- ta‘lim oluvchilarni individual yoki guruhlar shaklida belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishga o‘rgatish;

- ta‘lim oluvchilarda o‘z bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- ta‘lim oluvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ularni ma‘lum mavzu yuzasidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirishga o‘rgatish, ishlab chiqqan loyihasini bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayoniga tayyorlash va h.k.

### “Loyiha” metodining tuzilishi:



### **“Loyiha” metodining bosqichlari:**

1. Pedagog loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketlikni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini tekshiradilar. Bundan tashqari, kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalari “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; ko'rgazmali namoyish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi.

**Izoh:** “Loyiha” nafaqat me'moriy-konstruktorlik mashg'ulotlarida, balki ijtimoiy yo'nalishlarda ham o'tkazilishi mumkin. Shuni nazarda tutgan holda, yuqoridagi “Loyiha” metodida o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda **“Olimpiya xartiyasihayotga!”** mavzusidagi ijtimoiy loyihani yaratish mumkin.

## **IX Bob. Xalqaro sport birlashmalari**

### **9.1. Xalqaro sport tashkilotlari**

Dunyo mamlakatlarida sportni rivojlantirishga bo'lgan say-harakatlar natijasida sport birlashmalari tashkil etila boshlandi va bu o'z navbatida, xalqaro sport uyushmalari hamda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini tashkil etishga sharoitlar yaratdi. Bu esa dunyo davlatlarida birin-ketin Milliy olimpiya qo'mitalari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun munosib zamin bo'lib xizmat qildi. Bir so'z bilan aytganda, XOQ va jahon mamlakatlaridagi MOQLar faoliyatini takomillashtirishda respublikalardagi havaskor sportchilar uyushmalaridan tashqari sport turlari bo'yicha quyidagi tartibda keltirilgani kabi professional sportchilar xalqaro uyushmalari ham yetakchi ahamiyat kasb etdi:

<b>№</b>	<b>Sport turlari</b>	<b>Birlashmalar atalishi</b>	<b>Tashkil bo'lgan yil</b>
1.	Gimnastika	Xalqaro gimnastika federasiyasi (FNJ).	1881
2.	Greblya	Xalqaro greblya federasiyasi (FIOA).	1892
3.	Konki	Xalqaro konkichilar ittifoqi (ISU).	1892
4.	Bouling	Xalqaro bouling sporti.	1895
5.	Velosiped	Xalqaro velosiped assosiasiyasi (USI).	1900
6.	Motosikl	Xalqaro motosikl federasiyasi (FIM).	1904
7.	Avtomobil	Xalqaro avtomobil federasiyasi (FIA).	1904
8.	Futbol	Xalqaro futbol federasiyasi (FIFA).	1904
9.	Aviasiya	Xalqaro Aviasiya sporti federasiyasi. (FAI).	1905
10	Otish	Xalqaro otish sporti ittifoqi. (UIT).	1905
11	Ovchilik	Xalqaro ovchilik federasiyasi. (FITASK)	1907
12	Yelkanli	Xalqaroyelkanlisportittifoqi. (IYARU)	1907
13	Muz ustida xokkey	XalqaromuzustidaxokkeyIttifoqi. (LIXG).	1908
14	Yengil atletika	Xalqaro yengil atletika federasiyasi.	1912

		(IAAF).	
15	Kurash	Xalqaro kurashchilar federasiyasi. (FILA).	1912
16	Tennis	Xalqaro tennis federasiyasi (ITF)	1912
17	Qilichbozlik	Xalqaro qilichbozlik federasiyasi (FIYE).	1913
18	Og'ir atletika	Xalqaro og'ir atletika federasiyasi. (IVF).	1920
19	Ot	Xalqaro ot sporti federasiyasi (FEI).	1921
20	Suv-motor	Xalqaro suv-motor sporti ittifoqi (UIM).	1922
21	Chim ustida xokkey	Xalqaro chim ustida xokkey federasiyasi (FIX).	1924
22	Beysbol Bobeley	Xalqaro beysbol va bobeley federasiyasi (FIBT).	1924
23	Suzish	Xalqaro suzish federasiyasi (FINA).	1924
24	Chang'i	Xalqaro chang'i sporti federasiyasi (FIS).	1924
25	Shaxmat	Xalqaro shaxmat federasiyasi (FIDE).	1924
26	Radioxavaskor	Xalqaro radioxavaskor sporti (IARS).	1925
27	Stol tennisi	Xalqaro stol tennisi federasiyasi (ITTF).	1926
28	Planerizm	Xalqaro planerizm tashkiloti (OSTIV).	1930
29	Kamondan otish	Xalqaro kamondan otish federasiyasi. (FITA).	1931
30	Basketbol	Xalqaro basketbol federasiyasi (FIBA).	1932
31	Alpinizm	Xalqaro alpenizm ittifoqi (UIAA).	1932
32	Badminton	Xalqaro badminton federasiyasi (IBF).	1934
33	Regbi	Xalqaro regbi federasiyasi (FIRA).	1934
34	Kulturizm	Xalqaro kulturizm sporti.	1945
35	Boks	Xalqaro boks federasiyasi. (AIBA).	1946
36	Gandbol	Xalqaro gandbol federasiyasi (IGF)	1946
37	Voleybol	Xalqaro voleybol federasiyasi (FIVB).	1947
38	Suv chang'isi	Xalqaro suv chang'isi ittifoqi	1947
39	Shashka	Xalqaro shashka federasiyasi. (FMJD).	1947

40	Beshkurash va biatlon	Xalqaro bekurash va biatlon ittifoqi (UIPMB).	1948
41	Softbol	Xalqaro softbol federasiyasi (ISF).	1952
42	Baliq ovlash.	Xalqaro baliq ovlash federasiyasi.	1952
43	To‘pli xokkey	Xaqaro to‘pli xokkey federasiyasi (IBF).	1955
44	Dzyu-do	Xalqaro dzyu-do federasiyasi. (FID).	1956
45	Chana	Xalqaro chana sporti federasiyasi. (FIL).	1957
46	Sport raqsi	Xalqaro sport raqsi federasiyasi.	1957
47	Suvosti	Xalqaro suv osti sporti konferensiyasi. (KMAS).	1969
48	Buer	Xalqaro buer assosiasiyasi. (IDNIYARA).	1963
49	Batut	Xalqaro batut federasiyasi (ITB).	1964
50	Akrobatika	Xalqaro sport akrobatika federasiyasi. (MFSA).	1973

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, XX asrning birinchi yarmida jismoniy madaniyat va sport ma’lum darajada rivoj topdi. Xalqaro sport federasiyalari yo‘lga tushib, ancha takomillashdi. Yangidan xalqaro sport uyushmalari tuzila boshlandi. Sport o‘yinlari tobora mazmunan boyib bordi. Xalqaro sport musobaqalarining kalendar rejalari ancha kengaydi. Olimpiya o‘yinlari yana tiklanib, davom etdi. Jahon va Yevropa miqyosida ba’zi bir sport turlari bo‘yicha chempionatlarni o‘tkazish davomiylilik kasb etdi.

## **9.2. O‘zbekiston Respublikasida sport turlari bo‘yicha Federasiyalar va Assosiasiyalar**

Mamlakatimizda sport va Olimpiya o‘yinlarining rivojlanishi, albatta, mustaqillik ne‘matibilan chambarchas bog‘liq. Yurtimiz istiqlolga erishgach, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan professional va havaskor sportga siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraldi. Prezidentimiz Bolalar sportiga shaxsan rahabarlik qilib, ushbu yo‘nalishdagi jamg‘arma faoliyatini takomillashtirishga kuyunchaklik bilan bosh-qosh bo‘ldilar. Ular o‘z

ma'ruzalaridan birida: "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart",-deganlarida yurtimiz yoshlarining ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lib voyaga yetishlarini nazarda tutgan edilar.

Shu asosda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilgan islohotlar jarayonida ko'plab sport Federasiyalari va Assosiasiyalar faoliyati tashkil etildi va yo'lga qo'yildi. Mazkur sport tashkilotlari o'z tarkibiga yosh, iqtidorli sportchi yoshlarni qamrab olib, o'zining tizimli faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Ayni ezgu say-harakatlarning samarasi o'laroq, cheksiz faxr bilan aytish mumkinki, bugungi kunda yurtimiz sportchi yoshlari jahon sportida, olimpiya o'yinlarida peshadamlik qilmoqdalar.

Hozirgi kunda respublikamizda Olimpiya sport turlari bo'yicha Dasturga kiritilgan va kiritilmagan Federasiyalar hamda Assosiasiyalar faoliyat olib boradi. Ularning bosh maqsad-vazifasi yurtimiz yoshlarida jismoniy tarbiya va sport madaniyatini yuksaltirish, ularni kelajakda katta sportga yo'llash, ular orasidan respublika, jahon va olimpiya o'yinlari chempionlari yetishtirishdan iboratdir.

**Olimpiya sport turlari bo'yicha (Dasturga kiritilgan) Federasiyalar va Assosiasiyalar ro'yxati:**

<b>№</b>	<b>Sport turlari</b>	<b>Federasiya va Assosiasiyalar nomlanishi</b>	<b>Tashkil etilgan yil</b>
1.	Boks	O'zbekiston boks federasiyasi	1992 y.
2.	Kurash	O'zbekiston sport kurashlari assosiasiyasi	1998 y.
3.	Velosport	O'zbekiston velosport federasiyasi	1991 y.
4.	Dzyudo	O'zbekiston dzyudo federasiyasi	1991 y.
5.	Gimnastika	O'zbekiston gimnastika federasiyasi	2007 y.
6.	Baydarka va kanoeda hamda slalomda eshkak eshish	O'zbekiston «rowing & canoe» (baydarka va kanoeda hamda slalomda eshkak eshish) federasiyasi	1992 y.
7.	Yengil atletika	O'zbekiston yengil atletika federasiyasi	1992 y.

8.	Suzish	O'zbekiston suzish federasiyasi	1992 y.
9.	O'q otish	O'zbekiston o'q otish federasiyasi	1998 y.
10	Taekvondo	O'zbekiston taekvondo (wtf) assosiasiyasi	1992 y.
11	Tennis	O'zbekiston tennis federasiyasi	1999 y.
12	Og'ir atletika	O'zbekiston og'ir atletika federasiyasi	2001 y.
13	Qilichbozlik	O'zbekiston qilichbozlik federasiyasi	1992 y.
14	Milliy paralimpiya	Milliy paralimpiya assosiasiyasi	2007 y.
15	Futbol	O'zbekiston futbol federasiyasi	1992 y.
16	Regbi	O'zbekiston regbi federasiyasi	2004 y.

**Olimpiya sport turlari bo'yicha (Dasturga kiritilmagan)**

**Federasiyalar va Assosiasiyalar ro'yxati:**

<b>№</b>	<b>Sport turlari</b>	<b>Federasiya va Assosiasiyalar nomlanishi</b>	<b>Tashkil etilgan yil</b>
1.	Basketbol	O'zbekiston basketbol federasiyasi	1992 y.
2.	Badminton	O'zbekiston badminton federasiyasi	2011 y.
3.	Voleybol	O'zbekiston voleybol federasiyasi	1991 y.
4.	Gandbol	O'zbekiston gandbol federasiyasi	1992 y.
5.	Beshkurash	O'zbekiston zamonaviy besh kurash federasiyasi	1994 y.
6.	Kamondan otish	O'zbekiston kamondan otish federasiyasi	2005 y.
7.	Qishki sport turlari	O'zbekiston qishki sport turlari assosiasiyasi	2010 y.
8.	Ot sporti	O'zbekiston ot sporti federasiyasi	1997 y.

9.	Stol tennisi	O‘zbekiston stol tennisi federasiyasi	1993 y.
10	Triatlon	O‘zbekiston triatlon federasiyasi	1996 y.
11.	Chim ustida xokkey	O‘zbekiston chim ustida xokkey federasiyasi	1994 y.

Yuqoridagilardan xulosa qilish joizki, jahon mamlakatlaridagi sport uyushmalarining faoliyati xalqaro sportning rivojlanishi, bu borada xalqaro sport federasiyalarining tashkil topishiga qulay tarixiy shart-sharoit yaratdi. Bu, o‘z navbatida, Olimpiya harakatining yanada yuksalishiga keng yo‘l ochdi. Albatta, bu jarayonda mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilgan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar, yurtimizda tashkil etilib, faoliyati izchil yo‘lga qo‘yilgan sport Assosiasiyalari va Federasiyalarining ham muhim o‘rni va roli bor, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelish sabablarini izohlang.
2. Sport turlarining rivojlanishi, dunyo mamlakatlarida ular byo‘icha ilk musobaqlarning o‘tkazilishi yuzasidan ma’lumotlar bering.
3. Xalqaro sport uyushmalari va federasiyalarni sanang, ular faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Yurtimizdagi qanday sport federasiyalari va assosiasiyalarni bilasiz?
5. Yurtimizda Olimpiya dasturiga kiritilgan va kiritilmagan sport turlarini ayting.
6. Sportning qaysi turlariga qiziqasiz va nima uchun?



## “KLASTER” METODI

### **Qo‘llashdan maqsad:**

- o‘quvchilarni o‘yinli texnologiyalarning mazmun-mohiyati, vazifalari, turlari bilan yaqindan tanishtirish;
- ta‘lim oluvchilarni tezkor, aniq fikrlashga va o‘z fikrlarini umumlashtirishga o‘rgatish va h.k.

### **“Klaster” metodining tuzilishi:**

O‘qituvchi o‘quvchilarni yangi mavzu bilan tanishtiradi.

Doskaga **“Olimpiya”**, **“Xalqaro sport”**, **“Federasiya”** so‘zlarini yozadi.

O‘quvchilar uchun:

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringiz sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay ularni shunchaki yozib boring.
2. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang.
3. Berilgan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to‘xtamang. Agar ma‘lum muddat biron bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda kog‘ozga biror rasm chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilgunga qadar davom ettiring.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

O‘quvchilar hamma tushunchalarni qabul qiladilar.

### **“Klaster” metodining bosqichlari:**

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsalar, shuni qog‘ozga yozadilar.
2. Yozuvlarning orfografik, grammatik jihatlariga e‘tibor bermaydilar.
3. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgunga qadar, o‘z fikrlarini davom ettiradilar.
4. Muayyan tushuncha yuzasidan ko‘proq ma‘lumotlarni yoritishga harakat qiladilar.

Texnologiya nihoyasiga yetgach, natijalar o‘qituvchi boshchiligida tahlil qilinadi. Umumiy xulosa: **“Olimpiya o‘yinlarining rivojlanishida xalqaro sport birlashmalari, federasiyalar bosh omil hisoblanadi”**.

## **X. 1896-1936 YILLARDA O‘TKAZILGAN OLIMPIYA O‘YINLARINING XUSUSIYATLARI**

### **10.1. Afina, Parij, Sent-Luis, Stokgolmda olimpiada o‘yinlarining o‘tkazilish xususiyatlari**

1896 yil 6-aprelda Afina shahrida ochilgan I Olimpiya o‘yinlari 15-aprelda muvaffaqiyatli nihoyasiga yetdi. Biroq 1900 yil 14 may kuni Parijda boshlangan II Olimpiya o‘yinlari dastlabkisi kabi tartibli kechmadi. Fransiya Milliy olimpiya qo‘mitasi o‘z zimmasiga O‘yinlarni o‘tkazish mas‘uliyatini olgan bo‘lsa-da, vatandoshi Per de Kubertendek tashabbuskorlik, fidoyilik, tashkilotchilik salohiyatini ko‘rsatishda o‘z o‘ziga qiziq qilib qoldi. Hamma narsa Olimpiadani o‘tkazish uchun talab qilinadigan mablag‘ yetishmasligiga borib taqaldi. Bunday vaziyatda XOQ Prezidenti II Olimpiada barbod bo‘lmasligi uchun yagona imkoniyat – Parijda tashkil etiladigan Xalqaro ko‘rgazmadan foydalanishni taklif etdi. YA’ni, uni ushbu ko‘rgazma doirasida o‘tkazishga qaror qilindi.

Shundan so‘nggi voqealar mutlaqo kutilmagan tarzda kechdi. Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish Fransiya sport jamiyatlari uyushmasiga topshirildi. Uning rahbarlari zamonaviy olimpiya harakati asoschisi XOQ Prezidenti Per de Kubertenni amalda O‘yinlarni o‘tkazishda ishtirok etishdan chetlashtirdilar. Xalqaro ko‘rgazma tashkilotchilari esa Olimpiada musobaqalarini tashkil etish uchun umid qilingan yordam qo‘lini cho‘zmadilar. O‘sha kunlari Per de Kuberten o‘z kundaligida o‘kinch bilan: “Jahonda olimpiya o‘yinlariga befarq qaraladigan bitta joy bor, bu joy – Parij”, -deya qayd etgan edi.

Haqiqatan ham, mazkur O‘yinlar “Betartib Olimpiada” nomini oldi. Shuni aytish kifoyaki, Olimpiada musobaqalari besh oydan (!) ham ko‘proqqa cho‘zilib ketdi. O‘yinlarning ochilishi 1900 yil 14-may kuni bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, yopilishi 28-oktabrda o‘tkazildi. Bellashuvlar sportga aloqadorligini tasavvur qilish qiyin bo‘lgan – havo sharida parvozlardan tortib favqulodda hollarda insonni xavf-xatarlardan qutqarish mashqlari kabi ko‘proq tomoshalarga xos shakllarda ham o‘tkazildi. Ammo tashkilotchilar yo‘l qo‘ygan tartibsizliklarga qaramay, umuman

olganda, Olimpiada ruhi barhayotligi yana bir karra isbotini topdi. O'yinlar dasturiga Afinadagiga qo'shimcha sifatida suv polosi, golf, akademik usulda eshkak eshish, ot sporti, ot polosi, regbi, kamondan otish, tennis bo'yicha musobaqalar kiritildi. Biroq Fransiya poytaxtida kurash va og'ir atletika bo'yicha musobaqalar o'tkazilmadi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Amerika Qo'shmaShtatlari sportchilarining avvalgi olimpiadalardagi muvaffaqiyatlarini e'tiborga olgan holda ularga navbatdagi – uchinchi o'yinlarga mezbonlik qilish huquqini berdi.

Dastavval olimpiya o'yinlarini AQShning eng yirik shaharlaridan biri – Chikagoda o'tkazish rejalashtirilgan edi. Bu musobaqalarni tashkil etish uchun shahar ma'muriyati homiylardan 100 ming dollar to'plashga ham muvaffaq bo'ldi. Chikagoliklar Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga musobaqalar uchun sotilgan chiptalardan tushgan mablag'ning hammasini o'tkazib berishni ham va'da qilgandilar. Ammo Olimpiadani Sent-Luis shahrida o'tkazishga qaror qilindi. Chunki xuddi shu yerda Jahon ko'rgazmasi o'tayotgan edi. Sent-Luisning O'yinlarga mezbonlik qilish da'vosini AQShning o'sha vaqtdagi Prezidenti Teodor Ruzvelt qo'llab-quvvatlagani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu safargi Olimpiada o'yinlari ham Parijda bo'lganidek, Jahon ko'rgazmasiga qo'shimcha bir tadbirga o'xshab qoldi. Sent-Luis Olimpiadasi 1904 yil 29-avgustda ochilib, sentabr oyi o'rtalarigacha davom etdi. Okean ortidagi bu shaharga kelish juda qimmatga tushishi sababli jahonning ko'pgina eng kuchli sportchilari musobaqalarda qatnasha olmadilar. AQShga, xususan, Yevropaning besh davlati – Angliya, Gresiya, Fransiya, Vengriya va Germaniyadan 53 nafar sportchi kela oldi, xolos.

Sent-Luis olimpiadasi ko'pincha “mahalliyashtirilgan o'yinlar” deb ataladi. Bunda gap faqat Olimpiadada ishtirok egan 625 nafar sportchi (shu jumladan, 8 ayol)ning 533 tasi AQSH sportchilari ekanligida emas. Bu yerda o'sha vaqtda o'tkazilgan ko'pgina mahalliy miqyosdagi, xususan, oliy o'quv yurtlari va maktablararo musobaqalarga olimpiya o'yinlarining tarkibiy qismi sifatida qaralib, ularning g'oliblari Olimpiada chempionlari, deb e'lon qilinaverdi.

IV Olimpiada o'yinlari boshlanishiga bir yil qolganda uning o'tkazilishi xavf ostida qoldi. Holbuki, bu Olimpiadani o'tkazishga dastavval to'rt shahar – Berlin, London, Rim va Milan da'vogarlik qilgan edi. Germaniya Milliy olimpiya qo'mitasi o'z hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganligi sababli Berlin shahri nomzodini qaytarib oldi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi qolgan uch nomzoddan Rimni ma'qul topdi. Lekin Italiya Milliy olimpiya qo'mitasi ham bu musobaqalarni tashkil eta olmasligini ma'lum qildi. Bunga bu mamlakatdagi boshqa yirik shahar – Milanning nima uchun u emas, balki Rimning Olimpiada poytaxti etib tanlanishiga noroziligi sabab qilib ko'rsatildi.

Ana shunday juda murakkab vaziyatda London o'yinlarga mezbonlik qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. Inglizlar atigi bir yil ichida olimpiya o'yinlari keng ko'lamda va muvaffaqiyatli o'tishi uchun hamma sharoitlarni muhayyo qilishga ulgurdilar.

Eng avvalo, shu qisqa davr ichida Olimpiada uchun maxsus, 100 ming tomoshabinga mo'ljallangan "Uayt-siti" stadioni qurib bitkazildi. Aslida u yirik sport majmuasi edi. Stadion yonida suzish havzasi, kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazish uchun alohida zal, velopoygaga mo'ljallangan trek ham barpo etildi. Londondagi boshqa mavjud sport inshootlari ham tartibga keltirildi. IV olimpiya o'yinlari tashkil etilishi, ko'lami, sport natijalari bilan oldingilaridan ancha ustunlik qildi deyish mumkin.

XXasr boshida Shvesiya sport keng ommalashgan mamlakat hisoblanardi. Shimoldagi davlat sportchilari dastlabki olimpiya o'yinlarida ham yaxshi natijalar ko'rsatgan edilar. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi navbatdagi V Olimpiada poytaxti sifatida Stokgolmni tanlaganida shvedlar quvonchining cheki yo'q edi. Tashkilotchilar O'yinlar har qachongidan ham muvaffaqiyatli o'tishi uchun puxta dastur ishlab chiqib, uni izchil amalga oshirdilar. Shvedlar o'z mamlakatlari poytaxtida stadion, sportning ko'pgina turlari bo'yicha musobaqalar, boshqa ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazish imkonini beradigan yirik sport majmuasi barpo etdilar. Stadionni hatto juda qisqa muddatda ot musobaqalari o'tkaziladigan otchoparga aylantirish imkoniyati ham ko'zda tutilgan edi. Stokgolmda ilk

marotaba olimpiya o'yinlarining tantanali ochilishi va yopilish marosimlari o'tkazildi. 1912 yil 6 iyul kuni bu yerdagi Qirollik stadionini 32 ming tomoshabin to'ldirdi. Soat millari kunduz 11 ni ko'rsatishi bilan stadion minoralariga o'rnatilgan qo'ng'iroqlar hammayoqni jaranglatib yubordi. Ana shu tantanavor sadolar ostida bu yerga olimpiadachilar kirib kela boshladilar. V Olimpiadada birinchi marta Misr, Lyuksemburg, Portugaliya, Serbiya, Yaponiya sportchilari ishtirok etdilar. Stokgolmgga umuman 28 mamlakatdan 2541 nafar, shu jumladan, 57 sportchi ayol keldi. To'rt davlat – Daniya, Norvegiya, Shvesiya va Rossiya O'yinlar dasturidan o'rin olgan sportning barcha turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etdilar. 1912 yil 5 maydan 22 iyulgacha davom etgan (lekin suzish, zamonaviy beshkurash musobaqalari mart oyida, eshkak eshish va parus sporti bo'yicha musobaqalar O'yinlar yopilgandan so'ng o'tkazilgan) Olimpiadada avvalgi O'yinlarda bo'lgani kabi yengil atletika bo'yicha musobaqalar markaziy o'rinni egalladi. Ular dasturiga birinchi marta 5000 va 10000 metrga yugurish, 10 kilometrga sportcha yurish, 8000 metrga kross, 4x100 va 4x400 metrga estafeta kiritildi va h.k.

VI Olimpiya o'yinlarini 1916 yil Berlinda o'tkazish rejalangan edi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bu haqda 1909 yildayoq qaror qabul qilgan edi. Ammo Gryunevaldagi yangi stadion olimpiadachilarni o'z bag'riga olish baxtiga muyassar bo'la olmadi. Stokgolm Olimpiadasi tugaganidan so'ng ikki yil o'tar-o'tmasbirinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

Olimpiya o'yinlarini shaharlarda o'tkazilishi nuqtai nazaridan qaralganda, mezbon mamlakatlar ulkan ustunlikka egaligi ko'p tadqiqotlarda ta'kidlanadi. Ammo xorijiy adabiyotlardan birida, xususan, sport tarixiga oid xalqaro jurnallardan birida Stefen Pettigreu va Daniel Reyx tomonidan e'lon qilingan maqolada musobaqa o'tgan va o'tmagan davlatlarning taqqoslanganligi, buning natijasida musobaqalar o'tgan davlatlarning imkoniyatlarining aslida yuqori emasligi aniqlanganligi ta'kidlangan.

## **10.2. Aholining harbiy tayyorgarligida jismoniy tarbiya va sport vositasidan foydalanish**

Birinchi jahon urushidan keyin xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiyani to'g'ridan-to'g'ri keng miqyosda harbiylashtirish, ayrim mamlakatlarda esa fashistlashtirish boshlanib ketdi. Masalan, Olmoniyada revanshist va agressiv doiralar nemis harbiy imkoniyatlarini qayta tiklash rejalarini ko'tarib chiqa boshladilar. Ular nemis yoshlarini jismoniy jihatdan baquvvat, «Buyuk Olmoniya»ni tiklashning hamda nemis militaristlarining «Olmoniya hammadan yuqori» degan eski chaqirig'ini amalga oshirishni to'la istaydigan qilib tarbiyalashga intildilar.

1920 yilda general Bergardi Olmoniyaning harbiy quvvatini qayta tiklash yo'lini ko'rsatib berdi. Uning rejasiga ko'ra, armiya zobitlar tarkibini tayyorlash darajasida ta'lim olgan va eng yangi texnika bilan qurollangan bo'lishi hamda bo'lg'usi ommaviy armiya zobitlar tarkibining negizini tashkil qilishi kerak edi. Oddiy askarlarni fuqaro gimnastikasi va sport tashkilotlarida tayyorlash va tarbiyalashni tavsiya etdi. Hukmron doiralar tomonidan bu g'oya qo'llab-quvvatlandi hamda gimnastika va sport klublarining keng tarmoqlarini tashkil etish ishlari rag'batlantirila boshlandi.

1921 yildan boshlab Nemis gimnastika ittifoqi sport gimnastikasi, bir yil o'tishi bilan futbol, qo'l to'pi, baydarkada eshkak eshish, qilichbozlik, suzish va yengil atletikani taraqqiy ettira boshladi. Gimnastika ittifoqi sportning boshqa turlarini taraqqiy ettirishga intilishning sababi yoshlarni o'z saflariga iloji boricha ko'proq jalb etish va ularni olmon militarizmi ruhida tarbiyalash maqsadidan iborat edi.

1933 yilda fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi olmon xalqining jismoniy tarbiyasi tarixida eng mudhish davrning boshlanishi bo'ldi. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga rahbarlik qilish ishlari imperiya sport kommissari Chammer Ostenga topshirildi.

Sport komissari ishni juda ko'p sport tashkilotlarini markazlashtirishdan va sportning eng ko'p tarqalgan turlari bo'yicha 15 ta «unifikasiyalashtirilgan» totalizator uyushmalarini tuzishdan boshladi. Bular viloyat, tuman va okrug bo'linmalaridan iborat territorial prinsipda ko'rilgan umumolmon miqyosdagi tarmoqli sport ittifoqlari edi. Har bir ittifoq tepasida milliy-sosialistlar partiyasi a'zosi bo'lgan imperiya sport komissarining ishongan kishisi turardi.

Barcha 15 totalizator sport ittifoqlari ishlarining asosiy mazmuni yoshlarni jismoniy jihatdan tarbiyalashni oshkora suratda harbiylashtirishdan iborat edi. Bu ittifoqning dasturlarida aslaha-anjom bilan marsh qilish, to'siqlardan oshib yugurish, granata uloqtirish, otish, avtomotosport, kombinasiyalashtirilgan ko'pkurash (yugurish, sakrash, otish, suzish va boshqa harbiy amaliy mashqlar asosiy o'rin egallagan.

Berlin Jismoniy tarbiya oliy maktabi sport sohasidagi fashistlar g'oyalarining manbai edi. Fashistlar sport «fani»ning bu markazida sportda ariylarining «ustunligi» irqiy nazariyasi ishlab chiqilardi. Ularning qallob ideologlari, go'yo agressiya inson tabiatiga xos narsa, sportda esa agressiyaning namoyon bo'lishi, shuning uchun ham u millatning boshqa xalqlar ustidan hukmron bo'lishiga tayyorlashning muhim vositasi deb isbotlashga urindilar.

Akademik sport (sof sport turi) fashistlar Germaniyasida xalqaro sport maydonida Germaniya sharafini himoya qiluvchi kichik bir guruh yoshlar uchun mo'ljallangan edi. Sportchilarning ko'pchilligi esa keskin ko'pol harbiy mashqqa duchor qilinardi. 1934 yildan boshlab Germaniyaning sport mashg'ulotlarida dala sporti (galendeshport) alohida o'rin egalladi. Uning vazifasi jangovar holat paytida dala sharoitlariga moslana bilish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat edi. Qo'llanmada shunday deb yozilgan: «Tabiatni unutib qo'ygan shaharlik rekrut gelendeshport tufayli u bilan qaytadan tanishishi kerak. Sport rekruti harbiy harakatlarning barcha turlari-saflarning orasi zich va saflarning orasi ochilgan holatlarni o'rganishi, u yurish, yugurishni bilishi, har qanday to'siqlardan o'ta olishi, karta, kompas, yulduzlar va boshqa mo'ljallarga qarab yo'l tuta olishi,

eshitishi, ko‘rishni mashq qildirishi, harbiy-topografiya bilimlarini egallashi lozim».

Fizika, biologiya, kimyo, matematika, tarix, jug‘rofiya va chizmachilikka oid maktab dasturlari dala sporti uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar bilan to‘ldirilgandi. Bu fanlarni o‘qitadigan maktab o‘qituvchilari uchun maxsus kurslar- «xalq sport maktablari» ochib qo‘yildi. Bu kurslarda ular dala sporti bilan amalda tanishar va o‘zlari o‘qitadigan fanlarni o‘quvchilarning harbiy tayyorgarlik ishiga bo‘ysundirishga o‘rganar edilar.

1934 yilda fashistlar Germaniyasida uch darajali-bronza, kumush va oltin davlat sporti nishoni joriy qilindi. 18-35 yoshlardagi har bir erkak kishi belgilangan muddat ichida ana shu nishon uchun meyor topshirishi shart bo‘lgan. Bronza nishonini olish uchun sport-rekrut maktabini va bir yillik gelendeshport maktabini tamomlashi, 100 metrga yugurishi, uzunlikka sakrashi, gurzini yuqoriga otishi, yadro turtishi, 3000 metrga yugurishi, kichik kalibrli miltiq otishi, 12,5 kg yuk bilan 25 km.ga marsh bilan borishi, mo‘ljalga granata uloqtirishi hamda gelendeshport dasturi asosida sinov topshirishi kerak edi.

Fashistlar jismoniy tarbiya tizimi sivilizasiyani, madaniyatni, boshqa xalqlarni, ya‘ni millionlab kishilarning yostig‘ini quritishning dahshatli mashinasini yaratishga bo‘ysundirilgan edi.

Fashistlar Italiyasida ham jismoniy tarbiya va sport ishlari keng ko‘lamda harbiylashtirildi va fashistlashtirildi. 1922 yilda hokimiyat tepasiga kelgan Italiya fashizmining siyosati «Buyuk Italiya»ni tuzish uchun yangi imperialistik urushga tayyorlanishga qaratilgan.

Italiya maktab yoshidagi bolalar hamda yoshlarning jismoniy jihatdan o‘sishi va ularga fashistlar tomonidan beriladigan tarbiya ishlariga maorif ministrligining jismoniy tarbiya departamenti va maxsus ijtimoiy tashkilot «Opera nasional Balilla» rahbarlik qildi.

«Balilla» asosan 8-13 yoshdagi o‘g‘il bolalarni birlashtirgandi. 1930 yilga kelib, uning saflarida qariyb 900 ming a‘zosi bor edi. 14-18 yoshdagi o‘smirlar «avagardist» tashkiloti tarkibiga kirdilar. 30-yillarda uning qariyb 400 ming



a'zosi bo'lgan. 8-13 yoshlardagi qizlar (kariyb 250 ming qiz) «Pikkoli italyane» («Kichik yoshdagi italyan qizlar»), 14-18 yoshlardagi qizlar esa (qariyb 150 ming qiz) «Desnovane atalyane» («Yosh italyan qizlar») tashkilotlariga birlashdilar.

«Balilla» tashkilotlarida yengil atletika, qilichbozlik, gimnastika, eshkak eshish va h.k. sport turlari keng qo'llanildi. Shu bilan bir qatorda har bir joyda geografik va iqlim sharoitlariga qarab, maxsus sport turlari – Alpda tog' chang'i sporti, dengiz bo'yicha suzish, yelkan sporti, daryolarda suzish, eshkak eshish, tekislikda ot sporti, hamma joyda sport o'yinlari (regbi, futbol, basketbol, voleybol) o'tish, velosiped sporti va sportning motorli turlari ham taraqqiy ettirildi.

Sport va gimnastika klublarida, jamiyatlarida va ittifoqlarida harbiy sport ishlari nihoyatda faollikda avj oldirildi. Bularda sportning avtomobil, motosikl, aviasiya, planer va parashyut turlari, qilichbozlik, kurash, boks, og'irlik ko'tarish va gimnastikani taraqqiy ettirishga katta ahamiyat berildi.

Yaponiyada jismoniy tarbiya va sport ishlarini harbiylashtirish nihoyatda tez sur'atlar bilan olib borildi. Siyosati yangi boskinchilik urushiga tayyorlanish vazifalariga buysundirilgan yapon imperialistlari ana shu maqsadlarda maktab sport va gimnastika tashkilotlaridan keng foydalandilar. O'quv yurtlari va sport tashkilotlari harbiy-jismoniy tarbiyaning, shovinistik va militaristik kayfiyatlarini tashviqot qilishning asosiy markazlari bo'lib qolgan edi.

1927 yilda hukumatning ko'rsatmasiga muvofiq Yaponiyaning o'quv yurtlariga o'quvchi yoshlarga harbiy ta'lim berishni kuchaytirish uchun zobitlarning katta bir guruhi yuborildi.

Yaponiya imperalizmi harbiy mashinasining tarkibiy qismiga astasekin aylanib ketgan sport tashkilotlari, skaut tashkilotlari, xristian yoshlari ittifoqi va sport uyushmalari o'quv yurtlariga kirmay qolgan 16-20 yashar yapon yoshlarini harbiy sharoitga muvofiqlashtirishning asosiy vositalari bo'lib xizmat qildi.

Fransiya davlati ham yoshlarga harbiy jismoniy tarbiya berishdan nihoyatda manfaatdor edi. 1920 yilda Fransiyada maktabgacha tarbiya yoshidagi va maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi to'g'risida qonun qabul qilindi. Harbiy vazirlik o'quv yurtlarida olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport ishlari haqidagi

qoidani tasdiqladi. Amorosning zamonaviylashtirilgan tabiiy-amaliy gimnastikasi hamda shved gimnastikasining ayrim mashqlari jismoniy tarbiyaning vosita va metodlariga asos qilib olindi.

1925 yilda Fransiyada harbiy vazirlik bilan mustahkam aloqada bo'lgan yoshlarni jismoniy tarbiyalash bo'yicha Davlat sekretariati tuzilib, uning tashabbusi bilan 9000 maktab huzuriga o'quvchilarni harbiy ishlarga tayyorlovchi mustaqil suratda ishlaydigan sport va otish jamiyatlari tashkil etildi. Taxminan o'sha paytda Fransiyada harbiy-ikki oy ichida past-baland yerlar sharoitida jismoniy mashqlarga o'rgatilar va elementar harbiy ta'lim olar edi.

Chexoslovakiyada ham aholini harbiy-jismoniy jihatdan tarbiyalash «Sokol» tashkilotlari vositasida olib borildi. «Sokol» jamiyati rahbarlaridan biri Klinger shunday degan edi: «Sokol» o'z a'zolarining kazarmaga kirishidan oldinroq ulardan soldat yetishtirishga intiladi.

Angliya birinchi jahon urushi natijasida g'olib mamlakatlar qatoriga kirgan edi. Lekin bu hol uning iqtisodiy va siyosiy ahvolini mustahkamlamadi. Mamlakatda sport klublarining yakkaligi tugatildi, ularning eshigi mehnatkashlar uchun ochib qo'yildi. Bu klublarda sport ishlarigina emas, balki yoshlarni harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash va ularni ideologik jihatdan tarbiyalash ishlari ham olib borildi. Xukumat urushqoq skautlar harakatiga katta yordam bera boshladi. Bu yosh avlodni ideologik va harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash ishlarida maktabga yordamchi bir vosita edi.

B.Shou o'zining «Mafusailga qaytish» nomli pesasiga yozilgan muqaddimasida Angliya maktablaridagi tarbiyani juda aniq qilib hamda xaqqoniy tarzda xarakterlab bergan edi: «Imtiyozli maktabda bolani turli yo'l bilan bem'anilikka, axloqsizlikka o'rgatiladi, uni tekin daromad olishga asoslangan bizning jamiyatimiz moxiyatiga ko'ra aldaydilar, unga bema'nilik, dabdabava vatanparvarlikka ishonch ruhi singdirildi, ammo uning otishga, otda chopishga, jismoniy kuchni o'stirishga o'rgatish kerak bo'lganda, o' o'zining bu mashqlarning hammasini yaxshi, hatto iloji boricha a'lo darajada bajarishni chinakam istaydigan odamlardan eng malakali yordam va yo'l-yo'riq oladi, uni armiyada qobiliyatiga

yarasha uchishga, bomba tashlashga, takomilga yetgan pulemyotni ishlata bilishga o'rgatadilar. Pirovardida xotirjamlik bilan nihoyatda aqlli va sinalgan insonparvar kishiga ham ishonib bo'lmaydigan vayronalik keltiruvchi vositalar maktabida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan, extimol tabiatiga ko'ra pok, ammo tarbiya yordamida nodon, berahm, quruq oliftalar va sportchilarga aylangan romantizm ruhidagi o'smirlar qo'liga topshiriladi. Ular mushtlashishni din yo'lidan borish, o'ldirishni esa erkak kishining zaynati deb tushunadilar».

AQSH hukmron doiralari ham jismoniy tarbiyadan ularni harbiy ishlarga tayyorlash maqsadlarida keng foydalandilar. Amerika davlati ham maktab, o'rta va oliy o'quv yurtlari yordamida yoshlarni o'z ideologiyasi ruhida tarbiyaladi, ularni jahonga hokim bo'lish rejasini amalga oshirishga, «amerikacha yashash»ni tashviqot qilishga tayyorladi. Amerika cherkovi, harbiy boshqarma va juda ko'p yarim sport, yarim harbiy tashviqotlar, masalan, «Amerika legionlari» kabi tashkilot ham ana shu maqsadda ish olib bordi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyasiga alohida ahamiyat berildi. Ko'pchilik shtatlarda o'quv yurtlardagi jismoniy tarbiya haqida maxsus qonunlar qabul qilindi. Bularda jismoniy tarbiyani mablag' bilan ta'minlash, o'qituvchi kadrlar tayyorlash va boshqa masalalar nazarda tutilgan edi. Jismoniy tarbiya umumiy tarbiya tizimining bir qismiga aylana bordi. 1920 yili AQShning sport rahbarlari va universitetlardagi o'yinlar jamiyati qo'mitasi jismoniy tarbiya vazifalarini aniqlar ekan, uning muhim vazifasi yoshlarni itoatgo'ylik va intizomlilik ruhida hamkorlik qilish, o'z manfaatidan voz kechish ruhida va ularda Amerika jamiyati uchun zarur bo'lgan boshqa fazilatlarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat deb ko'rsatildi.

AQSH da mehnatkashlarning keng ommasini harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash turli xarakterdagi ommaviy «mustaqil» tashkilotlar – ommaviy sport tomoshalari assosiasiyasi, aktiv dam olish va fabrika-zavod klublari assosiasiyalari shakllarida amalga oshirildi.

### **10.3. 1936 yilgi Berlin olimpiadasidagi militarizm va fashizmga qarshi sport tashkilotlarining kurashi**

XOQ XI Olimpiada o'yinlari uchun mezbonlikka Germaniya poytaxtini tanlagan edi. Bu qarorini tashkilot 1932 yilda qabul qilgan edi. 1933 yilda esa mamlakatda hokimiyat tepasiga fashistlar keldi.

XOQ Prezidenti Anri de Baye-Later Germaniya rahbariyatiga mezbonlar Olimpiya xartiyasiga qat'iy amal etishlari haqida kafolat berilishi yoki O'yinlarni o'tkazishdan o'zlari ixtiyoriy ravishda voz kechishlari talabi bilan rasman murojaat etdi. Bu kafolatlar berilganiga qaramasdan Gitler Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi a'zolari bo'lgan, Germaniyada yozgi va qishki olimpiadalarni o'tkazish tashkiliy qo'mitalariga boshchilik qilayotgan Teodor Lvold hamda Karl Ritter fon Xaltni vazifalaridan bo'shatib, ularni sport ishlari bo'yicha davlat direktori etib tayinlangan G.Osten bilan almashtirishga qaror qildi. Baye-Latur Germaniyaga Olimpiadani o'tkazish sharafi bu davlatning XOQda ana shu vakillari bo'lganliklarini ham hisobga olgan holda berilganligi, agar ular vazifalaridan chetlatilsa, nemislar mezbonlik qilish huquqidan mahrum etilishlarini rasmiy bayon etishiga to'g'ri keldi. Bu qat'iyat oldida Gitler yon bosishga majbur bo'ldi.

Jahon jamoatchiligi bosimi ostida XOQ Germaniya tomonidan Olimpiadada sportchilariga nisbatan biror kamsitilishlarga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi aniq-ravshan kafolatlarni ham talab etdi. Chunki bu paytga kelib, turli sabablarga ko'ra, yahudiy millatiga mansub sportchilarning Olimpiadada ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaslikka qaratilgan urinishlar boshlab yuborilgan edi.

Ma'murlar XOQ Olimpiadani boshqa joyda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi, oqibatda sarf etilayotgan juda katta mablag' zoye ketishi mumkinligidan xavfsirab, tishni-tishga qo'yib bo'lmsa ham, o'z tamoyillari va g'oyalaridan vaqtincha chekinishga majbur bo'ldilar. Germaniya Ichki ishlar vazirligi topshirig'iga muvofiq Tashkiliy qo'mita vakillari Xalqaro olimpiada Qo'mitasining 1933 yil Venada bo'lib o'tgan sessiyasida barcha yahudiy

sportchilarning hech bir cheklashlarsiz O‘yinlarda ishtirok etishlari ta’minlanishi haqida bayonot berdilar.

Germaniya rahbariyatining bu kafolatlari va va’dalariga qaramasdan 1936 yil iyun oyida Parijda Fransiya, Ispaniya, AQSH, Angliya, Chexoslovakiya, Belgiya, Shvesiya, Shveysariya, Daniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlar vakillari ishtirokida “Olimpiya g‘oyalarini himoya qilish anjumani” o‘tkazildi. Uning qatnashchilari XI Olimpiya o‘yinlarini fashistlar Germaniyasida o‘tkazish Olimpiya tamoyillariga zid ekanligi haqida yakdil fikr bildirishdi va olimpiya o‘yinlarini Barselonada o‘tkazish (Ispaniyaning bu shahri ham o‘n birinchi Olimpiada mezboni bo‘lishga nomzod edi) tashabbusini ilgari surdilar.

1936 yil iyulida Barselonaga sport delegasiyasi kela boshladi. Faqat 1936 yil 18 iyulida Ispaniyada fuqarolar urushining boshlanib ketganligi bu yerda O‘yinlarni o‘tkazish imkonini bermadi.

Fashistlar Berlin olimpiadasida o‘z mafkuralarini isbotlash – oliy irq ustunligini namoyish etish maqsadini ko‘zlab musobaqalarda faqat o‘z sportchilarining g‘alaba qozonishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rdilar. Shuning uchun XOQ tomonidan olimpiya harakatining 60 yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan risolada “Bu O‘yinlarda militarizm va nasizm kuchli ruhi hukmron edi”, -deb ta’kidlanadi.

Navbatdagi – 1940 yilgi qishki Olimpiadani ham Germaniyaning Garmen-Pantenkirxen shahrida o‘tkazish rejalashtirilgan edi. Ammo Germaniyaning Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasidagi vakili Karl Ritter fon Xaltdon 1939 yil 22 noyabrda XOQ Prezidenti Anri de Baye-Laturga yo‘llagan nomasida Germaniya 1940 yilgi qishki Olimpiadani o‘tkazish yuzasidan avvalgi taklifini qaytarib olishini ma’lum qildi. Bu vaqtda ikkinchi jahon urushi boshlanib ketgan edi...

Ikkinchi jahon urushi sababli 1940 va 1944 yillarda o‘tkazilishi mo‘ljallangan XII va XIII olimpiya o‘yinlari barbod bo‘ldi.

Urush olimpiya harakati uchun ham og‘ir sinov bo‘ldi. XOQ Prezidenti Anri de Baye-Latur fashistlar Germaniyasi tomonidan bosib olingan hududda bo‘lganligi sababli uning Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi boshqa a‘zolari bilan

aloqasi uzilib qoldi. Shuning uchun XOQ faoliyatini yo'lga qo'yish vatani betaraf Shvesiya bo'lgan Yuxannes Edstrem zimmasiga tushdi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, fashizmning vayronkor mafkurasi hatto jismoniy tarbiya va sportdan ham o'z maqsadi yo'lida foydalanmoqchi, dunyo xalqlarini o'ziga qaram qilmoqchi bo'ladi. Bu esa nafaqat xalqlarning do'stligi va tinchligiga, balki an'anaviy tarzda qayta yo'lga qo'yilib, tobora jonlanib borayotgan Olimpiya o'yinlarining taqdiriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Biroq shuncha qiyinchiliklarga qaramay Olimpiya harakatining fidoyilari ushbu ezgu an'anani yanada keng targ'ib etish yo'llarini izladilar va o'z ezgu g'oyalarini jahon bo'ylab faol e'tirof etdilar.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Nima uchun 1900 yil 14 may kuni Parijda boshlangan II Olimpiya o'yinlari dastlabkisi kabi tartibli kechmadi?

2. Nima sababdan Per de Kuberten o'z kundaligida o'kinch bilan: "Jahonda olimpiya o'yinlariga befarq qaraladigan bitta joy bor, bu joy – Parij",-deya qayd etgan edi?

3. «Balilla» qanday tayyorgarlik jarayonini nazarda tutardi? U kimlarga tegishli edi? Uning saflarida kimlar bor edi?

4. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan olimpiya harakatining 60 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan risolada "Bu O'yinlarda militarizm va nasizm kuchli ruhi hukmron edi",-deb ta'kidlanishi sababini tushuntiring.

5. Nima uchun XOQ Prezidenti Anri de Baye-Laturning Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi boshqa a'zolari bilan aloqasi uzilib qoldi? Sabablarini izohlang.

6. Fashizmning jismoniy tarbiya va sportga munosabatida qanday maqsad-muddao mujassam edi?

## **“CHARXPALAK” METODI**

### **Qo‘llashdan maqsad:**

- o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro jamoaviylik, hamkorlik sifatlarini qaror toptirish;
- ta‘lim oluvchilarni o‘z ustida ishlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va h.k.

### **“Charxpalak” metodining tuzilishi:**

O‘qituvchi barcha o‘quvchilarga:

“Olimpizm – fashizmga qarshi”

“Fashizm – olimpizmga qarshi”

«Balilla» va militarizm ta‘limoti» va yana bir qator mavzulardan iborat harakatli shakllarni aks ettirgan tarqatmalarni tarqatadi. Ularga to‘g‘ri javob berish lozimligini tushuntiradi.

O‘quvchilarga:

1. Yaxshilab o‘qib chiqib, tahlil qiling.
2. Berilgan harakat xususiyatlari ichidan o‘zingiz to‘g‘ri deb topgan harakatni ko‘rsatilgan kataklar ichiga istagan belgingiz bilan belgilang.
3. To‘rt kishidan iborat kichik guruhga bo‘lining va har bir guruh a‘zosi o‘z belgingizni ko‘rsatilgan kataklarga belgilang, bu harakat soat strelkasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

*(Bu harakat to‘rt marotaba amalga oshiriladi. Material o‘z egalariga yetib kelganidan so‘ng o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni o‘qiydi).*

4. Agar shaxsiy belgilaringiz to‘g‘ri javob bilan bir xil bo‘lsa, u holda tartib raqamlarni doira ostiga oling, mos kelmasa ochiq qoldiring.

*(To‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar hisoblanib tegishli natija olinadi).*

### **“Charxpalak” metodining bosqichlari:**

O‘quvchilar hammatushunchalarni qabul qiladilar va:

1. Harakatlarni tahlil etib, kerakli belgilarni qog'ozga yozadilar.
2. Guruhlarga birlashadilar.
3. O'zlari to'g'ri deb topgan harakatlarning kerakli kataklariga o'z belgilarini qo'yadilar.
4. Guruh a'zolari fikrini tahlil etib chiqadilar.
5. Javoblarni qabul qiladilar va tartib raqamlarni doira ostiga oladilar, mos kelmasa, ochiq qoldiradilar.
6. To'g'ri va noto'g'ri javoblar hisoblanadi, tegishli hulosalar chiqariladi.



## **XI Bob. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA SPORT HARAKATI**

### **11.1. Urushdan keyingi davrdagi tarixiy shart-sharoitlarning xalqaro sport harakatiga ta'siri**

Urushdan keyingi tarixiy shart-sharoit dunyo mamlakatlaridan urush ofatlarini bartaraf etish, barcha sohalarda, xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasida islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Ko'pgina mamlakatlarda jismoniy madaniyat va sportdan keng xalq ommasi bahramand bo'la boshladi, ular mehnatkashlarni har tomonlama jismoniy kamolotga yetkazish, ularning sog'ligini mustahkamlash va tinchlik uchun faol kurashchilar tarbiyalab yetishtirishning muhim vositalaridan biriga aylandi.

Bolgariya xalq Respublikasi hukumatining mamlakatda ommaviy jismoniy madaniyat harakatini barpo qilish sohasidagi dastlabki tadbirlaridan biri-1944 yilda tuzilgan muvaqqat Markaziy Sport kengashi edi.

Muvaqqat Markaziy Sport kengashi bilan birga Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida jismoniy madaniyat va sport bo'yicha direksiyaning tuzilishi Bolgariya jismoniy madaniyat va sportining yuksalishida muhim voqea bo'ldi. Direksiya va uning viloyat hamda tumanlardagi mahalliy organlari jismoniy madaniyat va sport sohasidagi davlat siyosatini amalga oshira boshladi. Direksiya Markaziy Sport kengashi bilan birgalikda jismoniy madaniyat harakatini demokratlashtirishga, o'quv-mashq ishlarini ilmiy asosda qurishga harakat qildi. U jismoniy madaniyat va sport sohasi bo'yicha kadrlarni tayyorlash, sport turlaribo'yicha dasturlar ishlab chiqish va jismoniy madaniyat harakatining moddiy-texnik bazasini vujudga keltirish ishlarini boshlab berdi.

Bolgariya jismoniy madaniyat instituti har yili 300ga yaqin oliy ma'lumotli mutaxassis tayyorlab chiqaradi. Jismoniy madaniyat texnikumi o'rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlaydi. Jismoniy tarbiya va sport mashqlarini ilmiy jihatdan asoslash masalalari bilan jismoniy madaniyat va maktab gigiyenasi markaziy ilmiy

tekshirish instituti shug'ullanadi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar sog'ligini tibbiy nazoratning 50 tadan ortiq kabinet kuzatib turadi.

Bolgar basketbolchilari, bokschilari, voleybolchilari, gimnastikachilari, futbolchilari, shaxmatchilari, shtangachilari va sportning boshqa turlari bo'yicha jahonda hozirgi kunda yetakchi o'rin tutadilar. Bolgariya sport tashkilotlari 30 ta xalqaro sport federasiyalarining a'zosi.

Xitoyda jismoniy madaniyat xitoy inqilobining g'alabasidan so'ng va xalq respublikasi tashkil qilinganligidan keyin tez sur'atlar bilan taraqqiy etish boshladi. 1949 yil oktabrida madaniyatning bu sohasida ahvol tubdan o'zgardi. XXRda jismoniy madaniyat va sport sohasida ommaviy ishlarni yo'lga ko'yishda shu yili tuzilgan Umumxitoy jismoniy madaniyati va sport jamiyati muhim rol o'ynadi. Korxonalar, muassasalar, o'quv yurtlari va maktablarda tuzilgan jismoniy madaniyat jamoalari jamiyatning boshlang'ich tashkiloti hisoblanadi.

1953 yil XXR Markaziy xalq respublikasining qaroriga binoan Umumxitoy jismoniy madaniyat va sport davlat qo'mitasi tuzildi. Bu qo'mita sport inshootlari kurish, sport anjomlari ishlab chiqarish va jismoniy madaniyat hamda sport kadrlarini tayyorlash ishlarini jadallashtirib yubordi. 1954 yil mart oyidan boshlab Xitoy davlat muassasalarida ish paytida majburiy suratda bajariladigan badantarbiya pauzalari joriy etildi.

1955 yil oktabrida Pekinda Xitoy tarixida birinchi marta Umumxitoy spartakiadasi bo'lib o'tdi. Ko'pgina qishloqlarning yoshlari «zaryadka» bilan, sport o'yinlari va boshqa jismoniy mashqlar bilan faol sur'atda shug'ullana boshladilar. Ishlab chiqarish kooperativlarida jismoniy madaniyat jamoalari tuzila boshlandi, qishloq yoshlari jismoniy madaniyat majmua meyorlarini topshirishga kirishdi, maktablarda o'quvchilar majburiy mashg'ulotlardan boshqa o'qishdan tashqi paytda sport ishlarida faol ishtiroq etdilar. Xitoy xalq respublikasida talabalarning jismoniy tarbiyasiga alohida ahamiyat berilmoqda. 1953 yildan boshlab oliy o'quv yurtlarining birinchi va ikkinchi bosqichlarida jismoniy tarbiya majburiy tarzda

amalga oshirilmoqda. Yuqori bosqichlarda esa tanlab olgan sport turi bo'yicha sport maxoratini oshirish joriy etilgan.

XXRda basketbol, voleybol, suv sporti, yelkanli sport, suzish, gimnastika, stol tennisi va yengil atletika juda keng tarqalgan. Undan tashqari, shaybali xokkey, chang'i va konkida yurish sportining taraqqiy etishi yangilik xisoblanadi. 1953 yildan boshlab sportning bu turlari hamda uning boshqa ko'pgina turlaridan mamlakat birinchiligi o'tkazilmoqda.

Sportning hozirgi zamon turlarining taraqqiy etishi bilan bir qatorda, uning milliy turlari: chavandozlik, yoy otish, mo'ljalga irg'itish yoki uloqtirish, xitoy boksi. «Ushu» qilichbozligi va boshqalarning takomillashuviga alohida ahamiyat berilmoqda.

Osiyo va Afrikaning ko'pgina xalqlariga jismoniy mashqlar va o'yinlar qadim zamonlardan ma'lum. Ammo mustamlaka asorati sharoiti bu xalqlar jismoniy madaniyatining taraqqiy etishiga to'sqinlik qildi. Ozodlikka erishgan mamlakatlarda sport tashkilotlarining faoliyati demokratik tus ola boshladi. Davlat tomonidan sport klublariga beriladigan moddiy yordam kuchaytirildi. Jismoniy tarbiya va sport milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylandi.

Hindiston, Indoneziya va Birmada jismoniy tarbiya hamda sport ancha taraqqiy etdi, bu mamlakatlarda sportga rahbarlik qiluvchi yangi sport tashkilotlari tuzildi. Hindistonda 1946 yili 1 Umumhindiston jismoniy tarbiya konferensiyasida milliy jismoniy tarbiya va dam olish assosiasiyasi, 1949 yilda Umumhindiston sport tashkilotlariga rahbarlik qiluvchi organ tariqasida Hindiston milliy sport klubi tuzildi. Birmada sport ishlariga jismoniy tarbiya milliy kengashi boshchilik qiladi. Indoneziya, Birma va Hindistonda sportning yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatayotgan milliy olimpiada qo'mitalari tuzildi. Shaharlarda territorial prinsip asosida sport klublari, uyushmalar, soyuzlar tashkil etildi. Chempionatlar, kubok o'yinlari va sport birinchiliklari, milliy o'yinlar va sport bayramlari muntazam o'tkazilmoqda.

Bu mamlakatlarda sportning barcha olimpiada turlari keng yoyilmoqda. Maysazorda o'ynaladigan xokkey, futbol, yengil atletika, ayniqsa, taraqqiy

etmoqda. Yoshlar basketbol va voleybol, velosiped sporti, suzish va yoydan otish bilan shugʻullanayotir. Jismoniy mashqlarning koʻpgina milliy turlari va oʻyinlar ham shuhrat qozongan. Sport maydonlari, gimnastika zallari va stadionlar qurishga ancha eʼtibor berilmoqda. Hindistonda Milliy sport stadioni Yangi Dehlida qurildi. Indoneziyada Suraboy va Medanda stadionlar barpo qilindi. Jakartada juda katta sport majmuasi qurib tugatildi.

Milliy murabbiylar va oʻquvchi kadrlarni tayyorlash yaxshilanmoqda. Masalan, Hindiston kollejlarida bir qancha jismoniy tarbiya boʻlimlari bor. Bombeyda Umumhindiston jismoniy tarbiya va sport instituti ochildi. Ammo milliy kadrlar masalasi hali yechilmagan, shu sababli Hindiston, Indoneziya va Birmaning sport tashkilotlari murabbiylarni chet ellardan taklif qiladi.

Afrika qitʼasida ham jismoniy madaniyat ancha yuksaldi. Afrikaning yangi davlatlari Gvineya, Gana, Mali va boshqalar sportdan mehnatkashlarning keng ommasini bahramand qilish uchun intildilar.

Gvineya Respublikasida jismoniy tarbiya barcha maktablar va oʻquv yurtlarida majburiy fanlar qatoriga kiritilgan, Gvineya hukumati sport tashkilotlariga sport inshootlarini qurishda hamda jismoniy tarbiya oʻqituvchilari, murabbiylar va yoʻriqchilarni tayyorlashda moddiy yordam koʻrsatdi. Mamlakatda futbol, boks, basketbol, voleybol, velosiped sporti, yengil atletika, dzyu-do va stol tennisi federasiyalari tuzildi. Sport mashgʻulotlariga faqat erkaklarga emas, balki xotin-qizlar ham jalb qilingan.

Mali va Kanada futbol, yengil atletika, boks va velosiped sporti taraqqiy ettirildi. Afrikaning oʻn yettita davlatida jismoniy tarbiya va sportning yuksalishida muhim rol oʻynayotgan milliy olimpiada qoʻmitalari tuzildi va ishlab turdi.

Taraqqiy qilgan AQSH, Angliya,Fransiya,Italiya,Yaponiya va boshqa davlatlarda jismoniy madaniyat va sport yuksaklikka erishgan. 1949-1950 yillarda qariyb 9 million harbiy xizmatga chaqirilish yoshidagi amerikaliklar harbiy xizmatni oʻtashga yaroqsiz deb topildi. 1957 yilda yoshlar jismoniy tarbiyasi bilan shaxsan shugʻullangan prezident D.Eyzenxauer koʻpchilik amerika yoshlarining harbiy xizmatga yaroqsizligi tufayli tashvishlanayotganligini aytgan edi.

AQShda mehnatkashlar bolalarining aksariyati jismoniy tarbiya va sportdan bahramand emas edi. 1959 yilda AQShdagi mehnatkashlar bolalari ta'lim olayotgan boshlang'ich maktablarning qariyb 80% sport inshootlariga ega emas edi. Bu maktablarning 50% da jismoniy tarbiya darslari butunlay bo'lmagan. Yoshlarning 5 foizigina shahardan chetdagi oromgohlarda yoz paytlarini o'tkazish imkoniyatiga ega edi. Asosan badavlat kishilarning bolalari ta'lim oladigan o'rta maktablarning ko'pchiligiga zal, havza, sport anjomlari bor. Bu maktablarda jismoniy tarbiyaga haftasiga 45 daqiqadan 5 ta dars ajratilgan. O'rta maktablarda yengil atletika, suzish, basketbol, beysbol va futbol bo'yicha musobaqalar juda ko'p o'tkaziladi.

Taniqli kinoaktyor va mashhur muskulchi atlet, AQSH prezidentlik kengashining jismoniy tarbiya va sport bo'yicha raisi Arnold Shvarsnegger: «Men bolalarning salomatligi qoniqarsiz ahvolda ekanligi to'g'risida gapirishim kerak. 5 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalarning 40 foizida yurak-qon tomirlari xastaligiga chalinish xavfi bor deb o'ylayman: semizlik, qonda xolesterinning yuqori darajada to'planganligi, qon bosimining oshishi - bularning hammasi harakatsizlik oqibatidir.

Meni bir narsa juda tashvishlantiradi, birgina Illinoys shtatida maktab yoshiga yetmagan o'g'il-qizlardan to 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun kundalik jismoniy tarbiya dasturi mavjud. Men Avstriyada katta bo'lganman, u yerda maktabga qatnaganimda har kuni bir soat mobaynida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanardik. Undan tashqari, haftada uch marta sport to'garaqlariga borardik. AQShda ham bu odatiy holda aylanishini intizorlik bilan kutayapman», -deydi.

AQShda kollejlarda (institutlar) va universitetlarda sport ishlarining asosiy markazlari hisoblanadi. Yirik universitetlar (Kaliforniya, Pensilvaniya, Chikago va boshqalar)da gigiyena va jismoniy tarbiya bo'limlari, sport klublari tuzilgan. Ular jismoniy tarbiyani amalga oshirish, tibbiyot ko'riklarini o'tkazish va ichki hamda universitetlararo musobaqalar tashkil qilishdan iboratdir. Amerika kollejlari va universitetlarida basketbol, regbi, beysbol, yengil atletika, boks, suzish, eshkak eshish va tennis sportning eng ko'p tarqalgan turlari hisoblanadi. AQShda

universitet sporti tomosha tavsifiga ega bo'lib, o'quv yurtlariga katta foyda keltiradi. Universitetlarda katta stadionlar, zallar, havzalar bor va talabalar o'rtasida juda ko'p tomoshabinlarni jalb etishi va ko'proq pul to'plashi mumkin bo'lgan sport turlarining taraqqiy etishi rag'batlantiriladi. Chunonchi, 1953 yilda Minnesot Universitetida sport musobaqalarida olingan foyda 900 mingdan ko'proq dollarni tashkil qilgan. Katta foyda keltiruvchi hamda universitetlarning reklamalari bo'lib xizmat qiluvchi talabalar jamoalari o'yinchilariga, chempionlar va rekordchilarga alohida sharoit yaratib beriladi. Ularga stipendiyalar to'lanadi, ular ta'lim uchun xaq to'lashdan ozod qilinadi, uy-joy bilan ta'minlanadi va h.k. Eng yaxshi sport inshootlari, asboblari va inventar ular uchun xizmat qiladi. Universitetlarda sportdan yuqori sport natijalariga erisha oladigan talabalargina bahramand bo'lardi. Shuning uchun ham sportning biror turi bilan shug'ullanuvchi talabalar soni ko'p emas, masalan, 1957 yilda Pensilvaniya universitetida 16200 talaba orasida 50 ta yengil atletikachi bor edi, xolos.

«Yakka, atoqli sportchilar uchun sport» siyosati Amerikaning mustaqil sport klublari uchun ham xos edi. Urushdan keyingi yillarda Amerika sportchilari sportning bir qancha turlari (yengil atletika, basketbol, suzish, og'ir atletika, boks, eshkak eshish)dan yuksak sport muvaffaqiyatlariga erishdilar. Bu sport harakatining ommaviyligiga emas, balki murabbiylarning o'rta maktablardagi qobiliyatli yoshlarni tanlab olishi va ularning sport sohasida yanada o'sishi uchun sharoitlar vujudga keltirilgan universitetlarga yoki armiyaga joylashtirishning natijasidir.

Amerika sportining eng xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan professionalizm urushdan keyingi davrda o'zgarmadi. AQShda professional sport «katta biznesga aylantirildi. Professional sportchilar amalda korxonalarining qo'llaridadir. Ularni oddiy tovar singari sotib oladilar va sotib yuboradilar. Beysbolchi, bokschi, futbolchi, regbichi, basketbolchilar bilan savdo-sotiq qilishdan sport Xo'jayinlari katta foyda oladilar. AQShda professional sport havaskorlik sporti uchun katta zarar keltiradi. Ko'pgina mashhur havaskor sportchilar sport korxolonlariga o'zlarini sotadilar. Ular professional sportchi

sifatida musobaqalarda qatnashar ekan, o'z sog'liklariga zarar yetkazadilar va axloqiy tushkunlikka uchraydilar. Ularning ko'pchiligi asab tizimining zaiflanishi, yurak va boshqa kasalliklar bilan azob chekadilar. Ularning taqdiri xech kimni tashvishlantirmaydi. Bu sportchilarning organizmi tezda kuchdan qoladi va ular axloqiy hamda jismoniy jihatdan mayib bo'lib sportdan ajraladilar.

Boshqa chet mamlakatlarda ham jismoniy madaniyat va sport shu jamiyat a'zolariga xizmat qilmoqda. Angliya, Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda jismoniy madaniyat ishlariga rahbarlik qilish davlat organlari (maorif va harbiy vazirlik), jamoat sport tashkilotlari (Federasiyalar va sport turlari bo'yicha ittifoqlar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu davlatlarda jismoniy tarbiya boshlang'ich va o'rta maktablarda majburiy fan hisoblanadi. Jismoniy tarbiya darsiga bir haftada 2 soatdan 4 soatgacha vaqt ajratiladi. Uning asosiy metodi sport va o'yinlar metodi hisoblanadi. Faqat Shvesiya va Norvegiyadagina gimnastika darslariga jismoniy tarbiya barcha darsliklarning taxminan 50 foizi ajratiladi. Ba'zi mamlakatlar (Angliya, Fransiya)da maktablarning ta'lim rejalarini o'yinlar, ekskursiya va turistik yurishlari uchun haftasiga bir kun ajratish ko'zda tutiladi.

Skandinaviya mamlakatlari maktablarida gimnastika darslaridan tashqari sportdan ixtisos berish mashg'ulotlari keng qo'llanmoqda. Shvesiyada sport soyuzlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan taxminan 5000 mustaqil guruh tuzilgan. Bu guruhlar maktab o'quvchilari o'rtasida sinfdan tashqari mashg'ulotlar paytida yengil atletika, suzish, futbol, eshkak eshish, chang'i, konki va sportning boshqa turlarini keng targ'ib qilmoqda. «SKONE» maktab sporti soyuzi barcha Skandinaviya mamlakatlari va Finlyandiyaning sportchi maktab o'quvchilarini o'zida birlashtiradi. Bu Soyuz sportchi o'quvchilarni yoshi, jinsi va musobaqalar uchun belgilangan meyorlariga qarab toifalarga ajratadi. Skandinaviyada sportning ayrim turlari bo'yicha sport nishonlari juda keng yoyilgan. Bu nishonlarga meyor topshirish sport natijalarining oshishiga yordam beradi. Suzish, yengil atletika, eshkak eshish, chang'i va konkida yurish sporti va umumiy maktab sport nishoni meyori topshiruvchi maktab o'quvchilarining soni yildan-yilga ko'paymoqda.

Yaponiya o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya o'ziga xos xususiyatga ega. Sportning xalqaro turlari bilan birga jismoniy mashqlarning milliy turlari ham taraqqiy ettirildi. Milliy sport turlarining saqlanishi va ularning butunlay eskicha urf-odatlar bo'yicha o'tkazilishidan yoshlarni samuraylar ruhida tarbiyalash uchun foydalanildi. Sportning bunday turlariga katta qilich bilan (yoki uzun tayoqcha bilan) bajariladigan qilichbozlik, sumo kurashi, dzyu-do, yoydan otish va suzish kiradi. Suzish, qurol bilan tik turgan holatda suzish, og'ir narsalarni tashib suzish, suvning sayoz joyiga yuqori balandlikdan sakrash, burun, aylanma va to'siqlardan o'ta bilish kabi murakkab malakalarni tarbiyalab yetishtiradi va h.k. Oliy o'quv yurtlari (institut, universitet)da jismoniy tarbiya kafedralari va sport klublari bor. Ammo AQSH da bo'lganidek Yaponiyada ham barcha talabalar sport klublariga kirish va sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega emaslar, «akademik sport»dan faqat «atoqli» sportchilar bilan ota-onalari badavlat bo'lgan yoshlargina bahramand bo'la olishi mumkin.

Chet mamlakatlarda havaskorlar sportiga sportning ayrim turlari bo'yicha federasiyalar va soyuzlar rahbarlik qiladi. Ularning soni taraqqiy ettirilayotgan sportning turiga bog'liq bo'ladi. Chunonchi Angliyada 50 tadan ko'proq, Fransiyada 40tacha sport turlari bor va h.k. Har bir Federasiya o'zining sport turi bo'yicha milliy va xalqaro musobaqalar o'tkazadi.

### **11.2. Milliy Olimpiya qo'mitalari (MOQ)**

Ma'lumki, Olimpiada o'yinlarida ishtirok etayotgan xorijiy mamlakatlarda milliy jamoalarni tayyorlab yetishtiradigan Milliy olimpiada qo'mitalari tuzilgan. Ular xalqaro olimpiya o'yinlarida faol qatnashib, o'z mamlakatlarida olimpiya o'yinlari uchun sportchilar zaxirasini yaratadi va sportchilarini olimpiya o'yinlariga safarbar etadi.

Milliy olimpiya qo'mitalarining faoliyatini biz zamonaviy olimpiya o'yinlariga ilk start berilgan davr – 1896 yil 6 aprelda Afina shahrida o'tgan I Olimpiya o'yinlari davridan ko'rishimiz ham mumkin. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tashkil qilingan davrdan boshlab, ushbu xalqaro qo'mitaqator mamlakatlarning Milliy Olimpiya qo'mitalarini tan olgan edi. Bundan tashqari,



ularning faoliyatida Milliy olimpiya qo'mitalari assosiasiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash joiz.

Qayd etish kerakki, olimpiada o'yinlari jahon bo'ylab targ'ib bo'lgani sayin, Olimpiya o'yinlarining dovrug'i yoyilgani sari dunyo mamlakatlarining ushbu o'yinlarga ishtiyiqi tobora ortib bordi va mazkur o'yinlarda ishtirok etish maqsadini ro'yobga chiqardi. Shu tariqa jahon davlatlari birin-ketin o'zlarining Milliy olimpiya qo'mitalarini ta'sis etgan holda olimpiya o'yinlarisafiga qo'shila boshladilar.

E'tirof etish joizki, olimpiya o'yinlari qaysiki davlatdagi shaharda o'tkaziladigan bo'lsa, asosiy mas'uliyat va javobgarlik, tashkilotchilik o'sha mamlakatning Milliy olimpiya qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. O'z navbatida, mazkur davlatning Milliy olimpiya qo'mitasi olimpiya o'yinlariga yuksak darajada hozirlik ko'rgan va bu o'yinlarni o'tkazishni o'zi uchun sharaf deb bilgan.

Davlatlar Milliy olimpiya qo'mitalarining ta'sis etilishi, faoliyati va rivojlanish bosqichlarini zamonaviy olimpiya o'yinlarining o'tkazilish tarixida yanada yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Urushdan keyingi yillarda jahon jamoatchiligi Xelsinkida o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlarini sabrsizlik bilan kutar edi. Chunki unda ilk bor Sobiq Ittifoq sportchilari ham qatnashishi aniq edi.

**XV Olimpiya o'yini.** 1952 yil Xelsinki (Finlyandiya) olimpiadasida Germaniya federativ Respublikasi (GFR) hechqanday to'siqlarsiz ishtirok etdi. Lekin Germaniya demokratik respublikasi (GDR) o'yinlarga qo'yilmadi. Olimpiadada 11 ta jahon va 47 ta olimpiya rekordlari o'rnatildi. Sobiq Ittifoq shtangachilari, gimnastikachilari, kurashchilari, o'q otuvchi va greblyachilari katta yutuqlarga erishdilar. Olimpiya medallari uchun kurash asosan Sobiq Ittifoq, AQSH, Vengriya va Shvesiya mamlakatlari o'rtasida keskin ravishda o'tdi. AQSH 76ta, Sobiq Ittifoq 71 medalni qo'lga kiritdi. Vengerlar 16 ta oltin, 10 kumush va 16 ta bronza medallariga sazovor bo'lishdi va uchinchi o'rinni egallashdi.

**XVI Olimpiya o'yini,** 1956 yil Melburn (Avstraliya). O'yinlar o'tkazilishi xalqaro munosabatlarning keskinlashuvi davriga to'g'ri keldi. Shunday bo'lsa-da

o'yinlar keskin kurashlar ostida olib borildi. Yengil atletika, suzish, og'ir atletika, o'q otish turlari bo'yicha 19 ta jahon va 65 ta olimpiya rekordlari o'rnatildi. V.Kds (Sobiq Ittifoq) 5 va 10 km masofaga yugurishda g'olib keldi. Sobiq Ittifoq 98 ta oltin, kumush va bronza medallariga ega bo'lib, 624,5 ochko bilan olimpiya chempioni bo'ldi. Shu sababli Avstraliya matbuoti "SSSR Amerikaning olimpiya o'yinlaridagi 60 yillik hukmronligini puchga chiqardi",-deb yozgan edi.

**XVII Olimpiya o'yini, 1960 yil Rim.** Sobiq Ittifoq sportchilari 103 ta oltin, kumush va bronza medallarini egallashga erishdi. AQSH sportchilari esa 71 medalni qo'lga kiritdi. Sobiq Ittifoq sportchilarining 11 ta yengil atletikachisi oltin medal sohibi bo'lishdi. R.Shavlakadze va V.Brumel balandlikka sakrashda jahon rekordchisi D.Tomas (AQSH) ustidan g'olib kelishdi. Gimnastikachilar 5 ta oltin va og'ir atletikachilar 1 ta kumush medalga sazovor bo'lishdi. Y.Vlasov uch kurashda 537.5 kg (jahon va olimpiadaning yangi rekordi) natija bilan eng yaxshi sportchi deb tan olindi. Shuningdek, qilichbozlar, velosipedchilar, parus va ot sportchilari ham oltin medallarga sazovor bo'lishdi. Olimpiadada Ruminiya, Vengriya, Polsha, Chexoslovakiya, Bolgariya, GDR (qo'shma jamoa) yaxshi natijalarni qo'lga kiritishdi.

**XVIII Olimpiya o'yini, 1964 yil Tokio.** AQSH va boshqa bir qator mamlakatlar o'tgan olimpiya o'yinlaridagi mag'lubiyatlari asosida bu o'yinlarga shiddatli ravishda tayyorgarlik ko'rishgan edi.O'yinlarda 94 mamlakatdan 93 jamoa ishtirok etdi (GDR va GFR bir jamoada qatnashdi). Tokioga Yevropadan 28, Afrikadan 22, Osiyodan 20, Amerikadan 21 va Avstraliya hamda Okeaniyadan 2 ta jamoa kelishdi. Sobiq Ittifoq 96 ta medal olib peshqadamlik qildi. AQSH ikkinchi va qo'shma Germaniya – uchinchi o'rinni egalladi.

**XIX Olimpiya o'yini, 1968 yil Mexiko.** Bu shahar dengiz sathidan 2240 m balandlikda joylashib, iqlim sharoiti sportchilarga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sobiq Ittifoq sportchilari umumjamoa hisobida AQSH ga yutqazdi. AQSH106 ta va Sobiq Ittifoq 91 ta medalga sazovor bo'lishdi. Olimpiya o'yinlarining natijalari Afrikada sportning rivoj topayotganligini namoyish etdi.

Efiopiya, Keniya, Tunis va boshqa mamlakatlarning sportchilari yaxshi natijalar ko'rsatdi.

**XX Olimpiya o'yini, 1972 yil Myunxen (Germaniya).** O'yinlarda 11 ta mamlakat yangidan qatnashadi. Shular safida Koreya xalq demokratik Respublikasi (KXDR) ham bor edi. O'yinlarda 46 ta jahon rekordlari o'rnatiladi. Sobiq Ittifoq 50 ta oltin, 27 ta kumush, 22 ta bronza, jami 99 medalga, AQSH esa 33 ta oltin, 30 ta kumush, 30 ta bronza, jami 93 medalga sazovor bo'lishdi. GDR 66 ta medallarni egallab, uchinchi o'ringa chiqdi. O'yinlar jarayonida polisiyachilar bilan terrorchilar o'rtasida yuzaga kelgan otishma natijasida 11 ta isroillik sportchihalok bo'ldi va O'yinlar vaqtincha to'xtatildi.

**XXI Olimpiya o'yini, 1976 yil, Monreal (Kanada).** O'yin ochilishida Afrika mamlakatlari norozilik bildirib, 28 jamoa chiqib ketadi. Chunki yangi Zelandiya Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) bilan aloqador bo'lsa-da, o'yinga taklif etilgan edi. O'yinlarda 34 ta jahon va 82 ta olimpiya rekordlari o'rnatiladi. Medallar soni bo'yicha Sobiq Ittifoq, AQSH, GDR yuqori o'rinlarni egalladi. (Sobiq Ittifoq -125, AQSH-94, GDR-90 medal).

**XXII Olimpiya o'yini, 1980 yil Moskva.** Bu o'yinlarda birinchi marotaba Vyetnam, Angola, Zimbab've, Laoareni, Mozambik kabi mamlakatlar tashrif buyurishdi. 25 sport turi bo'yicha 203 ta medallar shodasi (komplekt) uchun kurash olib borildi. AQSH va bir qator kapitalistik mamlakatlardan sportchilar qatnashmadi. Olimpiya dasturi o'tgan o'yinlarga nisbatan keng va boy edi. O'yinlarda 80 dan ortiq mamlakat sportchilari ishtirok etadi. 36 ta jahon, 74 ta Olimpiya rekordlari o'rnatiladi.

**XXIII Olimpiya o'yini, 1984 yil Los-Anjeles (AQSH).** O'yinlarda Sobiq Ittifoq va bir qator socialistik davlatlar (Sobiq Ittifoq tarafdorlari) ishtirok etishmadi. Buning sababi AQShga boykot (isyon) javobi bo'lsa, ikkinchidan, AQSH hukumati sportchilar xavfsizligini o'z bo'yinlariga olishmadi. O'yinlarda AQSH oldingi safda bordi.

**XXIV Olimpiya o'yini 1988 yil Seul (Janubiy Koreya).** XOQ prezidenti Xuan Antonio Samaranch va xalqaro sport uyushmalarining rahbarlari tomonidan

olib borilgan faol harakatlar natijasida Sobiq Ittifoq va AQSH sportchilari Olimpiya o'yinlari maydonlarida kuch sinashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. O'yinlarda 159 mamlakatdan 8473 sportchi ishtirok etdi. AQSH-612, Sobiq Ittifoq -518, Janubiy Koreya-467, GFR-407, Kanada-382, Buyuk Britaniya-370, Xitoy-293, GDR-288 sportchi bilan qatnashdi. Olimpiadada Sobiq Ittifoq 132 ta medal (oltin-55, kumush-31, bronza-46) bilan oldingi o'ringa chiqdi. GDR 102 ta (37-35-30) va AQSH-94 ta medal bilan (36-31-27) keyingi o'rinlarni egalladi.

**XXV Olimpiya o'yini, 1992 yil Barselona (Ispaniya).** Bu o'yinda Sobiq Ittifoq o'rniga Rossiya bilan hamkorlikda sobiq respublikalarning (MDH) sportchilari so'nggi marta ishtirok etishdi. O'yinlarda mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), AQSH, Germaniya, Xitoy, Kuba, Vengriya mamlakatlarining sportchilari shiddatli kurashlar olib borishdi. MDH 112 medal (45 ta oltin, 38 ta kumush, 29 ta bronza) bilan birinchilikni egalladi. AQSH 108 medal (37-34-33), Germaniya 82 medal (33-21-28), Xitoy 54 medal (16-22-6), Kuba 31 medal (14-6-11) va Vengriya 30 medal (11-12-7) olishga muvaffaq bo'ldi.

**XXVI Olimpiya o'yini, 1996 yil Atlanta (AQSH).** Bu o'yin 19 iyuldan 4 avgustgacha davom etdi. Unda 197 Milliy olimpiya qo'mitalarining 10.305 nafar sportchilari ishtirok etdi. Bu Olimpiya tarixida eng yuqori natija edi. Musobaqalar 26 sport turi bo'yicha o'tkazildi. Kurashlarda AQSH 44 ta, Rossiya 26 ta, Germaniya 20 ta, Xitoy 16 ta, Fransiya 15 ta, Italiya 13 ta, Avstraliya 9 ta, Kuba 9 ta oltin medallar sovrindori bo'lishdi.

Taassufki, bu yerda ham ko'ngilsiz hodisa yuz berdi. 27 iyul kechasi "O'yinlar yuz yilligi" istirohat bog'ida bomba portladi. Bunda 44 yoshli amerikalik ayol va 40 yoshli Turk telekommuntatori vafot etdi. AQSH Prezidenti Bill Klinton chiqish qilib, mintaqaning barcha hududlaridagi zararkunandalarni qoraladi. XOQ bir daqiqa motam sadosini o'tkazib o'yinlarni davom ettirishga qaror qildi.

**XXVII Olimpiya o'yini, 2000 yil Sidney (Avstraliya).** O'yinlar noyabr oxiri va dekabr oyining boshida o'tkazildi. Bu o'yinda 200 dan ortiq Milliy olimpiya qo'mitalarining 11 ming sportchilari ishtirok etishdi. Medallar soni bo'yicha AQSH (oltin-39, kumush-25, bronza-33) birinchi, Rossiya (32-28-28)

ikkinchi va Xitoy (28-16-15) uchinchi o‘rinni egalladi. To‘rtinchi o‘rinni Avstraliya (16-25-17) va beshinchi o‘rinni Germaniya (14-17-26) egallashga muvaffaq bo‘ldi. Bu olimpiada XX asrning oxirgi o‘yini sifatida tarixda qoldi.

Keyingi Olimpiya o‘yinlari ham o‘zidagi shiddatkorlik, mazkur o‘yinlarga davlatlar tomonidan yuksak saviyada tayyorgarlik, Olimpiya o‘yinlarining zamonaviy axborot-telekommunikasiya texnologiyalari darajasida mazmunli tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Bu, albatta, davlatlar Milliy olimpiya qo‘mitalarining tobora rivojlanib, yuksak moddiy-texnik bazaga ega bo‘lib borayotganigini amalda namoyon etadi.

Olimpiya o‘yinlari, haqiqatan ham, bashariyatni umuminsoniy qadriyatlar sari chorlaydi. Buning talqinini xorijiy adabiyotlar tahlilida ham yaqqol ko‘ramiz. Aleksandr Migel Mestrning “Olimpiya o‘yinlari qonun tomonida” kitob-eslatmasida ham “Olimpiya o‘yinlari – Olimpik tamoyillar va qadriyatlarni targ‘ib qilishdir” deyiladi va mazkur manbada Olimpiya harakati o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, qonunlarda aks ettirilgan umumbashariy ezgu qarashlar, tartib-qoidalarni mujassam etishi alohida qayd etib o‘tiladi.

### **Zamonaviy olimpiya o‘yinlari**

№	O‘tkazilgan yillar	Boshlangan kun	Yakunlangan kun	O‘tkazilgan shahar	Davlat	Ishtirokchi davlatlar	Sport turi
I	1896	6 aprel	15 aprel	Afina	Gresiya	14	9
II	1900	14 may	28 oktabr	Parij	Fransiya	24	20
III	1904	1 iyul	23 noyabr	Sent-Luis	AQSH	12	18
IV	1908	13 iyul	31 oktabr	London	Buyuk Britaniya	22	22
V	1912	5 may	27 iyun	Stokgolm	Shvesiya	28	24
VI	1916	—	—	Berlin	Germaniya	—	—
VII	1920	14 avgust	29 avgust	Antverpen	Belgiya	29	26
VIII	1924	5 iyul	27 iyul	Parij	Fransiya	44	17
IX	1928	17 may	12 avgust	Amsterdam	Gollandiya	46	14
X	1932	30 iyul	14 avgust	Los-Andjeles	AQSH	37	14
XI	1936	1 avgust	16 avgust	Berlin	Germaniya	51	19
XII	1940	—	—	Tokio → Xelsinki	Yaponiya → Finlyandiya	—	—

XIII	1944	—	—	London	Buyuk Britaniya	—	—
XIV	1948	29 iyul	14 avgust	London	Buyuk Britaniya	59	17
XV	1952	19 iyul	3 avgust	Xelsinki	Finlyandiya	69	17
XVI	1956	22 noyabr 10 iyun	8 dekabr 17 iyun	Melburn Stokgolm	Avstraliya Shvesiya	67	17
XVII	1960	25 avgust	11 sentabr	Rim	Italiya	83	17
XVIII	1964	10 oktabr	24 oktabr	Tokio	Yaponiya	93	19
XIX	1968	12 oktabr	27 oktabr	Mexiko	Meksika	112	20
XX	1972	26 avgust	10 sentabr	Myunxen	GFR	121	23
XXI	1976	17 iyul	1 avgust	Monreal	Kanada	92	21
XXII	1980	19 iyul	3 avgust	Moskva	Sobiq ittifoq	80	21
XXIII	1984	28 iyul	12 avgust	Los-Andjeles	AQSH	140	23
XXIV	1988	17 sentabr	2 oktabr	Seul	Janubiy Koreya	159	27
XXV	1992	25 iyul	9 avgust	Barselona	Ispaniya	169	32
XXVI	1996	19 iyul	4 avgust	Atlanta	AQSH	197	26
XXVII	2000	15 sentabr	1 oktabr	Sidney	Avstraliya	199	28
XXVIII	2004	13 avgust	29 avgust	Afina	Gresiya	201	28
XXIX	2008	8 avgust	24 avgust	Pekin	XXR	204	28
XXX	2012	27 iyul	12 avgust	London	Buyuk Britaniya	204	26
XXXI	2016	5 avgust	21 avgust	Rio-de-Janeyro	Braziliya		

### Qishki olimpiya o'yinlari

№	O'tkazilgan yillar	Boshlangan kun	Yakunlangan kun	O'tkazilgan shahar	Davlat
I	1924	25 yanvar	5 fevral	Shamoni	Fransiya
II	1928	11 fevral	19 fevral	Sankt-Morisa	Shveysariya
III	1932	4 fevral	15 fevral	Leyk-Ples	AQSH
IV	1936	6 fevral	16 fevral	Garmish-Partenkirxen	Germaniya
1940 hamda 1944 yillarda qishki Olimpiya o'yinlari o'tkazilmagan					
V	1948	30 yanvar	8 fevral	Sankt-Morisa	Shveysariya
VI	1952	14 fevral	25 fevral	Oslo	Finlyandiya
VII	1956	26 yanvar	5 fevral	Kortina d'Ampesso	Italiya
VIII	1960	18 fevral	28 fevral	Skvo-Velli	AQSH
IX	1964	29 yanvar	9 fevral	Insbruk	Avstriya
X	1968	6 fevral	18 fevral	Grenobl	Fransiya

XI	1972	3 fevral	13 fevral	Sapporo	Yaponiya
XII	1976	4 fevral	15 fevral	Insbruk	Avstriya
XIII	1980	13 fevral	24 fevral	Leyk-Ples	AQSH
XIV	1984	8 fevral	19 fevral	(sobiq) Sarayevo	Yugoslaviya
XV	1988	13 fevral	28 fevral	Kalgari	Kanada
XVI	1992	8 fevral	23 fevral	Fransiya	Albervil
XVII	1994	12 fevral	27 fevral	Lillexammer	Norvegiya
XVIII	1998	7 fevral	22 fevral	Nagano	Yaponiya
XIX	2002	8 fevral	22 fevral	Solt-Leyk-Siti	AQSH
XX	2006	10 fevral	26 fevral	Turin	Italiya
XXI	2010 kunlari	12 fevral	28 fevral	Vankuver	Kanada
XXII	2014	7 fevral	23 fevral	Sochi	Rossiya
XXIII	2018	9 fevral	25 fevral	Pxyonchxan	Janubiy Koreya

### **11.3. Urushdan keyingi davrda Sobiq Ittifoq jismoniy tarbiya tashkilotlarining xalqaro sport harakatlaridagi ishtiroki**

XIV va XV yozgi olimpiya o'yinlari orasida xalqaro olimpiya harakatida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 1951 yil Venada bo'lib o'tgan sessiyasida Sobiq Ittifoq olimpiya qo'mitasi tan olindi. XOQ o'zi bu davlat terma jamoasiga 1948 yilgi Olimpiadada ishtirok etishga ruxsat berish niyatida edi. Ammo rasmiyatchiliklar o'z vaqtida amalga oshira olinmaganligi sababli bu davlat sportchilariga olimpiadachilar oilasiga qo'shilishni yana to'rt yil kutishlariga to'g'ri keldi.

Shu tariqa 1952 yil Xelsinki shahrida o'tkazilgan XV Olimpiada o'yinlarida Sobiq Ittifoq davlati nomidan o'nta ittifoqdosh respublika, shu jumladan, O'zbekiston vakillari – jami 295 sportchi O'yinlar dasturidan o'rin olgan chim ustida xokkeydan boshqa sportning barcha turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etdilar.

O'yinlarda musobaqalar mamlakatlar orasida emas, balki sportchilar o'rtasida o'tkazilishi olimpiya harakatining asosiy tamoyillaridan biri ekanligiga, shu sababli ham XOQ olimpiadalarda rasmiy jamoalararo yakunlar chiqarilishiga qarshi ekanligiga qaramasdan o'n beshinchi olimpiadadan boshlab birinchi

navbatda AQSH bilan Sobiq Ittifoq o'rtasidagi raqobat misli ko'rilmagan darajada keskinlashib ketdi.

Aslida bu ikki ijtimoiy tuzum o'rtasida siyosat, iqtisodiyot, boshqa jabhalardagi qarama-qarshilikning uzviy davomi edi. Xelsinki Olimpiadasidan boshlab qirq yil davomida bu ikki tarafga taalluqli mamlakatlar terma jamoalarining, alohida sportchilarining natijalari, qo'lga kiritgan medallari muttasil ravishda bir-biriga taqqoslanib borilar, ulardan birorining muvaffaqiyati, albatta, u vakili hisoblangan tomonning afzalligi namoyishi ekanligi zo'r berib targ'ib qilinardi.

Sobiq Ittifoqning sport gimnastikasi bo'yicha terma jamoasi safidagi Mariya Goroxovskayaning natijalari ham juda salmoqli bo'ldi. U yettita – ikkita oltin va beshta kumush medal sohibasi bo'ldi.

Ayollar o'rtasidagi sport gimnastikasi bo'yicha jamoa birinchiligida o'n beshinchi Olimpiya o'yinlari faxriy shohsupanining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilganlar orasida Toshkentning "Iskra" ko'ngilli sport jamiyatidan Galina Shamray, shuningdek, majburiy mashqlarni bajarish bo'yicha jamoa birinchiligida kumush medalni ham qo'lga kiritdi. Ko'pkurash bo'yicha shaxsiy birinchilikda esa 74,98 ball to'plab, sakkizinchi o'rinni oldi.

AQSH va Sobiq Ittifoq davlatlari sportchilari norasmiy jamoa hisobida bir xil – 494 ochko to'pladilar. Bunda amerikaliklar ko'proq oltin medalni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Ular hisobida jami 76 ta (40 ta oltin, 19 ta kumush va 17 ta bronza) medallari bor edi. Sobiq Ittifoq sportchilari 71 ta (22 ta oltin, 30 ta kumush va 19 ta bronza) medallarini qo'lga kiritdilar. 259,5 ochko va 42 ta (16 ta oltin, 10 ta kumush va 16 ta bronza) medali bilan Vengriya olimpiadachilari uchinchi o'ringa ko'tarilib, sportolamida katta shov-shuvga sabab bo'ldilar.

1956 yil 22 noyabr kuni Melburnda XVI olimpiya o'yinlari boshlandi. Ushbu o'yinlarda ayollar o'rtasida balandlikka sakrash musobaqalarida Toshkentning "Burevestnik" ko'ngilli sport jamiyati a'zosi Valentina Ballod ham ishtirok etdi. U 160 santimetr balandlikni zabt etib, o'n birinchi o'rinni oldi.



Sobiq Ittifoq sport gimnastikasida jamoa hisobida ham, shaxsiy birinchiliklarda ham yuksak mahoratlarini namoyish qila oldilar. Xususan, ukrainalik Viktor Chukarin Melburnda sport gimnastikasi musobaqalarida hammasi bo‘lib beshta: uchta oltin, kumush va bronza, uning Dnepr sohillaridagi yurtdoshi Larisa Matinina ham xuddi shuncha – to‘rtta oltin va bitta kumush medal bilan taqdirlandilar.

Olimpiya o‘yinlarining tantanali yopilish kuni – 8 dekabrda futbol bo‘yicha final uchrashuvida maydonga sobiq Ittifoq va Yugoslaviya terma jamoalari tushdilar. Hal qiluvchi uchrashuvga qadar Birlashgan Germaniya jamoasini 2:1, indoneziyaliklarni ikki o‘yinda – 0:0 va 4:0, bolgarlarni 2:1 hisobida mag‘lubiyatga uchratgan Sobiq Ittifoq futbolchilari yugoslavlar darvozasini bir marta ishg‘ol qilib, chempion bo‘ldilar.

Qishki Olimpiadada Sobiq Ittifoq sportchilari orasida birinchi bo‘lib oltin medalga chang‘ida 10 kilometr masofaga poygada Lyubov Kozireva sazovor bo‘ldi. Yevgeniy Grishin 500 metr masofada 40,2 sekund natija bilan jahon rekordini yangiladi. U ikkinchi oltin medalga ham 1500 metr masofada jahon rekordi (2 daq. 08,6 sek.) o‘rnatgan holda sazovor bo‘ldi. Xuddi shunday natija ko‘rsatgan jamoadoshi Y.Mixaylov uning rekordiga sherik bo‘ldi hamda shohsupa to‘riga birga ko‘tarildi. B.Shishkovning 5000 metr masofada ko‘rsatgan natijasi yangi olimpiya rekordi sifatida qayd qilindi.

Shaybali xokkey bo‘yicha olimpiya turnirida Sobiq Ittifoq sportchilarining birinchi bor ishtirok etishlariyoq Amerika qit‘asi mamlakatlarining uzoq yillik yakkahokimliklari tugaganligini ko‘rsatdi. Bu davlat terma jamoasi musobaqalarning saralash bosqichida Shvesiya (5:1), Shveysariya (10:3), final qismida yana Shvesiya (4:1) hamda Chexoslovakiya (7:4), Birlashgan Germaniya jamoasi (8:0), Kanada (2:0), AQSH (4:0) xokkeychilarini mag‘lubiyatga uchratib, ilk marta Olimpiada chempioni bo‘ldi.

Qishki Olimpiadada ham norasmiy umumjamoa hisobida Sobiq Ittifoq sportchilari yuksak natija ko‘rsatdilar. Ular hisobida 103 ochko va 16 ta (7 ta oltin, 3 ta kumush, 6 ta bronza) medallar bor edi. Taqqoslash uchun ikkinchi o‘rinni

olgan avstriyaliklar 66,5 ochko va 11 ta (4 ta oltin, 3 ta kumush va 1 ta bronza) medal, uchinchi o'ringa ko'tarilgan finlar 57 ochko va 7 ta (3 ta oltin, 3 ta kumush va 1 ta bronza) medal bilan chegaralanganliklarini keltirish mumkin.

1960 yil 25 avgustdan Rim shahrida XVII olimpiya o'yinlarida ham Sobiq Ittifoq sportchilari yuksak natijalarni qayd etdilar. Sobiq Ittifoqning og'ir atletika bo'yicha besh nafar Olimpiada chempioni yuqori unvonga jahon rekordini o'rnatish hisobiga sazovor bo'ldi. Ular orasida Yuriy Vlasovning sport jasorati, ayniqsa, tahsinga loyiqdir. Ukrainaning Donesk viloyatidan bo'lgan bu sportchi Rim Olimpiadasida og'ir (90 kg dan yuqori) vaznda to'rtta – ikkita jahon (siltab ko'tarishda – 202,5 va uchkurashda – 537,5 kg) va ikkita olimpiya (jim – 180 kg va dast ko'tarishda – 155 kg) rekordi o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Holbuki, bu vazn toifasidagi og'iratletikachilarning bellashuvlari harorat 40 daraja jazirama bo'lgan zalda soat tonggi uchgacha davom etgan. Yuriy Vlasov uchkurashda ikkinchi o'rinni egallagan amerikalik Jeyms Bredforddan oz emas, ko'p emas – 25 kilogramm yuqori natijaga erishdi. Ayniqsa, uning shtanga ko'tarishdagi texnikasi mukammalligi bilan ajralib turardi. Xalqaro og'ir atletika federasiyasi prezidenti Bruno Nyuberg bejiz uni “og'ir atletika professori” -deb atamagan edi.

O'n yettinchi olimpiada o'yinlarida ham Sobiq Ittifoq sportchilari norasmiy umumjamo'a hisobida katta ustunlikka ega bo'ldilar. Ular hisobida 682,5 ochko va 103 ta – 43 ta oltin, 29 ta kumush va 31 ta bronza bo'lib, Olimpiya shohsupasini zabt etdilar.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, sobiq Ittifoq respublikalari garchi Ikkinchi jahon urushidan jabrlangan, og'ir sharoitda chiqishiga qaramay, sportni rivojlantirish, olimpiya o'yinlarida peshqadamlik ko'rsatishga astoydil urindi va bu borada ulkan natijalarga erishdi. Olimpiyalar tarixiga nazar tashlasak, Sobiq Ittifoqning yozgi olimpiya o'yinlari - 1956 yil Melburndagi (Avstraliya) XVI, 1960 yil Rimdagi XVII, 1964 yil Tokiodagi XVIII, 1972 yil Myunxendagi (Germaniya)XX, 1976 yil Monrealdagi (Kanada) XXI, 1988 yil Seuldagi (Janubiy Koreya) XXIV olimpiada o'yinlarida, shuningdek, qishki olimpiya o'yinlari –1956 yil Kartina d`Ampessodagi (Italiya) VII, 1952 yil Oslodagi (Norvegiya) VI, 1960

yil Skvo-Vellidagi (AQSH) VIII, 1964 yilInsbrukdagi (Avstriya) IX, 1972 yil Sapporodagi (Yaponiya) XI, 1976 yilInsbrukdagi(Avstriya) XII, 1984 yil (sobiq) Sarayevodagi(Yugoslaviya) XIV, 1988 yil Kalgaridagi (Kanada) XV olimpiya o'yinlarida mutlaq g'olib bo'lib, qayta-qayta olimpiya chempioni nomini olishi mazkur davlat hududidagi respublikalar tomonidan o'sha yillarda olimpiada o'yinlari yuzasidan kuchli salohiyat shakllanganligini namoyon etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. 1952 yil Xelsinkida o'tkazilgan XV olimpiya o'yini (Finlyandiya) haqida gapiring.

2. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 1951 yil Venada bo'lib o'tgan sessiyasida Sobiq Ittifoqning olimpiya harakati bilan bog'liq qanday voqea yuz berdi?

3. Ayollar o'rtasidagi sport gimnastikasi bo'yicha jamoa birinchiligida o'n beshinchi Olimpiya o'yinlari faxriy shohsupanining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilganlar orasida Galina Shamray ham bo'lib, u qayerdan va qaysi klubning a'zosi edi?

4. Urushdan keyingi davrda Sobiq Ittifoq va AQShning olimpiya o'yinlaridagi murosasiz raqobat jarayonlariga izoh bering.

5. 27 iyul kechasi...“O'yinlar yuz yilligi” istirohat bog'ida bomba portlaydi. Bu ko'ngilsiz hodisa qaysi Olimpiada o'yinlarida sodir etilgan edi?

6. Zamonaviy Olimpiya va qishki Olimpiyalar mazmuni haqida gapiring.

## **«6 X 6 X 6» METODI**

### **Qo'llashdan maqsad:**

- bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish;
- mavzuga oid mavzuni to'laqonli muhokama qilish;
- guruhlarining har bir a'zosidagi imkoniyatlarni aniqlash, ularning qarashlarini o'rganish va h.k.

### **«6 x 6 x 6» metodining tuzilishi:**

6 ta guruh (har birida 6 nafar o'quvchi) o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi.

Masalan: **Olimpiya o'yinlarida Sobiq Ittifoq va AQSH munosabatlari**

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Muhokama

mavzusi: **Olimpiya o'yinlarida davlatlarning ishtiroki**

Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi.

Qiyoslang: **Qaysi olimpiyalarda qaysi mamlakatlar ustunlikka ega?**

Yangi guruh avvalgi guruhning xulosasini bayon etib beradi. So'ngra muhokama umumiy olib boriladi va yakuniy xulosalarga kelinadi.

**Olimpiya o'yinlari – tinchlik, do'stlik va bag'rikenglik an'anasi**

### **«6 x 6 x 6» metodining bosqichlari:**

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanmasdan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo'yib chiqadi.

2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlariga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga mavzuga oid suratlar chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga suratli (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi o'quvchilar faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riklar ko'rsatadi, hamda guruhlar

tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6ta guruhning har biridan bir nozir vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

## **XII BOB. XALQARO SPORT FEDERASIYALARINING BOSH ASSAMBLEYASI**

### **12.1. Milliy Olimpiya qo‘mitalari Bosh assambleyasi (MOQBa)**

Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi 1969 yilda Milliy olimpiya qo‘mitalari assosiasiyasi — MOQAni tan olgan, 1967 yildan faoliyat olib borayotgan Xalqaro sport federasiyalari Bosh assambleyasi — XSFBA, huquqiy jihatdan to‘la mustaqil, olimpiya o‘yinlari paytida barcha bahsli masalalarni hal etadigan Sport arbitraj sudi — SAS bilan qalin hamkorlik qiladi.

Milliy olimpiya qo‘mitalari dunyo mamlakatlariga tegishli bo‘lib, ular o‘z mamlakatlarida olimpiya harakatini amalga oshirish bo‘yicha faoliyat olib boradilar. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi esa Milliy Olimpiya qo‘mitalari va xalqaro federasiyalarni tan olish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, ular bilan qalin hamkorlikni amalga oshiradi.

Bosh assambleyalar Milliy olimpiya qo‘mitalarining rahbar organi hisoblanib, yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Masalan, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi 1993 yil sentabrda O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasini tan olgan. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Milliy olimpiya qo‘mitalari assosiasiyasining teng xuquqli azosidir. Bosh assambleya, Ijroiyy qo‘mita, Ijroiyy qo‘mita byurosi O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining rahbar organlari hisoblanadi. Bosh assambleyalar oralig‘ida O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi faoliyatiga Ijroiyy qo‘mita rahbarlik qiladi.

Bosh assambleya har yili faoliyat yakunlariga bag‘ishlab tahliliy va tanqidiy shaklda o‘tkaziladi. Hisobot-saylov assambleyasi esa har to‘rt yilda bir marotaba tashkil etilib, unda olimpiya o‘yinlari tahlillari, navbatdagi olimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik va bu boradagi ustuvor vazifalar muhokama etilad, istiqbolli dasturlar belgilanadi.

Olimpiya shahri zaminida azaldan yuqori darajadagi shart-sharoitlarni yaratishga harakat qilingan. Xususan, xorijiy manbalardan birida keltirilishicha,

2006 yil 10 oktabrda AQShning Vashington shtatida o'tkazilgan Jamoa majlisida Olimpiya shahri va LOTT birlashmasi o'rtasida o'zaro mahalliy shartnoma ko'rib chiqilgan va shunga asosan Olimpiya shahri o'zini o'zi tozalash xususiyatiga ega bo'lgan 700 fut uzunlikdagi beton trubaga egalik qilish huquqini qo'lga kiritgan. Bundan ko'rinadiki, olimpiya harakatini yuqori saviyada davom ettirish uchun xalqaro miqyosdagi islohotlar o'ziga xos tarzda olib borilgan va olib borilmoqda.

## **12.2. Milliy Olimpiya qo'mitalarining o'zaro ta'siri va hamkorlik aloqalari**

Dunyo mamlakatlarining Milliy olimpiya qo'mitalari o'zaro hamkorlikda, aloqada faoliyat yuritadi. Bu esa Olimpiya harakatining yanada rivojlanishi, avvalo, mamlakatlar miqyosida, keyin esa xalqaro doirada yuksak mahoratli sportchilarni saralash, ularning iqtidor va imoniyatlarini ro'yobga chiqarish, rag'batlantirish, olimpiya harakati asosida umumbashariy ezgu g'oyalarni targ'ib etishda munosib zamin bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining chorak asrlik faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ko'pgina tarixiy yutuqlar ko'z oldimizda gavlanadi. Mamlakatimizda Milliy olimpiya qo'mitasi 1992 yil 21 yanvarda, ya'ni bundan roppa-rosa 25 yil muqaddam tashkil etilgan bo'lib, 1993 yil sentabr oyida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasman tan olingan. So'ngra mamlakatimiz sport delegasiyasi mustaqil O'zbekiston nomidan to'rt yillikning eng nufuzli musobaqalari – Olimpiya hamda Osiyo o'yinlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. O'zbekiston delegasiyasi mustaqil jamoa sifatida birinchi marta 1994 yilda Norvegiyaning Lillixammer shahrida o'tkazilgan XVII qishki Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan va ilk urinishdayoq hamyurtimiz Lina Cheryazova fristayl sport turi bo'yicha barcha raqiblarini ortda qoldirib, Olimpiya o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'lgan. Ushbu sovrin mustaqil O'zbekiston tarixidan Olimpiya o'yinlarining birinchi oltin medali sifatida joy olgan.

Oradan ikki yil o'tib, sportchilarimiz yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroklarini ham boshlab berishadi va 1996 yilda AQShning Atlanta shahrida tashkil etilgan XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston delegasiyasi endi ikkita medalga sazovor bo'ladi. Armen Bagdasarov dzyudo bo'yicha kumush, Karim To'laganov esa boks bo'yicha bronza medalini qo'lga kiritishadi.

Artur Taymazov o'z shaxsiy kolleksiyasiga Olimpiya o'yinlarining yana bir oltin medalini qo'shib qo'ygan bo'lsa, erkin kurashda Soslan Tigiyeu o'zining yuksak mahoratini namoyon etadi. Shu tariqa o'zbekistonlik sportchilar navbatdagi Olimpiya o'yinlarida ham muvaffaqiyatli odimlashni davom ettirishadi. 2000 yilda Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII yozgi Olimpiya o'yinlarida Andijon boks maktabi tarbiyalanuvchisi Muhammadqodir Abdullayev o'zbek yigitlari orasida birinchi bo'lib Olimpiya o'yinlari chempioni degan sharaflil nomga sazovor bo'ladi.

Keyingi olimpiada o'yinlarida ham yurtimiz sportchilari yuqori natijalarni qayd etadilar. Albatta, bu kabi natijalarga o'z-o'zidan erishilgani yo'q, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tomonidan o'tgan qisqa vaqt ichida Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Osiyo olimpiya kengashi, Milliy olimpiya qo'mitalari assosiasiyasi va qator xalqaro sport federasiyalari hamda tashkilotlari bilan yo'lga qo'yilgan o'zaro aloqalar sport sohasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Shu sababli ham, O'zbekistonning sport sohasidagi islohotlari va bu boradagi tajribasi jahonda e'tirof etilib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga hamda Xalqaro Olimpiya harakatiga qo'shgan ulkan hissasi uchun 1996 yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining oliy mukofoti – "Olimpiya Oltin ordeni" bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan 1996 yilda Toshkent shahrida «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi tashkil etilib, uning ochilish marosimida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Prezidenti Xuan Antonio



Samaranch ishtirok etadi. Umuman olganda, Samaranch Xalqaro Olimpiya qo‘mitasiga rahbarlik qilgan paytda Toshkentga uch marotaba tashrif buyuradi. U dastlab Lillixammerdagi Olimpiya o‘yinlaridan so‘ng keyinchalik poytaxtimizda I Markaziy Osiyo o‘yinlari o‘tkazilishi munosabati bilan va nihoyat, «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyining tantanali ochilish marosimida ishtirok etish uchun mamlakatimizga yetib keladi.

Birgina 2013-2016 yillarda mamlakatimizga Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi prezidenti Tomas Bax, Osiyo olimpiya kengashi prezidenti Shayx Ahmad al-Fahd al-Saboh, Osiyo Paralimpiya qo‘mitasining rahbari Dato Abu Zaynal Abu Zarin, Xalqaro og‘ir atletika federasiyasi prezidenti Tomash Ayan, Xalqaro sport kurashlari uyushmasi prezidenti Nenad Lalovich, Xalqaro havaskor bokschilar federasiyasi prezidenti Ching Ku Vu, Xalqaro qilichbozlik federasiyasi prezidenti Alisher Usmanov hamda Xalqaro qilichbozlik federasiyasi bosh kotibi Frederix Petrushka, Xalqaro futbol federasiyalar Assosiasiyasining sobiq prezidenti Yozef Blatter, Butunjahon muaytay kengashi rahbari Chetta Tanajaro, Osiyo taekvondo ittifoqi prezidenti Kyu Sok Li, Xalqaro yengil atletika federasiyasi vise-prezidenti Sergey Bubka, Xalqaro gimnastika federasiyasi rais o‘rinbosari Irina Vinner kabi qator xalqaro sport tashkilotlarining rahbarlari tashrif buyurib, O‘zbekistonda olimpiya harakatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan say-harakatlarga yuqori baho berdilar.

O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining yangi binosiga tashrif buyurar ekan, Xalqaro olimpiya qo‘mitasi prezidenti Tomas Bax “O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining binosi dunyoda tengsiz, bunday sport saroyi men bilgan Milliy olimpiya qo‘mitalari binolari orasida eng muhtashami”,-deya ta’rif bergan edi.

Bu ham, o‘z navbatida, yurtimiz Milliy olimpiya qo‘mitasining xalqaro miqyosda samarali hamkorlik ishlarini olib borayotganligidan dalolat beradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining rahbar organlari – Bosh assambleya, Ijroiyy qo‘mita, Ijroiyy qo‘mita byurosi haqida gapiring.
2. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga hamda Xalqaro olimpiya harakatiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun qachon qaysi tashkilotning qanday mukofot bilan taqdirlangan?
3. “O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining binosi dunyoda tengsiz, bunday sport saroyi men bilgan Milliy olimpiya qo‘mitalari binolari orasida eng muhtashami”,-deya aytilgan ta’rif muallifi kim?
4. Yurtimizda 1996 yilda Toshkent shahrida ochilgan «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi haqida gapiring.
5. Andijon boks maktabidan yetishib chiqqan olimpada chempioni Muhammadqodir Abdullayev haqida gapiring.
6. Olimpiya harakati bo‘yicha qaysi xalqaro tashkilotlar rahbarlari hamda vakillari yurtimizga tashrif buyurgan?

### **«QARORLAR SHAJARASI» METODI**

### **(«QARORLAR QABUL QILISH TEXNOLOGIYASI»)**

#### **Qo‘llashdan maqsad:**

- ta’lim oluvchilarnimavzularni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelishga tayyorlash;
- o‘quvchilarni qabul kilingan qarorlar mohiyatini chuqur tahlil etish va uni mukammal tushunishga o‘rgatish va h.k.

#### **«Qarorlar shajarasi» metodining tuzilishi:**


<b>«Qarorlar shajarasi» metodi</b>					
<b>Umumiy muammo</b>					
<b>1- qator varianti</b>		<b>2 – qator varianti</b>		<b>3 – qator varianti</b>	
<b>afzalligi</b>	<b>kamchiligi</b>	<b>afzalligi</b>	<b>kamchiligi</b>	<b>afzalligi</b>	<b>kamchiligi</b>

<b>QAROR:</b>					

### **“OLIMPIYA O‘LKASIGA SAYOHAT”**

Rolli o‘yinlaridan biri – «Olimpiya o‘lkasiga sayohat» deb nomlangan.  
O‘yinning maqsadi - o‘quvchilarning olimpiya o‘yinlari haqidagi bilimlarini

#### **«OLIMPIYA O‘LKASI»NING O‘YINLARI**



O‘yinni tashkil etish jarayonida guruhlar «Olimpiya o‘lkasi»ning o‘yinlari haqida ma’lumot berishlari, ular bilan bog‘liq shartlarni bajarishlari lozim.

#### **«Qarorlar shajarasi» metodining bosqichlari:**

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul kilingan xulosalarni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 yoki 6 nafar a‘zolardan iborat guruhlariga ajaratadi. Muammoning hal etilishi, u boradagi eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorlarni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a‘zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama kilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib

boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar tomonidan bildirilgan xulosalarni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar, savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarib beriladi, noaniqliklarga aniqliklar kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bulsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

## **XIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASI**

### **13.1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining tashkil topishi, maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi**

Yuqorida to‘xtalib o‘tganimizdek, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi 1992 yil 21 yanvar kuni tashkil topgan va o‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda sport va Olimpiya harakatini rivojlantirish ishida faol bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi 1993 yil sentabr oyida Xalqaro olimpiya qo‘mitasi tomonidan rasman tan olingach, yurtimiz sportchilari mustaqil O‘zbekiston nomidan to‘rt yillikning eng nufuzli musobaqasi qishki va yozgi Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etish huquqiga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi nodavlat — notijorat tashkilot bo‘lib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Olimpiya Xartiyasi xamda O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining Ustavi asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonda Olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpizm g‘oyalarini keng targ‘ibetish;
- Respublika sport delegasiyalarining Olimpiada, Osiyo, Butunjahonyoshlar o‘yinlarida vakili bo‘lish;
- Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqamamlakatlar milliy olimpiya qo‘mitalari, xalqaro sport federasiyalari va uyushmalari bilan qalin hamkorlik qilish, XOQning «Olimpiya birdamligi» dasturida ishtirok etish;
- respublika aholisini jismoniy vama’naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya vasport, ayniqsa, milliy sport turlari, nogironlar o‘rtasida sportni rivojlantirishga hartaraflama ko‘maklashish;

-mamlakat terma jamoalari vasport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya vasport tashkilotlariga ko‘maklashish;

- yoshlarning boshqamamlakatlar sportchilari bilan do‘stlik vabirodarlik munosabatlarini mustahkamlash, ularni musobaqalarda halol sport kurashi olib borish, raqibiga olijanoblik bilan munosabatda bo‘lish tamoyillari asosida tarbiyalash;

-O‘zbekiston sportchilari yutuqlarini keng targ‘ibetish;

-sport kadrlari o‘rtasida tajriba ayriboshlash, ular malakalarini oshirish uchun anjumanlar, seminarlar tashkil etish.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Milliy olimpiya qo‘mitalari assosiasiyasining teng xuquqli azosidir.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi tarkibi:

- O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti, Bosh kotibi, vise-prezidentlar vaazolardan;

-Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport federasiyalari vakillaridan;

- sportning olimpiya turlari bo‘lmagan hamda milliy sport federasiyalari vakillaridan;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar vaToshkent shaharsport tashkilotlari vakillaridan;

- jismoniy tarbiya vasport davlat boshqaruvi organlari, ko‘ngilli sport jamiyatlari vakillaridan;

Olimpiya o‘yinlari ishtirokchilari bo‘lgan sportchilar vakillaridan hamda boshqaalohida shaxslardan iboratdir.

Quyidagilar O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining rahbar organlari hisoblanadi:

- Bosh assambleya;
- Ijroiyy qo‘mita;
- Ijroiyy qo‘mita byurosi.

Bosh assambleyalar oralig‘ida O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi faoliyatiga Ijroiyy qo‘mita rahbarlik qiladi.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining quyidagi doimiy komissiyalari mavjud:

- Atletlar komissiyasi;
- Ayollar vasport komissiyasi;
- Sport va atrof-muhitkomissiyasi.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi huzurida Olimpiya akademiyasi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi 1992 yil 21 yanvarda Toshkent shahrida chaqirilgan konferensiyasi qarori bilan tashkil topgan, 1993 yil sentabr oyida XOQ ning 101 sessiyasida tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi MOQ tarkibida 127 kishi va 11 ta faxriy a‘zo bor.

MOQning birinchi prezidenti O.I.Nazirov, vise-prezidenti S.S.Ro‘ziyev, I.P.Baraban, bosh kotib prof. A.K.Hamraqulov bo‘lgan. 1994 yili O.I.Nazirov sog‘lig‘i tufayli prezidentlik lavozimidan iste’foga chiqdi va S.S.Ro‘ziyev (Davlat sport qo‘mitasi raisi) MOQ prezidenti etib saylandi.

MOQ ning manzili: O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahri.

MOQ ning maqsadlari:

- Olimpiya harakati va havaskorlik sportini rivojlantirish hamda himoya qilishga yordam berish;
- Respublikamiz sportchilarining Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etishini ta‘minlash;
- Respublikamiz va butun dunyo sportchilari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini rivojlantirgan hamda mustahkamlagan holda olimpizm g‘oyalari ruhida sportning rivojlanishini rag‘batlantirish va yo‘naltirib turish.

MOQ ushbu maqsadlarga erishish uchun xususiy shaxslar yoki hukumat tashkilotlari bilan Olimpiya harakati talablari va qoidalariga asoslangan holda hamkorlik qilishi mumkin.

MOQ o‘z amaliy faoliyatida Olimpiya xartiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan ustavga (*u MOQ ning rasmiy qoidalari, tushuntirishlar va yo‘riqnomani o‘z ichiga oladi*) amal qiladi.

MOQning Oliy organi Bosh assambleya bo'lib, u odatda, bir yilda kamida bir marta chaqiriladi. Favqulodda assambleya prezident tomonidan yoki MOQ a'zolarining yozma iltimosiga ko'ra chaqirilishi mumkin. Assambleya orasidagi davr ichda davlatimizda Olimpiya harakatiga rahbarlik qilish MOQ Ijroiya qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Uning tarkibiga prezident, 3 vise-prezident, bosh kotib, bosh direktor va 7 a'zo kiradi. Ular 4 yil muddatga saylanadi.

MOQ topshirig'iga ko'ra Ijroiya qo'mita quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

- MOQ Assambleyalarining kun tartibini tayyorlaydi;
- Olimpiya qoidalari va nizomlari, bosh Assambleya qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi;
- belgilangan tartibda MOQ tarkibiga saylash uchun shaxslar hamda tashkilotlarni tavsiya etadi;
- MOQ moliyaviy ahvoli uchun javobgar bo'ladi, yillik hisobot taqdim etadi, ma'muriy ish hamda arxivning saqlanishi uchun javobgar bo'ladi.

Prezident MOQ ustavida belgilangan ayrim hollarda, agar vaziyat MOQ yoki uning Ijroiya qo'mitasi uni bajarishga imkon bermasa, shaxsan o'zi qaror chiqarishi yoki chora qo'llashi mumkin. Ushbu qarorlar keyinchalik MOQning navbatdagi assambleyasida tasdiqlanadi. MOQda Olimpiya harakati, Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik va unda ishtirok etish, shuningdek, MOQ faoliyati masalalari bo'yicha tavsiya ishlab chiqadigan komissiyalar tuziladi (hozirgi paytda ular 10 ta).

### **13.2. O'zbekiston MOQning Prezidentlari**

#### **Obid Nazirovich Nazirov – O'zbekiston MOQning birinchi prezidenti**

O'zbekistonMOQni tuzish va tasdiqlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisi hamda O'zbekiston MOQning birinchi prezidenti Obid Nazirovich Nazirovning xizmatlari katta bo'ldi. U 1992 yil oktabr oyidan 1994 yil aprel oyigacha O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining birinchi prezidenti vazifasida ishlagan.



SSSR parchalangandan so‘ng Sobiq Ittifoq respublikalarida MOQni tashkil etish hamda xalqaro sport harakatida va Barselonadagi (1992 yil) Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish uchun uning XOQga qabul qilinishi zarur bo‘lib qoldi. Shu sababli Moskvada XOQ prezidenti X.A.Samaranch hamda Sobiq Ittifoq respublikalarining jismoniy tarbiya harakati rahbarlari ishtirokida kengash o‘tkazildi. Bu yerda Barselona o‘yinlarida MDH birlashgan jamoa tarkibida qatnashishi, taqdirlash marosimida esa tegishli mustaqil davlat madhiyasini ijro etish hamda bayrog‘ini ko‘tarish to‘g‘risida qaror chiqarildi. Bir vaqtning o‘zida Olimpiya xartiyasiga binoan ularni XOQda tan olish bilan Milliy Olimpiya qo‘mitalarini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shu tariqa O‘zbekiston Respublikasining ham Olimpiya harakati tomon avvalgidan-da dadil qadamlari boshlandi. Albatta, bu jarayonda O‘zbekiston MOQning birinchi prezidenti O.N.Nazirovning tarixiy xizmatlari yotadi.

O.N.Nazirov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdagi ulkan hissasi uchun 1983 yil iyunda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jismoniy tarbiya va sport xodimi”, 1992 yil avgustda esa “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” unvonlariga sazovor bo‘lgan.

### **Sobirjon Sobitovich Ro‘ziyev - O‘zbekiston MOQning ikkinchi prezidenti**

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining ikkinchi prezidenti O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport harakatining yirik namoyondasi Sobirjon Sobitovich Ro‘ziyevdir.

S.S.Ro‘ziyev O‘zbekiston va Sobiq Ittifoq terma jamoasi a‘zosi sifatida sharaflari sport yo‘lini bosib o‘tgan. Uni Olimpiya dunyosi yaxshi taniydi, u ikki marta Monreal va Moskvadagi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan. Moskvadagi Olimpiadada rapira musobaqalarida jamoa hisobida kumush medal sovrindori bo‘lgan. Uch karra jahon chempioni (1972, 1974, 1976 y.y.), ikki marta Butunjahon talabalar universiadasi chempioni (1974, 1977), ikki marta Djovannini va Martini Kubogi sohibi bo‘lgan.

1980 yilda sportdagi yutuqlari uchun u “SSSRda xizmat ko‘rsatgan trener” unvoniga sazovor bo‘lgan. 1994 yil 8 apreldan Milliy Olimpiya qo‘mitasi prezidenti etib saylangan. S.S.Ro‘ziyev 1998 yilda XOQning kumush ordeni bilan taqdirlangan.

1994 yildan buyon O‘zbekistonda Olimpiya harakati muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya muntazam o‘tkazib kelinadi. 1996 yilda uning rahbarligi ostida Olimpiya harakatini o‘rganuvchilar uchun birinchi o‘quv qo‘llanma nashr qilindi. “Yoshlar, fan, Olimpizm” xalqaro forumida jahonning yirik olimlari diqqatiga xavola etildi va u olimpizm muammolarini o‘rganuvchi olimlarning yuqori bahosiga sazovor bo‘ldi. S.S.Ro‘ziyev O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi va Markaziy Osiyo o‘yinlarini tashkil etishda, O‘zbekistonda MOQ rahbarligi ostida Toshkentda Olimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislar uchun xalqaro seminar o‘tkazishda, sportchilarni yozgi va qishki Olimpiya o‘yinlari hamda Osiyo o‘yinlariga tayyorlashda, Toshkentda birinchi yirik xalqaro forum - Osiyo davlatlari MOQlari bosh kotiblarining kengashini (aprel, 1999 y) o‘tkazishda katta xizmatlar qildi.

Ushbu tashkilotlar va jahonning Olimpiya tashkilotlari forumlari ishidagi o‘zining ishtirokini u o‘z faoliyatining asosiy maqsadi - O‘zbekistonda jismoniy tarbiyani rivojlantirish hamda mamlakatimizni xalqaro sport maydonlarida muvaffaqiyat bilan namoyon qilishga bag‘ishladi.



**Rustam Qurbonov - O‘zbekiston MOQning  
uchinchi prezidenti**

Rustam Qurbonov o‘zining mehnat faoliyatida vomidabir qator rahbarlik lavozimlari daishlagan. Xususan, Toshkent shahar hokimining ijtimoiy masalalar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, Bektemir tumani hokimi, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi prezidenti, “O‘zbekturizm” kompaniyasi raisi, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vaziri lavozimlarida faoliyat yuritgan.

U O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi prezidenti lavozimida xizmat qilgan vaqtda yurtimizda Olimpiya harakatini rivojlantirish, yurtimiz sportchilarini olimpiya o‘yinlariga tayyorlash sohasidagi ishlarga bosh-qosh bo‘ldi.



**Mirabror Usmonov - O‘zbekiston MOQning to‘rtinchi prezidenti**

**Usmonov Mirabror Zufarovich** - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Tashqi siyosat masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston Futbol Federatsiyasi prezidenti hamda Markaziy Osiyo Futbol uyushmasi prezidenti.

U 1947-yil 4-iyulda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1978-yilda Samarqand kooperativ institutini iqtisodchi mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

**Mehnatfaoliyati:**

- 1961-yildan, 1967-yilgacha — Toshkent shahridagi „Bahor“ restoranida oltinchi razryadli oshpaz;
- 1970-yilda — Toshkent shahridagi „Guliston“ restoranining ishlab chiqarish bo‘yicha mudiri;
- 1970-yildan 1986-yilgacha — „Do‘stlik“ va „Zarafshon“ restoranlari direktori, Toshkent shahri restoranlar tresti direktori;
- 1986-yildan 1990-yilgacha — Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasining Umumiy ovqatlanish bosh boshqarmasi boshlig‘i;
- 1990-yildan 1992-yilgacha — O‘zbekiston Respublikasi savdo vaziri;
- 1992-yildan 1994-yilgacha — „O‘zbeksavdo“ kompaniyasi raisi;
- 1994-yildan 2005-yilgacha — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari;
- 2005-yildan — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Tashqi siyosat masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator;

- 2006-yildan O‘zbekiston Futbol Federatsiyasi prezidenti.<sup>[2]</sup> 2009-yili keyingi to‘rt yillik muddatga qayta saylangan;

- 2013-yildan 2017-yilgacha O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti.

2015 yildan - Markaziy Osiyo Futbol uyushmasi prezidenti.

1995-yilda „Mehnat shuhrati“ ordeni, 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Maqtoov yorlig‘i, 2006-yilda „O‘zbekiston mustaqilligiga 15 yil“ esdalik nishoni, 2012-yilda „El-yurt hurmati“ ordeni bilan mukofotlangan.



**Sultanov Alisher Saidabbasovich –**

### **O‘zbekiston MOQning beshinchi prezidenti**

Alisher Sultonov O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining 2017 yil 6 yanvardagi XXX Bosh Assambleyasi yig‘ilishida mazkur qo‘mitaning Prezidenti etib saylandi.

Mehnat faoliyati:

1984-1989 yy. — A.F.Mojayskiy nomidagi harbiy muhandislik instituti talabasi

1989-1991 yy. — Harbiy xizmatda

1991-1993 yy. — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Amaliy fizika instituti lazer pribor qurilish bo‘limi texnologi, xalqaro bo‘lim texnologi, tijorat bo‘limi yetakchi muhandisi

1993-1996 yy. — Ijara, qo‘shma va xususiy korxonalar xodimlari va tadbirkorlarning Toshkent shahar kasaba uyushmasi tashkiliy bo‘lim mudiri

1996-1998 yy. — «O‘zneftniqaytaishlash» aksiyadorlik kompaniyasi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi kontrakti bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha direksiyasi asbob-uskunalarni tayyorlash va qabul qilish nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi

1998-1998 yy. — «O‘ztashqineftgaz» tashqi iqtisodiy aloqalar birlashmasi kontraktlar bajarilishi bo‘yicha direksiyasi bosh mutaxassisi

1998-1999 yy. — «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi qurilishi boshqarmasi tayyorlangan asbob uskunalarni tekshiruvdan o‘tkazish va sotib olishni nazorat qilish, loyiha hujjatlarini qabul qilish guruhi bosh mutaxassisi

1999-2002 yy. — «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi qurilishi boshqarmasi boshlig‘i

2002-2013 yy. — «Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi» unitar sho‘ba korxonasi direktori

11.2013 — 2015 yy. — «O‘zbekneftgaz» Milliy xolding kompaniyasi Prognozlash, resurslar va investisiya dasturlari bosh boshqarmasi boshlig‘i — boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari

08.2015 y.- 2017 — «O‘zbekneftgaz» Milliy xolding kompaniyasi boshqaruvi raisi

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi MOQ tarkibiga prezident, vise-prezidentlar, bosh kotib, bosh direktor va a‘zolar saylash tartiblari haqida gapiring.
2. MOQni tuzish va tasdiqlash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi raisi hamda O‘zbekiston MOQ birinchi prezidenti Obid Nazirovich Nazirovning qanday xizmatlari bor?
3. O‘zbekiston Respublikasi MOQ Prezidentlari haqida ma‘lumot bering.
4. Respublikamiz MOQ tomonidan O‘zbekiston sportchilari uchun mamlakatimiz va jahon miqyosida yaratib berilayotgan imkoniyatlarga misollar keltiring.
5. O‘zbekistonlik olimpiada chempionlari haqida gapiring.

### **«BUMERANG» METODI**

**Qo‘llashdan maqsad** o‘quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarning o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat-

munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash jarayoni mobaynida har bir o'quvchi tomonidan o'z baholarini egallashiga imkoniyat yaratishdan iborat.

- matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi, og'zaki so'rov o'tkaziladi: **O'zbekiston Respublikasi MOQ tarkibiga prezident, vitse-prezidentlar, bosh kotib, bosh direktor va a'zolar saylash tartiblari**

- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlar to'plagan umumiy ballari aniqlanadi

- har bir guruh a'zosi tomonidan guruhdagi matn mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi: **O'zbekiston Respublikasi MOQ Prezidentlari haqida ma'lumot bering.**

- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi («guruh hisobchilari» berilgan javoblar bo'yicha ballarni hisoblab boradilar)

- guruh a'zolari tomonidan to'plagan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi

- guruhlar to'plagan umumiy ballar guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi. Muhokama va xulosa: **Respublikamiz MOQ tomonidan O'zbekiston sportchilari uchun mamlakatimiz va jahon miqyosida yaratib berilayotgan imkoniyatlar**

#### **“Bumerang” metodining bosqichlari:**

- o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- o'quvchilar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
  - o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;
- berilgan matnlarni o'quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;
- har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- yangi guruh a'zolarining har bir guruh navbati bilan mustaqil o'rganilgan matnlari bilan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, matnni o'zlashtirib olishlariga erishadilar;

- berilgan ma'lumotlarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- yangi a'zolar dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
- darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi.

## **XIVBOB. O‘ZBEKISTONDA OLIMPIYA HARAKATINING RIVOJLANISHI**

### **14.1. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi va jismoniy tarbiya hamda sportning yangi bosqichi**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin ma’naviy qadriyatlar, milliy urf-odat va an’analar qayta tiklandi. Bu esa jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi sahifa ochdi. Respublika jismoniy tarbiya va sport ommaviylikini ko‘tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o‘yinlarini qayta tiklash, sog‘lom turmush tarzini shaqllantirish, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va tanlash, ularning sport mahoratlarini oshirish ishlari bo‘yicha ilmiy-nazariy anjumanlar o‘tkazildi.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish Navro‘z bayramining xalqimizga qaytarib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra mamlakatimizda Navro‘z har yili 21 mart – umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning jahon sahnasiga chiqishida, dunyoga tanilishida sport jabhasi asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Jahon miqyosida o‘tkazilayotgan turli xalqaro musobaqalarda sportchilarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar dunyo xalqlarining nigohini O‘zbekistonga qaratmoqda. Albatta, bu salohiyatni saqlash, qolaversa, imkon qadar oshirish lozimligini hisobga oladigan bo‘lsak, sportchilarni tayyorlaydigan kadrlarni, zaxiradagi o‘rinbosarlarni, ular uchun moddiy texnik bazani jahon talablari darajasida tayyorlash va kengaytirish, tibbiy-pedagogik nazoratni yo‘lga qo‘yish, milliy sport turlarini rivojlantirish, yirik sport inshootlarini bunyod etish nihoyatda dolzarb muammolardir.

E’tirof etish kerakki, mustaqil O‘zbekistonning madaniyati va sportini yanada rivojlantirishga asos bo‘luvchi eng muhim tadbirlardan biri bu - O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunining



qabul qilinishidir (1992 yil 14 yanvar; 2000 yil 26 may; 2015 yil 4 sentabr yangi tahrir). Mazkur qonun aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berishni kafillikka olishi bilan yanada ahamiyatli hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunda yana “Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalari va o‘quv yurtlari har yili kamida bir marta maktabgacha yoshdagi bolalarning hamda o‘quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini ko‘rikdan o‘tkazadilar. Umumta‘lim maktablarida, boshqa o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha imtihonlar o‘tkaziladi”,-deb ko‘rsatilgan. Bu esa o‘quvchi-yoshlarning salomatligini mustahkamlash, jismoniy kamolotini oshirish, ularni mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli kishilar qilib yetishtirishga qaratilgandir. Bu imkoniyat va tadbirlarni har bir o‘quvchi-yoshlar o‘z tafakkurlari bilan tushunishlari, mustaqil O‘zbekistonning istiqboliga hissa qo‘shish uchun bor imkoniyatlarni ishga solib, o‘z burchlarini ado qilishlari kerak. Ma‘lumki, Respublika Oliy majlis sessiyasida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun (1992 yil iyul, yangi tahrir 1997) qabul qilinib, unda ta‘lim oluvchilarning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratish, o‘qish, mehnat qilish, dam olish uchun ta‘lim muassasalari mas‘uldir deyilgan. Bu ikki qonunning mazmun va mohiyati o‘zaro mujassamlanib, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgandir.

Mustaqillik yillarida o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra izchil va faol olib borilgan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi oqilona islohotlar sababli yurtimizda sportning bir necha turlari bo‘yicha jahon, osiyo va olimpiya musobaqalari g‘oliblari yetishib chiqdilar.

Xususan, 1993 yildan boshlab milliy kurash bo‘yicha Amur Temur, At-Termiziy, Bahoviddin Naqshband, Pahlavon Mahmud, Mirzo Bobur xotirasiga bag‘ishlab xalqaro turnirlar o‘tkaziladigan bo‘ldi.

1994 yil may va iyun oylarida Tennis bo‘yicha “Prezident kubogi” bo‘yicha xalqaro musobaqa o‘tkazildi. Shu yili aprel va may oylarida Tennis bo‘yicha “Buyuk ipak yo‘li-stellit” xalqaro turniri bo‘lib o‘tdi. Turnir g‘olibi Gerald Mendl

(Avstriya) bo'ldi. O'zbekistonlik Temur G'aniyev, Oleg Ogorodnikovlar ikkinchi va uchinchi o'rinni egalladilar.

1995 yil 3-8 sentabr kunlari Markaziy Osiyo Respublikalarining 1-sport o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining prezidenti Xuan Antonio Samaranch va boshqa ko'pgina xalqaro sport tashkilotlarining vakillari ishtirok etishdi. "Dinamo" tennis kortida final uchrashuvda Qozog'istonlik qizlar T.Babina va I.Salyutinalar, Toshkentlik T.Nikitina va S.Sinisinalar bilan kuch sinashdilar. Qozog'istonliklar g'olib bo'lishdi. Shaxsiy baxslarda S.Sinisina va V.Kusenkolalar (Toshkent) oltin medal sohibi bo'ldilar.

"Alpomish" sport saroyda og'ir atletikachilar musobaqasida V.Yanskiy, B.Nurillayev - oltin, A.Shesyakov, SH.Shahnozardovlar - kumush va bronza medallari sohibi bo'ldilar. Grek-Rim kurashi bo'yicha D.Karshukov, SH.Xudoyberdiyev, A.Xudoyberdiyev va SH.Qo'ziyevlar oltin medal sovrindorlari bo'lishdi. Erkin kurashda SH.Yo'ldoshev, R.Isaxonov, B.Budayev, R.Xintyagov va T.Dilsovlar oltin medal sohibiga aylanishdi.

Albatta, bu kabi xalqaro musobaqalarda yurtdoshlarimiz erishgan yuksak natijalarga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Haqiqiy sportchi ko'proq g'alabani emas, balki g'alabaga olib boruvchi yo'lni izlaydi. Ayni haqiqatni teran anglagan davlatimiz rahbariyati tomonidan yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'ziga xos milliy an'ana- "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi sport musobaqalari yo'lga qo'yildi. Bu o'yinlar, o'z navbatida, yurtimiz yoshlarini chinakam ma'noda xalqaro musobaqalar va olimpiya o'yinlariga tayyorlab bormoqda. Qolaversa, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sport federatsiyalari, assosiasiyalar hamda uyushmalar sportchilarimiz orasidan respublika, jahon, Osiyo va Olimpiya chempionlarini yetishtirish uchun astoydil say-harakat ko'rsatmoqda.

#### **14.2. Bolalar sportining rivojlanishi, yangi sport obektlarining barpo etilishi**

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sportni yuksaltirishda bolalar sporti o'z mazmuniga ko'ra, ustuvor omillardan bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2002 yilda O'zbekiston

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'arma tashkil topgan kundan buyon yurtimizda bolalar sportini ommalashtirish, iqtidorli o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, zamonaviy sport inshootlarini qurish va ularni jihozlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, jamg'arma tomonidan **2003-2015** yillar mobaynida jami **2205 ta** inshoot, shundan **1922 ta** sport inshootlari, **283 ta** bolalar musiqa va san'at maktablari qurib foydalanishga topshirildi. 2016 yilda **2004-2015** yillarda foydalanishga topshirilgan sport inshootlari va umumta'lim maktablarining sport zallarini qayta jihozlash bo'yicha manzilli dasturga kiritilgan **212 ta** sport inshootlari va **6892 ta** umumta'lim maktablarining sport zallari 28,3 mlrd so'mlik **93** nomdagi sport anjomlari bilan jihozlanadi. Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bu iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning nufuzli xalqaro sport musobaqalarida ishtirokini ta'minlashdir. O'tgan **2003-2015** yillar mobaynida jamg'arma tomonidan sportchi yoshlarmizning AQSH, Germaniya, Avstriya, Italiya, Ispaniya va boshqa qator xorijiy davlatlarda o'tkazilgan nufuzli xalqaro sport musobaqalarida sportning 20 dan ortiq turi bo'yicha (dzyudo, taekvondo VTF, stol tennisi, shaxmat, shashka, yengil atletika, sport akrobatikasi, sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, suzish, suv polosi, gandbol, basketbol, yunon-rum va erkin kurash, futbol, boks) ishtiroki ta'minlandi. Ular mazkur musobaqalarda jami **1886 ta** medal, shundan **716 ta** oltin, **534 ta** kumush va **636 ta** bronza medallariga sazovor bo'lishdi.

Barcha sport majmualari zamonaviy sport inventarlari va malakali murabbiylar bilan ta'minlanayotgani tufayli respublikamizda bolalarni sportga jalb qilish qamrovi kengayib bormoqda. Bugun mamlakatimizda 2,6 milliondan ortiq bola sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi bolalar va o'smirlar sport maktablari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tashkil etilib, undagi kasbiy mahorat va uslubiy madaniyatni oshirish kurslariga 5 yilda bir marotaba to'liq jalb etiladiganlar soni jami 10966 nafarni tashkil qiladi. Ushbu qisqa muddatli o'quv kurslarida murabbiylar 144 soatlik

malaka oshirish o'quv rejalari bo'yicha tahsil olib, o'z malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

**Qisqa satrlarda:**

- 2015 yilgi taqvim rejasiga asosan 24 ta davlatdan iborat chet mamlakatlarda bo'lib o'tgan 53 ta xalqaro sport musobaqalarida sportning 27 turida 479 nafar (166 nafari qizlar) o'quvchi-yoshlar ishtirok etib jami 314 ta medal (140 ta oltin, 83 ta kumush, 91 ta bronza) qo'lga kiritishdi;

- sport bilan shug'ullanuvchi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar 2005 yilda 29,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilga mazkur ko'rsatkich 57, 2 foizga yetdi;

- 2016-2020 yillar davomida har bir viloyat markazida va Toshkent shahrida 14 tayangi ixtisoslashtirilgan oliy mahorat sport maktablari tashkil etish rejalashtirilgan;

- 2015-2020 yillar davomida umumta'lim maktablari uchun qo'shimcha ravishda 1706 tasport zali quriladi;

- 2016-2020 yillar davomida har bir viloyat markazida va Toshkent shahrida 14 tayangi ixtisoslashtirilgan oliy mahorat sport maktabi tashkil etish rejalashtirilgan;

- 2016-2020 yillarda har bir tumanda kamida bitta zamonaviy, zarur uskunalar bilan jihozlangan 225 tabolalar-o'smirlar maktablari tashkil etiladi;

- 2016-2020 yillarda viloyat markazlarida sportning 4 yo'nalishi bo'yicha 56 ta ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablari tashkil etiladi;

- 2016-2020 yillarda barcha dahalarda sport zonalarini (ko'cha trenajerlari, basketbol halqasi, futbol uchun mini-maydon va b.) o'z ichiga oluvchi bolalar maydonchalarini qurish dasturi davom ettiriladi va h.k.

### **14.3. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qonun, qaror va farmonlarning qabul qilinishi**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligi tufayli boshqa sohalar kabi jismoniy madaniyat va sport sohasida birinchilardan bo‘lib qonun loyihasini ishlab chiqdi va 1992 yil 14 yanvarda Respublika Oliy majlisining sessiyasida tasdiqlandi.

“Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunda davlat va jamoat tashkilotlarining burchi, vazifalari va huquqlari alohida belgilab berildi. Qonunning 28 ta moddasida jismoniy madaniyat va sport harakati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sohalar kafolatlandi.

Sport ishlariga rahbarlik, aholini jismoniy madaniyat va sportga jalb etish, o‘quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkashlar ommasiga jismoniy madaniyat hamda sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratib berish alohida ta’kidlandi.

Sport inshootlarini kengaytirish, ulardan maqsadli foydalanish, kadrlar tayyorlashni ilmiy-amaliy tajribalar asosida amalga oshirish, darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yaratish borasida yangi yo‘nalishlar ifoda etildi.

Nogironlar sportini rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sportni moddiy-texnik jihatdan ta’minlash, o‘z-o‘zini boshqarish faoliyatlarini tashkil qilishga ham e’tibor qaratildi. Mustaqillikning yangi qirralari va o‘tkazilgan tub islohotlarning natijalari asosida mazkur qonun 2000 yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Bunda homiylik, jamg‘arma uyushmalarining jismoniy madaniyat va sport sohasidagi vazifalariga keng yo‘l berildi.

“Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun, avvalambor, o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiruvchi qator maqsadlarga erishishga qaratilgan. Bunda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishning o‘ziga xos sog‘lomashtiruvchi, tarbiyaviy, vatanparvarlik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa xususiyatlari, natijalari inobatga olingan. Misol uchun, sport, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish va

chiniqish yoshlarimizda qat'iyatlilik, iroda, maqsadga intiluvchanlik va dadillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, o'z kuchi, bilimiga ishonib, tayanib yashash kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. U, shuningdek, yoshlarimizning axloqiy tarbiyasiga, xulq-atvori, madaniyati va turmush tarzini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi, ularda giyohvand moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish kabi zararli odatlarga qarshi o'ziga xos ma'naviy immunitet shakllanishiga xizmat qiladi.

“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi qonunning “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi” deb nomlangan 6-moddasiga ayollar sportini rivojlantirish bilan bog'liq norma kiritildi. Shu bilan birga, qonunning mazkur moddasida bir qator ijtimoiy obektlar, jumladan, yangi sport tayyorgarligi bazalari va markazlarini, sport-ta'lim muassasalarini, olimpiya zaxirasi kollejlari, bolalar-o'smirlar sport maktablarini, shuningdek, sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish inshootlarini qurish va amaldagilarini modernizatsiya qilish nazarda tutilganligi ijtimoiy hayotimiz uchun dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, mazkur qonun jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada isloh qilish, mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va samarali sport infratuzilmasini yaratish, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda yuksak mahoratli sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni va yangicha yondashuvni yaratish, sport turlarini yanada rivojlantirish, xalqaro sport musobaqalarida, olimpiada o'yinlarida sportchilarimizning munosib ishtirokini ta'minlash kabi vazifalarni samarali hal etishga yo'naltirilgan.

Qonun loyihasini ishlab chiqishda xorijiy mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya, Italiya va boshqa davlatlar tajribasi, xalqaro hujjatlardagi umume'tirof etilgan tamoyillar inobatga olindi. Unda, xususan, qonunchiligimizda yangi bo'lgan, lekin amaliyotda qo'llaniladigan jismoniy tarbiya va sportga oid 30 ga yaqin asosiy tushunchalarning, jumladan, “sport”, “ommaviy sport”, “professional sport”, “havaskorlik sporti”, “sportchi”, “murabbiy”, “sport hakami”, “sport bo'yicha agent”, “jismoniy tarbiya”, “jismoniy

reabilitasiya” va hokazolarning ta’rifi berildi. Natijada, ushbu tushunchalarni amaliyotda bir xilda qo‘llash va tushunish imkoniyati yaratildi. Davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonun ustuvorligi, har bir insonga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur huquqiy va amaliy shart-sharoitlar yaratish tarafdori bo‘lgan partiyamiz nuqtai nazaridan qaraganda, mazkur qonunda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi asosiy tamoyillarning aniq belgilab qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega. Ular sirasiga har bir insonning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug‘ullanish huquqini ta’minlash, uning davlat tomonidan kafolatlanishi, fuqarolar jismoniy tarbiyasining uzluksizligi va davomiyligi, tizimdagi munosabatlarda davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi kabi tamoyillar kiritilmoqda. Bunda nogironlar, jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek, yuqori ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bulardan tashqari, mazkur hujjatda yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash jarayonini qonunan tartibga solishga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, sport zaxirasini tayyorlashda sportchilarni ko‘p yillik tayyorlashning bosqichlari (sport-sog‘lomlashtirish, boshlang‘ich tayyorgarlik, o‘quv-mashq, sport mahoratini takomillashtirish, oliy sport mahorati bosqichlari) belgilab qo‘yilmoqda hamda sportchilarni tayyorlash bilan shug‘ullanadigan jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari va ta’lim muassasalari faoliyati ham tartibga solingan.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi sog‘lom va barkamol rivojlangan, hech kimdan kam bo‘lmaydigan yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan ulug‘vor maqsadlarimiz ijrosiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida futbol, tennis, o‘zbek kurashi, boks, sharqona yakkakurashlar (karate, dyuzdo, taekvando, ushu, qo‘l jangi va h.k.) yoshlar orasida tobora ommalashib bordi. Buning eng asosiy sabablari shundaki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun

hamda bu boradagi qator qarorlarni ishlab chiqish (1993,1996, 1999,2000 va h.k) va amalga oshirishda diqqatga sazovor ishlar bajarildi. Ularning natijalari esa respublikamizdagi o‘tkazilayotgan sport musobaqalari, xalqaro turnirlar va sportchilarning Osiyo va jahon birinchiliklari, olimpiya o‘yinlaridagi ishtiroki, erishayotgan ulkan yutuqlari mazmunida namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, bu jarayonda O‘zbekiston futbolini rivojlantirish (1993,1996), tennis, boks va kurash bo‘yicha xalqaro turnirlar o‘tkazish (1993, 2000) haqidagi hukumat qarorlari muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori barcha davlat idoralari hamda nodavlat va jamoat tashkilotlari oldiga katta mas’ulyatyukladi. Shu asosda aholining barcha tabaqalari va ishlab chiqarish, savdo, tijorat, tarbiya, o‘quv muassasalari sohalarida jismoniy tarbiya va sportni keng yo‘lga qo‘yish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1993 yil martda “Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta’sis etildi. Uning Nizomida ifodalanishicha, ta’lim-tarbiya tibbiy maskanlarida a’lo darajada xizmat qilgan xodimlar, rahbarlar va bu sohaga ulkan hissa qo‘shgan shaxslarga I-II darajali ordenlar berilmoqda. Respublikaning deyarlik barcha viloyatlaridagi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, BO‘SMning murabbiy va rahbarlari, sport tashkilotlarining mas’ul xodimlari bu orden bilan mukofotlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Ta’lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida”gi Farmoni (1997 yil 10 oktabr), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi qarori va boshqa rasmiy hujjatlar asosida “Sog‘lom avlod davlat dasturi” ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Dasturning asosiy yo‘nalishi tibbiyot, ta’lim, mahalla va boshqa sohalarda aholining salomatligini muhofaza qilish, sog‘liqni yaxshilash bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini yanada yaxshilash, bunda oila, mahalla va mehnat jamoalarida jismoniy turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni



maqsadli o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Eng avvalo, “Sog‘lom ona va sog‘lom bola” shiori ustuvor bo‘lishi ta’kidlangan.

Xulosa qilish kerakki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab yurtimizda jismoniy tarbiya vasport ishlari yangi bosqichga kirdi. Sog‘lomlashtirish ishlarida bolalar sportiga asosiy e’tibor qaratildi. Jismoniy tarbiya va sport ishlarining huquqiy asoslari chuqurlashtirildi, ya’ni sport sohasiga oid qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 24 oktabrdagi PF-3154-sonli “O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish” to‘g‘risidagi Farmoni haqida gapiring.

2. O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish yuzasidan erishilgan yutuqlarga misollar keltiring.

3. Yurtimizda O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi mohiyatini izohlang.

4. Mustaqillik yillarida ham yurtlarimizning olimpiada o‘yinlaridagi ishtirokiga baho bering.

5. 2016-2020 yillarda yurtimizda bolalar sporti bo‘yicha qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi?

6. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qabul qilingan qonun, qaror va farmonlar negizida olimpiya o‘yinlariga oid qanday g‘oyalar ilgari surilgan?

### **“ZINAMA–ZINA” METODI**

**Qo‘llashdan maqsad** - o‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

## “Zinama-zina” metodining bosqichlari:

o‘qituvchi o‘quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo‘lgani ma‘qul).

o‘quvchilar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi. Masalan: **Bolalar sporti, Jismoniy tarbiya va sport, Olimpiya o‘yinlari va h.k.**

o‘qituvchi a‘zolari tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.

guruh a‘zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki o‘quvchizma) ko‘rinishida ifoda etadilar. Bunda a‘zolar kichik mavzu bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma‘lumot berishlari kerak. Masalan:

tarqatma materiallar to‘ldirilgach, guruh a‘zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi. Masalan: **Mustaqillik, jismoniy tarbiya va sport, yurtimiz yoshlarining yutuqlari**

o‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

## **XV BOB. O‘ZBEKISTONDA OLIMPIYA HARAKATINING YANGI BOSQICHI**

### **15.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizda olimpiya harakatini rivojlantirish to‘g‘risidagi farmon hamda qarorlari**

Mamlakatimizda Olimpiya harakatini yanada rivojlantirish, O‘zbekiston sportchilarini xalqaro Olimpiya o‘yinlariga tayyorlash, mazkur o‘yinlarda ularning yuqori saviyadagi ishtirokini ta‘minlash yuzasidan respublikamiz Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari e‘lon qilinib boriladi. Albatta, mazkur hujjatlarda olimpiya o‘yinlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan sportchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, erishgan natijalari uchun ularni munosib rag‘batlantirish, yutuqlarini e‘tirof etish kabi barcha jihatlar to‘laligicha qamrab olinadi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 7 iyundagi “O‘zbekistonda olimpiya harakatini yanada rivojlantirish va mamlakat sportchilarini Sidney shahri (Avstraliya)dagi XXVII Olimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi PF-2618-sonli Farmoni matnini to‘liq keltirishni lozim topdik.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

FARMONI

#### **O‘ZBEKISTONDA OLIMPIYA HARAKATINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA MAMLAKAT SPORTCHILARINI SIDNEY SHAHRI (AVSTRALIYA)DAGI XXVII OLIMPIYA O‘YINLARIGA TAYYORLASH TO‘G‘RISIDA<sup>2</sup>**

*(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 178-modda)*

Mamlakatda olimpiya harakatini yanada rivojlantirish va O‘zbekiston sportchilarining Sidney shahri (Avstraliya)dagi XXVII Olimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini rag‘batlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini mustahkamlashda, yosh avlodni milliy g‘urur va

---

<sup>2</sup>Farmon matni internet tarmog‘idagi «lex.uz» veb-saytidan olindi.

Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda o'zbek sportchilari erishgan yutuqlarning g'oyat katta ahamiyatini e'tiborga olib:

1. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan barcha tadbirlarda O'zbekiston Respublikasining rasmiy vakili deb hisoblansin.

2. XXVII Olimpiya o'yinlarida sovrindor bo'lgan O'zbekiston sportchilarini rag'batlantirish, Vatanimizning sportdagi shon-shuhratini ko'paytirishga ular qo'shgan munosib hissani e'tirof etish maqsadida quyidagi miqdorlarda bir yo'la beriladigan mukofotlar belgilansin:

oltin medal uchun — 100 000 AQSH dollari,

kumush medal uchun — 50 000 AQSH dollari,

bronza medali uchun — 25 000 AQSH dollari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bir hafta muddatda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan birga yuqorida ko'rsatilgan pul mukofotlarini to'lash tartibi to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat sport qo'mitasi va O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi XXVII Olimpiya o'yinlariga bag'ishlangan lotereyani o'tkazishdan olingan daromad (foyda) solig'ini to'lashdan ozod qilinsin, bunda tushgan mablag'lar XXVII Olimpiya o'yinlariga O'zbekistonning sport delegasiyasini tayyorlash hamda ishtirok etishiga maqsadli yo'naltirilishi shart;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston sportchilarini XXVII Olimpiya o'yinlarida qatnashishga tayyorlash hamda ishtirok etishlariga yo'naltirilgan homiylik mablag'lari tegishli ravishda daromad (foyda) solig'i yoki jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilinsin;

O'zbekiston sport delegasiyasini XXVII Olimpiya o'yinlariga tayyorlash hamda ishtirok etishini ta'minlash uchun aniq maqsadni ko'zlab respublikaga olib kelinayotgan maxsus sport uskunalari va anjomlari, sport liboslari bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilinsin (bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish uchun yig'imlar bundan mustasno).

4. Vazirlar Mahkamasining iste'mol mollari ishlab chiqarish va savdo kompleksi O'zbekiston Respublikasi Davlat sport qo'mitasi hamda O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining buyurtmasi bo'yicha Olimpiya o'yinlarida o'zbek sportining munosib namoyandalari bo'lmish O'zbekiston sport delegasiyasining a'zolari uchun maxsus sport kiyimi tayyorlab berilishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat sport qo'mitasi va O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi XXVII Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik davrida olimpiya terma jamoalariga respublikaning barcha sport bazalarida, ular qaysi idoraga qarashli bo'lishidan qat'i nazar, ijara haqi to'lamasdan o'quv-mashq mashg'ulotlarini o'tkazish huquqi berilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi, «O'zbekkino» davlat-aksionerlik kompaniyasi, «O'zteleradio» kompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi XXVII Olimpiya o'yinlarida respublikaning madaniyat va sport sohasidagi yutuqlarini targ'ib qilish uchun matbaa va kino-video mahsulotlari tayyorlashni, shuningdek O'zbekiston terma jamoalarining Olimpiya o'yinlariga tayyorgarligi hamda ishtirokini ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni ta'minlasinlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'n kun muddatda ushbu Farmonni bajarish yuzasidan qaror qabul qilsin.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

2000 yil 7 iyun,

PF-2618-son

### **15.2. “Sog'lom avlod uchun” Davlat dasturining qabul qilinishi.**

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» risolasida (1992 y.) «Yashash muhiti, tabiat va ma'naviyat ekologiyasi bir-biridan ajralmasdir. Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrlashganda, avvalo, chin yurakdan mustahkam salomatlik tilashgan. Sihat-

salomat bo'lishning an'anaviy qadrini qayta tiklash va oila qadri bilan sharaflı bir o'ringa qo'yish kerak» (69-bet), - deya alohida qayd etgan edi.

Buning amaliy ijrosi Prezident tomonidan «Sog'lom avlod uchun» farmonining imzolanishi (1993 yil, 4 mart) hamda shu asosida «Sog'lom avlod uchun» Davlat dasturining ishlab chiqilishi, uni hayotda qo'llashga qaratilgan bir qator qarorlarning qabul qilinishida ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan «Oila yili» (1998 yil), «Ayollar yili» (1999 yil) «Sog'lom avlod yili» (2000 yil) «Ona va bola yili» (2001 yil) elon qilindi. Bu borada amaliy ishlarni bajarish uchun esa juda ko'p madaniyat, sport tadbirlari hamda «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!» mavzusida o'tkazib borilayotgan vatanparvarlik, san'at-sport festivallari katta tantana va viqor bilan olib borilmoqda.

«Sog'lom avlod uchun» Davlat dasturini amalga oshirish Sog'liqni saqlash vazirligi, turli davlat idoralari va jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan. Shu sababdan davolash muassasalari onalik va bolalik nufuziga katta urg'u bermoqda. Shuningdek, o'quvchi yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlash, aholining salomatligini yaxshilash borasida mutasaddi vazirliklar, «Sog'lom avlod uchun», «Mahalla», «Navro'z», «Ekosan» kabi xayriya jamg'armasi uyushmalari zimmasiga ham katta vazifalar yuklatilgan.

Sog'lom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari, ommaviy-sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya, sayohat va xalq milliy o'yinlaridan foydalanishni yaxshi yo'lga qo'yishda Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bilan hamkorlik ishlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi faol ishtirok etmoqda. Bunda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari, o'tkazilayotgan spartakiadalar, universiadalar va turli sport, san'at festivallari kabi tadbirlar muhim omil bo'lmoqda.

Yurtimizda sog'lom avlod tarbiyasiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning namunasini «Sog'lom avlod» davlat dasturining o'zida yanada yaqqol ko'ramiz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**«SOG‘LOM AVLOD» DAVLAT DASTURI TO‘G‘RISIDA<sup>3</sup>**

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2002 y., 24-son, 200-modda,  
2004 y., 30-son, 344-modda)*

Sog‘lom avlodni tarbiyalashga, yuksak umuminsoniy qadriyatlari asoslangan hayotiy o‘rniga ega bo‘lgan ma‘naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasida 2000 yilning «Sog‘lom avlod yili» deb e‘lon qilinishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarga:

sog‘lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma‘naviy-axloqiy muhitni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni takomillashtirishga;

davlat, jamiyat va oila tomonidan sog‘lom farzand tug‘ilishiga e‘tibor va g‘amxo‘rlikni kuchaytirishga;

bolalarning salomatligini mustahkamlash, ta‘lim olishi va har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga;

«Mehribonlik» uylarida, maktab-internatlarda va ixtisoslashtirilgan maktablarda tarbiyalanayotgan bolalarga davlat tomonidan yordamni kuchaytirishga;

ijtimoiy tafakkurda yetuk, har tomonlama kamol topgan va sog‘lom avlodning tug‘ilishi va tarbiyalanishi uchun yuksak mas‘uliyat psixologiyasini shakllantirishga, sog‘lom avlodning tug‘ilishi va tarbiyalanishi masalalari bo‘yicha aholiga yalpi bilim berish tizimini yaratishga yo‘naltirilgan «Sog‘lom avlod» davlat dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, «Sog‘lom avlod» davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni, ularning ahamiyati va ko‘lamlarini, sarf-xarajatlar hajmlarini va

---

<sup>3</sup>Qaror matni internet tarmog‘idagi «lex.uz» veb-saytidan olindi.

ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda, amalga oshirish 2000 yilda va keyingi yillarda tegishli resurslar bilan ta'minlanishi kerak.

Davlat dasturi topshiriqlarining unda belgilangan muddatlarga muvofiq so'zsiz bajarilishi uchun o'zlariga bog'liq bo'lgan barcha chora-tadbirlarni ko'rish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish vazirliklar, idoralar, hududiy hokimiyat va boshqaruv organlari har bir rahbarining muhim insoniy burchi deb hisoblansin.

3. «Sog'lom avlod» davlat dasturini bajarishga doir ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun 2-ilovagamuvofiq tarkibda Respublika komissiyasi tuzilsin.

Respublika komissiyasi, zaruriyat bo'lganda, Davlat dasturining tegishli yo'nalishlari bo'yicha olimlar, mutaxassislar va jamoatchilik vakillaridan iborat ishchi guruhlari tuzsin va joylarda dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bo'yicha ishlarning haqiqiy ahvoli o'rganilishini ta'minlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 26 iyul 358-son qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan — 2004 y., 30-son, 344-modda)*

5. Vazirlar Mahkamasining Ijtimoiy kompleksi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasida jamlanayotgan moliyaviy mablag'larning miqdorlari va manbalarini tanqidiy baholab chiqsinlar va bir hafta muddatda Vazirlar Mahkamasiga:

Jamg'armani «Sog'lom avlod» davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha Jamg'armaga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydigan miqdorlarda zarur moliyaviy manbalar bilan tubdan mustahkamlash;

viloyatlarda Jamg'arma filiallarini tashkil etish, ularning tegishli moddiy-moliyaviy bazasini yaratish;



Jamg‘armani va uning hududiy filiallarini, birinchi navbatda, byudjetdan tashqari jamg‘armalar hamda yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag‘lari hisobidan mablag‘ bilan ta‘minlash bo‘yicha takliflar kiritsinlar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Sog‘lom avlod uchun» jamg‘armasi hamda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan maqsadli foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqsin va belgilangan muddatlarda tasdiqlashga kiritsin.

#### LexUZ sharhi

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi 74-son «Sog‘lom avlod uchun» Hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasi faoliyatini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.*

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar, korporasiyalar va kompaniyalar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari yilning har choragida o‘z majlislarida, manfaatdor organlar va tuzilmalarni jalb etgan holda, «Sog‘lom avlod» davlat dasturining bajarilishini ko‘rib borsinlar. Yilning har choragi yakunlari bo‘yicha yil choragidan keyingi oyning 5-kunigacha Vazirlar Mahkamasiga hisobot davrida Davlat dasturi topshiriqlarining amalga oshirilishi yakunlari to‘g‘risida tahliliy axborot taqdim etsinlar.

7. Davlat matbuot qo‘mitasi, «O‘zteleradio» kompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, respublika ommaviy axborot vositalari qabul qilingan «Sog‘lom avlod» davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning roli va ahamiyati keng tushuntirib berilishini ta‘minlasinlar.

Markaziy televideniya va viloyatlar televideniylarida hamda Toshkent shahar televideniya-sida «Sog‘lom avlod – bu bizning kelajagimiz» maxsus muntazam ko‘rsatuvini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblansin. Uni tayyorlashga yuqori malakali mutaxassislar, shifokorlar, psixologlar, ota-onalar,

tarbiyachilar, yozuvchilar, jurnalistlar, sog‘lom avlod muhofazasiga daxldor barcha kishilar jalb etilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O‘.T. Sultonov zimmasiga yuklansin.

**Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

2000 yil 15 fevral,

46-son

### **15.2. Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston mustaqil terma jamoasining ishtiroki**

Mustaqillik sharofati bilan ozod va obod yurtimiz xalqaro olimpiya harakatining eng faol a‘zosiga, olimpiya o‘yinlarining teng huquqli ishtirokchisiga aylandi. O‘tgan davr mobaynida Davlatimiz va xukumatimiz tomonidan mamlakatimizda olimpiya harakatini rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirildiki, bu o‘z navbatida xalqaro sport tashkilotlari tomonidan yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Xalqaro olimpiya qo‘mitasi, Osiyo olimpiya kengashi, Milliy olimpiya qo‘mitalari assosiasiyasining oliy nishonlari bilan taqdirlanishi ham yuqoridagi fikrimiz tasdig‘idir. Bugungi kunda ushbu mukofotlar Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan poytaxtimizda bunyod etilgan “Olimpiya shon-shuhrati” muzeyining eng noyob eksponatlari qatoridan o‘rin egallagan.

Mamlakatimiz sportchilariga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan alohida e‘tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlar ular uchun sport olamining eng yirik musobaqalarida ham yuksak muvaffaqiyatlar sari yo‘l ochmoqda. Jumladan, 2013 yil 2 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi huzuridagi O‘zbekiston olimpiadachilarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Mazkur jamg‘arma mablag‘lari Respublika sport federasiyalarining moddiy-texnik bazalarini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilmoqda. Shu bilan birga, Olimpiya

va Paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha O'zbekiston sportchi va murabbiylariga stipendiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanib, xalqaro sport maydonlarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilayotgan sportchi va murabbiylar har oyda qo'shimcha tarzda beriladigan stipendiyalar bilan rag'batlantirib borilmoqda. Bundan tashqari, jamg'arma mablag'lari hisobiga sportimiz faxriylari, shuningdek, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan terma jamoalarning maslahatchi murabbiylariga ham oylik maoshlar ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplanmoqda.

Istiqlol yillari yurtimiz olimpiyachilari 5 bor (1996 yil Atlanta (AQSH), 2000 yil Sidney (Avstraliya), 2004 yil Afina (Gresiya), 2008 yil Pekin (Xitoy) va 2012 yil London (B.Britaniya) shaharlarida bo'lib o'tgan) yozgi va 6 marotaba (1994 yil Lillixammer (Norvegiya), 1998 yil Nagano (Yaponiya), 2002 yil Solt-Leyk-Siti (AQSH), 2006 yil Turin (Italiya), 2010 yil Vankuver (Kanada), 2014 yili Sochi (Rossiya) shaharlarida o'tkazilgan) qishki Olimpiya o'yinlarida Vatanimiz sharafini himoya qilgan mardonavor sportchilarimiz jami 6 ta oltin, 5 ta kumush va 10 ta bronza medaliga sazovor bo'lib, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "Istiqlol timsollari"ga aylandilar.

Shuningdek, O'zbekiston sportchi yoshlarining olimpiya o'yinlarida avvalgilardan-da yuksak natijalarni qo'lga kiritishlarida Davlat rahbarining 2013 yil 25 fevraldagi "O'zbekiston sportchilarini 2016 yil Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da o'tkaziladigan XXXI yozgi Olimpiada va XV Paralimpiya o'yinlariga munosib tayyorlash to'g'risida"gi Qarori, o'z mohiyatiga ko'ra, g'oyat tarixiy, ayni paytda, o'zbekistonlik sportchi yoshlarning Olimpiya o'yinlarida yuksak shohsupalar sari ko'tarilishlarida ta'bir joiz bo'lsa "oltin qanot" bo'ldi.

O'zbekistonlik bokschilar erishgan yuksak natijalar xalqaro matbuot nashrlarida g'oyat yuqori baholandi va o'zgacha e'tirof etildi. Ularda, xususan, Angliyaning London shahrida e'lon qilinadigan "Boks yangiliklari" xalqaro nashrida "2016 yil – O'zbekiston yili" bo'lganligi yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan.

Tabiiyki, mazkur qaror o'z kuchini, yuksak samarasini 2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan XXXI yozgi Olimpiadada yaqqol namoyon etdi, o'zbekistonlik sportchi yoshlarning kuch-qudratda yagona ekanligini butun dunyoga tarannum qildi. Mazkur olimpiya natijalari, ularda yurtimiz sportchi yoshlarining erishgan tarixiy g'alabalariga keyingi boblarda maxsus to'xtalamiz.

- Davlatimiz rahbarining mazkur qarori o'z ahamiyati va unda belgilab berilgan vazifalarning ko'lamiga ko'ra xalqaro sport maydonlarida qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarimiz salmog'ini yanada yuksaltirish hamda mamlakatimizda olimpiya harakatini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi, – deya ta'kilagan edi O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining faxriy prezidenti Mirabror Usmanov intervyularning birida. – Sportchilarimizni to'rt yillikning navbatdagi yirik sport anjumaniga munosib hozirlik ko'rishlarida dasturilamal bo'layotgan ushbu hujjat Yurtboshimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport ravnaqi yo'lida hamda sportchilarga ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir amaliy ifodasidir.

Shuni ham qayd etish kerakki, 2014 yilda Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan XVII yozgi Osiyo o'yinlari arafasida Osiyo olimpiya kengashining 33-Assambleyasi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining raisi Mirabror Usmanovga Osiyo olimpiya kengashining eng yuksak mukofoti tantanali suratda topshirildi. Ushbu e'tirof O'zbekistonda olimpiya xarakatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarga, ham yurtlarimizning Osiyo qit'asida sport sohasining yanada yuksalishiga qo'shayotgan samarali hissalariga berilgan munosib baho bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 apreldagi "O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi huzuridagi O'zbekiston olimpiadachilarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori haqida gapiring.

2. “Barkamol avlod” sport musobaqalari haqidagi fikrlaringizni bayon eting.

3. «Sogʻlom avlod uchun» Davlat dasturida qanday maqsad va vazifalar koʻzda tutilgan va bu borada yurtimizda qanday ishlar amalga oshirilib kelinmoqda?

4. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013 yil 25 fevraldagi “Oʻzbekiston sportchilarini 2016 yil Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da oʻtkaziladigan XXXI yozgi Olimpiada va XV Paralimpiya oʻyinlariga munosib tayyorlash toʻgʻrisida”gi qarori va uning amaldagi yuksak natijalari haqida fikr bildiring.

5. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Istiqlol timsollari” deganda kimlarni nazarda tutgandilar?

6. Mustaqillik yillarida yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish yuzasidan yana qanday qaror va farmonlar chiqarildi? Ular haqida maʼlumot bering.

## **“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI**

**Qoʻllashdan maqsad** -Oʻquvchilarni mashgʻulotda oʻtilgan mavzuni egallaganlik va mavzu boʻyicha tayanch tushunchalarni oʻzlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, oʻz bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, oʻzlarining bilim darajalarini baholayo olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek, oʻz bilimlarini bir tizimga solishga oʻrgatish.

### **“Tushunchalar tahlili” metodining bosqichlari:**

- oʻquvchilar guruhlariga (sharoitga qarab) ajratiladi. Tahlilchilar.

**Sharhlovchilar, ekspertlar, tashkilotchilar**

- oʻquvchilar mashgʻulotni oʻtkazishga qoʻyilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi. **Faollik, izlanuvchanlik, hamkorlik, bilimdonlik**

- tarqatma materiallar guruh aʼzolariga tarqatiladi

- o'quvchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar. Masalan: **Sog'lom avlod, milliy terma jamoa, Olimpiya sport o'yinlari va h.k.**

- o'quvchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda). Masalan: **Sog'lom avlod – yurtimizning ham ruhan, ham jismonan yetuk bo'lib ulg'ayib kelayotgan yoshlarini nazarda tutadi.**

- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi.

- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

**Xulosa: Olimpiya o'yinlari- sog'lom vabarkamol avlod**

## **XVI BOB. XXX YOZGI OLIMPIADA O‘YINLARI**

### **16.1 Londonda bo‘lib o‘tgan XXX yozgi olimpiada o‘yinlari**

Londonda o‘tkazilgan XXX yozgi Olimpiada o‘yinlari ham tarix sahifalaridan o‘rin egalladi. 16 kun davomida dunyoning 205 davlatidan kelgan 12 mingdan ziyod sportchilar 37 sport turida g‘oliblik uchun kurash olib bordilar. Musobaqalar davomida jami 302 komplekt medallar o‘z egalariga topshirildi. Eng ko‘p medalga AQSH vakillari sazovor bo‘ldilar. Amerikalik olimpiyachilar 46 ta oltin, 29 ta kumush, 29 ta bronza, jami 104 ta medallar shodasini qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egallashdi. Xitoy delegatsiyasi ikkinchi (38-27-22), Britaniyaliklar esa (29-17-19) uchinchi o‘rinni band etishdi. O‘zbekiston delegatsiyasi a‘zolari 1 ta oltin (Artur Taymazov, erkin kurash) va 3 ta bronza (Rishod Sobirov – dzyudo, Abbos Atoyev – boks, Soslan Tigiyev – erkin kurash) medalini qo‘lga kiritdilar.

Shaxsiy hisobda eng ko‘p medalga Maykl Felps (AQSH) erishdi. Ushbu amerikalik afsonaviy suzuvchi London Olimpiadasida jami 4 ta oltin va 2 ta kumush medallarni qo‘lga kiritdi.

«London – 2012» Olimpiada o‘yinlarida jami 85 davlat vakillari sovrinli o‘rinlarga sazovor bo‘ldilar. 120 davlat vakillari esa birorta ham medalga egalik qila olishmadi.

Musobaqalar davomida 56 bor Olimpiada hamda 44 bor jahon rekordlari yangilandi. Zamonaviy Olimpiada o‘yinlari tarixiga nazar tashlasak, bugunga qadar (1896-2012 yy. davomida) 147 davlat vakillari Olimpiada o‘yinlarida sovrinli o‘rinlarga sazovor bo‘lishgan. Shundan 98 davlat sportchilarigagina Olimpiada o‘yinlarining oltin medallari nasib etgan.

### **16.2. Mazkur olimpiadada O‘zbekiston terma jamoasining ishtiroki hamda erishilgan natijalar**

London olimpiadasida mamlakatimiz sportchilarining ishtiroki yuzasidan davlat rahbarining qarori e‘lon qilinib, unda bir qator talab va ko‘rsatmalar aks etgan. Shunga ko‘ra, qaror matnini aynan keltirish maqsadga muvofiq, bizningcha.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

QARORI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORTCHILARINING 2012 YIL LONDON SHAHRI  
(BUYUK BRITANIYA)DA BO‘LIB O‘TADIGAN XXX YOZGI OLIMPIADA VA XIV  
PARALIMPIADA O‘YINLARIDA ISHTIROK ETISHGA TAYYORGARLIGI TO‘G‘RISIDA<sup>4</sup>**  
*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 3-son, 10-modda)*

O‘zbekiston sportchilarining 2012 yil London shahri (Buyuk Britaniya)da bo‘lib o‘tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rishi va muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. O‘zbekiston sportchilarining 2012 yil London shahrida bo‘lib o‘tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rishini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha 1-ilovagamuvofiq tarkibda Respublika komissiyasi tuzilsin.

2. Respublika komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovagamuvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika komissiyasi (SH.M. Mirziyoyev) ikki oy muddatda O‘zbekiston sportchilarini XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o‘yinlarida ishtirok etishga bosqichma-bosqich tayyorlash Dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, bunda:

sport klublari va jamoalari tarbiyalanuvchilari orasidan, ayniqsa respublikamiz mintaqalaridan yosh, iqtidorli sportchilarni tanlab olishni takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirishga hamda ularning sport mahoratini oshirish bo‘yicha tayyorgarlikni tashkil etishga;

oliy sport mahorati maktablari va olimpiya zaxirasi kollejlari yanada rivojlantirish negizida sportchilar zaxirasini tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga;

---

<sup>4</sup>Qaror matni internet tarmog‘idagi «lex.uz» veb-saytidan olindi.



olimpiya musobaqalari turlari bo'yicha sport markazlari va bazalarini sport federasiyalariga birlashtirish, ularni zarur holda rekonstruksiya qilish va jahon standartlariga javob beradigan sport anjomlari va uskunalari bilan jihozlashga;

sportchilar va ularni tayyorlayotgan sport bazalarini maxsus oziq-ovqat, tibbiy xizmat, zamonaviy sport anjomlari va uskunalari bilan ta'minlashni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga;

olimpiya sport turlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun yirik korxonalar va xususiy biznes vakillarini homiylar sifatida jalb etishga;

sportchilar bilan ishlayotgan murabbiylar va mutaxassislarning uzluksiz ta'lim olishini rivojlantirish, zamonaviy ilmiy-metodik texnologiyalarni tatbiq etish hisobidan sport bo'yicha kadrlar malakasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, olimpiya sport turlari federasiyalari va fizkultura-sport jamiyatlari 2009 — 2012 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kelinadigan sport jihozlari, anjomlar va maxsus sport kiyimi uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Milliy olimpiya qo'mitasi bilan birgalikda olib kelinadigan anjomlar va uskunalardan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishi, olimpiya sport turlari bo'yicha birlashtirilgan sport markazlari va bazalarining faoliyati samarali tashkil etilishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek manfaatdor sport tashkilotlari bir oy muddatda mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqsin va Respublika komissiyasiga taqdim etsin, unda quyidagilar nazarda tutilsin:

jumladan, mahalliy byudjet mablag'lari va homiylar mablag'lari hisobidan O'zbekiston terma jamoalari uchun sportchilarni tayyorlashga qaratilgan chora-

tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, shuningdek ularga biriktirilgan sport markazlari va bazalarini rekonstruksiya qilish;

mamlakat terma jamoalari sportchilari, murabbiylari va boshqa mutaxassislari uchun qulay ijtimoiy-maishiy va moddiy shart-sharoitlar yaratishga har tomonlama ko‘maklashish.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri SH.M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

2009 yil 5 yanvar,

PQ-1029-son

London Olimpiadasida murakkab saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan 53 nafar olimpiyachimiz sportning o‘n besh turi - badiiy gimnastika, trampolin, velosport, suzish, yengil atletika, og‘ir atletika, baydarka va kanoeda eshkak eshish, boks, dzyudo, taekvondo, erkin va yunon-rum kurashi, o‘q otish, qilichbozlik hamda tennis bo‘yicha bellashuvlarda ishtirok etdi.

Umuman olganda, sportchilarimiz XXX yozgi Olimpiya o‘yinlarida o‘z mahorati, tajriba va salohiyatini keng namoyon etib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qildi. Norasmiy hisob-kitoblar bo‘yicha umumjamoaa hisobida olimpiyachilarimiz 47-o‘rinni egalladi. Bu MDH davlatlari orasida oltinchi, Osiyo qit‘asida yettinchi ko‘rsatkichdir.

XXX yozgi Olimpiada o‘yinlariga munosib tayyorgarlik ko‘rishimizda davlatimiz rahbarining 2009 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi sportchilarining 2012 yil London shahri (Buyuk Britaniya)da bo‘lib o‘tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o‘yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to‘g‘risida”gi qarori muhim dasturilamal bo‘ldi.

Artur Taymazov uchinchi marta jahonning tengsiz polvoni ekanligini isbotlab, Olimpiya o‘yinlarining uchinchi oltin medalini qo‘lga kiritdi va ushbu natijasi bilan xaqli ravishda dunyoning buyuk polvonlari orasidan joy oldi.Dzyudochimiz Rishod Sobirov bu safar ham bronza medali bilan

cheklandi. Bokschimiz Abbos Atoyevga ham Olimpiya o'yinlarining bronza medali nasib etdi.

**Qisqa satrlarda:**

2012 yil Buyuk Britaniyaning London shahrida o'tkazilgan XXXyozgi Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston sharafini 53 nafar sportchilarimiz 15 ta sport turi bo'yicha himoya qildilar. Bayroqdor – Elshod Rasulov. Natija: umumjamo'a hisobida - 204 davlat orasida 47-o'rin

**Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi sportchilarining 2012 yil London shahri (Buyuk Britaniya)da bo'lib o'tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o'yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to'g'risida"gi qarori haqida fikr yuriting.

2. XXX yozgi Olimpiada o'yinlari, ulardagi sport turlari, ishtirokchi davlatlarning erishgan yutuqlari haqida ma'lumot bering.

3. XXX yozgi London Olimpiadasida yurtimiz vakillarining ishtiroki haqida nimalarni bilasiz?

4. Olimpiya o'yinlari – badiiy gimnastika, velosport, suzish, yengil atletika, og'ir atletika, baydarka va kanoeda eshkak eshish, o'q otish sport turlari haqida fikr bildiring.

5. Dzyudochimiz Rishod Sobirovning olimpiya o'yinlaridagi muvaffaqiyatlari haqida gapiring.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi sportchilarining 2012 yil London shahri (Buyuk Britaniya)da bo'lib o'tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV Paralimpiada o'yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to'g'risida"gi qarori mazmunini sharhlang.

## “BLITS-SO‘ROV” METODI

### Qo‘llashdan maqsad:

- o‘quvchilarni berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarish, hozirjavoblikka o‘rgatish;
- ta‘lim oluvchilarda jamoaviylik, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va h.k.

### “Blis-so‘rov” metodining tuzilishi:

1. O‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o‘quvchilar e‘tiboriga havola qiladi.
2. O‘quvchilar berilgan savolga qisqa muddatda lo‘nda, aniq javob beradi.
3. Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o‘quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to‘ldiradi, (biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim).

### “Blis-so‘rov” metodining bosqichlari:

Berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytariladi. Masalan: **XXX yozgi Olimpiada qayerda o‘tkazildi? – Londonda va h.k.**

Savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Masalan: **o‘quvchi sifatida Olimpiya o‘yinlariga qiziqishingiz qanday? Ularga izoh bering va h.k.**

Savollarga javoblarni jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarish. Masalan: **Jamoamiz javobi: 2012 yil Buyuk Britaniyaning London shahrida o‘tkazilgan XXX yozgi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston sharafini 53 nafar sportchilarimiz 15 ta sport turi bo‘yicha himoya qildilar.**

**Izoh:** Metodni qo‘llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g‘oyalarning mohiyati o‘quvchilar tomonidan og‘zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi ham mumkin.

## **XVII BOB. OLIMPIYA MADANIYATI QADRIYATLARI**

### **17.1. Lozannada birinchi Olimpiya muzeyining ochilishi.**

1993 yil 23 iyunda XOQ Prezidenti Xuan Antonio Samaranch tashabbusi bilan Lozannada birinchi Olimpiya muzeyi ochildi. Ikki yil o'tgach, Olimpiya muzeyi "Yevropa muzeyi" unvonini oldi. U dunyodagi eng katta Olimpiya sport muzeyi hisoblanadi. Unda sport inshootlari va Olimpiya harakati bilan bog'liq san'at asarlari bo'lib, 10 mingdan ziyod eksponati bor. Muzeyda vaqtinchalik va doimiy ko'rgazmalar o'tkazib boriladi. Muzeyda sport mavzusiga oid ko'plab haykallar bo'lib, muzey chiroyli istirohat bog'iga tutashib ketgan.

Muzey jahon sayyohlari, olimpiya harakati bilan qiziquvchilarning gavjum ekskursiya markaziga aylangan.

### **17.2. O'zbekiston Olimpiya shon-shuhrat muzeyining tashkil etilishi**

Mamlakatimiz sportining ko'zgusi hisoblangan «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14-avgustdagi 284-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Muzeyning tantanali ochilish marosimi 1996 yil 1-sentabrda o'tkazilib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Xalqaro Olimpiya qo'mitasining o'sha paytdagi prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etishgan.

O'zbekiston «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi Olimpizm qadriyatlarini hamda «halol o'yin» tamoyillarini targ'ib qilishda, O'zbekiston sportchilarining olamshumul g'alabalari va mamlakatimizda Olimpiya harakatini rivojlantirish tarixi to'g'risida keng jamoatchilikni boxabar qilishda muhim o'rin egallaydi.

Muzeyda Vatanimiz sportchilarining Olimpiya o'yinlari hamda xalqaro miqyosda o'tkaziladigan nufuzli musobaqalarda qo'lga kiritgan g'alabalarini o'zida aks ettiruvchi turli mavzudagi ekspozitsiyalar mavjud bo'lib, unda ko'rgazmali tadbirlar doimiy ravishda tashkil etiladi.

O'zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyida 2000dan ortiq eksponat o'rin egallagan va shundan mingdan ortig'i doimiy ekspozitsiyaga qo'yilgan. Muzeyda

medallar, kuboklar, mayoqlar, pochta markalari, sport anjomlari va kiyim-kechaklari ko'p miqdorda ko'rgazmaga qo'yilgan.

## **Olimpiya shon-shuhrati muzeyi to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 avgustdagi 284-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

2. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hay'ati qarorlari va qo'mita buyruqlari, mazkur Nizom va boshqa normativ hujjatlarga amal qiladi.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi madaniy-ma'rifiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan belgilanadi va Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyining madaniy-ma'rifiy va moddiy-texnik negizi mavjud tarixiy jismoniy tarbiya va sport materiallari, yodgorliklar, binolar va sport inshootlarini o'z ichiga oladi.

3. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi o'z faoliyatini ishlab chiqilgan yillik istiqbol ish rejalari asosida amalga oshiradi.

4. Olimpiya shon-shuhrati muzeyining moliyaviy mablag'lari:

respublika byudjetidan ajratmalar;

Milliy Olimpiya qo'mitasi tomonidan ajratilgan mablag'lar;

tashkilotlar, muassasalar, firmalar, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari, shuningdek alohida jismoniy shaxslarning beg'araz xayriya mablag'lari;

o'z moliya-xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar hisobiga shakllanadi.

## II. MADANIY-MA'RIFIY VA TASHKILOTCHILIK FAOLIYATI

5. Quyidagilar Olimpiya shon-shuhrati muzeyining asosiy vazifalari hisoblanadi:

jismoniy tarbiya va sport, Olimpiya o'yinlari tarixini, O'zbekiston sportchilarining zamonaviy Olimpiya harakatini rivojlantirishdagi hissasini o'rganish, shuningdek tarixiy materiallar, medallar, olimpiya timsoli tushirilgan znachoklar, pochta markalari kolleksiyalari, mashhur sportchilarning sport kiyimlari va shaxsiy anjomlarini va shu kabilarni to'plash;

sportning milliy turlari va xalq o'yinlariga oid tarixiy yodgorliklarni yig'ish va o'rganish, muzeyda o'zbek xalqining jismoniy tarbiya va sporti tarixini yorituvchi doimiy va vaqtincha ekspozitsiyalar tashkil etish;

istiqbolli tematik-ekspozitsiya rejalarini ishlab chiqish;

sportchilar, trenerlar, hakamlar, sport sohasidagi fan namoyondalari, O'zbekiston sport jamoatchiligi vakillarining xalqaro sport harakatidagi hissasini namoyish etuvchi eksponatlar yaratish;

muzey ekspozitsiyalari bo'ylab ekskursiyalar, tashrif buyuruvchilarning mashhur sportchilar, trenerlar, olimlar, sport jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvlarini tashkil etishga oid ishlarni bajarish;

zamonaviy texnikaviy vositalarni Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ekspozitsiyasi va ish amaliyotiga joriy etish;

chet el tashkilotlari, muassasalari va jismoniy shaxslaridan tarixiy materiallar sotib olishga oid ishlarni tashkil etish, ularning hamkorlikdagi faoliyati to'g'risida shartnomalar va kontraktlar tuzish;

chet mamlakatlarning muzeylari bilan aloqalar o'rnatish, belgilangan tartibda xalqaro muzey birlashmalari va tashkilotlariga kirish;

jahon sporti yutuqlari, chet mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishdagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish, bu yutuqlarni O'zbekiston sport amaliyotiga tatbiq etish;

jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalariga oid axborot byulletenlari va ilmiy-uslubiy

adabiyotlar nashr etish, sportga oid adabiyotlar nashr etishning yillik va istiqbol rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

6. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi belgilangan tartibda:

moliyaviy mablag'lariga mustaqil ravishda egalik qiladi, muzey moddiy-texnika bazasi holatining iqtisodiy tahlilini amalga oshiradi, uning moddiy boyliklari saqlanishini, tejamkorlik tartibiga, hisob va hisobotning to'g'ri yuritilishiga va ishonchligiga rioya etishni, shartnomalar asosida amalga oshiriladigan ishlarning holatini tekshirishni nazorat qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi to'g'risidagi Nizomga va mazkur Nizomga asoslanib, amaldagi qonunchilikka muvofiq Olimpiya shon-shuhrati muzeyi xodimlarining bo'sh lavozimlarini to'ldirishga konkurslar o'tkazadi, ular bilan shartnomalar (mehnat bitimlari) tuzish asosida mehnat munosabatlarini belgilaydi;

mehnat qonunchiligiga mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normativlariga, texnika xavfsizligiga, yong'in xavfsizligiga, davlat sug'urtasiga, mehnat intizomiga, shuningdek o'z mulking saqlanishiga rioya etishni ta'minlaydi.

### **III. OLIMPIYA SHON-SHUHRATI MUZEYI**

#### **TARKIBI VA BOSHQARUVI**

7. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi tarkibida Ilmiy kengash va quyidagi bo'limlar tashkil etiladi:

ilmiy-ekspozitsiya;

tashkiliy-uslubiy;

madaniy-ma'rifiy;

ma'muriy-xo'jalik.

Ilmiy kengash tarkibiga, odatda, muzey direktori (kengash raisi), uning o'rinbosari, bo'lim mudirlari, shuningdek yetakchi olimlar, trenerlar, jismoniy tarbiya instituti hamda respublika universitetlari va pedagogika oliy o'quv yurtlarining sportga oid fakultetlari xodimlari kiradilar.



8. Ilmiy kengash tarkibi Olimpiya shon-shuhrati muzeyi direktorining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirlig' hay'ati tomonidan tasdiqlanadi.

9. Muzey direktori O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi direktori:

amaldagi qonunchilik Madaniyat va sport ishlari vazirligi to'g'risidagi Nizom va mazkur Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hay'ati oldida muzey faoliyati uchun shaxsan javob beradi;

tasdiqlangan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida tuzilmaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritadi, shtatlar jadvalini, xarajatlar smetasini, shuningdek uning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi;

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi direktori o'rinbosarining va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining muzey faoliyatining alohida yo'nalishlariga rahbarligi darajasini belgilaydi;

Davlat organlari va muassasalari, xo'jalik, sud, hakamlik va jamoat tashkilotlarida Olimpiya shon-shuhrati muzeyi nomidan ish ko'radi.

#### **IV. MUZEYNING SHTATLAR JADVALI**

10. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi xodimlarining shtatlar jadvali muzey faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vazifalari hamda ajratilgan mehnatga haq to'lash fondi bilan belgilanadi.

11. Bo'sh lavozimlarga xodimlarni ishga olish va ularni ishdan bo'shatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, boshqa normativ hujjatlar va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi,

#### **V. OLIMPIYA SHON-SHUHRATI MUZEYINING HUQUQLARI**

12. Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga o'z oldida turgan vazifalarni hal etishi hamda unga yuklangan funksiyalarni bajarishi uchun quyidagi huquqlar beriladi:

vazirliklar, idoralar, konsernlar, uyushmalar va jamoat tashkilotlaridan Olimpiya shon-shuhrati muzeyi vakolatiga kiruvchi masalalarga oid ma'lumotlarni olish;

ekspozisiya rejalari, jismoniy tarbiya va sportga oid ko'rgazmalar tayyorlash, tarixiy materiallar bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish uchun ularning rahbarlari bilan kelishgan holda vazirliklar, idoralar, muassasalar, tashkilotlar va o'quv yurtlarining olimlari va mutaxassislarini jalb etish;

muzokaralarda qatnashish va Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligi topshiriqlariga binoan Olimpiya shon-shuhrati muzeyi uchun eksponatlar sotib olish, ilmiy-uslubiy hamkorlik masalalari bo'yicha shartnomalar va bitimlarni imzolash, tashkilotlar, sport federasiyalari va MOQning chet el muzey tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatishiga ko'maklashish, muzeyning ilmiy va boshqa toifa mutaxassislarini chet elga o'qish va malaka oshirish uchun jo'natish to'g'risida takliflar kiritish;

madaniy-ma'rifiy ishlar rejalari ishlab chiqish;

jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish bo'yicha ma'rifiy ishlar yuritish, jismoniy tarbiya va sport tarixi yodgorliklarini o'rganish, bezash ishlariga olimlar, rassomlar, boshqa mutaxassislarni jalb etgan holda tematik ekspozitsiyalar tashkil etish;

respublika va chet mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot muassasalari, muzeylari bilan hamkorlikda tijorat asosida tadqiqotlar va ko'rgazmalar tashkil etish.

13. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi unda aholidan noyob tarixiy materiallar va ashyolarni sotib olish, ularni ta'mirlash, shuningdek muzey xodimlarini mukofotlash uchun mablag'larni jamlagan holda maxsus fond ochishi mumkin.

14. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi yuridik shaxs hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan vz o'z nomi o'zbek hamda ingliz tillarida yozilgan muhriga egadir.

## **VI. OLIMPIYA SHON-SHUHRATI MUZEYI FAOLIYATINI TO'XTATISH**

15. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hay’atining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan to‘xtatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami, 1996 y., 8-son, 23-modda

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIMPIYA AKADEMIYASI**

Xalqaro Olimpiya akademiyasi (XOA) 1961 yilda tashkil qilingan bo‘lib, mazkur akademiya Olimpiya harakati g‘oyalari, jismoniy tarbiya hamda sport nazariyasi va amaliyotini o‘rganish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha ixtisoslashgan muassasa hisoblanadi. Mazkur akademiya XOQ rahbarligi ostida harakat qiladi hamda Gresiya (Yunoniston) MOQ tomonidan moliyaviy ta‘minlanadi. XOA manzili - Olimpiyadir. U jahon davlatlarining 74 ta Olimpiya akademiyalarini tan olgan. Uning faoliyati XOQning maxsus komissiyasi tomonidan boshqarib boriladi va nazorat qilinadi. XOA har yili haftalik sessiyalar tashkil qilib turadi. Ularning dasturidan falsafa va sportning va mafkuraviy muammolari, Olimpiya harakati tarixi, sport trenirovkasi va jismoniy tarbiyaning nazariy hamda usuliy masalalari bo‘yicha ma‘ruzalar hamda seminarlar joy olgan.

1987 yil 18 fevraldan boshlab Sobiq Ittifoq Olimpiya akademiyasi, uning rahbarligida esa O‘zbekiston Olimpiya akademiyasi tashkil qilingan. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng 1993 yil 18 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Olimpiya akademiyasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Olimpiya akademiyasi prezidenti prof. A.Q.Hamroqulov va uning ijroiya direktori dos. B.S.Radjabov tarkibidagi delegasiya 1994 yilda Olimpiyada bo‘lib o‘tgan XOAning sessiyasida ishtirok etdi. O‘zbekiston Respublikasi Olimpiya akademiyasining 12 kishidan iborat ijroiya qo‘mitasi tarkibiga yetakchi olimlar, o‘qituvchilar, trenerlar va Olimpiya harakati arboblari kiritilgan. O‘zbekiston

Respublikasi Olimpiya akademiyasi O'zbekiston Respublikasi MOQ rahbarligi ostida harakat qiladigan ko'ngilli jamoat tashkiloti hisoblanadi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Lozannada tashkil etilgan birinchi Olimpiya tarixi muzeyi haqida gapiring.
2. O'zbekistonda tashkil qilingan Olimpiya shon-shuhrati muzeyi haqida ma'lumot bering.
3. O'zbekistondagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyi Nizomi haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekistondagi Olimpiya akademiyasi haqida fikr yuriting.
5. Olimpiya o'yinlarining o'ziga xos qadriyatlarivatomoyillarini sharhlang.

**“VENNA DIAGRAMMASI”  
(SPORT TURLARINI SOLISHTIRISH) METODI**

**Qo'llashdan maqsad:**

- o'quvchilarning mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirishiga ko'maklashish;
- sintezlash ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirish;
- o'quvchilarda taqqoslash, solishtirish va xulosalash ko'nikmalarini shakllantirish va h.k.



## **XVIII BOB. 1991 YILDAN HOZIRGACHA BO‘LGAN DAVRDA O‘ZBEKISTONDA SPORT HARAKATI**

### **18.1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Xalqaro sport hamda olimpiya harakatining rivojlanishi**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng yurtimizda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu, o‘z navbatida, xalqaro sport va olimpiya harakatining ham rivojlanishiga keng yo‘l ochdi. Yuqoridagi boblarda ta’kidlaganimizdek, O‘zbekiston sporti tarixida milliy Olimpiya qo‘mitasining tashkil topishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1992 yil 21 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining Milliy Olimpiya qo‘mitasi tuzildi. Unga S.Ro‘ziyev prezident etib saylandi. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi 1992 yil

3 martda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tarkibiga rasman a‘zo bo‘lib kirdi. 1993 yil sentabrida esa Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tomonidan to‘la to‘kis tan olindi.

Bu kabi ezgu sa’y-harakatlar O‘zbekiston sportchilari uchun olimpiada, Osiyo va jahon birinchiliklari musobaqalarida ishtirok etish uchun oltin imkoniyat yaratdi.

1996 yilning 19 iyulida Amerika Qo‘shma Shtatlarining Atlanta shahrida “Yuz yillik o‘yinlari” nomini olgan XXVI yozgi Olimpiada tantanali ravishda ochildi. Stadiongga O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘ini sportchimiz Armen Bagdasarov baland ko‘targan holda olib kirdi. Vakillarimiz O‘yinlar dasturiga kiritilgan o‘n uch sport turi bo‘yicha bellashuvlarda ishtirok etdilar. Ular orasida Armen Bagdasarov eng yaxshi natijaga erishdi. U Atlantada dzyudo bo‘yicha musobaqalarda 86 kilogrammgacha vaznga ega bo‘lgan sportchilar bilan tatamiga chiqdi.

O‘zbekistonlik dzyudochi o‘zining dastlabki uch uchrashuvini sof g‘alaba bilan yakunladi. To‘rtinchi bellashuvda ham raqibidan ustun keldi. Finalda unga ikki karra jahon chempioni Janubiy koreyalik Chjon Ki Yong bilan kurashishga to‘g‘ri keldi. Murosasiz kechgan bu bellashuvda hakamlar ustunlik jahon

championida degan qarorga keldilar. Armen Bagdasarov yigirma oltinchi olimpiya o'yinlarining kumush medali sovrindori bo'ldi.

Olimpiadachimiz Karim To'laganov 71 kilogrammgacha vaznga ega bo'lgan bokschilar bilan jang olib bordi. U musobaqalarning yarim finaliga qadar barcha raqiblarini mag'lub qildi. Ammo Atlantada oltin medalni qo'lga kiritgan AQShlik Devid Rid va kubalik Alfredo Duverxel (ikkinchi o'rin) yurtdoshimizdan ancha tajribaliroq edilar. Shuning uchun Karim To'laganovning Atlanta ringida qo'lga kiritgan bronza medali alohida salmoqqa egadir.

2000 yil Sidneyda bo'lib o'tgan XXVII Olimpiya o'yinlariga 199 davlatdan 10651, shu jumladan, 4069 ayol sportchi tashrif buyurdi. Mamlakatimiz sportchilari Sidney Olimpiadasida bundan to'rt yil ilgarigi O'yinlardagiga qaraganda ancha muvaffaqiyatli ishtirok etib, bitta oltin, bitta kumush va ikkita bronza medalni qo'lga kiritdilar. Umuman, mamlakatimiz terma jamoasi safidagi 77 nafar olimpiadachi musobaqalar dasturidan o'rin olgan sportning 13 turida ishtirok etdilar. Ular norasmiy umumjamo'a hisobida 41-o'rinni oldilar, ya'ni Atlanta Olimpiadasiga nisbatan 17 pog'onaga ko'tarildilar.

Millionlab vatandoshlarimiz haqiqiy o'zbek o'g'loni Muhammadqodir Abdullayevning Sidneyda Olimpiada faxriy shohsupasining eng yuqorisiga ko'tarilib, davlatimiz bayrog'i hilpirab, madhiyamizning tantanavor ohanglari yangrab turgan bir paytda ko'ksiga oltin medal taqilgan onlarni aslo unutmaydilar.

2004 yilning 25 martidan Afinada XXVIII olimpiya o'yinlari o'tkazildi. Afina olimpiadasida mamlakatimizdan 69 sportchi O'yinlar dasturiga kiritilgan sportning 37 turidan 15 tasida qatnashdi. Mazkur o'yinlarda polvonlarimiz va bokschilarimiz yuqori natijalarni qayd etdilar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi Artur Taymazov erkin kurashda eng og'ir vaznli raqiblari o'rtasida eng kuchli ekanligini ishonarli ravishda tasdiqladi. U barcha uchrashuvlarni g'alaba bilan yakunlab, Olimpiada chempioni bo'ldi. Aleksandr Doktorashvili yunon-rim kurashi bo'yicha oltin medalga sazovor bo'ldi. Erkin kurash bo'yicha Magomed Ibragimov yigirma sakkizinchi olimpiya o'yinlarining kumush medali sovrindori bo'ldi.

Bokschilarimiz O‘tkir Haydarov va Bahodir Sultonovlar esa bronza medallarini qo‘lga kiritdilar.

Respublikamiz sportchilari keyingi olimpiadalarda ham faol ishtirok etdilar va qator yuqori natijalarni qo‘lga kiritdilar. Yurtimiz sportchilari nafaqat olimpiya, balki Osiyo, jahon chempionatlarida ham yuqori natijalarni qayd etib, yurtimiz dovrug‘ini dunyoga yoydilar.

## **18.2. O‘zbekiston Milliy terma jamoalarining Osiyo va Yevropao‘yinlaridagi ishtiroki**

1994 yil 26 sentabrda Respublika Vazirlar Mahkamasida Xirosimada bo‘ladigan XII Osiyo o‘yinlariga jo‘nab ketayotgan O‘zbekiston sportchilari delegasiyasi bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda yosh mustaqil davlatimiz vakillari Osiyo qit‘asidagi bu yirik sport musobaqalarida birinchi marta ishtirok etayotgani alohida ta’kidlandi.

Osiyo o‘yinlari tashkilotchisi 1949 yil 13 fevralda ta’sis etilgan Osiyo o‘yinlari federasiyasidir. Uning Nizomi Olimpiya g‘oyalari asosida tuzilgan. Rasmiy tili ingliz tili hisoblanadi. Har bir mamlakat qaysi turlarda ishtirok etishni o‘zi tanlaydi, lekin delegasiyaning tarkibi tashkiliy qo‘mita va Osiyo Olimpiya qo‘mitasi belgilagan sonidan oshib ketmasligi lozim.

Qit‘amizning kamida 6 mamlakatida ommalashgan, ularning 4 tasidan vakillar ishtirok etgan taqdirda, bu sport turi Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritiladi. Musobaqalarda yuqori o‘rinlarni egallaganlarni taqdirlash marosimida sovrindor sportchilar sharafiga davlatlarning bayroqlari ko‘tariladi hamda g‘olib mamlakatning madhiyasi yangraydi. Yurtimizning shunqorlari birinchi marta sportning 24 turida (120 sportchi) qatnashdilar. Ular bu musobaqalarda jasorat, mardlik ko‘rsatib davlatimiz obro‘cini jahonga taratdilar. Bizning sportchilar 2-16 oktabr kunlari Xirosima shahrida o‘tkazilgan 12-Osiyo o‘yinlarida sportning 34 turi bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalarda qatnashib, ajoyib g‘alabaga erishdilar. Sportchilarimiz 10 ta oltin, 11 ta kumush va 19 ta bronzamedallariga sazovor bo‘lishib, umumjahon hisobida 42 davlat vakillari o‘rtasida faxrli 5-o‘rinni



egallashdi. Kanoe va baydarka bo'yicha sportchilarimiz yuksak natijalarga erishdilar. Ivan Kireyev jasorat namunasini ko'rsatdi. Uning bir o'zi uch oltin medalga sazovor bo'ldi.

Jahon tajribalari bilan qiyoslaydigan bo'lsak, eng ilg'or mamlakatlarning yetakchi sohalarigina boshlang'ich davrida shunday shiddatli yuksalishga ega bo'lgan. Bu xorijlik mutaxassislarining e'tirofi. Albatta.

“Kurash – XXI asr sporti” degan iborani ham ilk bor o'zbek kurashining jonkuyarlaridan biri Yevropa Dzyudo ittifoqi Prezidenti, gollandiyalik Fras Xoogendayk janoblari tilga oldilar. Binobarin, bugungi kunga kelib jahonning 5 ta qit'asidan yuzga yaqin mamlakatda kurash tan olindi, ularning aksariyatida kurash federasiyalari tuzildi. Yevropa, Osiyo, Janubiy Amerika qit'alarining konferensiyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shimoliy Amerika va Afrikada kurash keng targ'ib qilinmoqda. Bu ma'lumotlar o'zbek kurashini jahon miqyosidagi juda yorqin istiqbollar kutayotganidan yaqqol dalolat beradi. Mustaqillikda erishganimizdan keyin sportning ko'p turlaridan yuqori natijalarga erishdik. Masalan: kurash bo'yicha jahon chempionlari Toshtemir Muhamadiyev, Kamol Murodov, Akobir Qurbonov, Maxtumquli Mahmudov, Isoq Ahmedov, Bahrom Avazov va boshqalar.

2006 yil 1-15 dekabr kunlari Qatar poytaxti Doxada navbatdagi Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasining 246 sportchisi O'yinlar dasturidan o'rin olgan sportning 32 turida g'oliblik uchun kurash olib bordilar. Vakillarimizdan bokschilar Rustam saidov, Bahodir Sulstonov, Elshod Rasulov, erkin kurashda Dilshod Mansurov va Artur Taymazov, karatechi Sofiya Kaspulatova, eshkak eshishda Yuliya Borzova, Vadim Menkov, Ruslan Naurzaliyev, Vladimir Chernenko, Zairna va Sevara G'aniyevalar Osiyo o'yinlari chempionlari bo'lib, oltin medal sohibi bo'ldilar.

O'zbek boks maktabining yosh va yorqin namoyandasi Abbas Atoyev 2007 yil 23 oktabr – 3 noyabr AQShning Chikago shahrida 120 mamlakatdan kelgan 700 nafardan ortiq eng mohir charm qo'lqop ustalari ishtirok etgan jahon birinchiligida o'z vaznida kurrai zaminimizda unga teng

keladiganlar topilmaganligini ishonarli tarzda isbotlab, chempion bo'ldi hamda Pekin Olimpiadasi ringiga chiqish huquqini qo'lga kiritdi.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasida olibborilayotgan oqilona islohotlar mamlakatimizda iqtidorli sportchi yoshlarni tarbiyalash, ularni jahon, osiyo hamda olimpiya o'yinlariga jalb etish, sportchi yoshlar orasidan chempionlarni yetishtirishda muhim omillardan bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qaysi Olimpiada "Yuz yillik o'yinlari" nomini olgan edi?
2. XXVI yozgi Olimpiadaning tantanali ravishda ochilishida stadiona O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ini qaysi sportchimiz baland ko'targan holda olib kirgan edi?
3. Muhammadqodir Abdullayev qaysi olimpiya o'yinlarida oltin medalga sazovor bo'ldi?
4. Osiyo o'yinlari federasiyasi qachon ta'sis etilgan? U qanday o'yinlarni tashkil etadi?
5. "Kurash – XXI asr sporti" degan iborani ilk bor kim aytgan edi?
6. Qatar poytaxti Dohadagi Osiyo o'yinlari qachon o'tkazilgan edi?

## **"DEBAT" METODI**

### **Qo'llashdan maqsad:**

- mashg'ulotda mavzu yuzasidan o'quvchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish, o'z mulohazalarini himoya qilish, mavzu yuzasidan samarali taklif-mulohazalar kiritish ko'nikmalarini shakllantirish va h.k.

## “Debat” metodining tuzilishi:

O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan bahs yuritilishi zarur bo‘lgan muammo tanlanadi. Masalan: **O‘zbekistonda Xalqaro sport hamda olimpiya harakatining rivojlanishi**

Bahslashish uchun ikki nafar o‘quvchi (guruh yoki juftlik)larning e‘tiborlariga tanlangan muammo havola etiladi.

Masalan: **Terma jamoamizning xalqaro sport va olimpiyai o‘yinlaridagi ishtiroki**

Muammo yuzasidan alohida o‘quvchi, guruh yoki juftliklar tomonidan bildiriladigan fikrlar tahlil qilinadi.

Ekspertlarning fikrlari tinglanadi.

Debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi.

**Xulosa: Mustaqillik yillarida Milliy olimpiya harakati rivojlandi va yurtimizdan Olimpiya chempionlari yetishib chiqdi.**

Debat yakunlanadi.

**Izoh:** Mazkur metodda o‘quvchilar erkin, samimiy bahs olib boradilar. O‘zgalar fikrini hurmat qilish, fikrini diqqat bilan tinglash, diplomatik munosabat olib borish talab etiladi.

## **XIX BOB. O‘ZBEKISTON SPORTCHILARINING DUNYO MAYDONLARIDAGI MUVAFFAQIYATLARI**

### **19.1. Mamlakatimiz sportchilarining xalqaro sportda erishayotgan yuksak natijalari**

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga qaratilib kelinayotgan yuksak e’tibor sababli yurtimiz sportchi yoshlari xalqaro sportda yuqori natijalarni qayd etib kelmoqdalar. Buni sportchilarimizning zamonaviy Olimpiya o‘yinlarida erishayotgan muvaffaqiyatlarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, XXXI yozgi Olimpiya o‘yinlarida jami 70 nafar hamyurtimiz, jumladan, 23 xotin-qiz sportning akademik eshkak eshish, badiiy gimnastika, baydarka va kanoeda eshkak eshish, boks, dzyudo, yengil atletika, og‘ir atletika, sport gimnastikasi, stol tennisi, suzish, taekvondo (WTF), tennis, trampolin, o‘q otish, erkin va yunon-rum kurashi turlari bo‘yicha o‘z mahoratlarini namoyish qildilar.

Rio-de-Janeyro olimpiadasida jami 87 davlat vakillari medallarni qo‘lga kiritishga erishdi. Oltin medalga sazovor bo‘lganlar yanada kam — 59 mamlakat. Aholisi salkam 1 milliard 300 million bo‘lgan Hindistondan Rio-de-Janeyro olimpiadasida 124 nafar sportchi qatnashdi. Ammo ulardan birortasi Olimpiya chempioni bo‘la olmadi. Yoki oxirgi yillarda dunyoda sport salohiyati tobora ortib borayotgan Portugaliya nomidan 92 sportchi maydonga tushdi va atigi bir nafari bronza medali bilan taqdirlandi.

Agar bu kabi ko‘rsatkichlarni hamyurtlarimizning XXXI yozgi Olimpiya o‘yinlarida erishgan natijalari bilan qiyoslasak, O‘zbekiston sportchilarining qo‘lga kiritgan yutuqlari nechog‘lik salmoqli ekanligi yanada oydinlashadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, **sport olamidagi har qanday yutuq o‘z-o‘zidan kelmaydi. Sport maydonlarida erishiladigan yutuqlar, avvalo, shu yo‘lda tinimsiz intilib, kurashib yashaydigan insonning yutug‘i, ayni vaqtda shu insonni tarbiyalab voyaga yetkazgan jamiyatning yutug‘idir.**

Bu gal, ya'ni Rio-de-Janeyro olimpiadasida O'zbekiston sportchilari jami 13 (to'rt oltin, ikki kumush va yetti bronza) medalni qo'lga kiritib, 207 jamoa sportchilari orasida 21-o'rinni egalladi. MDH mamlakatlari o'rtasida ham yurtlarimiz Rossiya sportchilaridan keyin ikkinchi, Osiyoda esa Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya vakillaridan so'ng to'rtinchi pog'onani egallaganining o'zi yurtimiz sport salohiyatining nechog'lik o'sganligini tasdiqlab turibdi. Olimpiyachilarimiz XXXI yozgi Olimpiya o'yinlariga *«Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!»*-degan shiorni qalblariga jo qilib, bo'lajak bellashuvlarda yuksak natijalarni qo'lga kiritishga va eng ulug', eng aziz bayramimizga munosib tuhfa bilan qaytishga ahd qilib, yo'lga o'tlanishgan edi.

Yurtimiz sportchilarining yuksak natijalariga to'xtaladigan bo'lsak, iste'dodli «charm qo'lqop» ustalarimiz **Hasanboy Do'smatov (49 kg)**, **SHahobiddin Zoirov (52 kg)**, **Fazliddin G'oyibnazarov (64 kg)**, og'ir atletikachimiz **Ruslan Nurudinov (105 kg)** oltin, bokschilarimiz **SHahram G'iyosov (69 kg)**, **Bektemir Meliqo'ziyev (75 kg)** kumush, dzyudochilarimiz **Diyorbek O'rozboyev (60 kg)**, **Rishod Sobirov (66 kg)**, yunon-rum kurashchimiz **Elmurod Tasmuradov (59 kg)**, bokschilarimiz **Rustam To'laganov (91 kg)**, **Murodjon Ahmadaliyev (56 kg)**, erkin kurashchilarimiz **Ixtiyor Navro'zov (65 kg)**, **Magomed Ibragimov (97 kg)** bronza medallariini qo'lga kiritib, O'zbekiston sport delegatsiyasi yutuq'iga ulkan hissa qo'shdilar. Olimpiya chempioni, degan sharaflil nomga sazovor bo'lgan polvonimiz Ruslan Nurudinovning og'ir atletika bo'yicha olimpiada rekordini yangilagani ko'ksimizni yanada faxr va iftixorga to'ldirdi.

## **19.2. Nomi jahan sporti tarixiga kirgan**

### **O'zbekiston sportchilari**

Mustaqillik davrida mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sporti sohasida olib borilgan oqilona ijtimoiy siyosat natijasida yurtimiz sportchilari ulkan yutuqlarga erishdilar. Qator Osiyo, jahon chempionatlari, Olimpiya o'yinlarida g'olib bo'lib,

yurtimiz dovrug'ini dunyoga tanitdilar va o'zlarining bu kabi yuksak ko'rsatkichlari bilan jahon sporti tarixiga kirdilar.

Davlatimiz o'zining bu kabi farzandlari bilan hamisha faxru iftixor hissini tuyadi. Ular haqli ravishda yurtimizning istiqlol timsollaridir.



**Muhammadqodir Mamatqulovich Abdullayev.** 1973-yil 15-noyabr, Andijon, O'zbekistonda tug'ilgan. O'zbek bokschisi, Olimpiya chempioni. Osiyo chempioni (1997), Osiyo o'yinlari (1998) chempioni, 1999, 2000-yilda jahon chempioni. Jahon (1998), 1999 va 2000-yilda O'zbekistonning eng yaxshi sportchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi. "El-yurt hurmati" ordeni va «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan. 2001-yilda uning rasmi O'zbekiston pochta markasida joylashtirildi. O'zbekiston tarixida birinchi Olimpiya chempioni.



**Armen Bagdasarov.** 1972-yil 31-iyulda tug'ilgan. O'zbekiston-Armaniston dzyudochisi hisoblanadi. U mustaqil O'zbekiston uchun birinchi Olimpiya o'yinlari sovrindori bo'lgan. U 1996-Osiyo dzyudo chempionatida oltin, Olimpiya o'yinlaridakumush medallarni qo'lga kiritdi. Sportdagi yutuqlari uchun Bagdasarov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" unvoniga sazovor bo'ldi. 2001 yilda Armen Bagdasarov o'z faoliyatini yakunlagan va O'zbekiston milliy dzyudo terma jamoasi bosh murabbiyi sifatida faoliyat yuritadi. 2006-yilda u "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport murabbiyi" degan sharfli nomga sazovor bo'lgan.



**Rustam Saidov To`xtasinovich.** 1978-yil 6 fevralda Dushanbeda tug`ilgan. Og'ir vazn toifasidagi o'zbek bokschisi. 2000-yilda u O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutini tamomlagan, murabbiy-o'qituvchi ixtisosligiga ega. 2000-yilda O'zbekiston terma jamoasi uchun o'ynadi. Ikki yozgi Olimpiya o'yinlarida, Sidney o'yinlarida bronza medali sohibi, jahon chempionatining bronza medali sovrindori, Osiyo o'yinlarining ikki karra chempioni, Osiyo chempioni, milliy chempionatlarning bir necha marotaba sovrindori bo`lgan. U "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni, "O'zbekiston iftixori" ordeni bilan taqdirlangan.



**Artur Taymazov.** 1979-yil 20-iyulida Shimoliy osetiyada tug`ilgan. Artur Tajmazov - sport tarixidagi eng bezatilgan jangchilardan biri. Uch karra Olimpiya chempioni (2004, 2008 va 2012), 2000-yil Olimpiadasi kumush medali sovrindori, ikki karra jahon chempioni (2003, 2006), ikki karra Osiyo chempioni (2000, 2011), Osiyo o'yinlarining (2002, 2006, 2010) uch karra chempioni. "El-yurt hurmati" ordeni (2012) bilan taqdirlangan. U oilali, uch nafar farzandi bor.



**Xilko Yekaterina Viktorovna.** 1982-yil 25-martda Toshkentda tug`ilgan. Trampolin bo'yicha O'zbekiston jumper, Olimpiya o'yinlari g'olibi. 2008-yilda Pekindagi Olimpiya o'yinlarida, 2009-yilda jahon chempionatida

bronza medallarni qo'lga kiritdi. 2010-yilda Osiyo o'yinlarida yana bronza medal sohibasi bo'ldi.



**Oksana Chusovitina Aleksandrovna.**1975-yil 19-iyunda Buxoroda tug'ilgan.Gimnastika bo'yicha 1992-yilda Olimpiya chempioni, uch karra jahon chempioni, Yevropa chempioni, Osiyo o'yinlari chempioni. Gimnastika tarixida faqat bir kishi7 ta yozgi Olimpiya o'yinlarida (1992, 1996, 2000, 2004, 2008, 2012, 2016) ishtirok etgan. U – O'zbekiston sportchisi **Oksana Chusovitinadir.**



**Abdulloh Tovashevich Tangriyev.**1981-yil 28-martda Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. U dzyudo va kurash bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Dzyudo bo'yicha mutlaq jahon chempioni (2011). 2008-yilda Olimpiya o'yinlarida, dzyudo bo'yicha jahon chempionatida bronza medalsohibi (2003, 2005, 2009), dzyudo (2003, 2005, 2007, 2008, 2011) da Osiyoning besh karra chempioni, jahon Kurash 2005-chempioni kumush medali sovrindori.



**Sobirov Rishod Rashidovich.**1986-yil 11-sentabrda Buxoro viloyatida tug'ilgan. O'zbek dzyudochisi, ikki karra jahon chempioni, Olimpiada o'yinlarida (2008, 2012 va 2016) uch karra bronza medali sovrindori.Rishod xalqaro sport maydonlarida o'zining birinchi muvaffaqiyatini 2006-yilda nishonladi. So'ng yoshlar o'rtasida Tayvanda o'tgan Osiyo



championatida birinchi o'rinni egalladi. Kattalar o'rtasida Osiyo chempionatida bir yil keyin yosh dzyudochilar shohsupasining ikkinchi pog'onasidan joy oldi. 60 kg vazn toifasida qadar 2008-yil Pekin Olimpiadasida uchinchi o'rinni egalladi. U Buxoro davlat universitetining jismoniy tarbiya fakultetini muvaffaqiyatli tamomlagan. 2010-yilda Tokiodagi jahon chempionatida ilk oltin medalni qo'lga kiritdi. Parijda bir yil keyin, bu muvaffaqiyatni yana takrorladi.

2012-yilda Rishod Sobirov Londonda yozgi Olimpiyadada, 2016-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan XXXI Olimpiyadada bronza medallarsohibiga aylandi.



**Rasulov Elshod Yunusovich.** 07.03.1986 yilda Qo'qon shahrida tavallud topgan. Millati – o'zbek. Davlat mukofotlari: 2007 yil – “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi” unvoni berilgan. 2006 yil Qatar Osiyo o'yinlarida, 2007 yil Mongoliya Osiyo chempionatida, 2009 yil Xitoydagi Osiyo chempionatida, 2011 yil Pokistonda Benazir Bxutto xotirasiga bag'ishlangan Xalqaro turnirlarda oltin medalni qo'lga kiritgan. Shuningdek bir qator xalqaro chempionatlarda sovrinli o'rinlarni egallagan.



**Do'smatov Hasanboy Ma'rufjon o'g'li.** 1993 yil 24 iyunda Buloqboshi tumani Kulla qishlog'ida tug'ilgan. Tumandagi 9-o'rta maktabni tamomlagan. 7 sinfdan 2006-2012 yilgacha Olimpiya zaxiralari kollejida tahsil olgan. 2016 yil Andijon davlat universitetining jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetini tamomlab, mazkur universitetining magistratura bo'limiga o'qishga qabul qilindi. Hasanboy ilk marta 2011 yili yoshlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida zafar quchgan. Shuningdek, 2012 va 2013 yilda ham mamlakat birinchiliga tengsiz deb topilgan. O'sha yili O'zbekiston

kubogi bahslarida ham g'olib chiqqan. Bundan tashqari ko'plab xalqaro turnirlarda g'olib sovrindorlar qatoridan o'rin olib kelgan Hasanboy 2013 yili Qozonda (Rossiya) o'tgan yozgi Universiadada oltin medalga ega chiqqan. Shuningdek, 2015 yili Bangkokda tashkil etilgan Osiyo chempionatida shohsupaning eng yuqori pog'onasidan o'rin olgan. Bokschimiz Olimpiya o'yinlari-2016 yo'llanmasini Xitoyning Kuinan shahrida bo'lib o'tgan Osiyo va Okeaniya qo'shma lisenzion chempionatida qo'lga kiritish bilan birga oltin medalga ham sazovor bo'lgan.

Hasanboy Do'smatov 2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Olimpiya o'yinlarida boks bo'yicha 49 kg vaznda oltin medalga sazovor bo'ldi va bu bilan jahon sporti tarixiga kirdi. Shu bilan birga, u ushbu olimpiyaning eng texnik bokschisi deb topildi.



**Zoyirov Shahobiddin Shokirovich.** 1993-yil3-martda Buxoro viloyatida tug'ilgan. 2011-yilda u Buxoro Olimpiya zaxiralari kollejinitamomlagan. 2012-yildan boshlabO'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi. 2014-yildaJanubiy Koreyaning Incheon shahrida XVII Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Bundau kumush medalniqo'lga kiritdi.Xitoydao'tkazilganOsiyovaOkeaniyayo'llanmaturniridao'z mahoratini namoyon etgan SHaxobiddinZoirov“Rio-2016” XXXI yozgi olimpiya o'yinlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi va u olimpiya o'yinlariga astoydil tayyorgarlik ko'rdi.

Nihoyat, bokschimiz SHaxobiddin Zoirov 2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Olimpiya o'yinlarida boks bo'yicha 52 kg vaznda oltin medalga sazovor bo'ldi va o'z nomini jahon olimpiya o'yinlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishini ta'minladi.



**G'oyibnazarov Fazliddin Hasanboyevich.** 1991 yil 16 iyunda Toshkent viloyatida tug'ilgan. U bolalikdan boks bilan shug'ullanib keladi. 2008 yil Ukrainada Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Xalqaro Turnirda 1-o'rinni, 2009 yil Rossiyada Yuniyorlar o'rtasida tashkil etilgan VII Xalqaro Turnirda ham 1-o'rinni, 2011 yilda Germaniyada o'tkazilgan "Gemistr Kubogi" Xalqaro Turnirida 2-o'rinni egallagan. 2012 yilda Vengriyada Istvan Bokskom xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro Turnirda 2-o'rinni egallab, kumush medalga sazovor bo'lgan. Shuningdek, u yana bir qator xalqaro musobaqalarning g'olibi va sovrindori hisoblanadi.

2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Olimpiya o'yinlari Fazliddin G'oyibnazarovning ham sportdagi faoliyatida tarixiy sahifalarni ochdi. U 64 kg vazn bo'yicha barcha raqiblarini mag'lub qilib, o'zining tengsizligini isbotladi va olimpiya o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritdi.



**Nurudinov Ruslan SHamilevich.** 1991 yilning 24 noyabrda Andijon viloyatining Xonobod shahrida tug'ilgan. 7-sinfga qadar Xonobod shahridagi 1-maktabda, keyin esa Toshkent shahar Olimpiya zaxiralari kollejida og'ir atletika yo'nalishida tahsil olgan.

2013 yil Andijon davlat universitetining jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetini bakalavr ixtisosligi bo'yicha, 2016 yil mazkur universitetning jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetini magistr ixtisosligi bo'yicha tamomlagan.

2016 yil 2008 yilda Yoshlar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida 3-o'rinni, 2009 yilda BAAning Dubay shahrida o'tkazilgan Osiyo birinchiligida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan. Shuningdek, Toshkent

shahrida Yoshlar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo kubogida ham o'z vazni bo'yicha g'olib bo'lgan.

2010 yilda Antaliyada kattalar orasida o'tkazilgan jahon chempionatida 10-o'rinni, shuningdek, Xitoyda o'tkazilgan Osiyo o'yilarida 5-o'rinni egalladi. 2011 yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida sovrinli o'rinlarni zabt etib, olimpiya o'yinlari uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2012 yil Koreyada kattalar orasida o'tkazilgan chempionatda birinchi marta Osiyo chempioni bo'ldi. 2012 yilda o'tkazilgan London olimpiadasida esa 4-o'rinni egalladi. 2013 yilda Qozog'istonning Astana shahrida o'tkazilgan kattalar orasidagi Osiyo birinchiligida, Qozon shahrida o'tkazilgan Jahon universiadasida, Polsha davlatida o'tkazilgan jahon chempionatlarida oltin medallarni qo'lga kiritib, o'zbek pahlavonlarining dovrug'ini olamga yoydi. 2014 yil Olmaota shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida yo'nalishlar bo'yicha oltin va kumush medallariga sazovor bo'ldi. 2016 yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Olimpiya o'yinlari Ruslan Nurudinov uchun ham o'z mahoratini yuksak darajada namoyon etish uchun qulay imkoniyat bo'ldi va u eng yuqori natijani qayd etib, olimpiya o'yinlarining oltin medaliga egalik qildi. Bundan tashqari, u oltin medal bilan kifoyalanmay olimpiya rekordini ham yangiladi. Ikki mashq natijasiga ko'ra, Nurudinov umumiy 431 kg og'irlik ko'tardi. Dast ko'tarishda – 194 kg, siltab ko'tarishda – 237 kg. Shu bilan bir vaqtda Ruslan siltab ko'tarish bo'yicha yangi jahon rekordini o'rnatdi. Bu bilan u nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro Olimpiya tarixida o'zining yorqin sahifasini ochdi.

Mukofotlari: “O'zbekistonda xizmat ko'rstagan sportchi (2013), “O'zbekiston iftixori” (2013), “Yilning eng yaxshi sportchisi” (2013)



**G'iyosov SHahram Jamshidovich.** 1993 yil 07 iyulda Buxoro viloyatining Buxoro shahrida tug'ilgan. 1999 yilda 28-umumiy o'rta ta'lim maktabini yakunlab, 5-sinfdan 12-sport maktabida tahsilni davom ettirgan. 9-sinfga qadar sportning boks turi bilan muntazam shug'ullangan. Keyingi tahsilni Buxoro viloyati Olimpiya zaxiralari kollejida davom ettirgan. 2013 yildan O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining boks yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilingan. U 2003 va 2004 yillarda respublika musobaqalarida ishtirok etib, ularda g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2012 yilda Ukrainada o'tkazilgan xalqaro turnirda 64 kg vazn toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2014 yilda Yakutiya'da o'tkazilgan Butunjahon talabalar universiadasida oltin medalga sazovor bo'lgan. Shuningdek, 2014 yil oxirida Belayarskiy shahrida jahon kubogi egasiga aylangan. 2015 yilda O'zbekistonning eng yaxshi sportchisi deb topilgan. 2016 yil 25 martda Xitoyda o'tkazilgan Osiyo mintaqasi bo'yicha bahslarda olimpiyayo'llanmasini qo'lga kiritgan.

SHahram G'iyosov 2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Olimpiya o'yinlarida boks bo'yicha 69 kg vaznda kumush medalga sazovor bo'ldi va bu bilan jahon sporti tarixiga kirdi.



**Meliq'oziyev Bektemir Ro'zmatjon o'g'li.** 1996 yil 8 aprelda Farg'ona viloyatining Furqat tumanida tug'ilgan. Tumandagi 20-umumiy o'rta ta'lim maktabini tugatib, 2012 yildan 2015 yilgacha Qo'qon pedagogika kolleji Jismoniy tarbiya yo'nalishida tahsil olgan. Kollejda tahsil olish chog'ida u sportning boks turi bilan muntazam shug'ullandi. Olib borilgan mashqlar o'zining samarasini berdi. U 2014 yilning o'zida qator nufuzli xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Jumladan, Tailandning Bangkok shahrida

Yoshlar o‘rastida o‘tkazilgan Osiyo chempionatida, Bolgariyaning Sofiya shahrida o‘tkazilgan jahon chempionatida, Xitoyning Nankin shahrida o‘tkazilgan 2-o‘smirlar olimpiadasida mutlaq g‘olib bo‘lib, oltin medallarni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, 2014 yilda Namangan viloyatida o‘tkazilgan “Barkamol avlod” sport o‘yinlarida g‘olib bo‘lgan.

Bektemir Meliqo‘ziyev 2015 yilda Qo‘qon davlat pedagogika institutining Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetiga o‘qishga qabul qilingan. 2015 yilda Tailandning Bangkok shahrida kattalar o‘rtasida o‘tkazilgan Osiyo chempionatida oltin, Qatarining Doha shahrida kattalar o‘rtasida o‘tkazilgan jahon chempionatida kumush medallarni qo‘lga kiritib, olimpiya o‘yinlari uchun yo‘llanma oldi.

Bokschimiz 2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janyro shahrida bo‘lib o‘tgan XXXI Olimpiya o‘yinlarida boks bo‘yicha 75 kg vaznda kumush medalga sazovor bo‘ldi va bu bilan jahon sporti tarixiga kirdi.

Davlat mukofotlari: “O‘zbekiston belgisi”ko‘krak nishoni (2014), “Shuhrat” medali (2015), “O‘zbekiston iftixori”faxriy unvoni (2016).



**Diyorbek O‘rozboyev.**1993 yilning 17 avgust kuni Xorazm viloyatining Shovot tumanida tavallud topgan. Xalqaro toifadagi sport ustasi. Murabbiylari: Jamshid Xudoyberganov va Vyacheslav Pereteyko. U 1-3 aprel kunlari Samsun(Turkiya)dagi Gran-pri Xalqaro turnirida bronza, 15-17 aprel kunlari Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida kumush, 6-8 mayda Boku(Ozarboyjon)da o‘tkazilgan Xalqaro turnirda bronza, 11-15 mayda Astanada (Qozog‘iston) o‘tkazilgan Xalqaro turnirda bronza medalini qo‘lga kiritdi.

Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o‘tkazilgan XXXI yozgi Olimpiya o‘yinlarida og‘irlik vazni 60 kg.gacha bo‘lgan polvonlar bellashuvida tatamiga tushgan iste‘dodli sportchimiz Avstraliya, Shveysariya, Braziliya hamda Gruziya terma jamoasi a‘zolarini mag‘lub etib, bronza medali sovrindori bo‘ldi.

“Birinchilardan bo‘lib bahslarga kirishish juda ham mas’uliyatli. Men bunga ham jismonan, ham ruhan tayyor edim. Biz sportchilarga Davlatimiz va xukumatimiz tomonidan qaratilayotgan alohida e’tibor o‘z so‘zini aytmoqda. Odatda sportchilar mana shunday g‘alabalarni biror-bir sana yohud yaqinlaridan biriga bag‘ishlaydilar. Men Olimpiya o‘yinlaridagi birinchi medalimni Davlatimiz mustaqilligining 25 yilligiga bag‘ishlayman. Xalqimiz, Prezidentimiz ishonchlarini oqlaganligimdan xursandman. Fursatdan foydalanib meni doimo qo‘llab-quvvatlab turadigan oilamga, ustozlarimga ham o‘z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Bu barchamizning yutug‘imizdir”, - deydi Diyorbek O‘rozboyev.

Shu tariqa, mamlakatimiz Istiqlolga erishgandan buyon yozgi Olimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan medallar soni 21taga yetdi. Shundan 5 tasi (ikkita kumush va uchta bronza) dzyudo ustalarimizga tegishlidir.



**Elmurod Tasmuradov.**1991 yil Toshkent viloyatida tug‘ilgan.Yunon-rum kurashi bo‘yicha iste’dodli sportchi. 22-24 aprelda Ulan-Batorda (Mo‘g‘uliston) o‘tkazilgan Xalqaro turnirda bronza,14-18 yanvarda Tyumenda (Rossiya) o‘tkazilgan Xalqaro turnirda kumush, Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o‘tkazilgan XXXI yozgi Olimpiya o‘yinlarida yunon-rum kurashi bo‘yicha **59 kg vaznda** bronza medallarini qo‘lga kiritgan va yurtimizning dovrug‘ini dunyoga taratgan.



**To‘laganov Rustam To‘lqin o‘g‘li.** 08.10.1991 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Yurtimizning mahoratli bokschisi. 2011 Qirg‘izistonda Sobiq Ittifoq Qahramoni D.Shopokov xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan Xalqaro Turnirda 1-o‘rin, 2012 yilda Vengriyada Istvan Bokskom



xotirasiga bag'ishlangan 56-Xalqaro Turnirda, Ukrainadagi "Ordos-2012" Xalqaro Turnirida 2-o'rinlarni egallab, kumush medallariga sazovor bo'lgan.

2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Olimpiya o'yinlari bokschimiz Rustam To'laganovga ham umidli onlarni nasib etdi. U sportning boks turida 91 kg vazn bo'yicha Olimpiya o'yinlarining bronza medaliga sazovor bo'ldi.



**Ahmadaliyev Murodjon Qahhor o'g'li.** U 02.11.1994 yilda Namangan viloyatida tavallud topgan. Yurtimizdagi iste'dodli bokschilardan biri. U 2011 yilda M.Xayrutdinov xotirasiga bag'ishlangan Xalqaro Turnirda 2-o'rinni, 2012 yil Rossiyada Nikolay Avlyukov xotirasiga bag'ishlangan 5-Xalqaro Turnirda 1-o'rinni. 2012 yilda Ukrainada "A" sinfli Klichko aka-ukalar sovrini uchun o'tkazilgan XIV Xalqaro Turnirda 3-o'rinni egallagan.

2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI Olimpiya o'yinlari bokschimiz Murodjon Ahmadaliyevning o'ziga xos imkoniyatlarini namoyon etdi. U sportning boks turida 56 kg vazn bo'yicha Olimpiya o'yinlarining bronza medaliga sazovor bo'ldi.



**Ixtiyor Karimovich Navro'zov.** 1989 yil 5 iyulda Buxoroda tug'ilgan. O'zbekistonlik erkin kurashchi, 2012 yil yozgi Olimpiada o'yinlari ishtirokchisi, 2015 yil Jahon chempionatida kumush medal sovrindori, ko'pkarra kontinental birinchiligi sovrindori, xalqaro toifadagi sport ustasi.

Ixtiyor kurash bilan 10 yoshidan shug'ullanishni boshlagan. Navro'zovni ushbu yo'nalishga qarindoshi olib kelgan. 2001 yilda o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempioni bo'lgan. O'smirlar darajasidagi yutug'i Ixtiyorga



Respublika Olimpiya zaxiralari kollejida ta'lim olish imkoniyatini yaratdi. 2008 yilda o'smirlar o'rtasida Jahon chempionatida bronza medalini qo'lga kiritdi. 2010 yil Navro'zov Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyat qozinishiga yaqin qolganda u uchinchi o'rinni qozog'istonlik Leonid Spiridonovga bo'shatib berishga majbur bo'ldi. 2012 yil mart oyida Ixtiyor g'oliblikni qo'lga kiritish uchun Osiyo saralash musobaqasida ishtirok etdi va London Olimpiyada o'yinlarida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

2012 yil avgust oyida Ixtiyor Navro'zov Londonda bo'lib o'tadigan yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etdi. Ixtiyor dastlabki 4 tur chorak finalining 3 raundida Sushil Kumarga imkoniyatni boy berdi. Bu mag'lubiyatlardan so'ng Navro'zov o'z chiqishini davom etirdi.

Ixtiyorning birinchi raqibi Ramazan SHaxin bronza medali bilan Olimpiya chempioni bo'ldi. O'zbek kurashchisining raqibi jiddiy tayyorgarlik ko'rgani bilinib turardi, shuning uchun qarshilik qila olmadi va keyingi kurashlar va medallar uchun raqobatdan chiqib ketdi. 2014 yil sentyabr oyida Ixtiyor Navro'zov Osiyo o'yinlarida bronza medalini qo'lga kiritdi. O'zbek kurashchimizning eng kata muvaffaqiyati 2015 yilda bo'ldi. Navro'zov AQShning Las-Vegasdagi Jahon chempionatida 65 kg vazn toifasidagilar bilan finalgacha chiqib oldi, biramasiga Jahon chempionatining ikki sovrindorlari - mongollik kurashchi Ganzorigiyn Mandaxnaran va rossiyalik kurashchi Soslan Ramonovlarni mag'lubiyatga duchor qildi.

Ma'lumot uchun:

2007-2011 y. - O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti talabasi.

2012-2014 y. - O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti magistraturasi talabasi.

2007 y.- Erkin kurash bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi.

Ixtiyor Karimovich Navro'zov 2016 yil Rio de Janeyrodagi Olimpiya o'yinlarida ishtirok yo'llanmasini qo'lga kiritgan. U mongoliyalik Ganzorigiyn Mandaxnaran raqibi ustidan g'alaba qozanib, 2016 yil Rio de Janeyrodagi Olimpiya o'yinlarida bronza medalini qo'lga kiritdi.



**Magomed Ibragimov.** O`zbekiston terma jamoasining erkin kurashchisi. 1983-yil 18-avgustda Dog`iston Respublikasining Gunuh Charodinsky tumanida tug`ilgan. 1999-yilda u Maxachqal`adagi 18-maktabni bitirgan. 2004-yilda u DSUning qonun fakultetini tamomlagan. Erkin kurash bo'yicha 1990-yildan beri shug`ullana boshlagan. Bosh murabbiyi: Anvar Magomedgadzhiev Abdulayevich.

22-24 aprelulan-Batorda (Mo`g`uliston) Xalqaro turnirda, Afina – 2004 Olimpiya o`yinlarida kumush medallari sovrindori, 2004-yilda Osiyo chempioni, 2016 yil Rio de Janeyrodagi Olimpiya o`yinlarida erkin kurash bo'yicha 97 kg vaznda bronza medali sohibi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. XXXI yozgi Olimpiya o`yinlarida necha nafar hamyurtimiz ishtirok etgan?

2. “Sport olamidagi har qanday yutuq o`z-o`zidan kelmaydi. Sport maydonlarida erishiladigan yutuqlar, avvalo, shu yo`lda tinimsiz intilib, kurashib yashaydigan insonning yutug`i, ayni vaqtda shu insonni tarbiyalab voyaga yetkazgan jamiyatning yutug`idir”,-deya aytilgan fikrlar muallifi kim?

3. Rio-de-Janeyro olimpiadasida O`zbekiston sportchilarining erishgan yutuqlari haqida gapiring.

4. Nomlari jahon sporti tarixiga kirgan O`zbekiston sportchilari haqida ma`lumot bering.

5. Olimpiada o`yinlari va ularda mamlakatimiz sportchilarining erishayotgan yutuqlari haqida gapiring.

## SAVOL-JAVOB METODI

### Qo‘llashdan maqsad:

- mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash;
- savol-javob orqali o‘quvchilarni aniq, lo‘nda, tushunarli fikrlash, o‘z fikrini bayon qilishga o‘rgatish;
- o‘quvchilar o‘rtasida hamkorikda ishlash, ahil va inoqlik sifatlarini shakllantirish va h.k.

### “Savol-javob” metodining tuzilishi:

O‘qituvchi mohiyati yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi.

**Masalan: Yurtimiz sportchilarining xalqaro muvaffaqiyatlari haqida**

O‘qituvchi savollarni o‘quvchilar e‘tiboriga havola etadi.

**Masalan: Quyidagi chempionlar ichidan oltin medal sohiblarini toping:**

**Hasanboy Do‘smatov, Rishod Sobirov, Ruslan Nurudinov va h.k.**

O‘quvchilar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini namoyish etadilar. **Mezonlar: “a’lo”, “yaxshi”,**

O‘qituvchi o‘quvchilarning savol-javoblardagi ishtirokini tahlil qiladi, baholaydi va mashg‘ulotga yakun yasaydi.

**Xulosa: O‘zbekistonlik olimpiya chempionlari – nomlari tarixga kirgan sportchilar.**

**Izoh:** Savol-javoblar o‘qituvchi tomonidan aniq, izchil, mazmunan tugal asoslanishi, o‘quvchilarda xulosaga kelishda noaniqliklar keltirib chiqarmasligi kerak.

**ILOVALAR:**  
**Test topshiriqlari:**

1. Olimpiya o'yinlarining vatani qayer?  
A).Rim  
V). Yunoniston  
S).Misr  
D).Olimp
2. Panafiney stadioni miloddan avvalgi nechanchi yilda va kim tomonidan qurilgan?  
A) 329 yilda davlat boshqaruvchisi Afin Likurg tomonidan  
B) 329 yilda shahzoda Gerakl tomonidan  
S) 334 yilda gladiator Spartak tomonidan  
D) To'g'ri javob yo'q.
3. Qadimda Olimp o'yinlarining g'oliblari qanday mukofot olgan?  
A).Mukofot olmagan.  
V).Oltin mo'yna olgan.  
S).Muqaddas zaytun daraxti barglaridan to'qilgan gulchambar olgan.  
D). V va S
4. Asosan musiqa jo'rligidagi raqslardan tashkil topgan qadimiy olimpiya o'yinlari qanday nomlangan?  
A)sxolastika  
V)pankratin  
S)Orxestrika  
D) Hammasi
5. Qadimiy olimpiya o'yinlarini taqiqlagan hukmdor kim?  
A) Rim Imperatori Feodosey-I  
V) Kampanella VI  
S) Sezar  
D) To'g'ri javob yo'q
1. Olimpiya shahri chizmasini tuzgan arxeolog lord kim?  
A) Stankof  
V) Stiven  
S) Patrokl  
D) Patrik Leo
2. Fransuz jamoat arbobi Per de Kuberten qanday tarixiy ishni amalga oshirgan?  
A) Olimpiya haqida tarixiy roman yaratgan  
V) Olimpiya qahramonlari haqida film ssenariysini yozgan  
S) Olimpiya o'yinlarini qayta tiklashda bosh tashabbuskor bo'lgan  
D) Hammasi
3. Gerakl kimning o'g'li?  
A) Enomayning  
V) Zevsning  
S) Poseydonning  
D) Kronosning

4. Olimpiya o‘yinlarining boshlanishidan avval 7 kun va yakunlanganidan so‘ng 7 kun davomida amal qilish lozim bo‘lgan hujjat nomi qanday?

A) Olimpiya kongressi

V) Olimpiya sulhi

S) Olimpiya kelishuvi

D) Olimpiya shartnomasi

5. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi Olimpiya o‘yinlari doirasidagi musobaqalar o‘tkazilayotgan barcha obyektlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining bayrog‘i ko‘tarilishi haqidagi qarorni qachon qabul qild?

A) 1988 yilda

V) 1998 yilda

S) 1938 yilda

D) 1978 yilda

1. Qadimgi olimpiya joyini kim aniqlagan?

A) fransuz olimi Bernard de Monfakon

V) nemis olimi Ioaxim Vinkelmal

S) ingliz arxeologi Richard Gandler

D) hammasi

2. Qadimgi olimpiya joyidagi arxeologik qazishlarning natijalari matbuot nashrlarida qachon e‘lon qilinadi?

A) 1887 yilda

V) 1987 yilda

S) 1697 yilda

D) 1880-1881 yillarda

3. Kim bir qancha yillar Fransuz sporti uyushmasida kotib bo‘lib xizmat qilgan edi? A) Bernard de Monfakon

V) Richard Gandler

S) Per de Kuberten

D) Demetrius Vikelas

4. “Sportga oda” poemasi uchun oltin medal sohibi bo‘lgan adib kim edi?

A) Bernard de Monfakon

V) Richard Gandler

S) Per de Kuberten

D) Demetrius Vikelas

5. Olimpiya harakati tarixida “I Olimpiya Kongressi” deb atalgan tadbir qachon va qayerda o‘tkazilgandi?

A) 1894 yil 23 iyunda Parijdagi Sarbonna universitetida

V) 1894 yil 23 iyunda Luvrdagi san’at muzeyida

S) 1894 yil 23 iyunda London shahrida

D) To‘g‘ri javob yo‘q.

1. Per de Kuberten Parij universitetida o‘qib, qanday mutaxassisliklarga ega bo‘lgan edi?

A) iqtisod, tibbiyot bakalavri

V) falsafa, tarix magistri

S) sanat, fan va huquq bakalavri

D) A va V

2. Per de Kubertenga tegishli ma'ruzani belgilang.

A) "Olimpiyaning uyg'onish ma'ruzasi".

V) BMTning 5 yillik ma'ruzasi

S) "Taqdirdagi o'yinlar" ma'ruzasi

D) A va V

3. Per de Kuberten Olimpiya o'yinlarining asosiy tamoyillari, qoidalari va nizomlarini qanday nomlagan?

A) Olimpiya tamoyillari

V) Olimpiya xartiyasi

S) Kongress qoidalari

D) Olimpiya Nizomi

4. Olimpiya harakati tarixida 1896 yil qanday nomlangan?

A) Olimpiya uyg'onish yili

V) Xalqaro olimpiya yili

S) Olimpiya madaniyati yili

D) Zamonaviy 1-Olimpiya o'yinlari yili

5. Kubertening takidlashicha, qaysi sohalar olimpiya harakati deb nomlanadigan mustahkam qotishmaga birlashishi lozim?

A) sport, fan

V) madaniyat, san'at

S) siyosat, ishlab chiqarish

D) A va V

1. 1829 yil Angliyada Kembridj va Oksford universitetlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqa sportning qaysi turi bo'yicha edi?

A) eshkak eshish (greblya)

V) velosport

S) futbol

D) kurash

2. 1769 yildajahonda birinchi marotaba chang'ida yugurish musobaqasi qayerda o'tkazilgan edi?

A) Fransiyada

V) Rossiyada

S) Oslo shahri yaqinida

D) AQShning Ayova shtatida

3. Xalqaro velosport uyushmasi (USI) qachon ta'ris etildi?

A) 1800 yilda

V) 1900 yilda

S) 1901 yilda

D) 1857 yilda

4. 1881 yilda jahonda birinchi marotaba qaysi sport uyushmasi tashkil qilingan?

A) Osiyo qilichbozlik uyushmasi

V) Jahon gimnastika uyushmasi

S) Yevropa gimnastika uyushmasi

D) A, V, S

5. SHahar nomi bilan ataladigan sport turini ayting.

A) dzyudo

V) boks

S) atlanta

D) regbi

1. I Olimpiya o'yinlari qachon va qayerda o'tkazilgan?

**A) Afina, 1896 yil, 6 aprel**

V) Afina, 1897 yil, 7 aprel

S) London, 1896 yil, 10 aprel

D) Rim, 1896 yil, 6 aprel

2. Uch hatlab sakrash bo'yicha 13 metr 71 santimetr natija ko'rsatgan Jeyms Konnoli kim edi?

A) asli bokschi edi

V) asli musiqachi edi

**S) AQShdagi Garvard universitetining chempioni edi**

D) Oksford universiteti talabasi edi

3. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining asosiy hujjati qaysi hujjat?

A) Bosh assambleya hujjati

V) Kongress shartnomalari

S) A va V

**D) Olimpiya xartiyasi**

4. Olimpiya shiori (deviz)ni belgilang.

A) "Balandroq, kuchliroq tezroq,!" ("Sitius, fartius, altius!")

**V) "Tezroq, balandroq, kuchliroq!" ("Sitius, altius, fartius!")**

S) "Tezroq, chaqqonroq, kuchliroq" ("Sitius, altius, fartius!")

D) To'g'ri javob yo'q.

5. Olimpiya gimni qachon va kimlar tomonidan yaratilgan?

**A) 1896 yilda, Kostas Palamos so'zi va Spiros Samar musiqasi**

V) 1875 yilda, Spiros Samar so'zi, Kostas Palamos musiqasi

S) 1900 yilda, Kostas Palamos so'zi va Spiros Samar musiqasi

D) 1896 yilda, Esxil so'zi, Antonio musiqasi

**VII Bob bo'yicha test topshiriqlari va nazorat uchun savollar:**

1. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) qachon va kimning tashabbusi bilan ta'sis etilgan?

**A) 1894 yil 23 iyunda fransuz jamoat arbobi Per de Kuberten tomonidan**

V) 1858 yil 25 iyunda fransuz jamoat arbobi Per de Kuberten tomonidan

S) To'g'ri javob yo'q.

D) 1894 yil 10 mayda Demetrius Vikelas tomonidan

2. Olimpiya harakatining Oliy rahbar organining toping.

A) Milliy Olimpiya harakati assosiasiyasi

V) Bosh Assambleya

**S) Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ)**

D) Hammasi

3. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi tomonidan qachon tan olingan?

A) 1991 yilda

V) 1992 yilda

**S) 1993 yilda**

D) 1994 yilda

4. Olimpiya kongresslari necha yilda bir marta o‘tkaziladi?

A) 10 yilda bir marta

**V) 8 yilda bir marta**

S) 4 yilda bir marta

D) har yili tashkil qilinadi

5. Qaysi qatorda Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidentigiga saylanmagan nomzodlar ko‘rsatilgan?

A) Vikelas Demetrius, Baron Per de Kuberten

V) Baye-Latur Anri-de, graf; Edstrem Yuxannes Zigfrid

S) Brendej Eyveri, Killanin Maykl Morris

**D) Hammasi saylangan**

1. Per de Kuberten 1892 yil 25 noyabrda Sarbonnada o‘qib eshittirgan mashhur maqolaning nomini ayting.

A) “Olimpiyaga bag‘ishlov” ma’ruzasi

**V) “Olimpiyaning” uyg‘onish ma’ruzasi**

S) “Olimpiya – tinchlik timsoli” ma’ruzasi

D) A va S

2. Mash’alni tantanali ravishda yoqish marosimi kim tomonidan taklif qilingan edi?

**A) Per de Kuberten tomonidan**

V) Demetrius Vikelas tomonidan

S) Edstrem Yuxannes Zigfrid

D) Brendej Eyveri

3. Olimpiya qasamyodi birinchi bor qachon, qayerda va qaysi olimpiya o‘yinlarida yangragan?

A) 1910 yil, London, VI olimpiya o‘yinlari

**V) 1920 yil, Antverpen, VII olimpiya o‘yinlari**

S) 1915 yil, Parij, V olimpiya o‘yinlari

D) 1925 yil, AQSH, IV olimpiya o‘yinlari

4. “ ...olimpiya o‘yinlari dasturidagi musobaqalar o‘tkazilayotgan sport maydonlari va zallari ichki qismida reklamaga yo‘l qo‘yilmaydi...” Ushbu qoida qaysi hujjatdan olingan?

A) Olimpiya shartnomasi

V) Olimpiya musobaqalari

**S) Olimpiya xartiyasi**

D) A, V

5. Olimpiya harakatida sportchilar salomatligi holati ustidan hamda samarali doping nazoratini amalga oshirish maqsadida ular uchun nima joriy etiladi?

A) Qon tahlili



V) Tibbiy ko‘rik

S) A, V

**D) maxsus pasport joriy etiladi**

1. 1847 yilda Peterburgda birinchi rasmiy musobaqa qaysi sport turi bo‘yicha o‘tkazilgan?

**A) parus bo‘yicha**

V) biatlon bo‘yicha

S) o‘q otish bo‘yicha

D) A, V, S

2. 1860 yilda Angliyada qaysi muassasalar o‘rtasida musobaqalar o‘tkazish an‘anaga aylangan edi?

A) kollejlarda o‘rtasida

**V) universitetlar o‘rtasida**

S) federasiyalar o‘rtasida

D) A va V

3. AQShda qaysi o‘yin Amerika futboliga aylangan?

A) qo‘l to‘pi

V) armrestling

**S) regbi**

D) badminton

4. Qachon jismoniy mashqlar, sport, gimnastika, o‘yinlar va sayohatlarni (turizm) bir-biridan ajratish (differensiya) va turlarga bo‘lish tizimiga asos solindi? A)

XV asr oxiriga kelib

V) XX asr oxiriga kelib

S) XX asr o‘rtalariga kelib

**D) XIX asr oxirlariga kelib**

1. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidenti II Olimpiada barbod bo‘lmasligi uchun yagona imkoniyatni qo‘lladi. U qanday imkoniyat edi?

A) Parijda tashkil etilayotgan Xalqaro ko‘rgazmadan foydalanishni taklif etdi.

V) Olimpiya o‘yinlarini ko‘rgazma doirasida o‘tkazishga qaror qilindi.

S) O‘tkazmaslikka qaror qilindi.

**D) A va V**

2. “Betartib Olimpiada” nomini olgan Olimpiada o‘yinlarini ayting.

**A) Parijdagi II Olimpiada o‘yinlari**

V) Londondagi XXX olimpiada o‘yinlari

S) Sidneydagi XXX olimpiada o‘yinlari

D) V va S

3. Sent-Luis olimpiadasi ko‘pincha qanday nom bilan aytiladi?

A) “Betartib o‘yinlar”

V) “Afsonaviy o‘yinlar”

**S) “Mahalliyashtirilgan o‘yinlar”**

D) “Faol harakatli o‘yinlar”

4. Ilk marotaba olimpiya o‘yinlarining tantanali ochilishi va yopilish marosimlari qaysi olimpiada o‘yinlarida o‘tkazildi?

A) Londonda o'tkazilgan V Olimpiada o'yinlarida

V) Tailandda o'tkazilgan V Olimpiada o'yinlarida

S) Texasda o'tkazilgan V Olimpiada o'yinlarida

**D) Stokgolmda o'tkazilgan V Olimpiada o'yinlarida**

5. 1933 yilda fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi olmon xalqining jismoniy tarbiyasi tarixida eng mudxish davrning boshlanishi bo'ldi. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga raxbarlik qilish ishlari imperiya qaysi sport kommissariga topshirildi?

A) Bu vazifani Gitler o'z zimmasiga oldi.

V) Gitler o'z yordamchisiga yukladi.

**S) CHammer Ostenga topshirildi.**

D) A va V

6. Germaniya rahbariyatining tegishli kafolatlari va va'dalariga qaramasdan 1936 yil iyun oyida Parijda Fransiya, Ispaniya, AQSH, Angliya, Chexoslovakiya, Belgiya, Shveysiya, Shveysariya, Daniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlar vakillari ishtirokida qanday anjuman o'tkazildi?

**A) "Olimpiya g'oyalari himoya qilish anjumani"**

V) "Fashizmga qarshi kurash anjumani"

S) Germaniya davlatini olimpiya o'yinlaridan chetlatish haqidagi simpozium

D) V va S

1. 1944 yilda tuzilgan muvaqqat Markaziy Sport kengashi qaysi respublikaga tegishli edi?

**A) Bolgariya xalq Respublikasiga**

V) Yugoslaviya mamlakatiga

S) Italiya davlatiga

D) Germaniya davlatiga

2. 1954 yilda mart oyidan boshlab Xitoy davlat muassasalarida

A) Sport uyushmalari tashkil etila boshlandi.

**V) Ish paytida majburiy suratda bajariladigan badantarbiya pauzalari joriy etildi.**

S) kichik olimpiya o'yinlari joriy etildi.

D) A va S

3. 1949-1950 yillarda qariyb 9 million harbiy xizmatga chaqirilish yoshidagi amerikaliklar

A) olimpiya o'yinlariga safarbar qilindi

V) harbiy harakatlarga majburan yuborildi

**S) harbiy xizmatni o'tashga yaroqsiz deb topildi.**

D) "Lochin" olimpiya maktablariga qabul qilindi.

4. «SKONE» sport Soyuzi qaysi davlatlarning sportchi maktab o'quvchilarini o'zida birlashtirgan edi?

A) Fransiya va Germaniya

V) Sobiq Ittifoq va Portugaliya

S) Gresiya va Bryussel

**D) Skandinaviya mamlakatlari va Finlyandiya**

5. 1984 yil Los Anjeles (AQSH)da o'tkazilgan XXIII Olimpiya o'yinlarida nima uchun Sobiq Ittifoq ishtirok etmadi?

A) Bu AQShga boykot (isyon) javobi edi.

V) AQSH hukumati sportchilar xavfsizligini o'z bo'yniga olmadi.

S) Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Sobiq Ittifoqni o'yinlardan chetlatdi.

**D) A va V**

6. Xalqaro og'ir atletika federasiyasi prezidenti Bruno Nyuberg uni shtanga ko'tarishdagi texnikasi mukammalligi sababli "og'ir atletika professori",-deb atagan. U kim edi?

A) Jeyms Bredford

**V) Yuriy Vlasov**

S) Anton Sergeyev

D) Ivan Maksimov

1. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1969 yilda qaysi Assosiasiyaini tan olgan?

**A) Milliy olimpiya qo'mitalari assosiasiyasini**

V) Xalqaro futbol Assosiasiyasini

S) Og'ir atletika federasiyasini

D) Xalqaro boks federasiyasini

2. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining rahbar organlarini **belgilang.**

A) Kongress, Assambleya, Ijro apparati

**V) Bosh assambleya, Ijroiyy qo'mita, Ijroiyy qo'mita byurosi**

S) Hisobot-saylov assambleyasi, Bosh assambleya

D) Hammasi

3. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining har to'rt yilda o'tkaziladigan yig'ilishi nima deb ataladi?

A) Bosh assambleya

V) Kongress

**S) Hisobot-saylov assambleyasi**

D) Hay'at assambleyasi

4. O'zbekiston delegasiyasi mustaqil jamoa sifatida birinchi marta qachon va qaysi olimpiadada ishtirok etgan?

**A) 1994 yilda Norvegiyaning Lillixammer shahrida o'tkazilgan XVII qishki Olimpiya o'yinlarida**

V) 1992 yilda Norvegiyaning Lillixammer shahrida o'tkazilgan XVII qishki Olimpiya o'yinlarida

S) 1994 yilda Angliyaning London shahrida o'tkazilgan XVI qishki Olimpiya o'yinlarida

D) To'g'ri javob yo'q.

5. Hamyurtimiz Lina Cheryazova fristayl sport turi bo'yicha barcha raqiblarini ortda qoldirib, qaysi Olimpiya o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'lgan?

A) 1992 yilda Norvegiyaning Lillixammer shahrida o'tkazilgan XVII qishki Olimpiya o'yinlari

**V) 1994 yilda Norvegiyaning Lillixammer shahrida o'tkazilgan XVII qishki Olimpiya o'yinlari**

S) 1994 yilda Angliyaning London shahrida o'tkazilgan XVI qishki Olimpiya o'yinlari

D) To'g'ri javob yo'q.

1. Qaysi dastur Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga tegishli?

A) «**Olimpiya birdamligi**»

V) "Ana'analar davomiyligi"

S) "San'at assambleyasi"

D) Hammasi

2. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining qanday doimiy komissiyalari mavjud?

A) Atletlar komissiyasi; Ayollar vasport komissiyasi;

**V) Atletlar komissiyasi; Ayollar va sport komissiyasi; Sport va atrof-muhit komissiyasi**

S) Ayollar va sport komissiyasi; Sport va atrof-muhit komissiyasi; Futbol komissiyasi

D) Hammasi

3. O'zbekiston Respublikasi MOQ tarkibida nechta a'zo bor?

A) 150 kishi va 10 ta faxryi a'zo bor

V) 50 kishi va 1 ta faxryi a'zo bor

**S) 127 kishi va 11 ta faxriy a'zo bor**

D) 10 kishi va 2 faxriy a'zo bor

4. Prezident tomonidan yoki MOQ a'zolarining yozma iltimosiga ko'ra chaqirilishi mumkin bo'lgan assambleya nomini belgilang.

**A) Favqulodda assambleya**

V) Navbatdan tashqari kongress

S) Hisobot assambleyasi

D) Saylov assambleyasi

5. Assambleya orasidagi davr ichida davlatimizda Olimpiya harakatiga rahbarlik qilish MOQning qaysi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi?

A) Bosh assambleya

V) Favqulodda assambleya

S) Devon apparati

**D) Ijroiya qo'mita**

1. Hamyurtimiz Oksana Chusovitina qaysi Olimpiya o'yinlarida chempionlik sharafiga muyassar bo'lgan edi?

**A) 1992 yil Barselonada o'tkazilgan XXV Olimpiada o'yinlarida**

V) 1988 yilda Londonda o'tkazilgan XXV Olimpiada o'yinlarida

S) 1996 yilda Parijda o'tkazilgan XXX Olimpiada o'yinlarida

D) 1994 yilda Yaponiyada o'tkazilgan XXVI Olimpiada o'yinlarida roiya qo'mita

2. Yurimizda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi qachon tashkil qilingan?

A) 2001 yilda

**V) 2002 yilda**

S) 2003 yilda

D) 2004 yilda

3. Bugun mamlakatimizda 2,6 milliondan ortiq bola sportning necha turi bilan muntazam shug‘ullanmoqda?

A) 60 dan ziyod turi bilan

V) 50 dan ziyod turi bilan

S) 40 dan ziyod turi bilan

**D) 30 dan ziyod turi bilan**

4. 2016-2020 yillar davomida har bir viloyat markazida va Toshkent shahrida nechta yangi ixtisoslashtirilgan oliy mahorat sport maktabi tashkil etish rejalashtirilgan?

**A) 14 ta**

V) 15 ta

S) 16 ta

D) 17 ta

5. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan 8,5 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlarning necha foizi **sportni rivojlantirish** sohasida faoliyat yuritmoqda?

A) 20 foizi

**V) 12,9 foizi**

S) 30 foizi

D) 40 foizi

1. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yashash muhiti, tabiat va ma’naviyat ekologiyasi bir-biridan ajralmasdir. Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrlashganda, avvalo, chin yurakdan mustahkam salomatlik tilashgan. Sihat-salomat bo‘lishning an’anaviy qadrini qayta tiklash va oila qadri bilan sharaflil bir o‘ringa qo‘yish kerak», - deya aytilgan fikri uning qaysi asaridan olingan?

**A) «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li»**

V) “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”

S) “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”

D) “Barkamol avlod – kelajagimiz poydevori”

2. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti «Sog‘lom avlod uchun» farmonini qachon imzolagan?

A) 1993 yil 10 sentabr

**V) 1993 yil 4 mart**

S) 1995 yil 3 oktabr

D) 1997 yil 22 yanvar

3. 2000 yil yurtimizda qanday yil sifatida e’tirof etilgan?

A) «Ayollar yili»

V) “Amir Temur yili”

S) “Yoshlar yili”

**D) «Sog‘lom avlod yili»**

4. 2014 yili Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o‘tkazilgan XVII yozgi Osiyo o‘yinlari arafasida Osiyo olimpiya kengashining 33-Assambleyasida –

A) Osiyo o‘yinlari O‘zbekistonda o‘tkazilishi ma’lum bo‘ldi

V) Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tomonidan sportchilarimiz oltin medal bilan

taqdirlandi

**S) O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining raisi Mirabror Usmanovga Osiyo olimpiya kengashining eng yuksak mukofoti tantanali suratda topshirildi**

D) Hamma javoblar noto‘g‘ri

5. Qaysi javobda umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘tkaziladigan an‘anaviy musobaqalar nomi ko‘rsatilgan?

A) “Umid nihollari”

V) “Barkamol avlod”

S) “Kichik olimpiya”

D) A va V

1. XXX yozgi Olimpiada qayerda o‘tkazildi va unda necha davlat sportchilari qatnashdi?

**A) Londonda, 205 davlat**

V) Londonda, 120 davlat

S) Parijda, 203 davlat

D) Italiyada, 130 davlat

2. XXX yozgi Olimpiadada eng ko‘p medallar jamg‘argan davlatni belgilang.

A) Italiya

V) Fransiya

**S) AQSH**

D) Shvesiya

3. XXX yozgi Olimpiada yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston qayd etgan natijalarni belgilang.

A) 2 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza

**V) 1 ta oltin, 3 ta bronza**

S) 3 ta kumush, 4 ta bronza

D) A va S

4. XXX yozgi Olimpiada o‘yinlarida mamlakatimiz terma jamoasining bayroqdori kim edi?

A) Artur Taymazov

V) Abbos Atoyev

**S) Elshod Rasulov**

D) Hammasi

5. London Olimpiadasida yurtimiz olimpiyachilari sportning necha turi bo‘yicha ishtirok etdilar?

**A) 15 tur bo‘yicha**

V) 12 tur bo‘yicha

S) 20 tur bo‘yicha

D) 21 tur bo‘yicha

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., «O‘zbekiston» 1992 y.
2. I.A.Karimov «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» T.,«O‘zbekiston» 1992 y.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, 29 avgust 1997 y.
4. I.A.Karimov «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» T., «SHarq» 1997 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida»gi farmoni. 2002 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuni.T., «O‘zbekiston», 1992 y.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuni (yangi taxriri) Xalq so‘zi 2000 yil 21 iyun.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Turkiston” ro‘znomasi 2 avgust 1997y.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Sog‘lom avlod uchun” farmoni 1993 yil, 4 mart.
10. K.M. Mahkamdjonov, Salomov R.Rasulov T. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fani bo‘yicha ma’ruzalar. TDPU, I- qism –Toshkent, 2003 y.
11. Axmatov M.S. «Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport soglomlashtirish ishlarini samarali boshkarish» Toshkent 2005 y.
12. I. Afanasev “Jismoniy tarbiya”. T, 1992 y.
13. L.P. Matveyev «Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya» M. 1991 (darslik).
14. B.N. Minayev, B.M Shiyan «Osnovi metodiki fizicheskogo vospitaniya shkolnikov» M. 1989 g.

15. "Olimpiada – jahon sporti bayrami". "SHarq". T.: 2008 y. 219 b. B.: 29-30.
16. "Jismoniy madaniyat tarixi va uni boshqarish" (ma'ruzalar matni). BuxDU. 2015. Tuzuvchi: A.E.Sattorov. 48 b. B.: 2-4
17. «Gimnastika va uni o'qitish metodikasi» fanidan ma'ruzalar matni. TerDU. 2015 y. X.Berdiyeva. 86 b. B.: 6-9.
18. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining "olympic.uz" veb-sayti.
19. «Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish» fanidan bakalavriat "5112000-jismoniy madaniyat" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ma'ruza matni. TerDU. 132 b. B.:51-53.
20. Book reviews. G'uture of the olympic games by John A. Lucas(champaign, il: human kinetics books, 1992). Reviewed byJay Coakley, University of Colorado at Colorado Springs, USA.112 Olympika Volume II -- I993.
21. Osgoode Hall Law Journal. Volume 48, Number 2 (Summer 2010)Article 8. Book Notes: Law of the Olympic Games, byalexandre Miguel Mestre.
22. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi veb-sayti.
23. O'zbekiston Milliy matbuot markazining "presscenter.uz" veb-sayti.
24. «lex.uz» veb-sayti.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat, T., «O‘zbekiston» 1992 y.
2. Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». Toshkent «Ma’naviyat». 2008 yil. 173 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T., «O‘zbekiston» 1992 y.
4. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi”. Respublika qonuni, «Xalq so‘zi» gazetasi, 05 sentabr 2015 yil, yangi tahrir ostida.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning FARMONI “Sog‘lom avlod uchun” 1993 yil 4 mart.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Turkiston” ro‘znomasi 2 avgust 1997y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. (O‘zAning internetdagi “uza.uz”veb-sayti).
8. Allen Guttmann. “The Olympics: A History of the Modern Games (2d ed.)”. January 2002. 248 pages.
9. Book reviews. G‘uture of the olympic games by John A. Lucas(champaign, il: human kinetics books, 1992). Reviewed byJay Coakley, University of Colorado at Colorado Springs, USA.112 *Olympika Volume II -- 1993*
10. «Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi» fanidan ma’ruzalar matni. TerDU. 2015 y. X.Berdiyeva. 86 b. B.: 6-9.
11. HOMO NECANS. The Anthropology of Ancient Greek Sacrificial Ritual and Myth. By Walter Burkert. Translated by Peter Bing. University of California Press. Berkeley Los Angeles London. 1983 by Nhe Regents of the University of California. Page-84.
12. Ilina L.Y. Fizkulturniye zanyatiya v starshix gruppax detskogo sada. M. 1992.

13. “Jismoniy madaniyat tarixi va uni boshqarish” (ma’ruzalar matni). BuxDU. 2015. Tuzuvchi: A.E.Sattorov. 48 b. B.: 2-4

14. «Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish» fanidan bakalavriat “5112000-jismoniy madaniyat” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun ma’ruza matni. TerDU. 132 b. B.:51-53.

15. Matveyev L.P. Darslik “Teoriya i yetodika fizicheskoy kulturi”, M. 1991.

16. Olimpiada – jahon sporti bayrami”. “SHarq”. T.: 2008 y. 219 b. B.:46.

17. Osgoode Hall Law Journal. Volume 48, Number 2 (Summer 2010) Article 8. Book Notes: Law of the Olympic Games, by alexandre Miguel Mestre.

18. The International Journal of the History of Sport, 2016. Stephen Pettigrew & Danel Reiche. Hosting the Olympic Games: an Overstated Advantage in Sports History.

19. COUNCIL DATE 10/10/06 AGENDA ITEM 4E. CITY OF OLYMPIA. Olympia, Washington. CITY COUNCIL MEETING. October 10, 2006.

#### **Elektron manbalar:**

1. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining “olympic.uz” veb-sayti
2. O‘zbekiston Milliy matbuot markazining “presscenter.uz” veb-sayti
3. Internet tarmog‘idagi «lex.uz» veb-sayti
4. “[www.boxingnewsonline.net](http://www.boxingnewsonline.net)” xalqaro veb-sayti

## **Mundarija:**

### **I Bob. Qadimgi olimpiya o'yinlari**

- 1.1. Olimpiya o'yinlarining vujudga kelishi
- 1.2. Timey sanasi. Ekexeyriya va klokagatiya tamoyillari
- 1.3. Qadimgi Olimpiyaning sport anjomlari va musobaqa turlari
- 1.4. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining inqirozi va tanazzuli
- 1.5. Qadimgi SHarq, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda jismoniy tarbiya va sport rivojining tarixiy sharoitlari hamda xususiyatlari

### **II Bob. Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi**

- 2.1. Olimpiya harakati qayta tiklanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari
- 2.2. Antik olimpiya an'analari o'yinni qayta tiklashning asosi sifatida
- 2.3. Olimpiya o'yinlarining paydo bo'lishi haqidagi afsonalar

### **III Bob. XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishi**

- 3.1. XIX asrning oxirlariga xos bo'lgan integrasion g'oyalarning ahamiyati
- 3.2. Gimnastika maktablarining yaratilishi va rivojlanishi

### **IV Bob. Per de Kuberten va olimpiya g'oyasi**

- 4.1. Per de Kuberten hayoti va faoliyati
- 4.2. Per de Kuberten – zamonaviy olimpiya harakatining asoschisi
- 4.3. “Feyr-pley” – halol o'yin qoidalariga asoslangan bellashuv

### **V Bob. Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelishi va dastlabki rivojlanishi**

5.1. Tarixiy vaziyat va uning Xalqaro sport va Olimpiya harakatining rivojlanishiga ta'siri.

5.2. Parijda olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining ta'sis etilishi

### **VI Bob. Zamonaviy Olimpiada o'yinlarining asosiy tamoyillari, qoidalari va nizomlari**

- 6.1. I Olimpiya o'yinlari
- 6.2. Olimpiya o'yinlarining asosiy tamoyillari, qoidalari va nizomlari, ramzlari

### **VII Bob. XOQning maqsadi, asosiy vazifalari, tashkiliy tuzilmasi**

- 7.1. XOQning maqsadi va vazifalari
- 7.2. XOQning tashkiliy tuzilmasi
- 7.3. XOQ Prezidentlari

### **VIII Bob. Olimpiya Xartiyasi**

- 8.1. Olimpiya xartiyasidagi ezgu timsollar
- 8.2. Olimpiya xartiyasining yangi tahrirdagi qoidalari

### **IX Bob. Xalqaro sport birlashmalari**

- 9.1. Xalqaro sport tashkilotlari
- 9.2. O'zbekiston Respublikasida sport turlari bo'yicha Federasiyalar va Assosiasiyalar

### **X. 1896-1936 yillarda o'tkazilgan olimpiya o'yinlarining xususiyatlari**

- 10.1. Afina, Parij, Sent-Luis, Stokgolmda olimpiada o'yinlarining o'tkazilish xususiyatlari

10.2. Aholining harbiy tayyorgarligida jismoniy tarbiya va sport vositasidan foydalanish

10.3. 1936 yilgi Berlin olimpiadasidagi militarizm va fashizmga qarshi sport tashkilotlarining kurashi

### **XI Bob. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda sport harakati**

11.1. Urushdan keyingi davrdagi tarixiy shart-sharoitlarning xalqaro sport harakatiga ta'siri

11.2. Milliy Olimpiya qo'mitalari (MOQ)

11.3. Urushdan keyingi davrda Sobiq Ittifoq jismoniy tarbiya tashkilotlarining xalqaro sport harakatlaridagi ishtiroki

### **XII Bob. Xalqaro sport federasiyalarining Bosh Assambleyasi**

12.1. Milliy Olimpiya qo'mitalari Bosh assambleyasi (MOQBa)

12.2. Milliy Olimpiya qo'mitalarining o'zaro ta'siri va hamkorlik aloqalari

### **XIII Bob. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi**

13.1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining tashkil topishi, maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi

13.2. O'zbekiston MOQning Prezidentlari. Obid Nazirovich Nazirov – O'zbekiston MOQning birinchi prezidenti

### **XIV Bob. O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi**

14.1. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va jismoniy tarbiya hamda sportning yangi bosqichi

14.2. Bolalar sportining rivojlanishi, yangi sport obyektlarining barpo etilishi

14.3. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qonun, qaror va farmonlarning qabul qilinishi

### **XV Bob. O'zbekistonda olimpiya harakatining yangi bosqichi**

15.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizda olimpiya harakatini rivojlantirish to'g'risidagi farmon hamda qarorlari

15.2. Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston mustaqil terma jamoasining ishtiroki

### **XVI Bob. XXX yozgi olimpiada o'yinlari**

16.1 Londonda bo'lib o'tgan XXX yozgi olimpiada o'yinlari

16.2. Mazkur olimpiadada O'zbekiston terma jamoasining ishtiroki hamda erishilgan natijalar

### **XVII Bob. Olimpiya madaniyati qadriyatlari**

17.1. Lozannada birinchi Olimpiya muzeyining ochilishi.

17.2. O'zbekiston Olimpiya shon-shuhrat muzeyining tashkil etilishi

### **XVIII Bob. 1991 yildan hozirgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda sport harakati**

18.1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Xalqaro sport hamda olimpiya harakatining rivojlanishi

18.2. O'zbekiston Milliy terma jamoalarining Osiyo va Yevropa o'yinlaridagi ishtiroki

## **XIX Bob. O‘zbekiston sportchilarining dunyo maydonlaridagi muvaffaqiyatlari**

19.1. Mamlakatimiz sportchilarining xalqaro sportda erishayotgan yuksak natijalari

19.2. Nomlari jahon sporti tarixiga kirgan O‘zbekiston sportchilari

### **Content:**

#### **I - Chepter Ancient Olympic games**

1.1. The Origin of Olympic games Olimpiya o‘yinlarining vujudga kelishi

1.2. Date of Timey Principles of Ekyria and kloka gatia

1.3. Sport eguipmehtx Priciplesi tupod competitions of aneiant Olipia

1.4. Decadence x recession of ancient Olympic games

1.5. Features and historical conditions of phusical trainjhd in ancient gieek and ancient rome

#### **II-chapter Restoration of olimpic games**

2.1. Resturation of olimpic movement in social and historical conditions

2.2. Antik olimpiya an’analari o‘yinni qayta tiklashning asosi sifatida

2.3. Myths of development afout Olympic games

#### **III-cheptel Realizuky the concept of restoration in the end of XIX cetuty**

3.1. Importance of integrational ideas at the end of XIX century

3.2. Organisiny gum schools

#### **IV-chapter pe der curbeat and olimpic ideas**

4.1. Biography of pe der Curbeat

4.2. Pe Der Curbert – Founder of Olympic movements

4.3. “Fair-play” – competence which is based on Fair rules

#### **V-Chaptec. Developrent and formation of Internetional sport and Olypic movements**

5.1. The influchce on development of historical sifualional and International sport oid Olympic movements.

5.2. The reacfing Olympic games in Paris and adopting international Olympic comettee

#### **VI- Chapter Prinetples, ruees and lavs of modern olympic games**

6.1. I Olympic games

6.2. The moun princples ruees caws and the main purpose and duties and constreuction oj IOC

#### **VII- Chapter constreuction oj IOC**

7.1. The aim and purpoies

7.2. The organizing consfrustion

7.3. The presidents of IOC

#### **VIIIBob. Olimpiya Xartiyasi**

8.1. Olimpiya xartiyasidagi ezgu timsollar

8.2. Olimpiya xartiyasining yangi tahrirdagi qoidalari

#### **IX Bob. Xalqaro sport birlashmalari**

9.1. Xalqaro sport tashkilotlari

9.2. O'zbekiston Respublikasida sport turlari bo'yicha Federasiyalar va Assosiasiyalar

### **X. 1896-1936 yillarda o'tkazilgan olimpiya o'yinlarining xususiyatlari**

10.1. Afina, Parij, Sent-Luis, Stokgolmda olimpiada o'yinlarining o'tkazilish xususiyatlari

10.2. Aholining harbiy tayyorgarligida jismoniy tarbiya va sport vositasidan foydalanish

10.3. 1936 yilgi Berlin olimpiadasidagi militarizm va fashizmga qarshi sport tashkilotlarining kurashi

### **XI Bob. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda sport harakati**

11.1. Urushdan keyingi davrdagi tarixiy shart-sharoitlarning xalqaro sport harakatiga ta'siri

11.2. Milliy Olimpiya qo'mitalari (MOQ)

11.3. Urushdan keyingi davrda Sobiq Ittifoq jismoniy tarbiya tashkilotlarining xalqaro sport harakatlaridagi ishtiroki

### **XII Bob. Xalqaro sport federasiyalarining Bosh Assambleyasi**

12.1. Milliy Olimpiya qo'mitalari Bosh assambleyasi (MOQBa)

12.2. Milliy Olimpiya qo'mitalarining o'zaro ta'siri va hamkorlik aloqalari

### **XIII Bob. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi**

13.1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining tashkil topishi, maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi

13.2. O'zbekiston MOQning Prezidentlari. Obid Nazirovich Nazirov – O'zbekiston MOQning birinchi prezidenti

### **XIV Bob. O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi**

14.1. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va jismoniy tarbiya hamda sportning yangi bosqichi

14.2. Bolalar sportining rivojlanishi, yangi sport obyektlarining barpo etilishi

14.3. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qonun, qaror va farmonlarning qabul qilinishi

### **XV New steps movement of olympis in Uzbekiston and**

15.1. The Present of Republic of Uzbekiston and the dearees and vesolutions of the pvesident of the Respublic of Uzbekistan and the chamber of ministers about the developing of the olimpic movement in our country

15.2. The participation of Uzbek team in Olypic games

### **XVI Summer Olympic games**

16.1 XXX Summer Olympic games in London

16.2. Paticipation of Uzbek team and Results in thes Olypic games

### **XVII The culture and traditions of Olympic games**

17. 1. Opening Ceremony Olypic museum in dozanna.

17.2. Reforming of Uzbekistan Olympic museum of hanor

### **XVIII The role of Olympic games in Uzbekiston untill 1991**

18.1. The way of developind Olympic games in Uzbekistan during the lnderendince

18.2. The participation of Uzbek national team in Asian and Eurorion games

**XIX Achievements of Uzbek sportsmens over the world**

19.1. High Resultfs of Sportmens of our Lounfry therough Word sports

19.2. Uzbek sportsmens uhose nameswere stated in history of world sport